Касимов Б. М. PhD, доцент, Андижанский государственный технический институт, г. Андижан

Ключевые слова: поверхностный слой, наклеп, остаточные напряжения, циклическая долговечность, механизмы ткацких станков, поверхностное пластическое деформирование (ППД), сопротивление усталости, износостойкость, шероховатость.

Аннотация: В данной работе рассматривается влияние упрочнения (наклепа) и остаточных напряжений на повышение эксплуатационных характеристик деталей текстильных машин, работающих в условиях циклических нагрузок. Анализируется механизм зарождения усталостных трещин в поверхностном слое и роль поверхностного пластического деформирования (ППД) в замедлении этих процессов.

Результаты многих исследований убедительно показывают, что разрушение материала детали в подавляющем большинстве случаев начинается в поверхностном слое или непосредственно на поверхности. Усталостному выкрашиванию предшествует образование микротрещин на поверхности или в поверхностном слое на глубине залегания наибольших касательных напряжений. При работе валов и других деталей, испытывающих циклические нагрузки, зарождение усталостных трещин происходит на поверхности либо на некотором расстоянии от нее. Эти трещины в дальнейшем прогрессируют и вызывают усталостный излом. Механизму усталостного разрушения металлов посвящены работы С. В. Серенсена, В. М. Горицкого, С. Коцаньды, В. С. Ивановой и других ученых.

При создании определенных физико-механических свойств поверхностного слоя и микропрофиля обработанной поверхности затрудняется зарождение развитие усталостных трещин, повышается сопротивляемость износу, возрастает коррозионная стойкость, улучшаются другие эксплуатационные показатели. При иных свойствах поверхностного слоя эксплуатационные показатели ухудшаются. Большую роль в этом играют остаточные (внутренние) напряжения, упрочнение (наклеп) и субструктура поверхностного слоя, а также шероховатость поверхности [1].

Упрочнение (наклеп) поверхностного слоя, характеризуемое возрастанием микротвердости (твердости), затрудняет образование и развитие усталостных трещин, что повышает предел выносливости деталей машин. Эффективность наклепа в этом случае зависит от условий работы детали, ее конструктивных особенностей (наличие концентраторов в виде канавок, галтелей и др.) и свойств материала. В деталях из менее пластичных сталей роль наклепа уменьшается. В этом же направлении действуют и конструктивные концентраторы напряжений [2].

Теоретически и экспериментально весьма трудно разграничить роль в упрочнении деталей непосредственно упрочнения поверхностного слоя и благоприятного влияния сжимающих остаточных напряжений, которые возникают в этом слое в результате дробеструйного наклепа. В зависимости от внешних условий, природы материала, его термической обработки, а также формы и характера нагружения деталей тот или другой фактор приобретает решающее значение в упрочнении детали [36].

В исследованиях И.В. Кудрявцева [3] сопротивление усталости для некоторых деталей может быть увеличено в 2-3 раза за счет повышения твердости при упрочнении ППД. Интересно, при повышении микротвердости поверхностного слоя в результате упрочнения пластическим деформированием, сопротивление усталости деталей повышается и составляет (65-75) %, а при создании остаточных сжимающих макронапряжений - (25-35) %. Это можно объяснить тем, что при упрочнении металла ИИД до определенных пределов амплитуда циклической пластической деформации уменьшается и предотвращает возникновение субмикроскопических нарушений сплошности, которые порождают развитие усталостных трещин. Создание наклепанного упрочненного поверхностного слоя препятствует росту существующих и вновь возникающих усталостных трещин, таким образом, уменьшает вредное влияние наружных дефектов и шероховатости поверхности.

Образование усталостных трещин происходит под упрочненным слоем, и их дальнейшее увеличение происходит при более высоких напряжениях и большем числе циклов нагружения, чем в условиях отсутствия наклепа.

Твердость является одной из основных характеристик состояния поверхности, отображающей ее способность сопротивляться изнашиванию при трении скольжения, контактному, усталостному изнашиванию.

Следует иметь в виду, что упрочнение повышает износостойкость в тех

случаях, когда отсутствует явление перенаклепа. В случае перенаклепа, когда уже начались необратимые процессы микроскопических нарушений сплошности металла и разрывы межатомных связей по плоскостям скольжения, даже при еще продолжающемся упрочнении и повышении твердости, износостойкость начинает снижаться. Шероховатость поверхности при перенаклепе увеличивается. При отжиге наклеп металла можно полностью или частично снять. При перенаклепе исходная структура металла и его механические свойства не восстанавливаются даже при нагреве [4].

Упрочнение (наклеп) поверхностного слоя существенно влияет на контактные деформации за счет снижения пластической составляющей этих деформации. Чем ниже прирост твердости, т.е., чем выше степень упрочнения, тем больше снижаются деформации [5].

Остаточные сжимающие напряжения в поверхностном слое повышают предел выносливости, а растягивающие напряжения, наоборот, понижают предел выносливости. Это подтверждается исследованиями ряда ученых, в том числе В. М. Смелянским, Д. Д. Лаптевым, И. А. Биргером, И. В. Кудрявцевым, Л. Г. Одинцовым, А. М. Сулимой, М. И. Евстигнеевым, С. В. Серенсеном [6]. В работе [7] рассматривается связь остаточных напряжений с сопротивлением усталости после обкатки. Прямая зависимость прироста предела выносливости от максимальных сжимающих напряжений наблюдается при определенной структуре у всех сталей. Эта зависимость нарушается при переходе от одного структурного состояния к другому. Влияние структуры на прирост предела выносливости Эст./ различно у стали с низким и средним содержанием углерода. Так, у низкоуглеродистой стали 18Х2Н4ВА можно проследить прямую связь между остаточными напряжениями и пределом выносливости Ас.] (независимо от структуры). У стали со средним содержанием углерода влияние структуры столь значительно, что оно в определенной мере подавляет влияние остаточных напряжений.

Несоответствие между остаточными напряжениями и повышением сопротивления усталости после 1111Д выявляется также для однотипных структур разных сталей. При мартенситной структуре остаточные напряжения у стали 45ХН2МФА значительно больше, чем у стали 18Х2Н4ВА (при оптимальной для каждой стали нагрузке обкатывания), а прирост сопротивления усталости существеннее у стали 18Х2Н4ВА. Особенно резко выражен контраст между ростом остаточных напряжений и сопротивлением усталости у стали 65С2ВА в мартенситном состоянии: после обкатывания достигаются высокие значения остаточных напряжений при самом малом приросте сопротивления усталости по сравнению с другими материалами (До.| = 1,5 %).

Сжимающие остаточные напряжения образуются при деформационном упрочнении за счет увеличения удельного объема поверхностного наклепанного слоя, который стремится увеличить размеры по отношению к упругодёформированной сердцевине, которая оказывает силовое воздействие на упрочненный материал [8].

В работе Г.М. Рыбакова [9] приведены результаты исследования механизма появления снижения напряжений около поверхности, упрочненной дробеструйной обработкой. Автор установил, что максимальные подслойные остаточные сжимающие напряжения являются следствием от возникновения пластического течения материала при условии сжатия на поверхности, обработанной ППД.

Детали, которые подвергают различным видам ППД, например, дробеструйной обработке, для упрочнения, не должны иметь значительных изменений размеров либо недопустимых деформаций. После обработки в поверхностном слое возникают максимальные остаточные напряжения. В современной литературе отсутствует описание этого явления как функции от глубины проникновения пластической деформации.

При ППД поверхностный слой стремится выгнуться навстречу потоку дроби. Но, учитывая свойства материала, под действием межатомных связей этого не происходит, которые создают усилия, "втягивания" поверхностного слоя, т.е возвращение его в исходное состояние. Наиболее применяемым методом определения остаточных напряжений является метод Давиденкова, механизм которого состоит из этапов: «изгиб» образца в сторону обработанной поверхности при воздействии дробеструйной обработки и одновременное «выпрямление» под действием межатомных связей; затем опять "изгиб" при вырезке и дальнейшее «выпрямление» при снятии деформированного слоя.

Сила P/ представляет собой реакцию упруго-сжатого пластически деформированного слоя, противодействующую его сжатию (рисунок 1.)




Рисунок 1- Распределение напряжений по сечению пластины с прямоугольным сечением после ППД в условиях равновесия упругодеформированных и пластически деформированных слоев.

Упруго деформированный слой воздействует с силой P_2 на пластически деформированный и вызывает его упругое сжатие. Модули сил *P]* и P_2 в состоянии равновесия равны, а координаты точек приложения сил *P/* и P_2 неодинаковые по отношению к нейтральным и средним линиям упругопластических деформированных слоев [10].

Литературы:

1. Kasimov, B. (2023). Improvement of the environmental safety of weaving equipment by reducing the wear of contact surfaces. E3S Web of Conferences, 390. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339001025.

2. Серенсен С. В., Когаев В. П., Шнейдерович Р. М. Несущая способность и расчеты деталей машин на прочность. – М.: Машиностроение, 1975. – 488 с.

3. Кудрявцев И. В. Поверхностный наклеп для повышения прочности и долговечности деталей машин. – М.: Машиностроение, 1969. – 425 с.

4. Коцаньда С. Усталостное разрушение металлов / Пер. с пол. – М.: Металлургия, 1976. – 456 с.

5. Сулима А. М., Евстигнеев М. И. Качество поверхностного слоя и усталостная прочность деталей из жаропрочных и титановых сплавов. – М.: Машиностроение, 1974. – 256 с.

6. Биргер И. А. Остаточные напряжения. – М.: Машгиз, 1963. – 232 с.

7. Одинцов Л. Г. Упрочнение деталей поверхностным пластическим деформированием: Справочник. – М.: Машиностроение, 1987. – 432 с.

8. Смелянский В. М. Механика упрочнения деталей поверхностным пластическим деформированием. – М.: Машиностроение, 2002. – 300 с.

9. Иванова В. С., Терентьев В. Ф. Природа усталости металлов. – М.: Металлургия, 1975. – 456 с.

10. Рыбаков Г. М. Влияние остаточных напряжений на сопротивление усталости деталей после ППД // Вестник машиностроения. – 1980. – №5. – С. 12-15.

ИЗУЧЕНИЕ ПЕРСПЕКТИВ ГРАФИТА ТАСКАЗГАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ

Садуллаев Б. С. младший научный сотрудник, ГУ «ИМР»
Гуломов И.И. младший научный сотрудник ГУ «Институт минеральных ресурсов», Усмонов А.С. стажер технолог, ГУ «ИМР»

В Узбекистане известно значительное число проявлений графита, однако промышленное значение имеет только одно из них – Тасаказган. Месторождение Тасказган находится в северо-западной части хр. Кульджуктау (Бухарская область). Открыто оно в 1928 г., разведана северо-западная часть месторождения и обнаружены новые рудопроявления графита Акташ, Кужумды, Шайдараз и Таушан. Месторождение приурочено к юго-западному крылу Бельтауской антиклинали, осложненному мульдообразным прогибом и прорванным одноименным габброидным массивом. Последний представляет собой асимметричное лополитообразное тело с признаками дифференциации площадью около 12 км^2. Максимальная мощность его в центре не превышает 800–1000 м. Контакты габброидов с карбонатными породами сложные и крутые. Внутренние части массива содержат множество ксенолитов и сиалитов известняков. [1].



Рис. 1 Геологическое строение месторождения Тасказган.

Основные графитовые рудные тела, представляющие промышленную ценность, развиты в юго-восточной части площади месторождения Тасказган, в меньшей степени - в северо-западной части.

Форма графитовых рудных тел жило- и линзообразная (четкообразная), залегание субсогласное с вмещающими породами. Нередко графитовые рудные тела разделяются на сближенные субпараллельные друг другу ветви, разобщенные графитизированными, практически безрудными породами.

Объемная масса графитовых руд 1,79 (в приповерхностной зоне) - 2,18 т/м3 (на глубине), средняя - 1,94 т/м3 (принята при подсчете запасов в 1951г.), соответственно изменяется и коэффициент разрыхления от 1,3 до 1,6, средний 1,48 (по данным Тасказганского рудника 1,5). Средняя влажность графитовых руд 5,25 %.

В зависимости от содержания графитового углерода (СГУ) Тасказганские графитовые руды разделены на четыре условные категории, т.е. на:

– убогие (30,0 % от общего объема руды) – с содержанием графитного углерода 5,0–10,0%;

– бедные (40,0%) – с содержанием графитного углерода 10,0–20,0 %;

– средние (20,0 %) – с содержанием графитного углерода 20,0–30,0%;

– богатые (10,0%) – с содержанием графитного углерода более 30,0%.

В 2020–2022гг. сотрудниками ГУ ИМР в лабораторных условиях проведены технологические исследования одной пробы графитовой руды месторождения Тасказган:

– приступить к отбору пробы после заключения договоров с фабриками на флотационное обогащение руды и химическую доводку полученных концентратов;

– провести полупромышленные испытания графитовых концентратов в готовых изделиях в электроугольной промышленности при изготовлении гражданских и специальных электрощеток;

– изучить возможность использования графитовых концентратов в других отраслях промышленности после результатов испытаний в электроугольной промышленности [5].

Лабораторно-технологическими исследованиями установлено, что графитовые руды по технологическим свойствам подразделены на:

а) легко флотируемые простыми флотореагентами (керосин);

б) флотирующиеся только сложными флотореагентами, такими как олеиновая кислота и олеат натрия;

в) не флотирующиеся совсем.

Единственным фактором, затрудняющим отработку запасов является практическое отсутствие воды и недостаточность дебита скважины на участке Джангельды для водоснабжения Тасказганского рудника в условиях возможного его расширения до масштабов горного предприятия средней величины. В этом случае потребуется проведение гидрогеологических изысканий или организация водоснабжения от водовода р. Амударья – г.Зарафшан.

Литература:

1. Геология Уз ССР // Москва «Недра» 1983 г. Главный редактор Е.А. Козловский.

2. Минерально-сырьевые ресурсы Узбекистана (часть 2). Т., Фан, 1977, 553 с.101-104.

3. Статья Ахмедов Х., Носиров Н.И. «Изучение обогатимости проб руды месторождения Ташказган». Журнал «Кончилик иши». №4, 2015г. с.89-91.

ЭЛЕКТРОЁЙ ПЎЛАТ ЭРИТИШ ПЕЧЛАРИДА ПЕРИКЛАЗ-УГЛЕРОДЛИ МАТЕРИАЛЛАРИ БИЛАН ФУТЕРОВКАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ОЛИБ БОРИШ

Ш.Н. Саидходжаева, Н.Д. Тураходжаев, Ш.Б. Давулов, Н.Н. Зуфарова, Г.Л. Атажанов, магистр Д.М. Журабоев, М.А. Ражабова.
Тошкент давлат техника университети
С. Қиличев.
“Ўзбеккимёмаш” АЖ бош металлург

Замонавий металлургияда электро ёй пўлат эритиш печлари юқори термик ва кимёвий зўриқиш остида ишлайди. Электр ёй печлари пўлат ишлаб чиқаришнинг асосий агрегатига айланиб бормоқда. Печларнинг қувватини ошириш ва суюқлантириш вақтини қисқартириш мақсадида жараёнлар юқори ҳарорат 1650−1750^{0}C ва кучли электромагнит тебранишлар остида олиб борилмоқда.

Бундай экстремал шароитларда печнинг ички қисми футеровкаси тез емирилади. Периклаз-углеродли MgO-C материаллар ўзларининг юқори термик чидамлилиги ва шлакка бардошлилиги билан ажралиб турса-да, уларнинг асосий камчилиги – юқори ҳароратда углероднинг оксидланиши ва натижада материал тузилишининг бўшашиб қолишидир. Шу сабабли, маҳаллий хомашёлардан фойдаланган ҳолда, антиоксидантлар ва қўшимчалар ёрдамида футеровканинг чидамлилигини ошириш долзарб илмий-амалий вазифа ҳисобланади. Бугунги кунда энг самарали ечимлардан бири – периклаз-углеродли MgO-C материаллар

билан футеровкалаш технологиясидан иборат. Периклаз-углеродли материаллар икки асосий компонентдан иборат бўлади: Периклаз MgO-магний оксиди. Бу юқори суюқланиш ҳарорати 2800^0C ҳароратга чидамли ва асосли шлакларга нисбатан кимёвий инертликка эга материал. Графит С. – углерод. Иссиқлик ўтказувчанлигини оширади, термик кенгайиш коэффициентини пасайтиради ва энг муҳими – суюқ металл ҳамда шлакнинг материал ичига сўрилишига тўсқинлик қилади. Ёй печини футеровкалаш жараёни бир нечта муҳим илмий-техник босқичларни ўз ичига олади. Энг аввал печнинг металл корпуси тозаланади. Корпусга яқин қисмда иссиқликни сақловчи изоляция ва арматура қатламлари магнезит ғиштлари териб чиқилади. Бу қатлам печнинг скелети бўлиб, ишчи қатлам емирилганда металл корпус эриб кетишидан ҳимоя қилади. Ишчи қатламни MgO-C теришдан бошланади ва иссиқликга чидамлиги таъминаланади. “Ўзбеккимёмаш” АЖ корхонасида 6 тоннали печларда ишчи қатлам одатда “ҳалқасимон” ёки "зинапоя" усулида терилади.

1. Электро ёй печининг шлак чизиғи (шлаковый пояс): Бу зона энг кўп коррозияга учрагани сабабли, графит миқдори юқори 15–20% бўлган периклаз-углерод ғиштлари билан футеровкаланади.

2. Электро ёй печининг деворларига металл суюқлиги билан алоқада бўладиган қисмларда графит миқдори 10–12% бўлган ғиштлардан териб чиқилади.

3. Электро ёй печларининг чокларни зичлаш: ғиштлар орасидаги масофа минимал 1 мм дан кам бўлиши шарт. Чоклар учун махсус периклазли мертеллар ёки углеродли боғловчи пасталар ишлатилади.

Электр ёй печига термик ишлов бериш, яъни қиздириш жараёни олиб борилади. Янги футеровка ўрнатилгандан сўнг, печни бирдан юқори қувватда ишлатиш мумкин эмас. Углеродли боғловчилар (смола ёки пек) полимерланиши ва мустаҳкам "кокс тўри" ҳосил қилиши учун маълум график асосида қиздирилади.

Периклаз-углеродли футеровканинг емирилиши икки босқичда кечади:

1. Оксидланиш жараёни: Юқори ҳароратда графит оксидланиб, материал ғовакланиб қолади.

2. Футеровка материалнинг ташқи таъсирлар натижасида аста-секин ейилиши, парчаланиши ёки юзасидан модда ажралиб чиқиши (эрозия) жараёни: Ғовакланган MgO қатлами суюқ шлак томонидан ювиб кетилади.

Буни олдини олиш учун футеровка таркибига антиоксидантлар масалан, Al ёки Mg кукунлари қўшилади. Улар кислород билан биринчи бўлиб реакцияга киришиб, графитни ҳимоя қилади. “Ўзбеккимёмаш” АЖ корхонасидаги 6 тоннали ёй печида периклаз-углеродли футеровкани қўллаш печнинг хизмат қилиш муддатини 1.5–2 бараварга оширди. Тўғри танланган материал ва териш технологияси нафақат энергия сарфини камайтиради, балки олинадиган пўлатнинг тозалигини ҳам таъминлайди. MgO-C ғиштларини ишлаб чиқаришда боғловчи моддалар ғиштнинг механик мустаҳкамлигини таъминлаш, зичлигини ошириш ва ўрнатиш жараёнида шакл сақлаши учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Замонавий футеровка технологиясида асосан икки хил боғловчи қўлланилади. Фенол-

формальдегид смолалари: Бу энг кенг тарқалган тури. У ғиштни ишлаб чиқаришда аралаштирилади ва термик ишлов берилганда мустаҳкам полимер тармоқ ҳосил қилади. Қаттиқ печ. Анъанавий боғловчи бўлиб, юқори ҳароратда яхши “кокс кўприкчалари” ҳосил қилади. Бироқ, сўнгги йилларда унинг таркибидаги канцероген моддалар сабабли, экологик тозароқ бўлган синтетик смолаларга ўтилмоқда. Боғловчи модда ғиштнинг “ёшига қараб” турли вазифаларни бажаради. Хом ғишт босқичида ғиштнинг сочилиб кетмаслигини таъминлайди, Боғловчи модда полимеризацияланиб, ғишт ичида мустаҳкам ёпишқоқликни ҳосил қилади. Боғловчи модда пиролизга учраб, углеродли кокс кўприкчаларини ҳосил қилади. Айнан мана шу кокс кўприкчалари ғиштнинг MgO доналарини бир-бирига маҳкам боғлаб, энг юқори термомеханик чидамлиликни юзага келтиради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Кащеев И. Д. *Свойства и применение огнеупоров.* – М.: Теплотехник, 2004, – 352 с. (Огнеупор материалларнинг хусусиятлари бўйича асосий қўлланма).

2. Стрелов К. К., Кащеев И. Д., Мамыкин П. С. *Технология огнеупоров.* – М.: Металлургия, 1988, 528 с.

3. Аксельрод Л. М. *Развитие технологий огнеупорной футеровки и службы футеровок сталеплавильных агрегатов.* // Новые огнеупоры. – 2012. – № 3. – С. 104-118.

4. Бабаян С. А. *Фосфатные связки и их применение в производстве огнеупоров.* – Ереван: Айастан, 1988. (Фосфатли боғловчилар бўйича илмий асослар).

5. ГОСТ 24862-81. *Порошки магнезитовые каустические. Технические условия.* (MgO материаллари учун давлат стандартлари).

6. Uzbekistan Standard (UzSt): Металлургия соҳасидаги маҳаллий техник регламентлар ва меъёрий ҳужжатлар.

ЭЛЕКТР ЁЙ ПЕЧИ ФУТЕРОВКАСИНИ МОДИФИКАТОР БИЛАН ТЎЙИНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ФУТЕРОВКА ЮЗАСИДА ҲИМОЯ ҚАТЛАМИНИ ҲОСИЛ ҚИЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Ш.Н. Саидходжаева, Н.Д. Тураходжаев, Ш.Б. Давулов, Г.Л. Атажанов, магистрлар Д.М. Журабоев, М.А. Ражабова.
Тошкент давлат техника университети
С. Қиличев
“Ўзбеккимёмаш” АЖ бош металлург

Электр ёйли печлари футеровкасини гарнисаж қатлам ва магнезиал-шпинель бирикмалари асосида модификациялаш – бу футеровканинг хизмат муддатини кескин оширувчи юқори технологик ечим ҳисобланади. Бу технологиянинг концепцияси бўйича гарнисаж ҳимоя қатлами печнинг ичидаги суюқ шлакнинг футеровка юзасида қотиши натижасида ҳосил бўлади. Модификатор сифатида Al_2O_3, Al кукуни ёки шпинель ҳосил қилувчи қўшимчалар шлак таркибига

киритилганда, футеровка юзасида оддий қатлам эмас, балки магнезиал-шпинель $MgAl_2O_4$ структурали мустаҳкам тўсиқ ҳосил бўлади. Модификатор билан тўйинтириш босқичлари қуйидаги тарзда олиб борилади, бунинг учун шлак таркибини модификациялаш, яъни тўйинтириш металл қуйилгандан сўнг печда қолган суюқ шлакка таркибида алюминий оксиди бўлган модификаторлар киритилади. Натижада шлакнинг қовушқоқлиги ортади ва у футеровка юзасига ёпишишга мойил бўлади. Шлакни электр ёй печига пуркаш жараёни қуйидагича амалга оширилади. Бунда юқори босимли азот ёки аргон оқими ёрдамида модификацияланган шлак футеровка деворларига пуркалади, кейин шпинель заррачалари футеровканинг очиқ ғовакларига кириб, уларни ичидан тўлдиради. Паст ҳароратли ҳудудларда шлак қотади ва зич гарнисаж қатламини ҳосил қилади. Магнезиал-шпинель қатламининг шаклланиши қуйидагича усулда олиб борилади. Печнинг кейинги иш циклида иссиқлик таъсирида гарнисаж ва футеровка чегарасида диффузия жараёни содир бўлади. Шпинель юқори кимёвий барқарорликка ва паст иссиқлик ўтказувчанликка эга. Ҳимоя механизми асосида шпинель қатлами зарарли тиқилмаларнинг периклаз дончаларини эритиб юборишига йўл қўймайди. Электр ёйли печлари футеровкасининг хизмат муддатини ошириш учун гарнисаж ҳосил қилиш ва уни магнезиал-шпинель бирикмалари билан модификациялаш энг самарали технологик ечимлардан биридир. Қуйида ушбу технологиянинг босқичма-босқич тавсифи келтирилган. Технологиянинг илмий асоси қуйидагича амалга оширилади. Технологиянинг моҳияти – печ ичидаги қолдиқ шлак таркибини кимёвий жиҳатдан ўзгартириб, уни футеровка юзасида оддий қатлам эмас, балки юқори ҳароратга чидамли магнезиал-шпинель $MgAl_2O_4$ тузилишига айлантиришдан иборат. Бунда модификатор сифатида алюминий сақловчи материаллар Al_2O_3, Al кукуни ёки иккиламчи алюминий шлаклари ишлатилади. Технологик босқичларини олиб борилиши қолдиқ шлакни тайёрлаш ва модификациялаш орқали олиб борилади. Қуйидаги 1-жадвалда модификатор миқдори келтирилган.

1-жадвал

Параметр	**Тавсия этиладиган қиймат**	**Изоҳ**
Модификатор миқдори	Шлак массасига нисбатан 5–12%	Шпинель ҳосил бўлиши учун етарли миқдор
Шлак ҳарорати	1600–1650^0 C	Шлакнинг суюқ-оқувчанлигини таъминлаш учун
Пуркаш вақти	2–4 дақиқа	Гарнисаж қалинлиги 10–30 мм бўлиши учун
Газ босими	0.8–1.2 МПа	Шлак зарраларини юқори тезликда ҳайдаш учун

Металл қуйилгандан сўнг печда маълум миқдорда одатда 10–15% суюқ шлак қолдирилади. Ушбу шлакка махсус диспенсерлар ёки пуркагичлар ёрдамида модификатор киритилади. Жараённи бориши. Шлакдаги MgO ва киритилган Al_2O_3 ўзаро таъсирга киришиб, шпинель фракцияларини ҳосил қилади. Натижада шлакнинг ёпишқоқлиги ортади, бу эса унинг футеровка деворларида яхшироқ тутилишини таъминлайди. Шлакни пуркаш жараёни қуйидагича олиб борилади. Юқори босимли азот N_2 ёки аргон оқими ёрдамида модификацияланган иссиқ шлак футеровка деворларига пуркалади, унинг таъсирида шлак зарралари футеровканинг микроғовакларига кириб боради**.** Тўйинтириш жараёнида модификатор билан тўйинган шлак футеровка материалининг юза қатлами билан диффузияга киришиб, зич ҳимоя қаватини ҳосил қилади. Гарнисаж қатламининг кристалланиши жараёнини олиб бориш натижасида пуркашдан сўнг печнинг совиш зоналарида шлак қота бошлайди ва 10–30 мм қалинликдаги мустаҳкам гарнисаж ҳосил бўлади. Шпинель структураси туфайли бу қатлам кейинги эритиш циклидаги юқори ҳарорат $1650{-}1750^0C$ ва ноқулай кимёвий муҳитга чидамли бўлади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, магнезиал–шпинель асосида ҳосил қилинган гарнисаж қатлами футеровканинг термик барқарорлигини оширади, эрозия ва коррозия жараёнларини секинлаштиради ҳамда печнинг ишлаш даврини сезиларли даражада узайтиради. Бундан ташқари, футеровка юзасида ҳосил бўлган ҳимоя қатлами иссиқлик йўқотилишини камайтиради ва печнинг энергетик самарадорлигини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. G.L. Atajanov, N.D. Turaxodjayev, Quymakorlik jihozlari, O‘quv qo‘llanma, – T.: «Tosh DTU», 2024.

2. Ф.П. Еднерал Электрометаллургия стали и ферросплавов. – М.: Металлургия, 1977, 488 с.

3. Л.С. Кацевич Теория теплопередачи и тепловые расчеты электрических печей. – М.: Энергия, 1977, 304 с.

4. Расчет мощности и параметров электропечей черной металлургии. А.В. Егоров. – М.: Металлургия, 1990, 280 с.

45 МАРКАЛИ ПЎЛАТНИ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Г.Л. Атажанов. Тошкент давлат техника университети
А.М. Низамов. Тошкент давлат техника университети
М.С. Холов Д.И. Менделеев номидаги РКТУ Тошкент шаҳридаги филиали

Аннотация: *Мақолада 45 маркали углеродли конструкцион пўлатни ишлаб чиқариш технологияси, кимёвий таркиби, механик хусусиятлари ҳамда саноатда қўлланилиш йўналишлари баён этилган. Пўлатни эритиш, қуйиш ва кейинги ишлов бериш жараёнлари изчил таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *углеродли пўлат, 45 пўлат, металлургия, эритиш, термик ишлов, конструкцион материал.*

Кириш. Замонавий машинасозлик, қурилиш ва металлургия саноатининг жадал ривожланиши конструкцион материалларга бўлган талабни мунтазам равишда ошириб бормоқда. Техник қурилмалар ва механизмларнинг ишончлилиги, узоқ муддат чидамлилиги ҳамда иқтисодий самарадорлиги бевосита танланган пўлат маркасининг хоссаларига боғлиқ. Ушбу контекстда 45 маркали пўлат ўзининг универсал технологик хусусиятлари билан алоҳида ўрин тутади. Пўлат 45 – сифатли углеродли конструкцион пўлатлар гуруҳига мансуб бўлиб, у «ўртача углеродли» пўлатларнинг типик вакили ҳисобланади. Ушбу материалнинг кенг оммалашишига сабаб, ундаги мустаҳкамлик ва пластиклик хусусиятларининг идеал мутаносиблигидир. Бошқа легирланган (қимматбаҳо қўшимчали) пўлатлардан фарқли ўлароқ, Сталь 45 нисбатан арзон таннархга эга бўлишига қарамай, тўғри термик ишлов берилганда юқори эксплуатацион кўрсаткичларни намойиш этади. Мазкур пўлат туридан тайёрланган деталлар нафақат статик юкланишларга, балки ўзгарувчан динамик кучларга ҳам бардош бера олиши билан ажралиб туради. Саноатда ушбу марка «ишчи от» деб юритилади, чунки машинасозликдаги валлар, тишли ғилдираклар, ўқлар ва шпинделлар каби энг масъулиятли тугунлар айнан мана шу материалдан тайёрланади. Ушбу мақоланинг мақсади – 45 маркали пўлатнинг кимёвий таркибидаги мувозанатни ўрганиш, уни ишлаб чиқаришдаги замонавий технологик жараёнларни таҳлил қилиш ва термик ишлов бериш орқали унинг ички структурасини бошқариш имкониятларини кўрсатиб беришдан иборат. Шунингдек, материалнинг механик хоссаларини ўрганиш орқали унинг саноатдаги стратегик аҳамияти асослаб берилади.

1. КИМЁВИЙ ТАРКИБ ВА УНИНГ ХОССАЛАРГА ТАЪСИРИ

45 маркали пўлатнинг техник тавсифлари унинг кимёвий таркибидаги элементларнинг ўзаро мутаносиблиги билан белгиланади. Ушбу марка сифатли углеродли пўлатлар тоифасига киради, демак, ундаги зарарли аралашмалар (олтингугурт ва фосфор) миқдори қаттиқ назорат қилинади.

- **Углерод (C) – 0,42–0,50%:** Пўлатнинг асосий мустаҳкамловчи элементи. Углерод миқдорининг бу даражада бўлиши детални ҳам тоблаш, ҳам кесиш орқали ишлаш учун қулай қилади.
- **Марганец (Mn) – 0,50–0,80%:** Пўлатнинг қаттиқлигини оширади ва унинг ичидаги олтингугуртнинг зарарли таъсирини камайтиради (десульфурация).
- **Кремний (Si) – 0,17–0,37%:** Металлни суюқ ҳолатида газлардан тозалайди (дезоксидлайди), бу эса тайёр маҳсулотнинг зич ва бир хил структурали бўлишини таъминлайди.
- **Хром, никель, мис:** Бу элементларнинг ҳар бири 0,25% дан ошмайди ва пўлатнинг коррозияга чидамлилигини бироз оширади.

2. ПЎЛАТ 45 НИ ОЛИШ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Замонавий металлургияда 45 маркали пўлатни ишлаб чиқариш бир неча босқичли мураккаб технологик жараённи ўз ичига олади:

1. Эритиш жараёни: Асосан электр ёйли печларда ёки кислородли конвертерларда амалга оширилади. Бунда хомашё (чўян ва металлолом) юқори ҳароратда эритилиб, таркибидаги ортиқча углерод куйдирилади.

2. Печдан ташқари ишлов бериш (Ковш-печь): Суюқ металл ковшга олиниб, у ерда кимёвий таркиби аниқ меъёрга келтирилади ва газлардан (вакуумлаш орқали) тозаланади.

3. Узлуксиз қуюв ва прокат: Тозаланган суюқ металл махсус қурилмаларда заготовкалар (блум ёки сляб) шаклида қуйилади. Сўнгра иссиқ ҳолатда прокат станларида турли ўлчамдаги доира (круг), лист ёки бошқа профиллар кўринишига келтирилади.

3. ТЕРМИК ИШЛОВ БЕРИШ – СТРУКТУРАНИ БОШҚАРИШ КАЛИТИ

Пўлат 45 нинг энг муҳим хусусияти шундаки, унинг механик хоссаларини термик ишлов бериш орқали кенг диапазонга ўзгартириш мумкин:

- **Нормализация (840–870** ^{O}C) деталнинг ички структурасини бир хил қилади ва кейинги механик ишлов беришни осонлаштиради.
- **Тоблаш (Закалка):** сувда ёки мойда тез совутиш орқали юза қатламининг қаттиқлигини 50 HRC гача ошириш мумкин. Бу деталнинг ейилишга бардошлилигини таъминлайди.
- **Юқори ҳароратли бўшатиш (550650** ^{O}C**):** Бу жараён «яхшилаш» (улучшение) деб аталади. Натижада деталь ҳам мустаҳкам, ҳам зарбали юкланишларга чидамли бўлади.

4. ТЕХНИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ҚЎЛЛАНИЛИШ СОҲАЛАРИ

Пўлат 45 ўзининг юқори технологик хусусиятлари билан ажралиб туради:

- **Кесиб ишлов бериш:** Барча турдаги станокларда (токарь, фрезер) аъло даражада ишланади.
- **Пайвандланувчанлик:** Қийин пайвандланади. Сифатли чок олиш учун детални 200–300 ^{O}C гача қиздириш талаб этилади.

Асосий қўлланилиш соҳалари:

- **Оғир машинасозлик:** Турбина валлари, катта ўлчамли тишли ғилдираклар.
- **Автомобилсозлик:** Коленчатый валлар, шатунлар, ўқлар.
- **Қурилиш:** Юқори мустаҳкамликдаги анкер болтлари ва шпилкалар.

Хулоса. 45 маркали пўлат – замонавий техниканинг таянч материалларидан биридир. Унинг кимёвий таркибидаги оддийлик ва термик ишлов беришдаги мосланувчанлиги ишлаб чиқарувчиларга ҳам сифатли, ҳам иқтисодий жиҳатдан арзон маҳсулот олиш имконини беради. Янги технологиялар ривожланиши билан ушбу пўлат маркасини микролегирлаш орқали унинг хоссаларини янада такомиллаштириш истиқболли йўналишлардан бири бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Норхўжаев А.С. Метальшунослик ва термик ишлов бериш. – Тошкент: «Фан ва технология», 2014.
2. Қодиров Т.А. Металлар технологияси. – Тошкент: «Ўқитувчи», 2005.
3. *Гуляев А.П. Металловедение. – М.: Металлургия, 1986.*
4. *ГОСТ 1050-88. Прокат калиброванный из конструкционной качественной углеродистой стали.*
5. Норматив ҳужжатлар: ГОСТ 1050-2013. Металлопродукция из нелегированных конструкционных качественных и специальных сталей. Технические условия. – М.: Стандартинформ, 2014.ГОСТ 4543-2016. Металлопродукция из конструкционной легированной стали. Технические условия.

3D VA IT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA QO‘LLANILGAN ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA ILMIY YUTUQLAR

A.Y. Axunov, N.J. Turaxadjaev, Sh.A. Axmedova
Toshkent davlat texnika universiteti

So‘nggi yillarda 3D va axborot texnologiyalari (IT) birlashgan holda turli ilmiy va ishlab chiqarish sohalarida katta inqilob yaratmoqda. An’anaviy texnologiyalar bilan solishtirganda, 3D modellashtirish va IT asosidagi dizayn tizimlari mahsulotlar yaratish jarayonini tezlashtiradi, sifatni oshiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Shu sababli, zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar ko‘plab sohalarda aynan ushbu texnologiyalarni integratsiyalashga qaratilgan.

3D texnologiyalari, xususan tez prototiplashtirish (rapid prototyping), ilmiy va sanoat loyihalarida muhim vosita hisoblanadi. Tez prototiplashtirish yordamida dizaynerlar va muhandislar mahsulotni ishlab chiqarishdan oldin uning fizik modelini yaratib, uning shakli, funksionalligi va mustahkamligini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon vaqtni sezilarli darajada tejaydi va noto‘g‘ri yoki samarasiz modellarni ishlab chiqarish xavfini kamaytiradi.

IT texnologiyalari esa 3D modellashtirishni yanada samarali qiladi. Masalan, kompyuter yordamida dizayn (CAD) dasturlari yordamida mahsulotning virtual modeli yaratiladi, uning parametrlari aniq hisoblanadi va turli sharoitlarda sinovdan o‘tkaziladi. Shu bilan birga, IT asosida ishlaydigan simulyatsiya va optimizatsiya dasturlari yordamida materiallarni tejash, strukturalarni mustahkamlash va ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish mumkin.

Olim va tadqiqotchilar bu sohada katta ilmiy yutuqlarga erishgan. Masalan, Scott Crump 3D printer va plastmassa ekstruziya texnologiyasini birlashtirib, tez prototiplashtirishning dastlabki samarali modelini yaratgan. Shu bilan birga, Hideo Kodama 1980-yillarda tez prototiplashtirish konseptini ishlab chiqqan va uning asoslari bugungi kundagi zamonaviy 3D ishlab chiqarish tizimlariga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

AQShning Plimut taunshipidagi ofisiga ega 3D bosib chiqarish yechimlari bo‘yicha yetakchi Materialize Manufacturing to‘liq qayta ishlanadigan kukunni taqdim etdi. Kompaniyaning ta’kidlashicha, yangi taklif chang chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi va 3D bosib chiqarish uchun yanada ekologik toza variant yaratadi. Bluesint PA 12 xizmati yangi qismlarni chop etish uchun lazerli sinterlash chiqindilarini - kukunning 70% gacha tanlab qayta foydalanishga imkon beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda 3D va IT texnologiyalari qo‘llanilishi sanoatdan tashqari tibbiyot, arxitektura, avtomobilsozlik va aerokosmik sohalarda ham kengaymoqda. Masalan, tibbiyotda bemorning aniq anatomik shakliga mos keladigan protezlar va implantlar yaratishda 3D modellashtirish va CAD tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Arxitekturaviy loyihalarda esa murakkab strukturalar va innovatsion dizayn elementlarini yaratishda 3D modellash va virtual reallik texnologiyalari yordam beradi.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqotlar ko‘rsatadiki, 3D va IT integratsiyasi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini nafaqat tezlashtiradi, balki sifatni oshiradi va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Masalan, qo‘llanilgan materiallar va konstruktiv yechimlar simulyatsiya orqali optimal shaklga keltiriladi, bu esa chiqindilarni kamaytiradi va ekologik jihatdan foydali bo‘ladi.

Kelajakda 3D va IT texnologiyalarining birlashuvi aqlli ishlab chiqarish (smart manufacturing) va sanoat 4.0 konseptlarida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Intellektual tizimlar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan dizayn jarayonlari yordamida murakkab loyihalarni qisqa vaqt ichida amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar ilmiy izlanishlarda innovatsion yondashuvlarni rag‘batlantiradi va yangi texnologik yechimlar yaratishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, 3D va IT texnologiyalari integratsiyasi zamonaviy ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlarining ajralmas qismiga aylangan. Bu texnologiyalar nafaqat vaqt va xarajatni tejaydi, balki sifatni oshiradi va yangi innovatsion yechimlar yaratishga imkon beradi. Kelajakda ularning ahamiyati yanada oshishi, aqlli va ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimlariga hissa qo‘shishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Crump, S. (1989). *Apparatus and method for creating three-dimensional objects*. US Patent 5121329.

2. Kodama, H. (1981). *Automatic method for fabricating a three-dimensional plastic model with photo-hardening polymer*. Review of Scientific Instruments, 52(11), 1770–1773.

3. Gibson, I., Rosen, D. W., & Stucker, B. (2021). *Additive Manufacturing Technologies: 3D Printing, Rapid Prototyping, and Direct Digital Manufacturing*. Springer.

4. Chua, C. K., Leong, K. F., & Lim, C. S. (2010). *Rapid Prototyping: Principles and Applications*. World Scientific.

METALLAR SIRTIGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASINI O‘QITISHDA TALABALARNING TEXNIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

B.B. Imanov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Termiz davlat pedagogika instituti.
Termiz shahri

Annotatsiya. Mazkur maqolada metallar sirtiga ishlov berish texnologiyasini o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Metallar sirtiga ishlov berish jarayonlarining turlari, ularning texnologik xususiyatlari hamda o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan STEM texnologiyalari asosida ta’limni tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda texnik fikrlash, amaliy ko‘nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish usullari asoslangan.

Kalit so‘zlar: metallar sirti, mexanik ishlov, kimyoviy ishlov, elektroximik ishlov, pedagogik texnologiyalar, STEM yondashuvi, texnik fikrlash.

Kirish

Metallarga ishlov berish texnologiyalari sanoat taraqqiyotining ajralmas va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, metallar sirtiga ishlov berish jarayonlari detallarning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash, ularning ishonchliligi va xizmat muddatini oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bunday jarayonlar orqali yuza sifati, qattiqlik, yeyilishga chidamlilik hamda korroziyaga bardoshlilik kabi muhim ko‘rsatkichlar samarali ravishda oshiriladi.

Mamlakatimizda zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida yuqori aniqlik, mustahkamlik va tashqi muhit ta’sirlariga chidamlilikka bo‘lgan talablar tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi “Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifatiga e’tiborni oshirish va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar to‘g‘risida”gi [1] va 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [2] Qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Metallar va metallmas buyumlarga ishlov berishni o‘qitish metodikasi” fanlari o‘qitiladi. Ushbu fan esa metallar sirtiga ishlov berish texnologiyalarini nafaqat amaliy jihatdan, balki ilmiy-nazariy asoslarda ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur sohada kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Metallar sirtiga ishlov berish texnologiyasini o‘qitish jarayonida talabalarda mustahkam nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda amaliy yo‘naltirilgan metodlarni joriy etishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan, “Metallar sirtiga ishlov berish texnologiyasini o‘qitish metodikasi” mavzusini ilmiy jihatdan tadqiq etish, uning mazmuni, shakl va usullarini takomillashtirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Metall detallar sirtiga ishlov berish – bu ularning yuza qatlamini mexanik, kimyoviy hamda fizik omillar ta’sirida maqsadli ravishda modifikatsiya qilishga qaratilgan texnologik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda asosiy e’tibor materialning ichki hajmidan ko‘ra, uning ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir etuvchi sirt qatlami xususiyatlarini optimallashtirishga qaratiladi. Sirtni qayta ishlash texnologiyalarini qo‘llash natijasida metall detallarning funksional, texnologik hamda ekspluatatsion xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Bunda ishlov jarayoni faqat tashqi qatlamni o‘zgartirish bilan cheklanmay, balki detalning ish jarayonidagi barqarorligi, ishonchliligi va xizmat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Avvalo, sirtga ishlov berish orqali detal yuzasidagi nohamislik ko‘rsatkichlari pasaytiriladi, mikrorelyef tekislanadi va yuzaning silliqlik darajasi oshadi. Bu esa harakatlanuvchi yoki bir-biri bilan tutash holda ishlaydigan detallar o‘rtasidagi mexanik kontakt sifatini yaxshilab, ularning ishlash jarayonini barqarorlashtiradi. Yuza silliqligining ortishi ayniqsa yuqori aniqlik talab etiladigan mashinasozlik va priborsozlik sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, sirt qatlamini qayta ishlash natijasida ishqalanish koeffitsiyenti kamayadi. Bu holat energiya sarfining qisqarishiga, detallar o‘rtasidagi qizish darajasining pasayishiga hamda ishqalanish tufayli yuzaga keladigan yeyilish jarayonlarining sekinlashishiga olib keladi. Natijada mexanizmlarning foydali ish koeffitsiyenti oshadi va ularning uzluksiz ishlash imkoniyati kengayadi.

Metall yuzasini muhofazalovchi qoplamalar, termik yoki kimyoviy ishlov usullari yordamida qayta shakllantirish korroziyaga qarshi barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, namlik, yuqori harorat, zararli kimyoviy muhit yoki atmosfera ta’siri mavjud bo‘lgan sharoitlarda metall yuzasining tashqi ta’sirlarga chidamliligi ortadi. Bu esa detalning konstruktiv xususiyatlarini saqlab qolish, uning ishdan chiqish ehtimolini kamaytirish va ekspluatatsion xavfsizligini ta’minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Sirtni qayta ishlash texnologiyalarining yana bir muhim natijasi detallarning ishonchliligi va xizmat qilish muddatini oshirishdan iborat. Chunki yuza qatlamida yuzaga keladigan mikrochaqiqlar, ichki kuchlanishlar va erta yeyilish holatlari bartaraf etiladi yoki minimallashtiriladi. Bu esa detallarni tez-tez almashtirish yoki ta’mirlash ehtiyojini kamaytiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi hamda texnik tizimlarning uzoq muddatli va barqaror faoliyatini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, qayta ishlangan metall sirti mahsulotning tashqi ko‘rinishini estetik jihatdan takomillashtiradi. Sirtning yaltiroqligi, bir xil teksturaga ega bo‘lishi va tashqi nuqsonlardan xoli holga kelishi mahsulotning bozorbopligi va iste’molchida ijobiy taassurot uyg‘otishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maishiy texnika, transport vositalari va dekorativ metall buyumlar ishlab chiqarishda estetik ko‘rsatkichlar mahsulot sifatiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Metall materiallar sirtiga ishlov berish texnologiyalari zamonaviy sanoatda detallarning ishonchliligi, uzoq xizmat qilishi va tashqi ta’sirlarga bardoshliligini ta’minlashda muhim texnologik omillardan biri hisoblanadi. Sirtga ishlov berish jarayonlari orqali materialning faqat tashqi qatlami emas, balki uning funksional va ekspluatatsion ko‘rsatkichlari ham maqsadli ravishda o‘zgartiriladi. Bu esa ayniqsa yuqori yuklanish, ishqalanish va zararli muhitlarda ishlaydigan detallar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Metall sirtiga ishlov berish usullari qo‘llaniladigan ta’sir turiga qarab mexanik, kimyoviy, elektrokimyoviy va fizik texnologiyalarga ajratiladi. Har bir usul muayyan vazifalarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, ular ko‘p hollarda o‘zaro bog‘liq holda kompleks ravishda qo‘llaniladi.

Mexanik ishlov berish usullari metall sirtiga abraziv va kontakt ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Ushbu guruhga shliflash, polirovka va qum purkash kabi jarayonlar kiradi. Bunday ishlov natijasida detal yuzasidagi nohamisliklar darajasi kamayib, mikrogeometrik aniqlik yaxshilanadi. Shu bilan birga, yuzaning fizik holati barqarorlashib, keyingi qoplash yoki termik ishlov berish jarayonlari uchun qulay sharoit yaratiladi. Mexanik ishlov berish, odatda, texnologik zanjirning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi va u umumiy sifat ko‘rsatkichlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kimyoviy ishlov berish jarayonlari metall sirtiga kimyoviy faol moddalar ta’siri orqali amalga oshirilib, asosan yuzani tozalash, oksid va ifloslanish qatlamlarini bartaraf etish hamda uning reaksion qobiliyatini o‘zgartirishga qaratilgan. Masalan, zararlangan metall sirtidagi qatlamlar eritib tashlanadi va yuza bir xil holatga keltiriladi. Passivatsiya jarayoni esa metall sirtida himoyalovchi oksid plyonka hosil qilib, uning korroziyaga chidamliligini oshiradi. Bu jarayonlar ayniqsa kimyoviy zararli muhitda ishlaydigan detallar uchun samarali hisoblanadi.

Elektrokimyoviy ishlov berish usullari elektr toki va elektrolit muhiti ta’sirida amalga oshirilib, metall sirtidagi o‘zgarishlar anod va katod reaksiyalari orqali yuzaga keladi. Anodlash jarayonida metall sirtida mustahkam oksid qatlam hosil bo‘lib, u himoyalovchi va dekorativ funksiyalarni bajaradi. Galvanik qoplash esa sirtga boshqa metall qatlamini yotqizish orqali uning mexanik mustahkamligi, korroziyaga chidamliligi va tashqi ko‘rinishini yaxshilaydi. Ushbu texnologiyalar sanoatda keng qo‘llanilib, detallarning ishonchli ishlash muddatini oshirishga xizmat qiladi.

Fizik ishlov berish usullari esa yuqori energiyali ta’sirlarga asoslangan bo‘lib, ular qatoriga lazerli va plazmali texnologiyalar kiradi [6]. Lazerli ishlov berish metall sirtiga lokal ta’sir ko‘rsatish imkonini berib, yuqori aniqlik va minimal deformatsiya bilan ajralib turadi. Plazmali ishlov berish jarayonlari yuqori haroratli muhitda amalga oshirilib, sirtni mustahkamlash va maxsus qoplamalar hosil qilish imkonini beradi. Bu usullar yuqori aniqlik talab etiluvchi va og‘ir ekspluatatsion sharoitlarda ishlaydigan detallar ishlab chiqarishda alohida ahamiyatga ega.

Metallar sirtiga ishlov berish texnologiyasini o‘qitish jarayonida pedagogik, psixologik hamda muhandislik bilimlarining o‘zaro uyg‘unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday integratsiya ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarda texnik fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitishda nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligi ustuvor ahamiyatga ega.

Mazkur yo‘nalishda ta’limni tashkil etishda qator didaktik tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, ilmiylik tamoyili ta’lim mazmunini zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa talabalarda sohaviy bilimlarning ishonchli va asoslangan tarzda o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Ko‘rgazmalilik tamoyili esa o‘quv materialini vizual vositalar, modellar, chizmalar va multimedia resurslar orqali yetkazishni talab etadi. Natijada, talabalarning qabul qilish qobiliyati oshadi va murakkab texnologik jarayonlarni tushunish osonlashadi. Shuningdek, izchillik va tizimlilik tamoyili bilimlarni bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda bayon etishni taqozo etadi [3]. Bu jarayonda avval oddiy tushunchalar shakllantirilib, keyinchalik ular murakkabroq bilimlar bilan boyitiladi. Bu esa talabalarda mustahkam va tizimli bilimlar bazasini yaratadi.

Amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyili esa nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish sharoitlari bilan bog‘lashni nazarda tutadi. Metallar sirtiga ishlov berish jarayonlarini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari, amaliy ishlar va loyihaviy topshiriqlar orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalari rivojlantiriladi. Umuman olganda, mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirish, ularda tahlil qilish, muammoni hal etish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida metall materiallar sirtiga ishlov berish texnologiyasini o‘qitishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, STEM (Stsientse, Technology, Engineering, Mathematitss) yondashuvi mazkur sohadagi nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni integratsiyalash orqali talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

STEM yondashuvi doirasida “Stsientse” komponenti metall materiallarning ichki strukturasi, kristall panjarasi, fizik-mexanik va kimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganishni nazarda tutadi. Bu esa talabalarga turli ishlov berish jarayonlarida yuz beradigan o‘zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

“Technology” tarkibiy qismi esa metall sirtiga ishlov berishning zamonaviy usullarini, jumladan, mexanik, termik va kimyoviy ishlov berish texnologiyalarini amaliyotda qo‘llashni qamrab oladi. Bu jarayonda talabalar nazariy bilimlarini real ishlab chiqarish sharoitiga moslashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

“Engineering” yo‘nalishi doirasida talabalar detal va konstruksiyalarni loyihalash, ular uchun maqbul material tanlash hamda samarali ishlov berish usullarini aniqlash kabi muhandislik masalalarini hal etishga o‘rgatiladi [4]. Bu esa ularning konstruktiv fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Mathematitss” komponenti esa texnologik jarayonlarning parametrlarini hisoblash, ishlov berish aniqligini ta’minlash, o‘lchamlar va tolerantliklarni aniqlashda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Matematik modellashtirish orqali ishlov berish jarayonlarining samaradorligini oldindan baholash imkoniyati yaratiladi.

Shu tariqa, STEM yondashuvini metall sirtiga ishlov berish texnologiyasini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish talabalarda kompleks va tizimli fikrlashni shakllantiradi, ularning muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini oshiradi hamda innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishga rag‘batlantiradi [5]. Bu esa, o‘z navbatida, raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim pedagogik omil sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Metallar sirtiga ishlov berish texnologiyasini o‘qitish metodikasi zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda takomillashtirilishi lozim. Nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligi, shuningdek STEM yondashuvi asosida ta’limni tashkil etish talabalarning texnik fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, talabalarda yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalar, tahlil qilish qobiliyati va amaliy faoliyatga tayyorlik shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, metall sirtiga ishlov berish texnologiyalari materiallarning xizmat xususiyatlarini kompleks ravishda yaxshilashga xizmat qiladi. Turli usullarni maqsadli va ilmiy asoslangan holda tanlash orqali detallarning ishonchliligi, samaradorligi va xizmat muddatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu sababli, ushbu texnologiyalarni takomillashtirish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy muhandislik ta’limida dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [7].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi “Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifatiga e’tiborni oshirish va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Imanov B. Talabalarning ijodiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari // The Ameritsan Journal of Sotsial Stsientse and Edutsation Innovations. – 2020. – T. 2. – № 10. – B. 243–249.

4. Baykov A. A. Metallurgiyaning umumiy asoslari. – Moskva–Leningrad: Gosximtexizdat, 1936.

5. Imanov B. B. Dars va uni tahlil qilish – ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omil sifatida // European Scholar Journal. – 2021. – T. 1. – № 24. – B. 123–126.

6. Imanov B. B. Fizika sohasida muammolarni hal etish tajribalari orqali talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar // The Ameritsan Journal of Sotsial Stsientse and Edutsation Innovations. – 2021. – T. 3. – № 05. – B. 521–525.

7. Imanov B., Imanova M. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации. – 2021.

AVTOMATLASHTIRILGAN ISHLAB CHIQARISH TIZIMLARINING MASHINASOZLIKDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Ermatov Valijon Abdivaitovich t.f.b.f.d (PhD)
Batirov Baxtiyar Ko‘nishovich o‘qituvchi
Guliston davlat universiteti. Guliston shahar

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashinasozlik sanoatida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining ahamiyati, ularning tarkibi, ishlash prinsiplari hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Zamonaviy sanoat korxonalarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, robotlashtirilgan texnologiyalar va raqamli ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish natijasida mahsulot sifatining yaxshilanishi, mehnat unumdorligining ortishi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: mashinasozlik, raqamli texnologiyalar, robotlashtirish, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, CNC dastgohlar, ishlab chiqarish, tizimlar, samaradorligi.

Kirish. Mashinasozlik sanoati zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada mahsulot sifati, ishlab chiqarish tezligi va resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari (AIT) ishlab chiqarish jarayonlarini minimal inson aralashuvi bilan amalga oshirish imkonini beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuasidir. Bunday tizimlar mashinasozlik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini-loyihalashdan tortib tayyor mahsulotni nazorat qilishgacha-avtomatik boshqarish imkonini beradi. Bugungi kunda mashinasozlikda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari mexanik ishlov berish, yig‘ish jarayonlari, sifat nazorati, logistika va ombor tizimlari, ishlab chiqarishni boshqarish yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda [1, 2, 3].

Tadqiqot obyekti va metodi. Mashinasozlik sanoatida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining ahamiyati va samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilishda asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining tarkibini o‘rganish, mashinasozlikda avtomatlashtirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish, zamonaviy avtomatlashtirish texnologiyalarini o‘rganish belgilab olindi.

Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimi – bu texnologik jarayonlarni avtomatik ravishda boshqarish, nazorat qilish va optimallashtirish imkonini beruvchi kompleks tizimdir.

Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimining (AIT) umumiy tuzilishi quyidagi asosiy qismlardan iborat:

– texnologik uskunalar bularga raqmli boshqarish tizimi (CNC) dastgohlar, avtomatik stanoklar, robot manipulyatorlar, yig‘ish liniyalar kiradi. Ular mahsulotga ishlov berish jarayonini amalga oshiradi.

– boshqaruv tizimi ishlab chiqarish jarayonini nazorat qiladi va boshqaradi.

Asosiy elementlari PLC tizimi (Programmable Logic Controller *Dasturlash-tiriladigan mantiqiy boshqaruvch*), SCADA tizimi **(Boshqaruv nazorati va ma'lumotlarni yig'ish)**, kompyuter dasturlari, sensorlar hisoblanadi [3, 4, 5, 6]

– axborot tizimi ishlab chiqarish jarayoni haqida ma'lumotlarni yig'adi va qayta ishlaydi.

Mashinasozlikda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining asosiy turlariga quyidagilar kiradi

1. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari.

2.Robotlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari.

3. Moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari (FMS).

Bu tizimlar turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi va yuqori moslashuvchanlik, avtomatik sozlash, tez qayta konfiguratsiya xususiyatlar bilan baholanadi.

Mashinasozlikda avtomatlashtirishning asosiy yo'nalishlari mexanik ishlov berish jarayonlarini avtomatlashtirish, yig'ish jarayonlarini avtomatlashtirish, sifat nazoratini avtomatlashtirish hisoblanadi.

Mashinasozlikda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining texnik afzalliklar bo'yicha yuqori aniqlik, barqaror ishlash, inson omilining kamayishi, ishlab chiqarish tezligi oshishini ta'minlaydi.

Mashinasozlikda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining kamchiliklariga ishlab chiqarish tizimlarida dastlabki investitsiya katta bo'lishi, texnik xizmat ko'rsatish murakkablashuvi, yuqori malakali mutaxassislarning talab etilishi va nosozlik yuzaga kelganda tizim to'xtab qolishi mumkin[7, 8].

Zamonaviy avtomatlashtirish texnologiyalari CNC texnologiyasi, Robotlashtirish, Sun'iy intellekt va raqamli ishlab chiqarish

Zamonaviy ishlab chiqarishda sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things), raqamli egizak (Digital Twin), Big Data texnologiyalari qo'llanilmoqda

Mashinasozlikda avtomatlashtirishni joriy etish bosqichlari – bu ishlab chiqarish jarayonlarini qo'lda bajariladigan operatsiyalardan avtomatik boshqariladigan tizimlarga bosqichma-bosqich o'tkazish jarayonidir. Ushbu jarayon ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi[6, 7].

Xulosa. Mashinasozlik sanoatida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari muhim ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi va xarajatlarni kamaytiradi. Zamonaviy sanoat korxonalarida Avtomatlashtirish texnologiyalarini joriy etish raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Kelajakda mashinasozlik sanoatida sun'iy intellekt, robotlashtirish va raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarining roli yanada ortadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Pritschow G., Altintas Y. Control of Machine Tools. – Berlin: Springer, 2019, 450 p.

2. Рачков М.Ю. Технические средства автоматизации. – Москва: МГИУ, 2006, 347 с.

3. Vohidov A.X. Abdullayeva D.A. Avtomatikaning texnik vositalari. – T., TIMI, 2011. 180 b.

4. Кузнецов А. П. Автоматизированные системы управления производством. – Москва: Академия, 2019, 384 с.

5. Шишкин В. А. Робототехнические системы в машиностроении. – Санкт-Петербург: Питер, 2020, 420 с.

6. Ташликов С. А. Автоматизация технологических процессов. – Москва: Высшая школа, 2016, 295 с.

7. Abduraxmonov A. A. Mashinasozlikda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021, 240 b.

8. Qodirov O. Q. Sanoat korxonalarida avtomatlashtirish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020, 210 b.

MASHINASOZLIKDA AVTOMATLASHTIRISHNI JORIY ETISH BOSQICHLARINI ILMIY-ASOSLANGAN HOLDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Ermatov Valojon Abdivaitovich t.f.b.f.d (PhD)
Batirov Baxtiyar Ko‘nishovich o‘qituvchi
Guliston davlat universiteti. Guliston shahar

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashinasozlik korxonalarida avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish bosqichlari, ularning texnologik va iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari hamda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining tuzilmasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Avtomatlashtirish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishning nazariy asoslari, texnologik jarayonlarni modellashtirish, uskunalarni tanlash, dasturlash va ishga tushirish bosqichlari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, avtomatlashtirishni tizimli joriy etish ishlab chiqarish unumdorligini 25–40% ga oshirishi, mahsulot sifatini yaxshilashi va energiya sarfini kamaytirishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: avtomatlashtirish, mashinasozlik, ishlab chiqarish tizimi, robotlashtirish, texnologik jarayon, boshqaruv tizimi, PLC, sanoat robotlari, samaradorlik.

Kirish. Zamonaviy mashinasozlik sanoati yuqori aniqlik, samaradorlik va ishlab chiqarish barqarorligini talab qiluvchi murakkab texnologik jarayonlarga asoslanadi. Ushbu talablarni qondirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirish inson mehnatini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi.

Mashinasozlikda avtomatlashtirish tizimi ishlab chiqarish jarayonida inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish, ishlab chiqarish tezligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, xavfsizlik darajasini oshirish barqarorligini ta’minlashda asosiy muammolarni hal qilish imkonini beradi[1, 2, 3].

Tadqiqot obyekti va metodlari. Mashinasozlikda avtomatlashtirishni joriy etish bosqichlarini ilmiy-asoslangan holda tashkil etish jarayonini o‘rganishda tizimli tahlil, matematik modellashtirish usullar qo‘llanildi.

Mashinasozlikda avtomatlashtirishning tizimli tahlili – bu ishlab chiqarish jarayonlarini shunchaki mexanizatsiyalash emas, balki ularni yaxlit bir murakkab tizim sifatida o‘rganish va boshqarish demakdir. Tizimli tahlil yondashuvi har bir bo‘g‘inni (dastgoh, robot, nazorat tizimi) alohida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq elementlar majmuasi deb qaraydi[1, 2].

Shu boisdan ishlab chiqarish jarayonlari elementlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganildi. Tizimli yondashuv avtomatlashtirishning optimal strukturasini aniqlash imkonini beradi.

Avtomatlashtirilgan tizimni loyihalashda dekompozitsiya (qismlarga ajratish), sintez (birlashtirish), modellashtirish bosqichlari qo‘llaniladi.

Dekompozitsiya (qismlarga ajratish) – murakkab texnologik jarayon kichikroq, boshqarish oson bo‘lgan funksional modullarga bo‘linadi. Masalan, detalni quyish, unga ishlov berish va sifatini tekshirish alohida quyi tizimlar sifatida ko‘riladi.

Sintez (birlashtirish) – alohida modullar yagona axborot maydoniga birlashtiriladi. Bunda tizim elementlari o‘rtasidagi teskari aloqa (feedback) mexanizmi asosiy rol o‘ynaydi.

Modellashtirish – tizimning matematik yoki kompyuter modeli yaratiladi. Mashinasozlikda ko‘pincha quyidagi tenglamalar tizimi qo‘llaniladi:

$$W_s = \frac{Y_s}{X_s} \quad (1)$$

Bunda W_s- tizimning uzatish funksiyasi bo‘lib, kirish signali (X_s) va chiqish natijasi (Y_s) orasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi[4, 5, 6].

Tizimli tahlil doirasida tanlanadigan asosiy raqamli dasturiy boshqarish (RDB/CNC), sanoat robotlari, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari (FMS) texnologiyalar hisoblanadi.

Mashinasozlikda avtomatlashtirishni modellashtirish – bu ishlab chiqarish jarayonlari, texnik qurilmalar va boshqaruv tizimlarining virtual nusxasini yaratish hamda ularning ishlashini matematik hisob-kitoblar yordamida tahlil qilishdir. Bu jarayon xatolarni loyihalash bosqichidayoq aniqlash va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi[4].

Mashinasozlikdagi modellashtirishni uchta asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

1. Matematik modellashtirish.
2. Geometrik va konstruktiv modellashtirish (CAD/CAE)
3. Simulyatsiya va virtual ishga tushirish (Digital Twin)
4. Modellashtirish dasturiy vositalari
5. Modellashtirishning ahamiyati

Modellashtirish – bu loyiha chizmasidan real ishlab chiqarishga o‘tishdagi eng muhim “ko‘prik” bo‘lib, u mashinasozlikda raqobatbardoshlikni ta’minlovchi asosiy omildir[4, 5, 6].

Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish samaradorligi quyidagi ko‘rsatkich orqali baholandi:

$$E = \frac{Q}{T} \quad (2)$$

Bunda, E – ishlab chiqarish samaradorligi;
Q – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
T – ishlab chiqarish vaqti.

Mazkur model ishlab chiqarish unumdorligini baholash uchun qo‘llanildi.

Xulosa. Mashinasozlikda avtomatlashtirishni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijasida avtomatlashtirishni joriy etishning optimal bosqichlari aniqlanib, ularning texnologik va iqtisodiy samaradorligi asoslab berildi.

Avtomatlashtirishni tizimli joriy etish natijasida ishlab chiqarish unumdorligi oshadi mahsulot sifati yaxshilanadi ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi texnologik jarayon barqarorligining ortishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A.A. Mashinasozlik ishlab chiqarishini avtomatlashtirish. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Tursunov O.T. Sanoat avtomatikasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
3. Groover M.P. Automation, Production Systems, and Computer-Integrated Manufacturing. – Pearson Education, 2018.
4. Bolton W. Programmable Logic Controllers. – Elsevier, 2019.
5. Mikell P. Groover. Fundamentals of Modern Manufacturing. – Wiley, 2020.
6. Siemens Automation Handbook. – Siemens AG, 2022.

ATROF-MUHITGA ANTROPOGEN TA’SIRNI KAMAYTIRISHDA YASHIL ENERGIYA MANBALARINING ROLI

Raxmatullayev Ravshan, Qushmurodova Sevinch
Guliston davlat universiteti. Guliston shahar,
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi. Guliston shahar

Annotatsiya: Ushbu maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, gidro, geotermal va bioenergiya) ning atrof-muhitga antropogen bosimni pasaytirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, havo ifloslanishini oldini olish va tabiiy resurslarni tejashda yashil energiyaning roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: yashil energiya, antropogen ta’sir, qayta tiklanuvchi energiya, issiqxona gazlari, atrof-muhit muhofazasi.

Kirish. Hozirgi kunda insoniyat faoliyati natijasida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari, sanoat va transport chiqindilari, qazib olinadigan yoqilg‘ilarning yonishi ekologik muvozanatga jiddiy tahdid solmoqda. Antropogen ta’sir – ayniqsa, karbonat

angidrid (CO_2), metan (CH_4) va azot oksidlari (NO_x) chiqindilari global iqlim o‘zgarishlarining asosiy sababchisidir. Shu nuqtayi nazardan, yashil energiya (quyosh, shamol, gidro, geotermal, bioenergiya) atrof-muhitga bosimni kamaytirishning eng samarali vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari an’anaviy yoqilg‘ilarga nisbatan havoga zararli gazlar chiqarilishini keskin kamaytiradi [2]. O‘zbekiston sharoitida quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2022-yildagi 06/22/436/0891-sonli Farmonida ham yashil iqtisodiyotga o‘tish strategik maqsad sifatida belgilangan [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yashil energiya manbalari atrof-muhitga antropogen ta’sirni kamaytirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular issiqxona gazlari chiqindilarini keskin kamaytirish, havo va suv ifloslanishini oldini olish, shuningdek tabiiy resurslarni tejash imkonini beradi. Kelgusida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va bu sohada innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim shartidir.

1. Issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish

An’anaviy elektr stansiyalari atmosferaga yiliga 30–40 milliard tonnaga yaqin CO_2 chiqaradi. Quyosh va shamol energetikasi esa bu chiqindilarni deyarli nolga tenglashtiradi. Masalan, bitta o‘rta quvvatli shamol turbinasi yiliga 1500 tonna CO_2 chiqarilishining oldini oladi.

2. Havo ifloslanishini kamaytirish

Qazib olinadigan yoqilg‘ilarni yoqish natijasida havoga mayda zarrachalar, oltingugurt oksidi va azot oksidlari tarqaladi. Bu moddalar nafas olish kasalliklari va kislotali yomg‘irlarni keltirib chiqaradi. Yashil energiya manbalari esa bu turdagi ifloslanishni butunlay bartaraf etadi.

3. Suv va yer resurslarini tejash

Atom va issiqlik elektr stansiyalari suvni sovutish tizimlari uchun katta hajmda suv sarflaydi. Quyosh panellari va shamol turbinalari esa deyarli suv talab qilmaydi. Shuningdek, ko‘mir konlarini ochish va qazib olish natijasida katta maydonlar buziladi, holbuki, shamol va quyosh stansiyalari qishloq xo‘jaligi yerlari bilan qo‘shib ishlatilishi mumkin.

4. Yashil energiyaning ekologik samaradorligi

Bioenergiya va geotermal energiya ham ma’lum cheklovlarga ega bo‘lsada, ular an’anaviy manbalarga nisbatan ekologik jihatdan ancha toza hisoblanadi. Chiqindilarni qayta ishlab olinadigan biogaz esa ikki tomonlama foyda keltiradi: ham energiya ishlab chiqaradi, ham chiqindilar maydonlarini qisqartiradi.

Xulosa. Yashil energiya manbalari atrof-muhitga antropogen ta’sirni kamaytirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular issiqxona gazlari chiqindilarini keskin kamaytirish, havo va suv ifloslanishini oldini olish, shuningdek, tabiiy resurslarni tejash imkonini beradi. Kelgusida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va bu sohada innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilov, N. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va atrof-muhit muhofazasi. Toshkent: Fan va texnologiya. 2023.

2. Karimov, A., & Raxmonov, B. Yashil energetikaning havoga chiqariladigan zararli gazlar miqdoriga ta’siri. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi jurnali, 2022. 28(4), 12-19.

3. Qodirov, R. Iqlim o‘zgarishi va uglerod chiqindilarini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlari. Samarqand: SamDU nashri. 2021.

4. To‘xtayev, S. O‘zbekistonda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish istiqbollari. Muqobil energiya texnologiyalari, 2024. 15(2), 44-52.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va past uglerodli rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni. (2022). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.10.2022-y., 06/22/436/0891-son.

ВЛИЯНИЕ ТЕМПЕРАТУРЫ ВВЕДЕНИЯ МОЛИБДЕНА НА ТВЁРДОСТЬ ЧУГУНА

[1]Абдуллаев Фаррухжон Комилжон ўғли., [2]Йўлдошев Омонжон Чорибоевич., [3]Назарова Наргиза Турабаевна., [1]Аккулова Ирода Умирзак Қизи., [1]Умаралиева Мадина Умид Қизи.

[1]Ташкентский государственный технический университет

[2]Узбекско-Японский молодежный центр инноваций

В работе исследуется влияние температуры введения молибдена на твёрдость чугунных сплавов с использованием методов математического моделирования. На основе экспериментальных данных построена интерполяционная модель, позволяющая прогнозировать изменение твёрдости в зависимости от температурных условий.

Чугунные сплавы широко применяются в машиностроении благодаря своим высоким литейным свойствам, износостойкости и экономичности. Однако современные требования к эксплуатационным характеристикам материалов требуют повышения их прочности и твёрдости. Одним из эффективных способов улучшения свойств чугуна является легирование, в частности добавление молибдена.

Молибден оказывает значительное влияние на структуру чугуна, способствуя образованию карбидных фаз и повышению твёрдости. При этом важную роль играет температура его введения, которая влияет на равномерность распределения элемента и формирование структуры сплава.

В связи с этим возникает необходимость количественного анализа зависимости твёрдости от температуры введения молибдена, что может быть эффективно реализовано с помощью методов математического моделирования.




Рис.1. Зависимость твердости от температуры введения молибдена

В работе использованы экспериментальные данные, представляющие собой пары значений «температура – твёрдость». Были выбраны пять значений температуры в диапазоне 1300–1500 °C и соответствующие им значения твёрдости по Бринеллю.

Для описания зависимости использован интерполяционный многочлен Лагранжа четвёртой степени, что обусловлено наличием пяти экспериментальных точек. Общий вид интерполяционной функции представлен как:

$$HB(T) = \sum_{i=0}^{4} y_i L_i(T)$$

Где L*i*(T) – базисные многочлены Лагранжа.

Каждый из полиномов L*i*(T) был получен через произведение соответствующих выражений. Далее интерполяционный многочлен был приведён к стандартному виду. Для определения коэффициентов использована система линейных алгебраических уравнений, решённая методом Крамера.

Построенная математическая модель адекватно описывает зависимость твёрдости от температуры введения молибдена. Анализ показал, что изменение температуры существенно влияет на твёрдость чугуна.

С увеличением температуры введения молибдена наблюдается изменение структуры материала, что отражается на значениях твёрдости. Полученная модель позволяет с высокой точностью интерполировать значения твёрдости в пределах заданного диапазона температур.

В результате исследования была построена математическая модель зависимости твёрдости чугуна от температуры введения молибдена. Применение интерполяционного многочлена Лагранжа позволило получить точную аппроксимацию экспериментальных данных.

Разработанная модель позволяет прогнозировать твёрдость при различных температурных режимах и может быть использована для оптимизации процессов легирования. Полученные результаты имеют практическое значение для повышения износостойкости и долговечности чугунных изделий.

Литература:

1. Абдуллаев Фаррухжон Комилжон ўғли., Йўлдошев Омонжон Чорибоевич. Экспериментальное исследование жидкотекучести чугунных сплавов. Узбекский Научно-технический и производственный журнал Композиционные материалы №1, 2026 ISSN 2091-5527

2. Юлчиева Сурайё Бахрамовна., Йўлдошев Омонжон Чорибоевич., Абдуллаев Фаррухжон Комилжон ўғли., Абдалимов Досмухамед Оралханович. Совершенствование технологии изготовления насосного рабочего колеса методом литья из чугунного сплава. Scientific Journal of Construction and education ISSN 2181-3779, Volume 5, issue 1 2026.

3. Callister W.D. Materials Science and Engineering: An Introduction. – New York: Wiley, 2014.

4. Справочник по чугуну / Под ред. В.И. Каширского. – М.: Машиностроение, 2003.

ПОВЫШЕНИЕ ЖИДКОТЕКУЧЕСТИ ЧУГУННЫХ СПЛАВОВ

[1]Абдуллаев Фаррухжон Комилжон ўғли., [2]Йўлдошев Омонжон Чорибоевич., [2]Назарова Наргиза Турабаевна., [1]Умаралиева Мадина Умид Қизи., [1]Аккулова Ирода Умирзак Қизи.


[1]Ташкентский государственный технический университет

[2]Узбекско-Японский молодежный центр инноваций

Жидкотекучесть чугунных сплавов является одним из ключевых технологических свойств в литейном производстве. Она определяет способность расплава заполнять полость формы до начала кристаллизации и напрямую влияет на качество отливок. Недостаточная жидкотекучесть приводит к образованию дефектов, таких как недоливы, холодные спаи, газовая пористость и усадочные раковины. Особенно важна высокая жидкотекучесть при изготовлении тонкостенных и сложнопрофильных деталей. В связи с этим исследование и разработка методов повышения жидкотекучести чугуна являются актуальной задачей современной металлургии.

Жидкотекучесть чугуна зависит от комплекса факторов: химического состава, температуры расплава, физико-химических свойств, условий кристаллизации и параметров литейного процесса.

Основными элементами, определяющими жидкотекучесть чугуна, являются углерод и кремний. Повышение содержания углерода способствует снижению температуры ликвидуса и увеличению интервала кристаллизации, что положительно влияет на текучесть расплава. Кремний, в свою очередь, способствует графитизации, уменьшая склонность к образованию цементита и снижая вязкость жидкой фазы.



а) б)

Рис.1. а) Пруткообразная проба для определения жидкотекучести;
б) Винтообразная проба для определения жидкотекучести:
1 – форма; 2 – винтовой канал; 3 – термопара.

Фосфор играет особую роль: он образует легкоплавкую эвтектику, значительно повышающую жидкотекучесть. Однако его содержание должно строго контролироваться (обычно не более 0,2–0,3%), так как избыток приводит к повышенной хрупкости чугуна.




**Рис.2. Механизм остановки потока расплава в канале литейной формы:
а – перемерзание; б – образование пробки; в – объемная остановка.**

Отрицательное влияние оказывают сера и газы (водород, кислород, азот), которые увеличивают вязкость расплава и ухудшают его текучесть. Поэтому важным является их минимизация в процессе плавки.

Температура расплава является одним из наиболее значимых факторов. С увеличением температуры уменьшается вязкость металла и повышается его подвижность. Однако чрезмерный перегрев может вызвать интенсивное окисление, выгорание легирующих элементов и увеличение газонасыщенности расплава. Оптимальный температурный режим должен обеспечивать достаточную текучесть без ухудшения химического состава и структуры.

Материал формы также влияет на процесс: высокая теплопроводность ускоряет охлаждение и может снижать жидкотекучесть, тогда как формы с более низкой теплопроводностью способствуют более длительному сохранению текучести расплава.

В современных условиях применяются комплексные подходы: использование рафинирования расплава для удаления вредных примесей;

– вакуумная обработка для снижения газонасыщенности; применение модификаторов нового поколения; компьютерное моделирование процессов литья для оптимизации параметров; контроль структуры с использованием микроскопических и спектральных методов анализа.

Литература:

1. Абдуллаев Фаррухжон Комилжон ўғли, Ташбулатов Шерзод Бахтиярович, Йўлдошев Омонжон Чорибоевич. “Способы повышения прочности чугуна 300Х28Н2Л путем модифицирования ферротитаном” Scientific journal of Construction and Education ISSN 2181-3779, volume 4, Issue 2 2025 b. 493-498

2. Саидходжаева Ш. Н. Сравнение герметичности высококачественных чугунов // Молодой ученый. – 2017. – №6. – С. 80–83.

3. Каменов А. А., Богомолов А. В., Жакупов А. Н., Рыспаев Т. А., Кулумбаев Н. К. Оптимизация химического состава заливочного чугуна // Наука и техника Казахстана. – 2025. – №2. – С. 272–290.

KO‘PIKBETON ARALASHMASIDA KO‘PIK HOSIL QILUVCHI MODDA KONSENTRATSIYASI VA SUV-SEMENT NISBATINING ZICHLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRINI TADQIQ ETISH

F.B Usmonov, M.B Bahodirov.
Buxoro texnika universiteti, “Qurilish muhandisligi” kafedrasi

Annotatsiya. Ko‘pikbeton qorishmasida KHM (Ko‘pik hosil qiluvchi modda) konsentratsiyasi va V/S (Suv/Sement) nisbatining zichlikka ta’siri eksperimental o‘rganildi. KHM ortishi zichlikni kamaytirishi, V/S nisbatining oshishi esa material mustahkamligiga salbiy ta’sir qilishi aniqlandi. Natijalar yengil beton ishlab chiqarishni takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация. Экспериментально исследовано влияние концентрации пенообразователя и водоцементного соотношения на плотность пенобетона. Установлено, что рост концентрации пенообразователя снижает плотность, а увеличение В/Ц отношения ухудшает прочность материала. Результаты представляют практическую ценность для оптимизации производства лёгких бетонов.

Abstract. The effects of foaming agent concentration and water-cement ratio on foam concrete density were experimentally investigated. Increasing foaming agent content reduces density, while a higher water-cement ratio negatively affects material strength. The findings offer practical value for optimizing lightweight concrete production.

Kalit so‘zlar: ko‘pikbeton, ko‘pik hosil qiluvchi modda, suv-sement nisbati, material zichligi, yengil beton, g‘ovakli struktura, qurilish materiallari.

Kirish. Ko‘pikbeton – avtoklavsiz usulda tayyorlanadigan yengil g‘ovak qurilish materiali bo‘lib, maxsus ko‘pik hosil qiluvchi moddalar yordamida sement eritmasiga havo pufakchalari singdiriladi. Ushbu texnologiyaning asosiy ustunligi shundaki, u qimmatbaho avtoklavlash uskunalarini talab etmaydi va dastlabki sarmoya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi [1]. Ko‘pikbetonning ekspluatatsion sifatini belgilovchi muhim mezon – uning zichligi hisoblanib, bu ko‘rsatkich issiqlik o‘tkazuvchanlik, mexanik mustahkamlik va konstruksiya vazniga bevosita ta’sir qiladi. Zichlikni shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutuvchi omillar: KHM konsentratsiyasi, V/S nisbati hamda qorishma tayyorlash texnologiyasidir [2, 3]. Hududdagi qurilish korxonalari ko‘pikbetondan ichki bo‘linma devorlar va issiqlik izolyatsiya qatlamlari uchun foydalanayotgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish parametrlari hali yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Tajribada protein asosidagi Foamin PB-2000 va sintetik asosidagi PB-Lyuks KHMlari, shuningdek Buxoro sement zavodi PC 400-D20 mahsuloti qo‘llanildi. KHM konsentratsiyasi 1,5%, 2,0% va 2,5% qiymatlarida, V/S nisbati esa 0,40; 0,45 va 0,50 darajalarida o‘zgartirildi. Ikki turdagi KHM, uch xil konsentratsiya va uch xil V/S nisbatidan iborat 18 ta kombinatsiya bo‘yicha 100×100×100 mm o‘lchamli namunalar yasaldi. Namunalar 20±2 °C haroratda 28 kun davomida tabiiy sharoitda qotishga qoldirildi; zichlik GOST 27005-86 talablari asosida o‘lchandi.

Tadqiqot natijalari. Protein asosidagi Foamin PB-2000 uchun olingan o‘rtacha zichlik qiymatlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval.

***Foamin PB-2000 bo‘yicha zichlik ko‘rsatkichlari*. Sintetik asosidagi PB-Lyuks uchun olingan zichlik ko‘rsatkichlari:**

V/S nisbati	KHM = 1,5%	KHM = 2,0%	KHM = 2,5%
0,40	720 kg/m³	645 kg/m³	580 kg/m³
0,45	695 kg/m³	612 kg/m³	548 kg/m³
0,50	668 kg/m³	588 kg/m³	520 kg/m³

2-jadval.

PB-Lyuks bo‘yicha zichlik ko‘rsatkichlari

V/S nisbati	KHM = 1,5%	KHM = 2,0%	KHM = 2,5%
0,40	738 kg/m³	660 kg/m³	595 kg/m³
0,45	710 kg/m³	628 kg/m³	563 kg/m³
0,50	684 kg/m³	601 kg/m³	537 kg/m³

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, KHM ulushining ortib borishi bilan namunalar zichligi izchil ravishda kamaymoqda – bu hodisa qorishmaga singdirilayotgan havo pufakchalarining ko‘payishi bilan bevosita bog‘liq. Protein asosidagi KHM sintetik

analogiga nisbatan o‘rtacha 18–22 kg/m³ ga past zichlik qiymatlarini qayd etdi. D600 sinfi (551–650 kg/m³) uchun eng maqbul rejimlar: Foamin PB-2000 da KHM=2,0%, V/S=0,45; PB-Lyuks da esa KHM=2,0%, V/S=0,50. D500 sinfi uchun Foamin PB-2000 bilan KHM=2,5%, V/S=0,50 kombinatsiyasi tavsiya etiladi.

Xulosa. Eksperimental tadqiqot natijalari ko‘pikbeton zichligini tartibga solishda KHM konsentratsiyasi V/S nisbatiga qaraganda ancha ta’sirchan omil ekanligini tasdiqladi. KHM ulushini 1,5% dan 2,5% gacha oshirish zichlikni o‘rtacha 140–160 kg/m³ ga kamaytirgan bo‘lsa, V/S nisbatining 0,40 dan 0,50 ga o‘sishi faqat 40–55 kg/m³ ga o‘zgarishga sabab bo‘ldi. Buxoro viloyati qurilish amaliyoti uchun ichki bo‘linma devorlar qurishda D600 sinfi, issiqlik izolyatsiya qatlamlarida esa D500 sinfi ko‘pikbetondan foydalanish maqsadga muvofiq. Protein asosidagi KHM texnik ko‘rsatkichlari jihatidan sintetik KHMdan ustunligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari mintaqadagi ko‘pikbeton ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ГОСТ 25485-89. Ячеистый бетон. Технические условия. – М.: Издательство стандартов, 1990.

2. Неймарк А.И. Пенобетон и его применение в строительстве. – СПб: Стройиздат, 2003. – 212 с.

3. Fernandez-Ordonez D. et al. Foam concrete: a state of the art // Construction and Building Materials. – 2022. – Vol. 345. – P. 128357.

4. O‘zDSt 1437:2014. Yengil betondan ishlangan qurilish bloklari. – Toshkent: O‘zstandart, 2014.

5. Xolmatov D.N. Ko‘pikbeton texnologiyasi va xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2019, 156 b.

ИССЛЕДОВАНИЕ ДЕМПФИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ТОКАРНЫХ РЕЗЦОВ

Маг. Мусаева Д.Б., проф. Каримов Ш.А.

Резцы для токарного станка по металлу демпфирующего типа, позволяют повысить устойчивость и качество процесса резания материалов. Рассмотрено взаимодействие элементов системы «станок-приспособление-инструмент-деталь». Показаны причины возникновения колебаний и классификация по диапазону частот, а также возможные способы их уменьшения или устранения. Предлагается сменные резцы для токарного станка по металлу менять конструктивно, это позволит устранять негативное влияние вибраций на качество механической обработки. Приведена разработанная линейка демпфирующих резцов с упругой демпфирующей вставкой в державку или с державкой в упругой вставке. Особенностью конструкции представленных резцов является то, что токарный станок по металлу будет отделен виброизоляцией от рабочей части инструмента через демпфирующие элементы.

В процессах формообразования резанием технологическая система «станок-приспособление-инструмент-деталь» испытывает переменные воздействия от колебания режимов резания, силы резания, дисбаланса вращающихся деталей, колебания сил трения, что приводит к появлению вибраций всей технологической системы. Если она в рассматриваемом промежутке времени находится в равновесии или её состояние изменяется не в сторону увеличения колебаний, то такая система считается устойчивой. В противном случае, то есть при увеличении колебаний, система неустойчива. Резцы для токарного станка в процессе резания также испытывают вибрации, которые ухудшают точность и качество обработки. Частота колебаний или вибраций технологической системы зависит от ее жесткости - j и величины радиальной составляющей силы резания - Ру.

Возникающие колебания могут быть низкочастотными (10-100 Гц) и высокочастотными (1,5 до 4,5 кГц). Низкочастотные вибрации возникают, когда колебания получает токарный станок по металлу. Высокочастотные колебания возникают, когда вибрирует инструмент, в случае его малой жесткости, что приводит к увеличению шероховатости и уменьшению точности обработки. Следовательно, от тех и других вибраций следует избавляться или их минимизировать.

Одним из основных элементов определяющих производительность и качество обработки, являются сменные резцы по металлу, а придание им свойств, улучшающих выходные характеристики процессов формообразования, еще более повышает их значимость. Перспективным направлением исследований для повышения эффективности обработки являются сменные резцы для токарного станка с виброгасящими, демпфирующими свойствами.

К числу наиболее широко применяемых технологических операций в машиностроении относится обработка металла на токарном станке. В настоящее время существует множество токарных резцов, в которых используются элементы для демпфирования или гашения вибраций при резании. Вибрации, возникающие при токарной обработке металлов, приводят к преждевременному износу который испытывают на себе все виды токарных резцов, итог - нарушение правильной работы станка, увеличение шероховатости обработанной поверхности и волнистости образование на ней волн с большим шагом.

Основными недостатками демпфирующих систем, которые имеют существующие виды резцов по металлу является то, что в большинстве своем они имеют жесткую связь со станком, это малоэффективно снижает колебания в процессе резания. Кроме того, многие демпфирующие резцы имеют очень сложные конструкции, а работоспособность некоторых вообще вызывает большие сомнения. Требуются новые разработки и модификации токарного инструмента для снижения вибраций при обработке, повышения качества поверхностей деталей и обеспечения устойчивости резания.

Таким образом, демпфирующие резцы по металлу позволяют достичь технического результата по повышению качества обработки и надежности устойчивого процесса резания, а также по упрощению конструкции резца и снижению его материалоемкости.

При изготовлении и испытании экспериментальных образцов универсальных демпфирующих резцов выявлено, что эти резцы для токарного станка по металлу имеют недостаток, который заключается в большой трудоемкости монтажа резцов, связанной со сложностью размещения оправки в тонкостенном контейнере с равномерными зазорами по его основанию и стенкам, заполнением зазоров материалом с высоким демпфированием, а также с неподвижным закреплением контейнера в выборке.

Данные демпфирующие резцы по металлу позволяют:

1. Повысить надежность устойчивого процесса резания за счет возможности минимизации воспринимаемых державкой сил резания путем подбора жесткости материала с высоким демпфированием вставки.

2. Повысить качество обработки изделий, так как державка без возможности контактирования со стаканом размещена во вставке, заполняющей зазоры между основанием, стенками стакана и державкой, поэтому происходит высокоэффективное демпфирование продольных и поперечных вибраций и ударных нагрузок, возникающих в процессе резания.

3. Выполнить резец для токарного станка упрощенной конструкцииииз-за отсутствия необходимости дополнительных разработок по увеличению жесткости и прочности державки.

Литература:

1. Гречишников В.А., Малыгин В.И., Перфильев П.В. Оценка динамической точности настройки сборного режущего инструмента на стадии проектирования. / Вестник машиностроения. 1996. - № 6 - 24-26 с.

YUQORI MARGANESLI PO‘LATLARNING MIKROSTRUKTURASIGA FERROVOLFRAMNING TA’SIRI

N.A. Yusupov, D.O. Jo‘raboyev, Sh.B. Tashbulatov, N.D. Turaxodjayev
Andijon davlat texnika instituti, Andijon, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Yuqori uglerodli va marganesli austenistik mikrostrukturaga ega bo‘lgan bu turdagi po‘lat mustahkamlik, egiluvchanlik, qattiqlik va yuqori yeyilishbardoshlik xossalarini o‘zida mujassamlagan. Bundan tashqari, bu turdagi po‘latlar ishlash davomida ishqalanish ta’sirida yanada qattiqlashish xususiyatiga ham ega. Shu sababli, bu po‘latdan olingan quyma detallar ko‘p yillar davomida tog‘-kon sanoati, temiryo‘llar, qazish, qishloq xo‘jaligida va mashinasozlikning turli xil ishqalanish yuqori bo‘lgan sharoitlarda keng qo‘llaniladi[1-2]. Ushbu maqolada yuqori marganesli po‘latlarning mikrostrukturasiga ferrovolframning ta’siri o‘rganilgan.


Tadqiqot ishida dastlab induksion pechda 1-jadvaldagi tarkibli namunalar qum-gilli qoliplarga quyib olingan. Ushbu namunalar tarkibni quyib olish uchun L14 markali po‘lat parchalariga Ferromarganes 70, Koks granulalari, Ferrovolfram 80 lar analitik usulda hisoblanib shixta tarkibiga kiritilgan. Quyish haroratlari 1480–1500 C° haroratda amalga oshirilgan. Haroratni nazorat qilishda DT-9862 pirometridan foydalanilgan.

1-jadval.

Namunalarning kimyoviy tarkibi

Element (%)	C	Si	Mn	P	S	W	Mo	Fe
Namuna 1	1.12	0.62	17.25	0.01	0.00	0.25	0.03	Muv.
Namuna 2	1.12	0.65	13.00	0.01	0.00	0.56	0.03	Muv.
Namuna 3	1.12	0.66	14.30	0.01	0.00	0.83	0.03	Muv.

Namunalar Jhonny 5 markali mufel pechida dastlab 700 °C haroratda 2 soat davomida tutib turilib keyin yana 1050 °C haroratda 1 soat tutib turildi va keyin suvda sovutildi. Keyin namunalar “Grinder Polisher MP-1C” jilvirlash-polirovkalash jihozida jilvirlash va polirovkalash jarayonlarida ishlov berildi. Jilolangan namunalar yuzasiga 70% li sirka kislotasi, osh tuzi (natriy xlorid NaCl) va pereks vodorodi (H_2O_2) aralashmasi yordamida kimyoviy ishlov berildi. Tayyorlangan namunalar mikrostrukturalari AmScope 50X-500X markali mikroskopda ko‘rildi.



a) b) d)

1-rasm. Tarkibida volfram bo‘lgan namunalarning 5x kattalikdagi mikrostrukturasi.
a) 0.25%, b) 0.56% d) 0.83%.

Mikrostrukturalar tahlil qilinganda namunalarning tarkibida volfram miqdorining ortishi bilan mikrostrukturadagi karbidlar soni ortib hajmi ham kattalashib borgan. Karbidlarning ortishi namunalarning issiqbardoshligini, qattiqligi va yeyilishbardoshligini sezilarli darajada oshiradi, ammo karbidlarning miqdori ortib ketishi zarbiy qovushqoqlik va mustahkamlik xossalarini kamaytirib yuboradi. Shu sababli, detallarning ishlash sharoitiga qarab yuqori marganesli po‘latlarining mexanik xossalarini ferrovolfram kiritish orqali oshirishda po‘lat tarkibiga W elementini 0.3-0.6 % oralig‘ida kiritish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A. Yusupov, 110G13L po‘latlarini mexanik xossalarini oshirish tahlili, “O‘zbekistonda mashinasozlikning zamonaviy yo‘nalishlari va dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami 2025-yil 13-14 may.

2. Yusupov, N., Tashbulatov, S., To‘raxodjayev, N., & Nurdinov, Z. (2025). 110G13L (Gadfild) po‘latining mexanik xossalarini oshirish usullari. “Ahmad Farg‘oniy avlodlari” elektron ilmiy jurnali ISSN 2181-4252. Tom: 1 | Son: 4 | 2025-yil https://al-fargoniy.uz/index.php/journal/article/view/924
https://doi.org/10.5281/zenodo.17661812

IMPROVING THE TECHNOLOGY OF ENHANCING THE MECHANICAL PROPERTIES OF STEELS USING FERROMANGANESE

Nurdinov Zokirjon[a], Turakhodjaev Nodir[a] Sharipov Jamshid[b]
[a]Assistant teacher, “Metals Technologies” department, Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Uzbekistan
[a] Head of the Department, “Metals Technologies” department, Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Uzbekistan
[b]Associate-professor, “Metals Technologies” department, Bukhara State Technical University, Uzbekistan

Ferromanganese is a primary alloying and deoxidizing additive widely used in steel production. Its composition typically consists of Fe–Mn as the main components, with manganese (Mn) content ranging around 70–85%. This element actively reacts with oxygen and sulfur in steel, enhancing the processes of deoxidation (binding oxygen) and desulfurization (reducing sulfur content).

In steel production, ferromanganese is used for the following purposes:

– removing oxides from the molten metal composition;

– qurifying by binding sulfur into the slag;

– improving impact toughness, strength, hardness, and wear resistance as an alloying element.

Manganese combines with oxygen to form MnO. This compound readily bonds with slag and separates from the metal phase. Therefore, the efficiency of the deoxidation process is increased by introducing ferromanganese inside the furnace or at the ladle stage.

The process of adding ferromanganese to molten steel is based on the principles of mass transfer, melting kinetics, and heat exchange. The efficiency of this process is directly related to the geometric size (d) and density (ρ) of the ferromanganese particles, the temperature (T) of the liquid, and the stirring rate (v). If the particle size is small, its surface area relative to its mass increases, meaning the melting rate rises. However, very fine particles can rapidly form an oxide layer on their surface, which may prevent complete melting or cause agglomeration. Therefore, the optimal size is selected depending on the temperature of the molten steel [1].

A new method for introducing ferromanganese into high-manganese steel has been developed. In this method, ferromanganese is first sorted according to lump size, and then one portion is added in the steelmaking furnace and the second portion in the ladle. As a result, the ferromanganese is distributed more uniformly in the cast steel, and observation of the steel microstructure shows a reduction in grain size.

Samples obtained by traditional and new technological methods were tested for tensile strength, impact toughness, hardness, and wear resistance after undergoing the same heat treatment regime. In all tests, the properties of the sample cast using the new method were confirmed to be superior.

References:

1. Xolmirzayev N.B. va b., po‘lat qotishmalari suyuqlantirish jarayonida tarkibidagi nometall qo‘shimchalar va gazlarni vallastonit bilan kamaytirishning nazariy asoslari, O‘zbekiston kompozitsion materiallar Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali, ISSN 2091-5527 №2/2025


2. yusupov, nuriddin, Nurdinov, Z., Turaxodjayev, N., Sharipov, J., Raxmanov, U., & Bobodustov, Z. (2026). Marganesli po‘latga turli elementlar va termik ishlov berishning ta’siri. Потомки Аль-Фаргани, (1), 156–159. извлечено от https://al-fargoniy.uz/index.php/journal/article/view/1044

TITAN TA’SIRIDA ALYUMINIY QUYMAKORLIK QOTISHMALARINING QATTIQLIGINI O‘ZGARISHI

Nigora Rizayeva[1], Sarvar Tursunbayev, Tatlimurat Kalendarov
Toshkent davlat texnika universiteti, “Metallar texnologiyalari” kafedrasi


Qotishmalarning qattiqligi odatda uning plastik deformatsiyaga qarshilik ko‘rsatish xossasi sifatida aniqlanadi. Materialshunoslik sohasida qattiqlikni aniqlash usullari orasida qattiq materialni o‘zidan nisbatan qattiqmas materialga botirish sinovi keng qo‘llaniladi. Ushbu usulda shar, konus yoki piramida shaklidagi qattiq jism ma’lum bir (ko‘p hollarda doimiy) yuklama ostida namunaga bosiladi. Shundan so‘ng hosil bo‘lgan izlarning chuqurligi yoki yon o‘lchamlari asosida qattiqlik qiymatlari aniqlanadi. Ushbu tadqiqot ishida alyuminiy qotishmasi tarkibiga titan kukuni kiritgan holda namunalarning mexanik xossasi hisoblangan qattiqligini o‘zgarishini tahlil qilishgan.

Tadqiqot jarayonida alyuminiy qotishmasiga shixtaga nisbatan 0.1% dan 0.3% gacha titan kukuni kiritilgan bo‘lib, namunalar induksion pechda suyuqlantirilgan. Suyuqlantirilgan namunalar 750º C haroratda qum-gilli qoliplarga quyib olindi.



1-rasm. Qattiqlikni aniqlangan namuna ko‘rinishi.

Namunalarni qattiqligini aniqlash uchun Rokvel usulidan foydalanildi. Rokvell qattiqlikni aniqlash sinovida 120° uchburchakka ega olmos konus yoki qattiqlashtirilgan po‘lat sharlar (diametri 1/16 dyum = 1.5875 mm yoki 1/8 dyum = 3.175 mm) bosuvchi sifatida qo‘llanildi. O‘lchangan namunaning ko‘rinishi 1-rasmda berilgan. Qattiqlikni aniqlash uchun THBRV-187.5DX hardness testing device uskunasidan foydalanildi. O‘lchangan natijalar 2-rasmdagi diagrammada keltirilgan.



2-rasm. Namunalarning qattiqligini o‘lchash natijalari.

O‘tkazilgan tajriba asosida ma’lum bo‘ldiki alyuminiy-kremniy quymakorlik qotishmasini titan kukuni bilan modifikatsiyalash qotishma qattiqligiga sezilarli darajada ta’sir qilganligi aniqlandi. Titan kukuni bilan modifikatsiyalangan namunalarda esa qattiqlikning asta-sekin va barqaror ortib borishi kuzatiladi. 0,3 % da maksimal qiymat (~66,1 HR) qayd etiladi. Bu holat titan kukunining suyuqqotishmada bosqichma-bosqich singishi va bir tekis taqsimlanishi bilan izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. N. Rizaeva, & S. Tursunbayev, (2026, February). Analysis of technologies for modifying aluminum–silicon casting alloys with titanium. In *International Online Multidisciplinary Conference* (pp. 68–70).

2. S. Tursunbayev, N. Rizayeva, & Tadjiyev, N. (2026). Al-Si tizimidagi qotishmalarini titan elementi bilan modifikatsiyalash texnolgiyasi. *Строительство и образование*, *5*(1), 340–344.

ALYUMINIY QUYMAKORLIK QOTISHMALARINING SUYUQOQUVCHANLIGINI ANIQLASH

Sobirjon Murodov, Baqbergen Saburov, Sarvar Tursunbayev
Toshkent davlat texnika universiteti, “Metallar texnologiyalari” kafedrasi

Suyuqoquvchanlik xossasi qotishmalarining eng muhim quymakorlik xossasi hisoblanadi. Agar namunlarni quyish jarayonida qotishmada yetarli darajadagi suyuq-oquvchanlik xossasi bo‘lmasa, quymalarda turli nuqsonlar yetishmaslik, qolipni egallab olmaslik, gaz rakovinalar va boshqalar paydo bo‘lishi mumkin. Suyuq oquvchanlik juda ko‘p omillarga jumladan, qotishmaning qovushqoqligi va sirt tarangligi, uning tarkibi, quyilish sharoiti, qotishmaning qolipdagi harakati va sovishi, uning birlamchi kristallanish sharoiti, kristallanish oralig‘i va boshqalar bog‘liqdir.Suyuq oquvchalik ikki tur bo‘lib, haqiqiy va amaliyga bo‘linadi. Haqiqiy va amaliy suyuq oquvchanlik o‘rtasida farq bor. Haqiqiy suyuq oquvchanlikni nol suyuq oquvchanlik chizig‘idan bir xil haroratda turli xil tarkibdagi qotishmalar uchun aniqlanadigan suyuqoquvchanlik deb tushunish kerak. Bunday holda, har xil quyish haroratini olish mumkin.



1-rasm. Suyuqoquvchanlikni aniqlash uchun spiral namuna.

Применение интеллектуальных алгоритмов позволяет сократить энергопотребление за счёт выбора рациональных технологических параметров, оптимизации режимов деформации и снижения избыточных нагрузок на оборудование. Одновременно уменьшается износ инструмента и повышается его ресурс, а также снижается вероятность возникновения дефектов продукции. Предполагается, что использование методов искусственного интеллекта обеспечит более стабильное протекание технологического процесса и повысит точность управления параметрами штамповки. Это, в свою очередь, способствует сокращению количества отходов производства и повышению ресурсной эффективности.

Использованная литература:

1. Kalpakjian S., Schmid S. Manufacturing Engineering and Technology. Pearson Education, 2014.

2. Рахимов.Д.Р Международная научная и научна-техническая конференция “Интеграция науки, оброзования и производства в машиностроении: тенденции, проблемы и решения” Тезис «Разработка модели четырёх угловой скобы для тракторов в условиях ТТЗ»

3. LeCun Y., Bengio Y., Hinton G. Deep learning // Nature, 2015.

PROKATLASH JARAYONLARIDA YUQORI NIKELLI QOTISHMADAN LIST PROKATLASHDA QAYTA KIRISTALLANISHDAGI METALLNI XOSSASIGA TA'SIRINI TADQIQOT QILISH

Saydumarov Botir Muradovich dotsent,
Yuldashaliyev Shohruhbek Diyorbek o'g'li
60M-25-guruh magistranti

Anotatsiya. Ushbu maqolada yuqori nikelli qotishmalarni issiq va sovuq prokatlash jarayonida sodir bo'ladigan qayta kristallanish hodisalari tadqiq etiladi. Kristallanish darajasining qotishma mustahkamligi, plastikligi va korroziyaga bardoshliligi bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari prokatlashning optimal harorat va deformatsiya rejimlarini tanlash uchun xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nikel miqdori kristallanish tezligi va donalarning o'lchamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqori nikelli qotishmalarda qayta kristallanish natijasida donalar mayda va bir xil shaklda hosil bo'ladi. Bu metallning plastiklik darajasini oshiradi, mustahkamlik esa muvozanatli darajada saqlanadi.


Kalit so'zlar. Yuqori nikelli qotishma, list prokatlash, qayta kristallanish, mexanik xossalar, termik ishlov berish

Kirish. Yuqori nikelli qotishmalar yuqori haroratli muhitlarda, kuchli korroziya sharoitida va yuqori mexanik yuklar ostida ishlash qobiliyati tufayli zamonaviy texnologiyalarda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu materiallardan yupqa listlar (0,5-5 mm) ishlab chiqarishda issiq va sovuq prokatlash usullari qo'llaniladi, bu esa materialda intensiv plastik deformatsiyani keltirib chiqaradi. Deformatsiyadan keyin materialning strukturasi va xossalari asosan qayta kristallanish jarayoni bilan belgilanadi. Qayta kristallanish bu yuqori darajada deformatsiyalangan metall kristall panjaralarida yangi, kamroq defektli kristallarning paydo bo'lishi va o'sishidir. Ushbu jarayon metallning mexanik, fizik va kimyoviy xususiyatlarini tubdan o'zgartiradi Yuqori nikelli qotishmalar zamonaviy sanoatda eng ko'p qo'llaniladigan materiallardan biri hisoblanadi. Yuqori korroziyaga chidamlilik, issiqlikka bardoshlilik, mexanik mustahkamlik va uzoq xizmat muddatidir. Ayniqsa kimyo sanoati, energetika, mashinasozlik va aviatsiya sohalarida bunday qotishmalar keng qo'llaniladi.

Asosiy qism. Yuqori nikelli qotishmalarda list prokatlash jarayonidan keyin sodir bo'ladigan qayta kristallanishning metall mikrostrukturasi va mexanik xossalariga ta'sirini o'rganish, ya'ni: deformatsiya darajasi va issiqlik ishlovlari qayta kristallanish tezligi va don o'lchamiga qanday ta'sir qilishini aniqlash. Qattiqlik, plastiklik va mustahkamlik ko'rsatkichlarining o'zgarishini baholash. Optimal prokatlash va anneallash rejimlarini ishlab chiqish orqali metall xossalarini yaxshilash. Tadqiqot obyekti sifatida yuqori nikelli masalan, (Ni > 50%) qotishmadan tayyorlangan quymalar olindi. Tajriba prokatlash jarayoni laboratoriya stanida quyidagi o'zgaruvchan parametrlar ostida bajarildi:

Asosiy texnologik parametrlar:

- prokatlash harorati: 950–1150 °C;
- umumiy deformatsiya darajasi: 15-20-45 50 %;
- defarmatsiya tezligi: 0,5-1,5 m/s.



1-rasm Prokatlashtagi metall tolalarning ko‘rinish sxemasi.

Xulosa: Ilmiy manbalarda qayta kristallanish jarayoni deformatsiyalangan donalarning tiklanishi va yangi ekvial donalarning hosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Yuqori nikelli qotishmalarda bu jarayon yuqori haroratlarda sodir bo‘lib, donalar chegarasi migratsiyasi, subdonalarning qo‘shilishi va egizaklanish orqali nukleatsiya mexanizmlari ustuvor hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, prokatlash darajasi va anneallash harorati qayta kristallanish tezligi va donalar o‘lchamiga bevosita ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saydumarov B.M., Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari. Darslik. – Toshkent: ToshDTU, 2022, 305b.

2. Saydumarov B.M. Prokatlash uskunalarini loyihalash. Darslik. – Toshkent: TDTU. 2023, 236 b.

3. Saydumarov B.M., Prokatlash mashinalari va jihozlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2020, 188b.

4. Prokatlash jo‘valarining konstruksiyasi, ishlash sharoiti, ekspluatatsion xossalarini tahlili va ularning chidamliligini oshirish usullari. B.M. Saydumarov, O‘zbekiston Kompozit Materiallar Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali №1/2026.

5. Legirlangan po‘latlardan tayyorlangan prokatlash jo‘valarini chidamliligini oshirish uchun termik puxtalash texnologiyalarini takomillashtirishga. B.M. Saydumarov, Berdiyev D.M., Tashmatov R.Q. Ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. 2026-yil, mart. № 3-son.

6. Ziyonet.uz.

7. edu.uz.

8. gov.uz.

PROKATLASH JARAYONLARIDA KONUSSIMON SHAKLDAGI KICHIK O‘LCHAMDAGI ZAGOTOVKALARNI PROKATLAB OLISHDA QFORM DASTURINI QO‘LLASHNI TADQIQ QILISH

Saydumarov Botir Muradovich dotsent,
Mo‘minov Afzalsho Oljabay o‘g‘li
60M-25-guruh magistranti


Annotatsiya: Ushbu tezisda 35XGSA markali po‘latdan tayyorlanadigan konussimon shakldagi kichik o‘lchamli zagotovkalarni prokatlash jarayonini QForm dasturiy paketi yordamida modellashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida metallning kuchlanish-deformatsiya holati tahlil qilinib, qazib oluvchi tish asosini ishlab chiqarish uchun maqbul texnologik parametrlar aniqlangan. Raqamli simulyatsiya yordamida ishlab chiqarishdagi ehtimoliy nuqsonlarning oldini olish va metall sarfini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Prokatlash, Qform, 35XGSA po‘lati, konussimon zagotovka, modellashtirish, qazib oluvchi tish, deformatsiya.

Kirish. Zamonaviy mashinasozlik va tog‘-kon sanoatida foydali qazilmalarni qazib olishda ishlatiladigan tishli asboblar yuqori mustahkamlik va aniqlikni talab etadi. Bunday murakkab shakldagi, xususan, konussimon zagotovkalarni an’anaviy usullarda tayyorlash ko‘p resurs talab qilishi mumkin. Shu sababli, ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy raqamli modellashtirish texnologiyalarini, xususan, Qform dasturiy paketini joriy etish, texnologik rejimni optimallashtirish va nuqsonlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi 35XGSA markali po‘latdan foydalanib, qazib oluvchi tish asosini shakllantirishda prokatlash jarayonini Qform dasturi orqali modellashtirish va samarali texnologik rejimni ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Tadqiqot obyekti sifatida “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan ishlab chiqariladigan 35XGSA markali po‘lat tanlab olindi. Bu material o‘zining yuqori mexanik xususiyatlari va zarbga chidamliligi bilan ajralib turadi. Konussimon shakldagi kichik o‘lchamli zagotovkalarni prokatlash jarayoni murakkab deformatsiyalanish mexanizmiga ega bo‘lib, unda metallning oquvchanligi va harorat o‘zgarishini nazorat qilish lozim.

Qform dasturi yordamida amalga oshirilgan modellashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:



Geometrik modelni yaratish: Qazib oluvchi tish asosining 3D modeli va prokatlash vallarining konfiguratsiyasi dasturga kiritildi.

Chegaraviy shartlarni belgilash: 35XGSA po‘latining termofizik xususiyatlari, ishqalanish koeffitsiyenti va boshlang‘ich prokatlash harorati o‘rnatildi.

Simulyatsiya va tahlil: Prokatlash davomida metallning kuchlanish-deformatsiya holati tahlil qilindi. Konus qismidagi metall to‘lishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ichki va tashqi nuqsonlar o‘rganildi.

Tadqiqot davomida prokatlash vallarining aylanish tezligi va zagotovkaning siqilish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Qform dasturining qo‘llanilishi tajriba-sinov ishlarini kamaytirishga va metall sarfini optimallashtirishga imkon berdi. Ayniqsa, tish asosining konussimon qismida strukturaning bir xilligini ta’minlash bo‘yicha texnik tavsiyalar shakllantirildi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qform dasturi yordamida 35XGSA po‘latidan tayyorlanadigan konussimon zagotovkalarning prokatlash texnologiyasi muvaffaqiyatli modellashtirildi. Dastur yordamida olingan natijalar real ishlab chiqarish jarayonidagi xatoliklarni 15–20% gacha kamaytirish imkonini beradi. Taklif etilayotgan prokatlash rejimi tog‘-kon sanoati asboblari uchun yuqori sifatli va chidamli qismlarni tayyorlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saydumarov B.M. Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari. Darslik. – Toshkent: ToshDTU, 2022, 305b.

2. Saydumarov B.M. Prokatlash uskunalarini loyihalash. Darslik. – Toshkent: TDTU. 2023, 236 b.

3. Saydumarov B.M. Prokatlash mashinalari va jihozlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2020, 188b.

4. Prokatlash jo‘valarining konstruksiyasi, ishlash sharoiti, ekspluatatsion xossalarini tahlili va ularning chidamliligini oshirish usullari. B.M. Saydumarov, O‘zbekiston Kompozit Materiallar Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali №1/2026.

5. Legirlangan po‘latlardan tayyorlangan prokatlash jo‘valarini chidamliligini oshirish uchun termik puxtalash texnologiyalarini takomillashtirishga. B.M. Saydumarov, Berdiyev D.M., Tashmatov R.Q. Ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. 2026-yil, mart. № 3-son.

6. Ziyonet.uz.

7. edu.uz.

8. gov.uz.


YUQORI XROMLI CHO‘YAN QOTISHMASIGA XROM VA NIKEL ELEMENTINING TA’SIRI

Saidmaxamadov Nosir Mo‘ysininalayevich, t.f.d., dotsent,
Bekchanova Valida Baxram qizi, t.f.f.d., PhD,
Yuldashev Umid Olimjonovich, tayanch doktorant,
Toshpo‘latov Abdulaziz Abduqodir o‘g‘li, talaba
Namangan davlat texnika universiteti, Namangan

Kirish: Yuqori xromli oq cho‘yanlar zamonaviy mashinasozlik, kon-metallurgiya, sement va energetika sanoatlarida keng qo‘llaniladigan yuqori yeyilishga chidamli materiallar sirasiga kiradi. Ushbu qotishmalar tarkibida odatda 12÷30 % gacha xrom mavjud bo‘lib, ularning mikrostrukturasi asosan martensit yoki austenit asosli matritsa va yuqori qattiqlikka ega bo‘lgan M_7C_3 turidagi xrom karbidlari bilan tavsiflanadi [1]. Aynan ushbu karbid fazasi materialning yuqori abraziv va zarbiy yeyilishga bardosh-liligini ta’minlaydi. Yuqori xromli oq cho‘yanlarning asosiy afzalliklari – yuqori qattiqlik (HRC 55÷65 gacha), korroziyaga nisbatan chidamlilik va noqulay muhitlarda ishlash imkoniyati hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning mo‘rtligi va quyma jarayonida mikrostrukturani boshqarish murakkabligi texnologik jihatdan muhim muammolarni keltirib chiqaradi. So‘nggi yillarda yuqori xromli oq cho‘yanlarni ishlab chiqarishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, eritish jarayonini optimallashtirish, modifi-katsiya va legirlash orqali mikrostrukturani boshqarish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, induksion pechlarda suyuqlantirish, ferroqotishmalarni samarali qo‘llash hamda issiqlik ishlovi rejimlarini takomillashtirish orqali material xossalarini yaxshilash imkoniyatlari kengaymoqda [2].

Mazkur ishda yuqori xromli oq cho‘yanlarning tarkibi, mikrostrukturasi, ularning shakllanish mexanizmlari hamda mexanik va ekspluatatsion xossalarini oshirishga qaratilgan zamonaviy texnologik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Yuqori xromli cho‘yanlar yuqori ekspluatatsion xossalarga ega bo‘lsada, ulardan sifatli quyma detallarni olish birmuncha yaxshilanib bormoqda.



1-rasm. Xrom yuqori legirlangan cho‘yanning qattiqligi va yeyilishga qarshiligini ta’siri:
1- nisbiy yeyilishga qarshilik, 2-qattiqlik HRC, 3-standart(cho‘yan markasi 280X28H2).

Chunki cho‘yan turli legirlovchi elementlar bilan ayniqsa xrom bilan legirlanishi natijasida uning quymakorlik xossalari xrom miqdoriga bog‘liq holda yaxshilanadi [3].

Bundan tashqari, legirlangan cho‘yanlarning yeyilishbardoshliligi uning mikrostruktura shakllanishiga juda sezgir bo‘ladi, ya’ni legirlangan cho‘yan quymalarini olishda faqat quymaning sifati, balki cho‘yanni yeyilishbardoshliligini ta’minlovchi mikrostrukturani shakllanishi ta’minlanishi zarur.

Cho‘yanlarni yeyilishbardoshliligini asosan tarkibida Cr miqdori 9,5÷15 % bo‘lganda $(Cr, Fe)_7C_3$, $(Cr, Fe)_3C$ yoki Cr miqdori 30% bo‘lganda $(Cr, Fe)_{23}C_6$ tuzilishga ega bo‘lgan karbidlar tomonidan ta’minlanadi. Bu karbidlar sementit karbidiga qaraganda 1,5÷2,0 marta qattiqroq bo‘ladi. Bu bilan bog‘liq yana bir murakkabliklardan biri $(Cr, Fe)_7 C_3$, $(Cr, Fe)_3 C$, $(Cr, Fe)_{23}C_6$ sistemadagi karbidlarni hosil bo‘lishi uchun 3% S ga ega bo‘lgan cho‘yanda xromning miqdori juda ko‘pi bilan 9,5 dan 30 % oralig‘ida hosil bo‘ladi.

Xromni miqdori 21,1% gacha oshirilganda marganesli cho‘yanni yeyilishbardoshliligi oshishi aniqlandi, chunki xromni karbidlari oshib u esa qotishmani qattiqligi oshishiga sabab bo‘ldi. Biroq xrom miqdorini yana oshirish cho‘yanda karbid atrofida ferrit hosil qiluvchini oshirib, xrom karbidlar va ferrit o‘rtasida bog‘liqlikni kamaytiradi, bu esa yeyilishbardoshlikni kamayishiga sabab bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, yuqori yeyilishbardoshlikka ega marganesli cho‘yanlarni eritish uchun (280X28N2 markali cho‘yandan 15÷20% ko‘proq bo‘lishi uchun) 18÷21% Cr qo‘shish talab etiladi. Yuqori xromlangan (18÷20% Cr) cho‘yanda marganesni 2,1÷11,9% gacha ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalari 1-rasmda keltirilgan.

Nikelning qotishmaga ta’siri. Ishlab chiqarish sharoitlarida shixta materiallari sifatida muddatini ishlab bo‘lgan va tarkibida nikel bor nasoslarlarning quyma detallari ishlatiladi. Shuning uchun bu metallni qimmatligiga qaramay xrom-marganesli cho‘yanni xossalarini o‘rganish uchun qiziqish ortib bormoqda.

Tarkibida nikel bo‘lmasa, xrom-marganesli cho‘yan eng yuqori yeyilishbardoshlikka ega bo‘ladi, lekin uning qattiqligi nikeli mavjud xrom-marganesli cho‘yandan pastroq bo‘ladi.

Nikel qo‘shimchalari austenit shakllanishiga sabab bo‘ladi va shu tufayli qotishmani yeyilishbardoshliligi kamayadi. Bu holat asosan nikel miqdorini 1 % gacha oshirganda ko‘rinadi. Undan keyin qo‘shganda yeyilishbardoshlikka unchalik ta’sir qilmaydi va cho‘yanga qo‘shish qimmat hisoblanadi.

Shunday qilib, yeyilishbardoshlik nuqtayi nazaridan nikel ekspluatatsion xossalarini oshirish uchun modda sifatida ishlatib bo‘lmaydi. Uni faqat marganes va titan bilan birga turli xil bosim ostida ishlaydigan yeyilishbardosh qotishmalarni xossalarini oshirish uchun ishlatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Nikel miqdori har bir quyma detal uchun alohida ishlatish sharoitlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Grunt nasoslaring quyma detallarini tayyorlash uchun qotishma tarkibida 0,3÷1,0% Ni bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Xulosa: Yuqori xromli oq cho‘yanlar yuqori yeyilishga chidamliligi, qattiqligi va noqulay muhitlarda ishlash qobiliyati bilan sanoatda muhim ahamiyatga ega material hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ularning ekspluatatsion xossalari asosan mikrostrukturadagi karbid fazasining miqdori, shakli va taqsimlanishi bilan belgilanadi.

Xrom miqdorining ortishi natijasida M_7C_3 turidagi karbidlar hosil bo‘lib, materialning qattiqligi va yeyilishga chidamliligi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, legirlovchi elementlar (Mo, Ni, V va boshqalar) qo‘shilishi matritsa strukturasini barqarorlashtirib, materialning zarbiy mustahkamligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nodir T. et al. Development of 280X29Nl alloy liquefaction technology to increase the hardness and corrosion resistance of cast products //International Journal of Mechatronics and Applied Mechanics. – 2021. – №. 10. – С. 154-159.

2. To‘raxodjayev ND va boshqalar. Oq choyondagi nuqsonlarning tahlili //Nazariy va amaliy fan. – 2020. – № 6. – S. 675-682.

3. Nosir S., Bohodir K. Quymalarning mustahkamligi va mo‘rtligini oshirish uchun 280X29NL suyultirish texnologiyasini ishlab chiqish // Ishonchli tizimlar muhandisligi bo‘yicha xalqaro konferensiya. – Cham: Springer International Publishing, 2022, 105–115 b.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA LIST PROKATLASH STANLARIDA 2 MM QALINLIKDAGI POLOSALI LISTLARNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH


Saydumarov Botir Muradovich dotsent,
Atakulov Alimardon Abdurashid o‘g‘li
126-22 guruh talabasi, Jumaboyev Bobur Rustam o‘g‘li
126-22 guruh talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada list prokatlash stanlarida 2 mm qalinlikdagi polosali listlarni ishlab chiqarish jarayonini sun’iy intellekt (SI) yordamida optimal-lashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor texnologik jarayonni barqarorlash-tirish, energiya sarfini kamaytirish va xavfsizlik choralarini kuchaytirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, list prokatlash, polosali listlar, prokatlash stanlari, deformatsiya.

Kirish. Metallurgiya sanoatida list prokatlash jarayoni yuqori aniqlik va barqarorlikni talab qiluvchi murakkab texnologik tizim hisoblanadi. Ayniqsa, 2 mm qalinlikdagi yupqa polosali listlarni ishlab chiqarishda quyidagi muammolar yuzaga keladi: qalinlikning notekisligi, deformatsiya jarayonining beqarorligi, energiya va material yo‘qotishlari, inson omiliga bog‘liq xavfsizlik xatarlari. Zamonaviy yondashuv sifatida sun’iy intellekt asosida boshqaruv tizimlarini joriy etish ushbu muammolarni sezilarli darajada kamaytiradi.


Asosiy qism. List prokatlash quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: Mahsulotlar tay-yorlash metall slyab yoki quyma qizdiriladi (1100–1250 °C). Qora prokatlash (roughing) qalinlik keskin kamaytiriladi. Tozalovchi prokatlash (finishing) yakuniy qalinlikka (2 mm) yetkaziladi. Sovitish va tekislash hamda mexanik xossalar shakllantiriladi.



1-rasm. Prokatlash texnologik jarayoni.

2 mm list olishdagi asosiy texnologik muammolar. Yupqa list ishlab chiqarishda quyidagi muammolar dolzarb: Qalinlik aniqligi (0.05 mm talab qilinadi), jo‘valar orasidagi kuchlarning notekis taqsimlanishi, Haroratning keskin o‘zgarishi, Tebranishlar (vibratsiya). Bu omillar mahsulot sifatini pasaytiradi va sifatsiz darajasini oshiradi. Sun’iy intellektni qo‘llash imkoniyatlari.









2-rasm. Prokatlash jarayonini sun’iy intellekt yordamida boshqarish.

Sun’iy intellekt asosida quyidagi vazifalar bajariladi: Jarayonni real vaqt rejimida monitoring qilish, sensorlar orqali quyidagilar nazorat qilinadi: qalinlik, harorat, bosim, tezlik. SI algoritmlari bu ma’lumotlarni tahlil qilib, optimal boshqaruv signallarini beradi.

Machine learning yordamida: jo‘valarning yeyilishi oldindan aniqlanadi, nosozliklar prognoz qilinadi, optimal rejim avtomatik tanlanadi. Har bir zagotovka uchun: individual prokatlash rejimi belgilanadi, qalinlik aniqligi avtomatik sozlanadi.

Sun’iy intellekt asosida xavfsizlikni oshirish: Avtomatik xavfni aniqlash, kameralar orqali operator harakati kuzatiladi, xavfli hududga kirish aniqlanadi, tizim avtomatik to‘xtaydi.



3-rasm. Takomillashtirilgan texnologik model.

Favqulodda holatlarni boshqarish, tezkor signalizatsiya, avtomatik o‘chirish, energiya uzatishni bloklash, inson omilini kamaytirish, masofaviy boshqaruv, robot-lashtirilgan operatsiyalar.

Sun’iy intellekt asosida quyidagi model taklif etiladi: Kiruvchi parametrlar: harorat, tezlik, bosim, SI moduli: neyron tarmoq, Chiquvchi parametrlar: optimal valts bosimi, tezlik, Natijada: qalinlik aniqligi 20–30% yaxshilanadi, energiya sarfi 10-15% kamayadi, sifatsiz miqdori sezilarli pasayadi.

Mazkur yondashuvning yangiligi: real vaqtli SI boshqaruvi, xavfsizlik va texnologiyani integratsiyasi, adaptiv prokatlash rejimlari.

Amaliy ahamiyati: metallurgiya korxonalarida samaradorlik oshadi, inson salomatligi himoyalanadi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi.

Xulosa. Sun’iy intellektni list prokatlash stanlarida qo‘llash 2 mm qalinlikdagi polosali listlar ishlab chiqarishda yuqori aniqlik, samaradorlik va xavfsizlikni ta’minlaydi. Kelajakda to‘liq avtomatlashtirilgan “aqlli prokatlash stanlari”ni yaratish ushbu sohaning asosiy rivojlanish yo‘nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saydumarov B.M. Prokat ishlab chiqarish texnologiyalari. Darslik. – Toshkent: ToshDTU, 2022, 305b.

2. Saydumarov B.M. Prokatlash uskunalarini loyihalash. Darslik. – Toshkent: TDTU. 2023, 236 b.

3. Saydumarov B.M. Prokatlash mashinalari va jihozlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2020, 188b.

4. B.M. Saydumarov. Prokatlash jo‘valarining konstruksiyasi, ishlash sharoiti, ekspluatatsion xossalarini tahlili va ularning chidamliligini oshirish usullari. O‘zbekiston Kompozit Materiallar Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali №1/2026.

5. B.M. Saydumarov, Berdiyev D.M., Tashmatov R.Q. Legirlangan po‘latlardan tayyorlangan prokatlash jo‘valarini chidamliligini oshirish uchun termik puxtalash texnologiyalarini takomillashtirishga. Ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. 2026-yil, mart. № 3-son.

6. Ziyonet.uz.

7. edu.uz.

8. gov.uz.

SAMARALI SOVUTISH-MOYLASH SUYUQLIKLARINI ISHLAB CHIQISH VA QO‘LLASH MAQSADIDA ULARNI TADQIQ QILISH

Mamurov Eldor Tursunovich, Abdukarimov Jasurbek Avazbek o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mashinasozlik sohasida qo‘llaniladigan sovutish-moylash suyuqliklarining xossalari va ularning texnologik jarayonlardagi ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy maqsad mashina detallariga mexanik ishlov berish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi optimal sovutish-moylash suyuqligi hamda muhitini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: Mashinasozlik, texnologiya, fizik-kimyoviy tarkib, metall, kesish, ishlov berish, emulsiya, mineral moylar, yarim sintetik, sintetik, tokarlik, parmalash, frezalash, kesish zonasi, texnologik jarayonlar, metall kesish dastgohlari, iqtisodiy samaradorlik.

Mashinasozlik texnologiyasi bu mashina va mexanizmlarni ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganadigan muhim ilmiy-amaliy sohadir. Bu soha ishonchli, yuqori aniqlikdagi, resurs tejamkor va iqtisodiy jihatdan samarali mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish jarayonida eng ko‘p metallarga kesib ishlov beriladi. Bu jarayonda yuzaga keladigan issiqlik va ishqalanish kuchlari kesuvchi asbobning yeyilishiga, ishlov berilayotgan detal yuzasining sifatini pasayishiga hamda umumiy ishlab chiqarish samaradorligining kamayishiga olib keladi. Yuqoridagi salbiy omillar ta’sirini kamaytirish uchun samarali sovutish-moylash suyuqliklarini ishlab chiqish va qo‘llash maqsadida ularni tadqiq qilish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu boisdan, bir nechta texnalogik jarayonlarni ko‘rib chiqildi va har bir texnologik jarayon uchun alohida tahliliy o‘rganishlar olib borildi. O‘rganish natijasida har bir jarayon uchun mos suyuqlik tanlandi. Misol uchun tokarlik ishlov berish jarayonida hosil bo‘ladigan issiqlikni va ishqalanishni kamaytirishda asosan mineral moy asosli emulsiyalar qo‘llanildi. Bu suyuqliklar yirik dispersli mahsulotlar hisoblanib tarkibida 85% gacha moylovchi emulsiya mavjud. Mazkur suyuqlikni hosil qilish uchun 5–30% konsentratsiyadagi anion va noionogen emulyatorlar hamda suv aralashtiriladi. Natijada oq rangli emulsiya hosil bo‘ladi. Ushbu suyuqlik kesuvchi asbob bilan detal orasida himoya qatlam hosil qilib, kesish kuchlarini kamaytiradi va ishlov berilgan yuzaning g‘adir-budurligini kamaytiradi. Bundan tashqari, kesuvchi asbobning xizmat qilish muddatini sezilarli darajada uzaytiradi.

Parmalash texnologik jarayoni keskich orqali turli xil teshiklarga kesib ishlov berilganda kesuvchi asbob qizib ketishi kuzatiladi va qirindining ishlov berilayotgan zonadan chiqib ketishi qiyinlashadi. Shu sababli, sovutish moylash suyuqligining optimal variantini tanlash muhim hisoblanadi. Ko‘p hollarda maqbul variant sifatida yarim sintetik sovutish-moylash suyuqligi olinadi. Bu suyuqlik tarkibi 5–20% mineral yog‘ va suvda eruvchi polimer moddalardan iborat bo‘lib, yuqori bosimda sovutish va moylash

uchun xlor(CI), oltingugurt(S), fosfor(P) birikmali suyuqliklardan foydalaniladi. Bu suyuqlik parmalash jarayonida haroratni pasayishiga, qirindi ajralib chiqishini yaxshilashga va kesuvchi asbobning ishlash muddatini ortishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, frezalash, jilvirlash va boshqa texnologik jarayonlarida ishlov berilayotgan material xossalari, ishlov berish usullarini inobatga olgan holda smslar tanlab olinadi. Bunga misol tariqasida turli xildagi smsning fizik-kimyoviy xususiyatiga qarab bir-biri bilan taqqoslash mumkin bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval.

Turli asosga ega bo‘lgan sovutish-moylash suyuqliklarining xususiyatlari

Xususiyat	**Mineral moylar**	**Emulsiyalar**	**Yarim sintetik moylar**	**Sintetik moylar**
Tashqi ko‘rinishi	Yog‘simon	Loyqa	Yarim shaffof	Shaffof
Moylash	Juda yaxshi	Yaxshi	Yaxshi	Kuchsiz
Sovutish	Kuchsiz	Yaxshi	Yaxshi	Juda yaxshi
Qirindini chiqarish	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha
Korroziyadan himoya	Juda yaxshi	Kuchsiz	Yaxshi	Yaxshi
Mikrobiologik barqarorlik	Juda yaxshi	Kuchsiz	Yaxshi	Juda yaxshi
Yong‘inga chidamlilik	Yonuvchan	Xavfsiz	Xavfsiz	Xavfsiz

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlillar asosida sovutish-moylash suyuqlik-larining turli asoslari (mineral moylar, emulsiyalar, yarim sintetik va sintetik suyuqliklar) o‘zining fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xususiyatlari bilan farqlanishi aniqlandi. Har biri ma’lum sharoitlarda o‘zining afzallik va kamchiliklariga egaligi, ulardan foydalanish esa ishlov berish turi, kesish rejimlari hamda material xususiyatlariga bog‘liq holda tanlanishi o‘rganildi. Umuman olganda, suyuqlikni to‘g‘ri tanlash kesish jarayonining barqarorligini oshirishga, detal sifatini yuqori darajaga olib chiqishga, kesuvchi asbob-ning xizmat muddatini uzaytirishga, ishlab chiqarish samaradorligi hamda korxonaning iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кучер, А. М. Смазочно-охлаждающие жидкости (СОЖ) при обработке резанием / А. М. Кучер. – Л.: Машиностроение, 1970.

2. Karpov I. N., Belov S. V. “Regeneration of Metalworking Fluids and Lubricants.” Moscow: Mashinostroenie, 2020.

MURAKKAB-SHAKLDOR YUZALARGA ELEKTROKIMYOVIY ISHLOV BERISH

Babayev Narimon Otabayevich, katta o‘qituvchi
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada murakkab shakldor yuzalarga elektrokimyoviy sayqallash va elektrokimyoviy o‘lchamli ishlov berish usullari bayon qilingan.

Kalit so’zlar: murakkab shakldor yuza, mikronotekislik, mikroyoriq, elektrolit, katod, anod-zagotovka, elektrokimyoviy sayqallash, elektrokimyoviy o‘lchamli ishlov berish.

Mashinasozlikda tayyorlanadigan detallarning sirti uning ichki tuzilishiga qaraganda bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Mashina detallarni ishlatishdagi xossalari ko‘p holatlarda materialning makroskopik mustahkamligi bilan emas, balki sirt qatlamning holati va uning fizik-mexanikaviy xossalari bilan belgilanadi.

Buyumning aniqligi va materialiga qo‘yiladigan talablarga qarab, turli ishlov berish usullari qo‘llaniladi. Ularning har biri o‘ziga xos afzalliklarga ega va ma’lum vazifalar uchun mos keladi.

Mexanik ishlov berish metall yoki plastmassa kabi qattiq materiallar uchun juda mos keladi va bir necha mikrongacha aniqlikka erishish imkonini beradi.

Yuza sifatini yaxshilash uchun ko‘pincha kimyoviy usullar qo‘llaniladi.


Kimyoviy ishlov berish mexanik usullar bilan erishib bo‘lmaydigan tozalikka erishish imkonini beradi. Ayniqsa, elektrokimyoviy ishlov berish orqali murakkab profilli detallarga ishlov berish iqtisodiy va texnolik jihatdan yuqori samaradorlikka ega.

Elektrokimyoviy ishlov berish elektroliz paytida mikronotekisliklarning chiqiqlari va botiqlarini anodli eritishga asoslangan. Elektrolit (2) dan (1-rasm, a) o‘zgarmas elektr toki o‘tganda, anod-zagotovka (3) ning sirtida kimyoviy reaksiyalar sodir bo‘ladi va metallning yuza qatlamlari kimyoviy birikmalarga aylanadi. Elektroliz mahsulotlari eritmaga o‘tadi yoki mexanik usulda chiqarib yuboriladi.

Elektrokimyoviy sayqallashda (1-rasm, *a)* zagotovka elektrolitli vanna (*1*) ga joylashtiriladi. Ishlov beriladigan materialga qarab, elektrolit sifatida kislota yoki ishqor eritmalari xizmat qiladi. Zagotovka anodga ulanadi. Katod (*5*) sifatida qo‘rg‘oshin, mis yoki po‘latdan yasalgan plastina xizmat qiladi Elektr zanjiri ulanganda anod materialining erishi boshlanadi.

Erish mikronotekisliklar *8* ning chiqiqlari bo‘ylab sodir (eng yuqori tok zichligi chiqiqlarning cho‘qqilarida) bo‘ladi. Erish mahsulotlari (*7)* (o‘tkazuvchanligi past bo‘lgan oksidlar yoki tuzlar) chuqurchalarni to‘ldiradi va metallning erishiga to‘sqinlik qiladi. Chiqiqlar va botiqlar bo‘yicha tanlab eritish tezligi mikronotekisliklarni tekislaydi. Ishlov berilgan yuza metalldek yaltiraydi.

Elektrokimyoviy sayqallash mikroyoriqlar chuqurligini kamaytiradi, tayyor mahsulotni deformatsiyalamaydi, strukturaning termik o‘zgarishlarini istisno qiladi. Bu usul qattiq bo‘lmagan zagotovkalarga bir vaqtning o‘zida butun yuza bo‘ylab ishlov berish imkonini beradi va kesuvchi asboblarga oxirgi ishlov berishda keng qo‘llaniladi.



1-rasm. Elektrokimyoviy ishlov berish sxemalari: a-sayqallash; b-o‘lchamga ishlov berish:
1-vanna; 2-elektrolit; 3-zagotovka; 4-elektrolitni uzatish; 5-katod;
6-elektrolitni to‘kish; 7-eritish mahsulotlari; 8-mikronotekisliklar; 9-teshik.

Elektrokimyoviy o‘lchamli ishlov berishning o‘ziga xos xususiyati (1-rasm, *b)* elektrodlararo oraliq orqali bosim ostida haydaladigan elektrolit oqimidagi elektroliz bo‘lib, u zagotovka – anod *3* va asbob – katod *5* tomonidan hosil qilinadi. Bir vaqtning o‘zida elektrolit oqimi elektroliz mahsulotlarini ishchi zonadan chiqarib yuboradi. Usul bir vaqtning o‘zida katod ta’sirida bo‘lgan zagotovkaning butun yuzasiga ishlov berish imkonini beradi (sirtning ishlov berilmaydigan qismlari izolyatsiya qilinadi). Usul bikr bo‘lmagan zagotovkalarga, murakkab-shakldor zagotovkalarga; shakldor bo‘shliqlarga yoki qiyin ishlov beriladigan materiallardagi shakldor berk (ochiq) teshiklarga ishlov berish imkonini beradi. Bo‘shliqlar yoki teshiklarga ishlov berishda elektrolit katodning ochiq yoki berk markaziy kanali bo‘ylab *9* teshiklar orqali uzatiladi.

Shakldor yuzalar, chiqiqilar, botiqlar, murakkab shaklli ichki va tashqi yuzalarni abraziv asbolar bilan sayqallash uchun murakkab profilli asboblar tayyorlash talab qilinadi. Bu, o‘z navbatida, ishlov berish tannarxining ortib ketishi olib keladi. Bu muammoning maqbul yechimi sifatida elektrokimyoviy ishlov berishni ko‘rsatish mimkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Материаловедение и технология конструкционных материалов. Учебник. Под редакцией Арзамасова В.Б. и Черепахина А.А. – М., Издательский центр «Академия», 2007, 446 с.

2. Зайцев, А.Н. Электрохимическая обработка. Теория, технология, оборудование: учебное пособие / А. Н. Зайцев. – Москва; Вологда: Инфра-Инженерия, 2024, 636 с.

3. Babayev, N. O., Siddiqov, A. S., & Hamidov, A. S. (2023). Mashinasozlikda detallar sirtlarini puxtalashning ionli legirlash texnologiyasi: mashinasozlikda detallar sirtlarini puxtalashning ionli legirlash texnologiyasi. “*Qurilish va ta’lim*” *ilmiy jurnali*, *1*(1), 60-64.

SUYUQLIK VA GAZLARNI TASHISH UCHUN VAGON - SISTERNANING KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Begmatov Dilmurod Karimjonovich
Namangan davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchi.
E-mail: begmatovdilmurod5@gmail.com, tel:+99(893) 4922294
Qodirjonov Samandar Baxtiyor o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti, talaba
E-mail: qodirjonovsamandar@gmail.com, tel:+99(893) 8180711


Kalit so‘zlar: texnologiya, konstruksiya, shnekli val, qovushoq, vagon-sisterna, qozon, cho‘tkasimon kurak, po‘lat, cho‘kindi, harorat, bosim, struktura, mustahkamlik.

Annotatsiya: Maqolada vagon-sisterna qozoni ostidagi cho‘kindini tozalash uchun o‘ngga va chapga aylanadigan cho‘tkasimon kuraklar bilan jihozlangan shnekli valni qo‘llash asosida takomillashgan konstruksiyasi bo‘yicha tahliliy natijalar keltirilgan.

Ma’lumki, xalq xo‘jaligi ehtiyojini qondirish maqsadida bir joyda ishlab chiqarilgan yoki qazib olingan suyuq yoki gazlarni temiryo‘l orqali vagon - sisternalarda boshqa joyga yetkazib beriladi.

Bunday yuklarga neft mahsulotlarini, shakar siropini, kislota va ishqorlarni misol keltirish mumkin. Bunday yuklar vagon - sisternalarda ma’lum vaqt saqlanganligi yoki tashish davomida ma’lum vaqt o‘tishi hisobiga sisterna qozoni ostida cho‘kindi hosil bo‘ladi.


Suyuq va kam qovushoq yuklarni tashishga mo‘ljallangan vagonlar ramaga o‘rnatib mahkamlangan sisterna qozonidan, yuklarni sisternaga yuklash va undan tushirib olishga mo‘ljallangan qurilmadan va zich yopiladigan qopqoqdan tashkil topgan bo‘ladi. Bunda yuklash va tushirish qurilmasi qozonning ostida joylashgan shnekli val shaklida tayyorlangan va ushbu valning uchi uni aylantiruvchi yuritmaga ulangan bo‘ladi. Ushbu yuklash va tushirish qurilmasi faqat yuklarni sisternaga yuklashda va tushirishda harakatga keladi. Tashiladigan yukning xususiyatidan kelib chiqib, undan ajraladigan cho‘kindi vaqt o‘tishi bilan sisterna ostida qotib qolishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, shnekli valning me’yorda ishlashiga zarar yetkazishi mumkin [2].



1-rasm. Shnekli vali takomillashtirilgan vagon - sisterna. 1-vagon - sisternaning qozoni; 2 va 3-qozonning ikki yon tomonlari; 4-zich yopiladigan ustki qopqog‘i; 5-yukni tushirish qurilmasi; 6 va 7-saqlash klapanlari; 8-shnekli val; 9-shnekning spiralsimon qanotlari; 10-oraliq tayanch; 11-o‘rta tayanch; 12-elektr yuritgich; 13-vagon aravasi; 14-podshipnik; 15-podshipnik oboymasi; 16-shponka; 17-mufta; 18-qopqoq; 19-salnik; 20-vtulka; 21 va 22- shnekning chap va o‘ng qanotlari.

Vagon – sisternalarni payvandlab tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish ustida olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida hamda shnekli val konstruksiyasini takomillashtirish va uning ishonchliligini oshirish maqsadida quyidagilar amalga oshirildi (1-rasm).

Bunda qozon ostida hosil bo‘ladigan cho‘kindilardan tozalash uchun shnekli valning o‘ng va chap qanotlarining tashqi qismiga cho‘tka o‘rnatiladi. Ushbu cho‘tkalar elastik-deformatsiyalanuvchi po‘lat simlardan tayyorlanadi va ular shnekka listsimon qo‘yilma yordamida nuqtali kontakt payvandlanadi (2-rasm).



2-rasm. Takomillashtirilgan shnekning sxemasi.
23-cho‘tkasimon kurak; 24- elastik-deformatsiyalanuvchi po‘lat simlar; 25-listsimon qo‘yilma; 26-takomillashtirilgan shnekni valga o‘rnatish uchun teshik.

Takomillashtirilgan temiryo‘l vagon – sisternasi quyidagicha ishlaydi. Yuklangan vagon – sisterna kerakli manzilga yetib kelganidan so‘ng yukni tushirish qurilmasi ochiladi. Keyin kompressor yordamida vagon – sisterna ichiga siqilgan havo yuboriladi va aravaga o‘rnatilgan elektr yuritgich orqali spiralsimon qanotlarga cho‘tkali shnekli val aylanma harakatga keltiriladi. Natijada suyuq yukni tushirish qurilmasi tomon siljiydi. Bunda shnekli valning chap qismi chapga, o‘ng qismi esa, o‘ngga aylanadi. Natijada, shnekning qanotlari ustiga payvandlab mahkamlangan elastik-deformatsiyalanuvchi po‘-lat simlardan iborat cho‘tkasimon kurak sisterna qozoni ostiga cho‘kib qolgan cho‘kin-dilarni suyuq yukka aralashtirib yuboradi va qozonni to‘la tozalanishini ta’minlaydi.

Shunday qilib o‘ngga va chapga aylanadigan cho‘tkasimon kuraklar bilan jihozlanib takomillashtirilgan shnekli valni qo‘llash vagon - sisternani suyuq yukdan tez va sifatli bo‘shatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimov., M.T. Mansurov., D. Begmatov., U. Xaydarov. Specific Properties of Welding Chromium-Nickel Steels. Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 9, ISSN 2697–2212, September 2021. 65-69 peg. Online: https://academicjournal.io

2. Patent Uz IAP 7845. Suyuq va yopishqoqligi past bo‘lgan yuklarni tashish uchun temiryo‘l sisternyasi// Rasmiy axborotnoma. 2024 Byul. №11.

3. D.K. Begmatov, U.Y. Xaydarov. Technology of Welding Metal Products Under Flux Layer. Eurasian Journal of Engineering and Technology. Vol. 5, ISSN: 2795–7640, April 2022. p. 45–49.

4. K. Qosimov., M.T. Mansurov., D. Begmatov., U. Xaydarov. Technological Features of Surfacing of Working Bodies Under a Layer of Flux. Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 9, ISSN 2697-2212, September 2021. 59–63 peg. Online: https://academicjournal.io

5. M.M. Ubaydullayev., Sh.A. Karimov., Sh.M. Shakirov., R. Qudratov., G‘.M. Parmonov. Use of Carbon Materials as a Heating Element. European multidisciplinary journal of modern science. Vol. 6, Issue 8, June 2022. p. 671–677.

6. K. Z. Qosimov., D.K. Begmatov. Flyus qatlami ostida payvandlangan namunalarni mikrostrukturasini tahlil qilish texnologiyasini takomillashtirish. “Fan va innovatsiya – 2023: rivojlanish va ustuvor yo‘nalishlari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 20–22-oktyabr, 2023-yil, 124–126-betlar.

7. M.M. Ubaydullayev, K. Abdullayev, D. Begmatov, S.M. Abduvaliyev, B.D. Muxammadaliyev, Uglerod asosli elektr cho‘tka materiallarni olish. “Texnika va texnologiyalar rivojining istiqbollari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 18-oktyabr, 2023-yil, 99–101 betlar.

8. Toyo Tanso Co. Features of Special Graphite Products. Elektronnыy resurs http://www.ttu.com/1.Special graphite eg.pdf

9. S. Shuxrat, A. Akmal, U. Mamasidiq, & Bohodir, E. (2022). determination of the effect of temperature on the graphitization process of amorphous carbon materials. Conferencea, 284–288.

10. M.M. Ubaydullayev, & N.N. Isroilov, (2023). Mahalliy xomashyolar asosida olingan uglerod asosli materiallarni xossalarini tatqiq qilish usullari: mahalliy xomashyolar asosida olingan uglerod asosli materiallarni xossalarini tatqiq qilish usullari. “Qurilish va ta’lim” ilmiy jurnali, 1(1), 245–248.


11. Ahmadjonov, M., & Ubaydullayev, M. (2023). prospects of obtaining mineral powder based on local raw materials: prospects of obtaining mineral powder based on local raw materials. “Qurilish va ta’lim” ilmiy jurnali, 1(1), 296–298.

FLYUS QATLAMI OSTIDA YOYLI PAYVANDLASH QURILMASI

Begmatov Dilmurod Karimjonovich
Namangan davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchi.
E-mail: begmatovdilmurod5@gmail.com, tel:+99(893) 4922294
Abdusattorov Diyorbek Alisher o‘g‘li
Namangan davlat texnika universitet, talaba
E-mail: abdusattorovdiyorbek555@gmail.com, tel:+99(850)7305282

Kalit so‘zlar: texnologiya, konstruksiya, fiyus, uskuna, sisterna, elektrod sim, apparat, payvandlash qurilmasi, erish zonasi, ishchi asbob, kallak.

Annotatsiya: Maqolada Flyus qatlami ostida payvandlash qurilmasini takomillashtirish orqali yirik gabaritli buyumlarni payvandlash bo‘yicha tahliliy natijalar keltirilgan.




Flyus qatlami ostida payvandlash uskunasiga taalluqli bo‘lib, yirik gabaritli buyumlarni, masalan, ekskavator cho‘michlarini, temiryo‘l sisternalarini payvandlashda qo‘llanilishi mumkin, ular qalin devorli listlardan tayyorlanadi, tor bo‘laklarga ega yoki l=2-5 mm oraliq bilan joylashtirilgan payvandlanadigan listlar.

Flyus ostida payvandlash suzuvchi elektrod bilan mexanizatsiyalashgan yoyli payvandlashning eng keng tarqalgan usulidir. Bunda katta uzunlikdagi elektrod simi ishlatiladi, u buklama shaklida o‘raladi va yoy zonasiga avtomatik ravishda erish, shuningdek, payvandlanadigan qirralar bo‘ylab siljish jarayonida uzatiladi.


Flyusni eritish zonasiga uzatuvchi kallakli payvandlash apparatini bir vaqtning o‘zida mexanik siljitish bilan flyus ostida payvandlash usuli ma’lum. Ma’lum usulning kamchiligi shundaki, qo‘llaniladigan apparat eritish zonasiga flyusni bir tekisda uzatishni ta’minlamaydi, bu esa uzatilayotgan flyus porsiyasining yoyilma kengligi bo‘ylab yoyilishi, chokning ochilib qolishi va payvandlash texnologiyasining buzilishi, payvandlanayotgan chokning mexanik nuqsonlar va ehtimoliy yoriqlar bilan notekis hosil bo‘lishi bilan bog‘liq.

Tadqiqotimiz vazifasi simli elektrodning erish zonasiga flyusning barqaror va bir tekis uzatilishini ta’minlovchi payvandlash avtomatining kallagini takomillashtirishdan iborat.


Ko‘rsatilgan vazifa shu bilan bajariladiki, flyus ostida payvandlashning ma’lum usulida payvandlash apparati mavjud bo‘lib, u simli elektrodning erish zonasiga avtomatik ravishda flyus uzatuvchi nasadkali kallak bilan ta’minlangan, kallak qo‘shimcha ravishda rostlanadigan tirqish hosil qilish imkoniyati bilan plastinalarning rezbali shpilkasiga mahkamlangan holda bajarilgan bortli cheklagich bilan ta’minlangan, bunda shpilkalar rezbaning har tomonlama yo‘nalishi bilan bajarilgan, bortli cheklagich esa flyus uzatish oldida joylashgan.




3-rasm



5-rasm



4-rasm



6-rasm

Tadqiqot mohiyati rasmlar bilan tasvirlangan bo‘lib, 1-rasmda flyus qatlami ostida yoyli payvandlash uchun qurilmaning umumiy ko‘rinishi tasvirlangan; 2-rasmda 1-rasmdagi tasvirning A-A kesimi; 3-rasmda flyusni joylashtirish uchun qurilmaning o‘zi kattalashtirilgan masshtabda ko‘rsatilgan; 4-rasmda xuddi shunday, yuqoridan ko‘rinishi; 5-rasmda 3-rasmdagi tasvirning B-B kesimi; 6-rasmda 3-rasmdagi tasvirning V-V kesimi ko‘rsatilgan.

Flyus qatlami ostida yoyli payvandlash qurilmasi flyus uzatish uchun kallak (2) va nasadka (3) li payvandlash apparati (1) ning o‘zini o‘z ichiga oladi. Payvandlash apparati (1) orqasida kallak 2 orqasida yuqoriga-pastga va o‘ngga-chapga siljish imkoniyati bilan shtanga (4) o‘rnatilgan bo‘lib, u ponasimon charxlangan (7) erkin aylanuvchi disk ko‘rinishida bajarilgan ish asbobi (6) bilan prujinalangan kronshteyn 5 ni ko‘tarib turadi. Ishchi asbob 6 ning payvandlanadigan listlar (8) va (9) ga nisbatan holati korrektorlar (10) va (11) bilan rostlanadi. Varaqlar (8) va (9) ustida payvandlanadigan chok ustida flyus qatlami ostida yoy yordamida payvandlash uchun biz tomonimizdan modifikatsiyalangan qurilma joylashgan bo‘lib, u flyusni uzatish uchun uchlik 3 oldida joylashgan va rezbaning qarama-qarshi yo‘nalishiga ega bo‘lgan gayka (14) li ikkita shpilka 13 vositasida masofani o‘zgartirish imkoniyati bilan o‘zaro mahkamlangan ikkita plastina 12 ni o‘z ichiga oladi.

Ikki listli flyus qatlami ostida yoyli payvandlash qurilmasi quyidagicha amalga oshiriladi.

Payvandlash boshlanishidan oldin ishchi asbob (6) kallak (2) dan shlak zonasida bo‘ladigan masofada o‘rnatiladi. Buning uchun shpilka (13) ni aylantirib, plastinalar (12) ni l=2-5 mm masofada, ya’ni disk (7) ning eniga ponasimon charxlangan holda o‘rnatiladi. Bunda disk (7) bo‘lajak payvand chokni yopishi, plastinalar (12) esa flyusning payvand chok bo‘ylab kengayish (yoyilish) zonasini yopishi kerak. Boshqa qalinlikdagi listlarni payvandlashda shpilkalar (13) ni u yoki bu tomonga burab,

plastinalar (12) ning holati o‘zgartiriladi. Rezbaning chap va o‘ng yo‘nalishi bunga yordam beradi.

Shunday qilib, qurilmaning universalligi uni turli qalinlikdagi listlarni payvandlashda qo‘llashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimov., M.T. Mansurov., D. Begmatov., U. Xaydarov. Specific Properties of Welding Chromium-Nickel Steels. Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 9, ISSN 2697–2212, September 2021. 65–69 peg. Online: https://academic journal.io

2. В.Н.Волченко, В.М.Ямпольский, В.А.Винокуров Теория сварочных процессов: Учебник для вузов по специальности «Оборудования и технология сварочного производства»//Под редакцией В.В.Фролова.-Москва: Высшая школа, 1988, 559 с. (313–405 с)

3. Patent Uz IAP 7845. Suyuq va yopishqoqligi past bo‘lgan yuklarni tashish uchun temir yo‘l sisternyasi// Rasmiy axborotnoma. 2024 Byul. №11.

4. D.K. Begmatov, U.Y. Xaydarov. Technology of Welding Metal Products Under Flux Layer. Eurasian Journal of Engineering and Technology. Vol. 5, ISSN: 2795-7640, April 2022, p. 45–49.

5. K. Qosimov, M.T. Mansurov, D. Begmatov, U. Xaydarov. Technological Features of Surfacing of Working Bodies Under a Layer of Flux. Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 9, ISSN 2697–2212, September 2021. 59–63 peg. Online: https://academicjournal.io

6. M.M. Ubaydullayev, Sh.A. Karimov, Sh.M. Shakirov, R. Qudratov, G‘.M. Parmonov. Use of Carbon Materials as a Heating Element. European multidisciplinary journal of modern science. Vol. 6, Issue 8, June 2022, p. 671–677.

7. K. Z. Qosimov., D.K. Begmatov. Flyus qatlami ostida payvandlangan namunalarni mikrostrukturasini tahlil qilish texnologiyasini takomillashtirish. “Fan va innovatsiya – 2023: rivojlanish va ustuvor yo‘nalishlari” Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. 20–22-oktyabr, 2023-yil, 124–126-betlar.

8. Ubaydullayev, M. M., Abdullayev, K., Begmatov, D., Abduvaliyev, S. M., Muxammadaliyev, B. D. Uglerod asosli elektr cho‘tka materiallarni olish. “Texnika va texnologiyalar rivojining istiqbollari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 18-oktyabr, 2023-yil, 99–101 betlar.

9. Toyo Tanso Co. Features of Special Graphite Products. Elektronnыy resurs http://www.ttu.com/1.Special graphite eg.pdf


MEXANIK ISHLOV BERISH ANIQLIGINI TA'MINLASHDA AVTOMATIK BOSHQARISH VA HISOBLASH MUAMMOLARI

Asatillayev Yo'ldashali Malikovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Namangan davlat texnika universiteti, Namangan shahri
tel. 93-272-27-05, e-mail: asatillaevyuldashali@gmail.com
(4-sho'ba. Mashinasozlikda innovatsion energiya va resurstejamkor texnologiyalar).

Kirish. Avtomatlashtirilgan va moslanuvchan dastgohlarda ishlov berish aniqligi kesuvchi asbobning turg'unligiga bog'liq. Kesuvchi asbob yeyilgan hollarda ishlov berilgan yuzalarning o'lchamlari belgilangan chegaralardan chetga chiqadi. Agar asbobning kesuvchi qirrasi singan bo'lsa, dastgohga ortiqcha kuch ta'sir qiladi. Detalga mexanik ishlov berish aniqligini ta'minlash uchun kesuvchi asbobning turg'unlik muddatini, uning ishlov berish vaqtida aniq nazorat qiladigan avtomatik boshqarish va hisoblash usullarini va qurilmalarini loyihalash va ishlab chiqish kerak.

Kesuvchi asbob o'zining ishlash muddatini bajarib bo'lgach, avtomatik tarzda yangisiga almashtiriladi. Bu usulning kamchiligi kesuvchi asbobning turg'unlik chegarasini hisoblab topishda, yo'l qo'yilgan xatolik natijasida yaroqsiz asbob bilan yuzaga sifatsiz ishlov beriladi [1,2].

Detalga mexanik kesib ishlov berishda boshqarish va nazorat qilish ishlarini axborot-nazorat jarayoni sifatida ko'rish, tadqiqot ishini aniq yechimga olib keladi. Ishlov berishdagi boshqarish va nazorat qilish quyidagi 1- rasmda keltirilgan.



1- rasm. Detalga kesib ishlov berishda ishlanayotgan yuzada kesuvchi asbobga ta'sir ko'rsatuvchi boshqariladigan va nazorat qilinadigan kattaliklar.

Ikki koordinatali tokarlik RDB dastgohining detalga ishlov berish jarayonida, kesuvchi asbobga ta'sir ko'rsatuvchi boshqariladigan va nazorat qilinadigan kattaliklar quyidagilar:

x_1 – detalning aylanish tezligi;

x_2, x_3 – kesuvchi asbob joyining o'zgarishi.

Boshqariluvchi ta'sir etuvchi o'zgaruvchilar :

u_1 – shpindelni aylantiruvchi kuch;

u_2, u_3 – ikkita o‘q bo‘yicha supportning harakatini amalga oshiruvchi kuch ;

Nazorat qilinuvchi o‘zgaruvchilar:

z_1 – kesish chuqurligining o‘zgarishi;

z_2, z_3 – koordinatalar bo‘yicha keskich holatini o‘zgarishi.

Rostlanuvchi o‘zgaruvchilar:

y_1 – kesuvchi asbobning yeyilishi;

y_2 – detal materialining qattiqligini o‘zgarishi;

y_3 – dastgohni yurgizuvchi mexanizmlarida hosil bo‘ladigan kuchlar [2,3,4].

Ishlov berish jarayonida holat o‘zgartiruvchilari quyidagidan iborat bo‘lib, kesish nuqtasidagi kesuvchi asbobning keyingi harakatini aniqlash uchun

$$x = \{x_1(t), x_2(t), \ldots, x_n(t)\} \quad (1)$$

zarur bo‘lgan, boshlang‘ich va hozirgi holati tushuniladi.

Boshqariluvchi o‘zgaruvchilar quyidagilar

$$U = \{u_1(t), u_2(t), \ldots, u_n(t)\} \quad (2)$$

kesuvchi asbobga tashqi sharoitlarni yuzaga keltiruvchi ta’sir etuvchilar.

Nazorat qilinuvchi o‘zgaruvchilar :

$$Z = \{z_1(t), z_2(t), \ldots, z_n(t)\} \quad (3)$$

natija yoki rostlanuvchi o‘zgaruvchilar :

$$Y = \{y_1(t), y_2(t), \ldots, y_n(t)\} \quad (4)$$

Dastohning harakati natijasida ta’sirlanuvchi boshqariluvchi o‘lchamlari t vaqtda X_0 boshlang‘ich holati va U_0, Z_0 vektorlar yordamida aniqlanadi :

110G13L po‘latiga termik ishlov berish texnologiyasi

1. Qizdirish jarayoni. Po‘lat odatda 1000–1100 °C haroratgacha qizdiriladi. Bu haroratda austenit strukturasi hosil bo‘ladi va karbidlar eriydi. Qizdirish bosqichida: pech harorati bir tekis bo‘lishi kerak, detalning barcha qismi teng qizdirilishi zarur, ortiqcha qizdirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar harorat haddan tashqari yuqori bo‘lsa, donachalar yiriklashadi va mexanik xossalar yomonlashadi.

2. Ushlab turish jarayoni. Qizdirilgan po‘lat ma’lum vaqt davomida pechda ushlab turiladi. Ushlab turish vaqti detalning qalinligiga bog‘liq bo‘ladi. O‘rtacha ushlab turish vaqti:25–40 mm qalinlik uchun – 1–1,5 soat, 40–60 mm qalinlik uchun – 2 soat. Bu jarayonda po‘lat tarkibidagi uglerod va marganes bir tekis taqsimlanadi.

3. Suvda sovitish. 110G13L po‘latiga ko‘pincha suvda tez sovitish qo‘llaniladi. Tez sovitish natijasida austenit strukturasi saqlanib qoladi va karbidlarning qayta ajralib chiqishi oldi olinadi. Sovitish jarayonining afzalliklari: yuqori qovushqoqlik saqlanadi, yeyilishga chidamlilik oshadi, deformatsion qattiqlashish xususiyati yaxshilanadi. Sovitish jarayonida suv harorati odatda 20–40 °C oralig‘ida bo‘ladi.

Termik ishlov berilgan tishlarning yuzasida ish davomida qo‘shimcha qattiqlashgan qatlam hosil bo‘ladi. Bu qatlam abraziv yeyilishga qarshi himoya vazifasini bajaradi [2-4].

Termik ishlovdan keyingi natijalar

Ko‘rsatkich	Termik ishlovgacha	Termik ishlovdan keyin
Qattiqlik	180 HB	220–260 HB
Yeyilish tezligi	Yuqori	Past
Xizmat muddati	1 baravar	1,5–2 baravar
Zarba bardoshligi	O‘rtacha	Yuqori

Xulosa. 110G13L markali po‘lat ekskavator tishlarini ishlab chiqarishda eng samarali materiallardan biri hisoblanadi. Ushbu po‘latning yuqori qovushqoqligi va deformatsion qattiqlashish xususiyati og‘ir ish sharoitlarida katta afzallik beradi. Po‘latga to‘g‘ri termik ishlov berish natijasida:yeyilishga bardoshlilik oshadi, qattiqlik ortadi, xizmat muddati uzayadi, iqtisodiy samaradorlik yaxshilanadi. Shuning uchun 110G13L po‘latiga optimal termik ishlov rejimlarini qo‘llash ekskavator tishlarining ishonchliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. GOST 977–88. Yuqori marganesli po‘lat quyma materiallari standarti.
2. Mirboboyev B.A. Konstruksion materiallar texnologiyasi. Texnika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T. “O‘zbekiston” 2004, 544 b.
3. Khudaynazarov, D. K., Umarov, U. E., Yunusova, M. U., & Ungboyev, A. M. (2024). Theoretical and experimental determination of the dimensions of the slope and length of the feed distribution device for family livestock farms. In E3S Web of Conferences (Vol. 486, p. 02004). EDP Sciences.
4. O‘ngboyev, A. M., Ismatov, M. N., Ismoilov, U. S., & Mamarizayev, S. A. (2025). Tokli o‘tkazgich atrofidagi magnit maydon kuch chiziqlarini tahlil qilish. Great britain-scientific review of the problems and prospects of modern science and education, 1(11), 10-14.

QOTISHMALARNING SUYUQOQUVCHANLIGINI ANIQLASH USULI VA UNING QOTISHMALAR SIFATINI BAHOLASH


Rizayeva Nigora[1], Tursunbayev Sarvar[1]
Boboyev Nodirbek Qurbonaliyevich[1]

Suyuqoquvchanlik – bu metall va qotishmalarning qolipni to‘ldirish va uning sirtini quyma materiallarda relyef izini berish qobiliyatini ifodalovchi quymakorlik xossasi hisoblanadi. Suyuqoquvchanlik metall va qotishmalarning muhim quymakorlik texnologik xossasi bo‘lib, u eritmaning qolipni to‘ldirish qobiliyati va qolip yuzasida aniq relyef hosil qilish xususiyatini ifodalaydi. Ushbu xossa quyma mahsulot sifatiga bevosita

ta’sir ko‘rsatib, yetishmaslik, quyilmaslik va gaz rakovinalari kabi nuqsonlarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Haqiqiy va amaliy suyuqoquvchanlik o‘rtasida farq bor. Haqiqiy suyuqoquvchanlikni nol suyuqoquvchanlik chizig‘idan bir xil haroratda turli xil tarkibdagi qotishmalar uchun aniqlanadigan suyuqoquvchanlik deb tushunish kerak. Bunday holda, har xil quyish haroratini olish mumkin. Amaliy suyuqoquvchanlik deganda bir xil quyilish haroratida har xil tarkibli qotishmalar uchun aniqlanadigan suyuqoquvchanlik tushunilishi kerak. Bunday holda, nol suyuqoquvchanlik chizig‘i ustida turli xil harorat olinadi.

Amaliyotning ko‘p holatlarida maxsus tadqiqotlarsiz nol suyuqlik haroratini aniqlash qiyin. Shuning uchun, turli qotishmalarning haqiqiy oquvchanligi ko‘rsatkichlariga biroz yaqinlashish uchun ba’zan nol suyuqoquvchanlik ustidan bir xil harorat o‘rniga suyuqlanish ustidan bir xil qizdirishdan foydalanish mumkin [1].



1-rasm. Suyuqoquvchanlikni aniqlash uchun spiral namuna chizmasi.

Shunday qilib, amalda turli qotishmalarning oquvchanligini bir xil quyilish haroratida (amaliy suyuqoquvchanlik) yoki bir xil suyuqlanish haroratida (shartli haqiqiy suyuqoquvchanlik) baholash mumkin. Suyuq oquvchanlik xossasini aniqlash usuli metall qotishmaning takribiga bog‘liq bo‘lib, masalan, po‘latning, magniy va qotishmalarning oquvchanligi qum qolipda olingan prutli namuna bo‘yicha aniqlanadi [2]. Cho‘yan, bronza va alyuminiy qotishmalarining oquvchanligi ko‘ndalang kesimi trapetsiyasimon bo‘lgan, 1-rasmda modeli keltirilgan spiral namuna yordamida aniqlash qabul qilingan. Model tepa yuzasida bo‘rtmalari 2 (50 mm ga teng masofada) bo‘lgan spiral 1, ustun 3 va tirqish 4 tashkil topgan. Tadqiqot ishida alyuminiy qotishmalarida olib borilganligi uchun ko‘ndalang kesimi trapetsiyasimon bo‘lgan spiral namuna yordamida tadqiqot namunalarini oquvchanligini aniqlandi [3].

Tajribada alyuminiy qotishmalarining suyuqoquvchanligi ko‘ndalang kesimi trapetsiyasimon bo‘lgan spiral namuna yordamida o‘rganiladi. Qum-gilli qoliplar (85% kvars qumi, 11% bentonit, 4% suv) tayyorlanib, standart texnologiya asosida presslash

orqali shakllantiriladi. Turli tarkibdagi alyuminiy qotishmalari ushbu qoliplarga quyilib, ularning suyuqoquvchanlik darajasi spiral uzunligi orqali baholanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, alyuminiy qotishmalarining suyuq oquvchanligi ularning kimyoviy tarkibi va quyish sharoitlariga sezilarli darajada bog‘liq. Spiral namuna usuli suyuqoquvchanlikni baholashda ishonchli va amaliyotda qulay usul hisoblanadi. Bir xil quyilish haroratida olingan natijalar amaliy suyuqoquvchanlikni obyektiv baholash imkonini beradi. Olingan natijalar quyma mahsulotlar sifatini oshirish, nuqsonlarni kamaytirish va optimal texnologiya rejimlarini tanlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunbaev, S., Turakhodjaev, N., Mardonakulov, S., & Toshmatova, S. (2024). Effect of germanium oxide on the properties of aluminum casting details in agricultural machinery. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 85, p. 01024). EDP Sciences.

2. Tursunbayev, S., Rizayeva, N., & Tadjiyev, N. (2026). Al-Si tizimidagi qotishmalarini titan elementi bilan modifikatsiyalash texnolgiyasi. Строительство и образование, *5*(1), 340-344.

NAMUNALARNING KIRISHUVCHANLIGINI ANIQLASH VA TAHLILI

Tursunbayev Sarvar[1], Rizayeva Nigora[1], Abdukarimova Munojat[1]
Abduraxmonova Muxlisaxon[1]
Toshkent davlat texnika universiteti, 100095, Toshkent, O‘zbekiston

Quyma hosil bo‘lish jarayonida qotishmaning sovishi bilan bog‘liq ravishda uning hajmida o‘zgarishlar yuz beradi. Qotishma qolipga quyilgandan so‘ng dastlab tez sur’atda soviydi va uning yuzasida mayda zarrali, qalinligi vaqt o‘tishi bilan ortib boruvchi mustahkam po‘st qatlami shakllanadi. Ushbu qatlam qotishmaning ichki qismi uchun izolyatsiya vazifasini bajaradi va natijada ichki hajmdagi sovish jarayoni tashqi muhit bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasiz kechadi.

Qotish jarayonida qator qotishmalarda hajmiy qisqarish (kirishish) natijasida turli xil defektlar, xususan kirishish bo‘shliqlari va g‘ovaklar hosil bo‘lishi mumkin. Biroq ayrim materiallar, jumladan kulrang cho‘yan, qotish jarayonida aksincha hajman kengayish xususiyatiga ega. Bu holat grafitning ajralib chiqishi bilan izohlanadi, chunki grafitning zichligi past va nisbiy hajmi kattadir [1-3].

Qator qotishmalardan olingan quymalar hajmining kirishishi natijasida bo‘shliqlar (kirishish bo‘shliqlari yoki g‘ovaklar) hosil bo‘ladi. Ba’zi qotishmalar (masalan, kulrang cho‘yan) qotirilganda hajmi ortadi, chunki asosiy qotishmaga nisbatan kam zichlikka va katta nisbiy hajmga ega bo‘lgan grafit ajralib chiqadi. Barcha qotishmalardan olingan quymalarning hajmi va o‘lchamlarining davomiy kamayishi ularning qattiq holatda keyingi sovitilishida sodir bo‘ladi. Quymalar hajmi va o‘lchamlarining umumiy

qisqarishi kirishish deb nomlanadi [4]. Quyilmaning cho‘zish jaroyonida chiziqli va hajmiy o‘lchamlarini o‘zgarishiga kirishuv deyiladi. Kirishuv chiziqli va hajmiy kirishuv bo‘lishi mumkin [5].

Quyma sovish jarayonida uch pog‘onali hajmiy kirishuvga duch keladi:

a) suyuq holatda;


b) qotayotganda-likvidus va solidus chiziqlari orasida;

d) qattiq holatda.

Hajmiy kirishuvchanlik (ΔV_{kr}) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\Delta V_{кр} = \frac{V_{кол} - V_{куй}}{V_{кол}} * 100\%$$

bu yerda, V_{qol} – qolip hajmi, sm^3; V_{quy} – olinuvchi quyma hajmi, sm^3.



1-rasm. Hajmiy kirishuvchanlik namunasi uchun qolip.

1 - konus namuna; 2-quyish tizimi; 3 - opoka ustki qism; 4 - opoka ostki qismi.

Chiziqli kirishuv (chiziqli o‘lchamlarning o‘zgarishi) qotishmaninga sosiy quymakorlik xossasi bo‘lib, quymani kerakli o‘lchamda, tashqi va ichki nuqsonlarsiz olishda katta ahamiyatga ega.

Ko‘p hollarda hajmiy kirishuvchanlik chiziqli kirishuvchanlikdan uch barobar ortiq bo‘ladi ($V_{kr} \approx 3\Delta l_r$) [6]. Chiziqli kirishuvchanlik quyidagi formula yordamida topiladi.

$$\Delta l_r = \frac{l_{qol} - l_{куй}}{l_{кол}} * 100\%$$

bu yerda, l_{qol} – qolipning uzunligi, mm; l_{quy} – olinuvchi quyma uzunligi, mm. Kirishuvchanlikni aniqlash uchun maxsus konus shaklli namuna va quyish tizimiga ega bo‘lgan qoliplar qo‘llaniladi. Ushbu usul quymadagi hajmiy o‘zgarishlarni aniq va ishonchli baholash imkonini beradi.

Qotishmalarning kirishuvchanligini o‘rganish quymakorlik texnologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hajmiy va chiziqli kirishuv jarayonlarini aniqlash orqali quymadagi ichki nuqsonlarni kamaytirish, material sarfini optimallash-

tirish va yuqori sifatli mahsulot olish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, kirishuvchanlikni hisoblashda qo‘llaniladigan formulalar amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi va texnologik jarayonlarni to‘g‘ri loyihalashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rizaeva, N., & Tursunbaev, S. (2026). Change In Shrinkage Of Aluminum Alloy During Crystallization As A Result Of Alloy Modification. Stanford Database Library of American Journal of Applied Science and Technology, 6(01), 12–14.

2. Tursunbaev, S., Turakhodjaev, N., Mardonakulov, S., & Toshmatova, S. (2024). Effect of germanium oxide on the properties of aluminum casting details in agricultural machinery. BIO Web of Conferences, 85.

3. Tursunbayev, S., Rizayeva, N., & Tadjiyev, N. (2026). Al-Si tizimidagi qotishmalarini titan elementi bilan modifikatsiyalash texnolgiyasi. *Строительство и образование*, *5*(1), 340-344.

4. Valida, B., Nodir, T., Nosir, S., Nigora, R., & Anvar, T. (2023). Improvement of the Technology of Production of Quality Semi–Finished Product Products from Steel Alloy.

5. Nunes, H., Emadinia, O., Soares, R., Vieira, M. F., & Reis, A. (2023). Adding value to secondary aluminum casting alloys: a review on trends and achievements. *Materials*, *16*(3), 895.

ЛИСТОВАЯ ШТАМПОВКА В МАШИНОСТРОЕНИИ

Абдуллаев Фатхулла Сагдуллаевич
Профессор кафедры «Технологии металлов»
Давулов Шухрат Бозарович
Старший преподаватель кафедры «Технологии металлов»
Бозаров Мехриддин Шухрат угли
Стажер-исследователь кафедры «Технологии металлов»
Ташкентский Государственный Технический Университет им. И. Каримова

Аннотация. В работе рассмотрены особенности листовой штамповки как одного из ключевых процессов обработки металлов давлением. Описаны основные технологические операции, преимущества и недостатки метода, а также его роль в современном машиностроении. Особое внимание уделено влиянию параметров процесса на качество изделий.

Ключевые слова. листовая штамповка, обработка металлов давлением, пластическая деформация, машиностроение, штампы, вытяжка

Введение. Листовая штамповка является важным направлением обработки металлов давлением, широко применяемым в машиностроении. Данный процесс основан на способности металлов к пластическому формоизменению под действием внешних сил. Благодаря высокой производительности и экономичности

листовая штамповка получила широкое распространение в массовом и серийном производстве.

Основная часть. Листовая штамповка включает ряд технологических операций, таких как резка, гибка, вытяжка, пробивка и формовка. Эти операции позволяют получать изделия сложной формы из листового материала без значительных отходов.

Процесс осуществляется с использованием специального инструмента – штампов, установленных на прессовом оборудовании. Качество получаемых деталей зависит от множества факторов: свойств материала, условий трения, точности настройки оборудования и режимов деформации.

Одним из преимуществ листовой штамповки является высокая точность и повторяемость размеров изделий, а также возможность автоматизации производства. Однако существуют и недостатки, включая высокую стоимость изготовления штампов и вероятность возникновения дефектов, таких как трещины и складки.

Существенную роль в процессе играет изменение структуры металла, в том числе явление Рекристаллизация, которое влияет на механические свойства и качество изделий.

Заключение. Листовая штамповка занимает важное место в машиностроении благодаря своей эффективности и широким технологическим возможностям. Современные тенденции развития связаны с внедрением автоматизации и компьютерного моделирования, что позволяет повысить качество продукции и снизить производственные затраты. Перспективы дальнейшего развития данного метода обусловлены ростом требований к точности и надежности изделий.

Список литературы

1. Иванов И.И. Технология металлов – Машиностроение 2024
2. Петров П.П. 3d -технологии в промышленности современные технологии 2023
3. Семенов Е.И. Ковка и объемная штамповка 1978

ДЕФЕКТЫ ПРИ ОБРАБОТКЕ МЕТАЛЛОВ ДАВЛЕНИЕМ И ИХ ПРИЧИНЫ

Абдуллаев Фатхулла Сагдуллаевич
Профессор кафедры «Технологии металлов»
Давулов Шухрат Бозарович
Старший преподаватель кафедры «Технологии металлов»
Бозаров Мехриддин Шухрат угли
Стажер-исследователь кафедры «Технологии металлов»
Ташкентский Государственный Технический Университет им. И. Каримова

Аннотация. Рассмотрим основные виды дефектов, возникающих при обработке металлов давлением, а также причины их появления. Особое внимание уделено влиянию технологических параметров, свойств материала и состояния оборудования на качество получаемой продукции. Приведены классификация дефектов и рекомендации по их предотвращению.

Ключевые слова: обработка металлов давлением, дефекты, прокатка, штамповка, ковка, трещины, складки, рекристаллизация, качество металла

Введение. Обработка металлов давлением является одним из наиболее распространённых и экономически эффективных методов получения заготовок и готовых изделий. Данный процесс основан на пластической деформации материала без разрушения его сплошности. Несмотря на преимущества, в процессе ОМД могут возникать различные дефекты, которые снижают качество изделий, ухудшают механические свойства и могут привести к браку продукции. Поэтому изучение причин возникновения дефектов и методов их предотвращения является важной задачей современного производства.

Основная часть

Дефекты при обработке металлов давлением можно классифицировать по характеру их возникновения и внешнему проявлению.

Одними из наиболее распространённых являются поверхностные дефекты. К ним относятся трещины, надрывы, риски и складки. Причинами их возникновения могут быть низкая пластичность материала, наличие поверхностных дефектов исходной заготовки, неправильный температурный режим, а также износ инструмента.

Внутренние дефекты представляют собой более опасную категорию, так как они не всегда обнаруживаются при визуальном контроле. К ним относятся внутренние трещины, поры и расслоения. Основными причинами их появления являются неоднородность структуры металла, наличие внутренних напряжений, а также неправильные режимы деформации.

Геометрические дефекты связаны с отклонением формы и размеров изделия от заданных параметров. Они возникают вследствие неправильной настройки

оборудования, износа штампов, а также ошибок в расчётах технологического процесса.

Особое значение имеет влияние температурного режима. При слишком низкой температуре увеличивается вероятность возникновения трещин из-за снижения пластичности металла. При слишком высокой температуре возможен перегрев, приводящий к ухудшению структуры и снижению прочности материала.

Скорость деформации также играет важную роль. При высокой скорости возможно образование внутренних напряжений и разрушений, а при слишком низкой – снижение производительности и неравномерность структуры.

К основным способам предотвращения дефектов относятся правильный выбор режима обработки, контроль температуры, использование качественного исходного материала и своевременное обслуживание оборудования.

Заключение. Таким образом, дефекты при обработке металлов давлением являются важной проблемой, влияющей на качество и надёжность продукции. Их возникновение обусловлено совокупностью факторов, включая свойства материала, параметры технологического процесса и состояние оборудования. Для повышения качества изделий необходимо комплексно подходить к выбору режимов обработки, контролю условий производства и совершенствованию технологических процессов.

Список литературы

1. Иванов И.И. Технология металлов – Машиностроение 2024
2. Петров П.П. 3d -технологии в промышленности современные технологии 2023
3. Семенов Е.И. Ковка и объемная штамповка 1978

QORA METALLURGIYA SANOATI TEXNOGEN CHIQINDILARIDAN KOMPLEKS FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

Ubaydullayev Alibek ulug‘bek o‘g‘li, Matkarimov Soxibjon Turdaliyevich
(Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston)

Qora metallurgiya sanoati ishlab chiqarish jarayonlarida katta miqdorda texnogen chiqindilar hosil qiladi. Ularning tarkibida qimmatli komponentlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha ular yetarli darajada qayta ishlanmaydi. Bunday chiqindilardan biri prokatlash jarayonida hosil bo‘ladigan okalina (kuyindi) hisoblanadi [1]. Okalina metall yuzasida yuqori harorat ta’sirida hosil bo‘lib, asosan temir oksidlaridan – FeO, Fe_2O_3 va Fe_3O_4 dan iborat [4]. Mazkur chiqindining kimyoviy tarkibi uni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash imkonini beradi. Xususan, temir oksidlarining rang berish xossalari tufayli okalinadan rangli pigmentlar olish mumkin. Bu esa chiqindilarni kamaytirish

bilan birga, lak-bo‘yoq sanoati uchun muhim mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini yaratadi [2]. Shu sababli, qora metallurgiya chiqindilaridan kompleks foydalanish istiqbollarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida qora metallurgiya chiqindilarining tarkibi va xossalarini o‘rganish, ularni qayta ishlash texnologiyalarini tahlil qilish hamda pigment olish usullarini baholashda ilmiy-tahliliy yondashuv qo‘llanildi.

Asosiy e’tibor prokatlash jarayonida hosil bo‘ladigan okalinani qayta ishlash texnologiyasiga qaratildi. Jarayon quyidagi bosqichlar asosida o‘rganildi:

- mexanik tozalash va dastlabki tayyorlash;
- termik va kimyoviy qayta ishlash;
- mahsulotni dispers holatga keltirish va yakuniy ishlov berish.

Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, okalina tarkibidagi temir oksidlari pigment ishlab chiqarish uchun muhim xomashyo hisoblanadi. Jumladan, Fe_2O_3 qizil rangli pigment, Fe_3O_4 esa qora pigment sifatida keng qo‘llaniladi [7].

Okalinani qayta ishlash texnologiyasi bir necha bosqichdan iborat:

1.Dastlabki tayyorlash bosqichida kuyindi yig‘iladi va mexanik aralashmalardan (chang, qum, moy qoldiqlari) tozalanadi. Magnitli separatsiya va yuvish usullari qo‘llanilib, keyinchalik material quritiladi va maydalanadi [2;3].

2. Termik va kimyoviy qayta ishlash.

Termik usulda okalina ma’lum haroratgacha qizdirilib, kerakli oksid shakliga o‘tkaziladi. Masalan, Fe_3O_4 oksidlanganda Fe_2O_3 hosil bo‘lib, qizil pigment olish imkonini beradi [1]. Kimyoviy usullarda esa temir birikmalari eritmalar orqali ajratib olinadi va cho‘ktirish yo‘li bilan pigment hosil qilinadi [10].

Magnetit asosidagi qora pigment olish jarayoni quyidagi reaksiya orqali ifodalanadi:

$$FeO+Fe^{Fe_2O_3}\rightarrow Fe_3O_4$$

3. Yakuniy ishlov berish.

Olingan mahsulot mayda dispers holatga keltiriladi, bu esa pigment sifatini oshiradi. Zarrachalarning bir xil o‘lchamga ega bo‘lishi rangning bir tekis taqsimlanishini ta’minlaydi. Yakuniy bosqichda pigment quritilib, qadoqlanadi [7]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu texnologiya chiqindilarni kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik ta’sirni pasaytirishga xizmat qiladi [6]. Okalinani qayta ishlash orqali korxonalar qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi [2]. Bundan tashqari, zamonaviy yo‘nalishlar – nanodispers pigmentlar olish, energiya tejovchi uskunalarni qo‘llash va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish – ushbu sohaning rivojlanishiga katta turtki bermoqda [10].

Qora metallurgiya sanoati chiqindilaridan kompleks foydalanish zamonaviy sanoatning muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, prokatlash jarayonida hosil bo‘ladigan okalinani qayta ishlash orqali yuqori sifatli pigmentlar olish mumkin[9].

Mazkur yondashuv quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- sanoat chiqindilarini kamaytirish;
- ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish;
- iqtisodiy foyda olish;
- ekologik barqarorlikni ta’minlash.

Ushbu texnologiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: chiqindilar hajmini kamaytirish, ekologik yuklamani pasaytirish, ishlab chiqarish tannarxini qisqartirish va qo‘shimcha qiymat yaratish. Bundan tashqari, energiya tejamkor uskunalardan foydalanish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, prokat kuyindilarini qayta ishlash orqali rangli pigmentlar olish qora metallurgiya chiqindilaridan samarali foydalanishning istiqbolli yo‘nalishidir. Ayniqsa, O‘zmetkombinat sharoitida hosil bo‘ladigan okalinalarni qayta ishlashda kimyoviy cho‘ktirish usuli eng maqbul hisoblanadi. Sababi, bu usul orqali yuqori tozalikdagi va bir xil disperslikka ega pigmentlar olish mumkin, bu esa mahsulotning eksportbopligini oshiradi. Shu bilan birga, termik usul oddiy va arzon bo‘lsa-da, mahsulot sifati jihatidan kimyoviy usuldan ortda qoladi. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalar asosida kimyoviy qayta ishlashni joriy etish O‘zbekistonda metallurgiya chiqindilarini samarali boshqarish va yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бельский В. В., Кудрявцев А. А. Металлургия железа и стали. – М.: Металлургия, 2010.
2. Левин В. И. Технология переработки отходов металлургического производства. – М.: Академия, 2015.
3. Ржевский В. В. Основы металлургии. – М.: Инфра-М, 2012.
4. Глинка Н. Л. Общая химия. – М.: Юрайт, 2018.
5. Третьяков Ю. Д. Неорганическая химия. – М.: Академкнига, 2016.
6. Соколов А. Н. Промышленная экология. – СПб.: Лань, 2014.
7. Жук А. А. Пигменты и наполнители в лакокрасочных материалах. – М.: Химия, 2011.
8. Gupta C. K. Extractive Metallurgy of Iron. – Elsevier, 2014.
9. Cornell R. M., Schwertmann U. The Iron Oxides: Structure, Properties, Reactions. – Wiley-VCH, 2003.
10. Rout K., et al. “Utilization of Mill Scale in Industrial Applications” // Journal of Materials Science, 2018.

DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN YERLAR. SURXONDARYO VILOYATIDA DEGRADATSIYAGA UCHRASH SABABLARI

Termiz Davlat Universiteti Ekologiya yo‘nalishi 2-kurs Magistranti
Qilichova Muxlisa Abdisoat qizi

Kirish. Yer resurslari jamiyat taraqqiyotining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi rivojlangan hududlarda yer unumdorligi aholining turmush darajasi, oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda butun dunyoda yer degradatsiyasi muammosi keskinlashib bormoqda. Aholi sonining ko‘payishi, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, iqlim o‘zgarishi va noto‘g‘ri xo‘jalik yuritish tizimi natijasida katta maydonlarda unumdorlik pasayib bormoqda.

Yer degradatsiyasi tushunchasi va nazariy asoslari

Yer degradatsiyasi tushunchasi

Yer degradatsiyasi – bu tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarining yomonlashuvi natijasida uning unumdorligi pasayish jarayonidir. Degradatsiya tabiiy va antropogen omillar ta’sirida sodir bo‘ladi.

Yer degradatsiyasining asosiy shakllari

Yer degradatsiyasi quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- suv eroziyasi;
- shamol eroziyasi;
- sho‘rlanish;
- cho‘llanish;
- biologik degradatsiya.

Surxondaryo viloyatida ushbu jarayonlarning deyarli barchasi uchraydi.

SURXONDARYO VILOYATIDA YERLARNING DEGRADATSIYAGA UCHRASH SABABLARI

Noto‘g‘ri sug‘orish tizimlari

Sug‘oriladigan yerlarda suvdan me’yoridan ortiq foydalanish yerosti suvlarining sathini ko‘tarib, tuproq sho‘rlanishiga olib keladi. Bu holat Surxondaryo viloyatida keng tarqalgan muammolardan biridir.

Qishloq xo‘jaligining intensivlashuvi

Bir xil ekinlarni ketma-ket ekish, tuproqni dam oldirmaslik va mineral o‘g‘itlardan me’yoridan ortiq foydalanish tuproq strukturasi buzilishiga olib keladi.

Yaylovlardan haddan tashqari foydalanish

Chorva mollarining soni yaylov sig‘imidan oshib ketishi natijasida o‘simlik qoplami yemiriladi va eroziya jarayonlari kuchayadi.

Iqlim o‘zgarishi ta’siri

Qurg‘oqchilikning kuchayishi va haroratning oshishi cho‘llanish jarayonlarini tezlashtirmoqda.

Surxondaryo viloyatida degradatsiyaga uchragan yerlarning hozirgi holati

Degradatsiya miqyosi

Hozirgi vaqtda viloyat hududining sezilarli qismi o‘rtacha va kuchli darajada degradatsiyaga uchragan. Ayniqsa, sho‘rlangan va eroziyaga uchragan yerlar salmog‘i ortib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligiga ta’siri

Yer unumdorligining pasayishi qishloq xo‘jaligi hosildorligining kamayishiga, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib kelmoqda.

Tuproq turlari va ularning degradatsiyaga moyilligi

Surxondaryo viloyatida yer resurslari quyidagi tuproq turlariga bo‘linadi:

1. Bo‘z tuproqlar – och jigarrang, sho‘rlanishga moyil, eng ko‘p tarqalgan tuproq turi. Sug‘oriladigan yerlar, qishloq xo‘jaligi maydonlarida hosildorlik pasayishining asosiy sababi.

2. Sho‘rxok tuproqlar – sho‘rlanish darajasi yuqori, tabiiy o‘simlik qoplami yetishmaydi. Sug‘orilgan yerlar uchun xavfli.

3. O‘tloqi-alluvial tuproqlar – tog‘ oldi vodiylarida joylashgan, suv resurslariga yaqin, eroziyaga nisbatan sezgir.

4. Qumli tuproqlar – shamol eroziyasiga juda moyil, o‘simlik o‘sishi qiyin.

Bu tuproqlarning har biri degradatsiyaga nisbatan turlicha sezgir: bo‘z tuproqlar sho‘rlanishga, qumli tuproqlar shamol eroziyaga, tog‘ oldi alluvial tuproqlar suv eroziyaga eng ko‘p uchraydi.

Sho‘rlanishning hozirgi holati

Sug‘orish tizimlari yetarli darajada ishlamasligi va yerosti suvlarining sathining ko‘tarilishi natijasida viloyatning ayrim hududlarida sho‘rlanish jarayoni keskinlashgan:

- **Sho‘rlangan maydonlar** – viloyatdagi sug‘oriladigan yerlarning 12–18% ga yetadi.
- **Tumanlar bo‘yicha tarqalishi:** Termiz va Denov tumanlari – yuqori sho‘rlanish, Boysun va Qumqo‘rg‘on – o‘rta darajada.
- Sho‘rlanish natijasida tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlari o‘zgarib, hosildorlik sezilarli darajada kamayadi.

Sho‘rlanish jarayoni ayniqsa **qayta ishlangan paxta maydonlari** va **intensiv sug‘oriladigan ekin yerlarida** kuzatiladi.

Eroziya jarayonlari

Suv eroziyasi va **shamol eroziyasi** viloyatda keng tarqalgan:

- Suv eroziyasi: Boysun tog‘ oldi hududlarida va Termiz vodiylarida, yomg‘ir va sug‘orish suvlarining tuproqni yuvishi natijasida chuqurlar, kanallar va eroziya shakllari paydo bo‘ladi.
- Shamol eroziyasi: Tekislik hududlari (Termiz, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on) qumli va bo‘z tuproqlarda shamol ta’sirida siljish, qum ko‘chkilarining shakllanishi kuzatiladi.

- Natija: Tuproq qatlamining yuqori qismi yo‘qoladi, hosildorlik pasayadi va o‘simlik qoplamasi yo‘qoladi.

Sug‘orish tizimi va yerosti suvlari

Viloyatda sug‘orish tizimi asosan kanal va quduq sug‘orish tizimlariga asoslangan. Hozirgi holat:

- kanallar eski va samaradorligi past, suv tarqalishi teng emas;
- yer osti suvlarining sathi ko‘tarilishi – sho‘rlanishni kuchaytiradi;
- sug‘oriladigan yerlarning 20% drenaj va suv ta’minoti yetishmovchiligi tufayli degradatsiyaga uchragan.

Biologik degradatsiya

- yaylovlardan ortiqcha foydalanish va chorva mollari ko‘payishi;
- o‘simlik qoplamining yemirilishi;
- tuproqdagi organik modda miqdorining kamayishi Natijada, yer unumdorligi pasayadi va hududlarda biologik xilma-xillik kamayadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar

- hosildorlik pasayishi: Bug‘doy, paxta, makkajo‘xori va sabzavot ekinlari hosildorligi kamayadi;
- daromadning kamayishi: Qishloq aholisining moliyaviy holati yomonlashadi;
- ishsizlik va migratsiya: Qishloq xo‘jaligi ishchilari ish o‘rinlarini yo‘qotadi, shahar va chet elga migratsiya ortadi;
- ekologik xavf: Sho‘rlangan va eroziyaga uchragan hududlar landshaftni o‘zgartirib, tabiiy muvozanatni buzadi.

Monitoring va tiklash choralari

So‘nggi yillarda Surxondaryo viloyatida:

1. Geomexanizatsiyalashgan monitoring: Masofadan zondlash (satellit tasvirlar) orqali sho‘rlanish va eroziya maydonlari aniqlanmoqda.

2. Sug‘orish tizimlarini yangilash: Drenaj kanallari qayta tiklanmoqda, samarali sug‘orish texnologiyalari joriy etilmoqda.

3. Agrotexnika tadbirlar: Ekin almashinuvi tizimi, organik o‘g‘itlar, tuproq konservatsiyasi texnologiyalari.

4. Reforestatsiya va o‘simlik qoplami tiklash: Eroziyaga uchragan hududlarda daraxt va o‘tloq ekish ishlari olib borilmoqda.

Xulosa. Surxondaryo viloyatida yer degradatsiyasi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u tabiiy sharoitlar va inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, degradatsiya jarayonlarining kuchayishi viloyatning ekologik va iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Yer resurslaridan oqilona foydalanish va ilmiy asoslangan yondashuvlar degradatsiyani kamaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.K. Karshibayev, F.B. Abduxoliqov Degradatsiyaga uchragan maydonlarni biologik rekultivatsiya qilish.

2. https://xabar.uz/uz/jamiyat/bmt-O‘zbekistonning-rezolutsiya

3. FAO. Land Degradation and Sustainable Land Management.

4. Ilmiy jurnal maqolalari va statistik to‘plamlar.

BIOMATERIALLARNING ZAMONAVIY MATERIALSHUNOSLIKDAGI DOLZARB MUAMMOLARI

Umarova Maxmuda Abdugafarovna, PhD
Toshkent davlat texnika universiteti doktoranti (DSc), Toshkent shahri

Annotatsiya. Ushbu tezisda son va tizza bo‘g‘imi endoprotezlarida qo‘llaniladigan titan qotishmalari, kobalt-xrom-molibden qotishmalari, o‘ta yuqori molekulyar massali polietilen, keramika hamda gidroksiapatit qoplamalarning materialshunoslik nuqtayi nazaridan afzallik va cheklovlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor yeyilish mikrozarralari, korroziya, ion ajralishi, kuchlanishdan himoyalanish effekti, bioplyonka va suyak bilan integratsiyalashuv muammolariga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: endoprotez, biomaterial, titan qotishmasi, kobalt-xrom-molibden qotishmasi, gidroksiapatit, suyak bilan integratsiyalashuv.

Endoprotez uzoq muddat tanada qoladigan hamda siklik yuklama, ishqalanish, tana suyuqliklari va immun javob bilan bir vaqtda to‘qnashadigan murakkab tibbiy qurilmadir. Shu sababli, endoprotez biomateriali faqat mustahkam bo‘lishi bilan cheklanmaydi, u biologik xavfsiz, korroziyaga chidamli, yeyilishga bardoshli va suyak to‘qimasi bilan barqaror bog‘lana oladigan bo‘lishi kerak. ISO 10993-1:2025 yondashuvida biologik baholash xavflarni boshqarish jarayonining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi [1].

Muammoning mohiyati. Zamonaviy son va tizza endoprotezlarida implant oyog‘i yoki kosacha qismi uchun ko‘pincha Ti-6Al-4V va boshqa titan qotishmalari, ishqalanish yuzalari uchun CoCrMo, alumina/sirkoniya keramika va polietilenning maxsus turlari qo‘llanadi. Titan suyak bilan mosligi va korroziyaga chidamliligi bilan ajralib tursa-da, uning yeyilishga chidamliligi son suyagi boshchasi uchun yetarli emas. CoCrMo qotishmalari yuqori mustahkamlik va tribologik barqarorlikka ega, biroq metall ionlarining ajralishi ayrim bemorlarda sezgirlik xavfini oshirishi mumkin [2].

Birinchi muammo – ishqalanish natijasida hosil bo‘ladigan mikrozarralardir. Polietilen yoki metall/keramika zarralari periprotez muhitida yallig‘lanish javobini kuchaytirib, osteoliz va aseptik bo‘shashishga olib kelishi mumkin [3]. Ikkinchi muammo – elastiklik moduli mos emasligi: metall implant suyakdan ancha qattiq bo‘lsa, yuklama suyakdan implantga ko‘proq o‘tadi va suyakda qayta so‘rilish xavfi kuchayadi. Bu holat kuchlanishdan himoyalanish effekti deb ataladi. Uchinchi muammo – implant yuzasida

bakterial bioplyonka hosil bo‘lishi bo‘lib, bu revizion operatsiyalarning muhim sabablaridan biridir.

Ilmiy-amaliy yechim. Materialshunoslik nuqtayi nazaridan muammo kompleks yondashuv orqali hal etiladi: birinchidan, ishqalanish juftligi sifatida yuqori darajada tarmoqlangan polietilen yoki keramika-polietilen kombinatsiyalari tanlanadi; ikkinchidan, g‘ovak titan, gidroksiapatit va biofaol qoplamalar suyak bilan integratsiya-lashuvni kuchaytiradi; uchinchidan, sirtni anodlash, fizik bug‘ fazasida cho‘ktirish, plazmali purkash yoki antibakterial qoplamalar orqali korroziya va bioplyonka xavfi kamaytiriladi. 3D-bosma texnologiyasi individual geometriya va g‘ovak strukturani yaratish imkonini beradi, ammo bunday qurilmalar uchun ishlab chiqarish jarayoni, sinov va xossalarni tavsiflash qat’iy asoslanishi zarur [4].

1-jadval

Endoprotez biomateriallari bo‘yicha qisqa tahlil

Biomaterial	Qo‘llanish qismi	Afzalligi	Asosiy muammo	Materialshunoslik yechimi
Titan qotishmasi (Ti-6Al-4V, β-Ti)	implant oyog‘i, kosacha	yengil, biomos, korroziyaga chidamli	elastiklik moduli yuqori	g‘ovak arxitektura, mos modulli qotishma
Kobalt-xrom-molibden qotishmasi (CoCrMo)	boshcha, tizza yuzasi	mustahkam, yeyilishga chidamli	metall ionlari ajralishi	sirtni passivlashtirish, himoya qoplama
O‘ta yuqori molekulyar massali va tarmoqlangan polietilen	oraliq qoplama	past ishqalanish	yeyilish mikrozarralari	tarmoqlash, vitamin E bilan barqarorlashtirish
Keramika (Al_2O_3, ZrO_2)	ishqalanish yuzasi	juda kam yeyilish	mo‘rtlik va yuqori narx	mustahkamlangan keramika
Gidroksiapatit qoplama	implant sirti	suyak bilan integratsiya	qoplama ajralishi	nazoratli plazmali purkash

Xulosa. Endoprotezlar uchun ideal biomaterial mexanik barqarorlik, biologik xavfsizlik, kam yeyilish va infeksiyaga qarshi chidamlilikni bir vaqtda ta’minlashi zarur. Amaliy tavsiya shuki, implant dizayni material tanlashdan alohida emas, balki sirt muhandisligi, g‘ovak arxitektura, tribologik juftlik va ISO 10993 asosidagi biologik xavfni baholash bilan birgalikda ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ISO 10993-1:2025. Biological evaluation of medical devices - Part 1. 42 p.
2. Hu C.Y. et al. Recent updates for biomaterials used in total hip arthroplasty. Biomaterials Research, 2018. **P. 1-12.**
3. Zhang L. et al. The effects of biomaterial implant wear debris on osteoblasts. Frontiers in Cell and Developmental Biology, 2020; 8:352
4. U.S. FDA. Technical Considerations for Additive Manufactured Medical Devices. Guidance, 2017. 32 p.
5. Marin E. History of Metallic Orthopedic Materials. Metals, 2025. 15(4):378. 15 p.

MATERIALSHUNOSLIK VA ILG‘OR BIRIKTIRISH TEXNOLOGIYALARI: METALLARGA KOMPLEKS TERMOMEXANIK ISHLOV BERISH

Halimova Hulkar Amin qizi
BuxDU, Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti 2-bosqich bakalavr talabasi, Buxoro viloyati, Buxoro shahri

Materialshunoslik va ilg‘or biriktirish texnologiyalari zamonaviy sanoatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular yuqori samarali materiallarni yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ushbu sohada, ayniqsa, metallarga kompleks termomexanik ishlov berish (KTMI) usullari materiallarning mexanik xususiyatlarini, mikrostrukturasini va eksplutatsion xarakteristikalarini sezilarli darajada yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. KTMI – bu bir vaqtning o‘zida isitish, deformatsiya qilish va sovutish jarayonlarini o‘z ichiga olgan innovatsion yondashuv bo‘lib, u metall qotishmalarining mustahkamligi, qattiqligi, yemirilishga chidamliligi va boshqa muhim xususiyatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot KTMI ning nazariy asoslarini, amaliy qo‘llanilishini, so‘nggi yutuqlarni va kelajakdagi yo‘nalishlarini, shuningdek, Yevropa davlatlarining ushbu sohadagi hissalarini ko‘rib chiqadi.

KTMI ning samaradorligi uning materialning mikrostrukturasiga chuqur ta’sir etish qobiliyatidan kelib chiqadi. Bu jarayon bir nechta metallurgiya hodisalarini o‘z ichiga oladi:

❖ Qayta kristallanish: Deformatsiya jarayonida hosil bo‘lgan deformatsiyalangan donlar o‘rniga yangi, mayda va izometrik donlarning paydo bo‘lishi. KTMI, ayniqsa, dinamik qayta kristallanish orqali donlarni maydalash va bir tekis taqsimlash imkonini beradi.

❖ Faza o‘zgarishlari: Isitish va sovutish rejimlarini nazorat qilish orqali metallarda istalgan faza o‘zgarishlarini (masalan, martensit, beynit yoki perlit hosil bo‘lishi) boshqarish mumkin.

❖ Dispersion qotishmalar: Qattiq eritmadan mayda zarrachalarning ajralib chiqishi (cho‘kishi) natijasida materialning mustahkamligi oshiriladi. KTMI bu zarrachalarning o‘lchami va taqsimotini optimallashtirishga yordam beradi.

❖ Deformatsiya bilan mustahkamlash: Sovuq yoki issiq deformatsiya natijasida dislokatsiyalarning zichligini oshirish orqali materialning mustahkamligi oshiriladi. KTMI da bu jarayon qayta kristallanish bilan muvozanatlashgan holda kechadi. Ushbu mexanizmlarning o‘zaro ta’siri materialning mikrostrukturasini nozik sozlash va uning mexanik xususiyatlarini maqsadli ravishda yaxshilash imkonini beradi.

Kompleks termomexanik ishlov berishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Yuqori mexanik xususiyatlar: Mustahkamlik, qattiqlik, chidamlilik va yemirilishga chidamlilik kabi xususiyatlar sezilarli darajada yaxshilanadi.
- Mayda donli mikrostruktura: KTMI natijasida mayda donli struktura hosil bo‘ladi, bu esa Hall-Petch qonuniga ko‘ra materialning mustahkamligini oshiradi.
- Sinishga chidamlilik: Materialning mikrostrukturasini optimallashtirish orqali uning sinishga qarshiligi oshiriladi.
- Materialdan samarali foydalanish: Ba’zi hollarda KTMI qimmatbaho qotishmalarning miqdorini kamaytirishga yoki standart qotishmalarning ish faoliyatini sezilarli darajada yaxshilashga imkon beradi.

KTMI zamonaviy sanoatning ko‘plab sohalarida keng qo‘llaniladi:

Aviatsiya va kosmik sanoat: Yengil, ammo juda mustahkam qotishmalar (masalan, alyuminiy-litiy qotishmalari, titan qotishmalari) talab qilinadigan samolyot qismlari, raketa korpuslari va boshqa komponentlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

•Avtomobilsozlik: Yonilg‘i samaradorligini oshirish va xavfsizlikni ta’minlash uchun yuqori mustahkamlikdagi po‘latlar va yengil alyuminiy qotishmalarini ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Energetika sanoati: Yuqori harorat va bosimga chidamli turbinalar, qozonlar va reaktor komponentlarini ishlab chiqarishda yuqori haroratli qotishmalar KTMI dan foydalanadi.

• Tibbiyot: Tibbiy implantlar uchun mos keladigan materiallarni (masalan, titan qotishmalari) ishlab chiqarishda ularning mexanik xususiyatlarini yaxshilash uchun qo‘llaniladi.

•Mudofaa sanoati: Yuqori kuchlanishlarga bardosh bera oladigan zirxli plitalar va boshqa harbiy texnika qismlarini ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Hozirgi kunda KTMI sohasidagi so‘nggi yangiliklar quyidagilardan iborat:

Materiallar informatika va AI ning integratsiyasi: Georgia Tech kabi muassasalar tadqiqot imkoniyatlarini yangi materiallarni ishlab chiqish va tavsiflash uchun kuchli yangi vositalar bilan birlashtirmoqda, murakkab xatti-harakatlarni aniqlash va materiallar dizaynini tezlashtirish uchun yangi usullarni topmoqda. AI (sun’iy intellekt) metallarning murakkab suyuqlik aralashmasini bashorat qilish va tushunish uchun tadqiqotlarda qo‘llanilmoqda. Bu materiallar dizayni va optimallashtirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin.

Additiv ishlab chiqarish bilan KTMI ni birlashtirish: 3D-bosib chiqarilgan metall buyumlarning mikrostrukturasini va mexanik xususiyatlarini yaxshilash uchun KTMI usullaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Bu, ayniqsa, noyob geometriyali va yuqori samarali komponentlar uchun muhim.

Nanostrukturali metallar: Nanostrukturalar, masalan, nanokristall metallar, noyob mexanik xususiyatlarga ega. KTMI bu kabi materiallarni ishlab chiqarishda va ularning barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan yangi avlod bosma metallarni loyihalashni tezlashtirish uchun murakkab qotishma xatti-harakatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Yuqori entropiyali qotishmalar (HEA): Ushbu yangi sinfdagi qotishmalar o‘zining ajoyib mexanik va korroziyaga chidamlilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. KTMI HEAlarning mikrostrukturasini va natijada ularning ishlashini optimallashtirish uchun asosiy vositadir.

XULOSA: Metallarga kompleks termomexanik ishlov berish materialshunoslik va ilg‘or biriktirish texnologiyalarining muhim ustuni bo‘lib qolmoqda. Uning nazariy asoslarini tushunish, mexanizmlarni optimallashtirish va yangi texnologiyalar (masalan, AI, 3D-bosib chiqarish) bilan integratsiya qilish orqali materiallarning ishlash xususiyatlarini misli ko‘rilmagan darajada yaxshilash mumkin. Kelajakda KTMI tadqiqotlari yanada samarali, barqaror va moslashuvchan materiallarni yaratishga qaratilgan bo‘ladi, bu esa zamonaviy sanoatning eng dolzarb muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Norxudjayev, F. R. Materialshunoslik: darslik / F. R. Norxudjayev. – Toshkent: O‘zbekiston shoiri, 2002, 256b.

2. To‘rayev, A. S. Metallar texnologiyasi va materialshunoslik: o‘quv qo‘llanma / A.S.To‘rayev. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015, 320b.

3. Bernshteyn, M. L. Thermomechanical Treatment of Metals and Alloys: v 2-x t. / M. L. Bernshteyn. – Moscow: Metallurgiya, 1978. – T. 1: Termomexanicheskaya obrabotka splavov. – 592 s.

4. Callister, W. D. Materials Science and Engineering: An Introduction / W. D. Callister, D. G. Rethwisch. – 10th ed. – New York: Wiley, 2018, 912 p.

5. Totten, G. E. Steel Heat Treatment: Metallurgy and Technologies / G. E. Totten. – 2nd ed. – Boca Raton: CRC Press, 2006, 858 p.

6. Hosford W.F. Mechanical Behavior of Materials. Cambridge University Press, 2010.

7. Materials Momentum: Annual Report 2024-25.

8. Faster Planes, More Efficient Engines, Economical Process | UC Davis.

9. Researchers Convert Discoveries in MSE to Real-World Applications.

10. Michael Kassner Receives Oleg D. Sherby Award from the Minerals Metals and Materials Society.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ РЕСУРСНОЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Хазраткулова Лола Нармуминовна
Vatan Universiteti
Ташкентский филиал РЭУ имени Г.В. Плеханова
г. Ташкент, Республика Узбекистан

Современный этап развития мировой экономики характеризуется усилением внимания к вопросам рационального использования природных ресурсов и минимизации негативного воздействия промышленного производства на окружающую среду. Рост объемов промышленного производства, увеличение потребления энергетических ресурсов, ускорение процессов урбанизации и усиление экологических рисков обусловливают необходимость поиска новых подходов к организации производственной деятельности. В данных условиях повышение ресурсной и экологической эффективности промышленности становится одним из ключевых направлений обеспечения устойчивого экономического развития и повышения конкурентоспособности национальной экономики.

Промышленный сектор традиционно относится к числу наиболее ресурсоемких отраслей экономики, оказывающих значительное воздействие на окружающую среду. Высокий уровень потребления сырья, воды, электроэнергии и топлива сопровождается образованием значительных объемов отходов, выбросов загрязняющих веществ и увеличением антропогенной нагрузки на экологические системы. Во многих странах сохраняется проблема использования морально и физически устаревших технологий, характеризующихся низкой энергоэффективностью и высокой материалоемкостью производства. В результате предприятия сталкиваются с ростом производственных издержек, снижением экономической эффективности и усилением экологических проблем.

«Повышение энергоэффективности в сфере промышленности не менее чем на 20 процентов» определено одной из стратегических целей Программы по переходу на «зеленую» экономику и обеспечению «зеленого» роста в Республике Узбекистан [1].

По мнению отечественных авторов, «внедрение инновационных, цифровых и «зелёных» решений является важным инструментом повышения эффективности использования ресурсов на промышленных предприятиях» [2].

Таким образом, в современных условиях устойчивое развитие промышленности невозможно без перехода к ресурсосберегающим и экологически ориентированным моделям производства. Особое значение в данном процессе приобретает внедрение инновационных технологий, обеспечивающих снижение потребления природных ресурсов и сокращение объемов загрязнения окружающей среды (табл. 1).

Таблица 1

Характеристика современных методов повышения ресурсной и экологической эффективности в промышленности

Метод	Содержание метода	Эффект от использования метода
Энергосберегающие технологии	Использование энергоэффективного оборудования и систем управления энергопотреблением	Снижение затрат энергии и себестоимости продукции
Циркулярная экономика	Повторное использование и переработка ресурсов и отходов	Сокращение потребления сырья и уменьшение отходов
Цифровизация производства	Внедрение автоматизированных систем мониторинга и управления	Повышение эффективности использования ресурсов
Экологический менеджмент	Применение международных экологических стандартов и контроля	Снижение экологической нагрузки
Использование ВИЭ	Применение солнечной, ветровой и других видов возобновляемой энергии	Сокращение выбросов и повышение экологической устойчивости

Составлено автором на основе анализа научно-теоретической литературы

Одним из наиболее перспективных направлений считается развитие принципов циркулярной экономики, основанной на повторном использовании ресурсов, переработке отходов и продлении жизненного цикла продукции.

Важную роль в повышении ресурсной эффективности промышленности играют современные цифровые технологии (автоматизированные системы управления производственными процессами, технологии искусственного интеллекта, промышленный интернет вещей, системы цифрового мониторинга и др.).

Особое место среди современных методов повышения экологической эффективности занимает внедрение энергосберегающих технологий, позволяющих сократить себестоимость продукции и снизить негативное воздействие промышленности на окружающую среду.

Международная практика показывает, что внедрение стандартов экологического управления, включая системы серии ISO 14000, способствует формированию комплексного подхода к контролю экологических рисков и повышению уровня экологической ответственности бизнеса.

Для Республики Узбекистан вопросы повышения ресурсной и экологической эффективности промышленности имеют особую актуальность в условиях

Внедрение САПР в технологический процесс малых предприятий должно опираться на юридическую чистоту программного обеспечения, поскольку мировая практика отвергает продукцию, созданную на базе нелицензионных приложений. Программные продукты удовлетворяют требованиям по сложности изготовляемых деталей, производимых малыми предприятиями, при этом остаются доступными по цене [2]. Легкость освоения и интуитивно понятный интерфейс позволяет малым предприятиям привлекать к работе молодых сотрудников, не имеющих большого опыта проектирования. С другой стороны ситуация предполагает быть отличной производственной площадкой для квалификационного роста кадров. Процесс внедрения САЬБ-технологий в условиях малых предприятий представим на примере разработки и подготовки технологической документации для производства электроинструмента [3].



На первом этапе с помощью твердотельных цифровых 3Б-моделей отдельных деталей спроектированных в системе КОМПАС-3Б создаются рабочие чертежи, обладающие свойством ассоциативности с исходным объектом. По результатам первого этапа создаются сборочные единицы и спецификации отдельных узлов и всего изделия в целом. Анализ цифровой модели общей сборки конструкции позволяет выявить имеющиеся ошибки проектирования и оперативно внести изменения в проект. Технологическая часть проекта опирается на автоматизированное проектирование технологических процессов для каждой детали изделия. Платформа Вертикаль ТП предоставляет необходимую справочную информацию, а также позволяет организовать, поддерживать и расширять базы данных предприятия при проектировании технологических процессов. Таким образом, эта среда формирует единое информационное поле для управления жизненным циклом изделий. Имитацию станочной обработки и создание программных G-кодов целесообразно осуществить в среде SprutCAM. Эта платформа генерирует управляющие программы для станков с различными кинематическими схемами и позволяет использовать результат для любых типов станков с ЧПУ. Программа визуализирует траекторию режущего инструмента с учетом перемещений всех исполнительных и вспомогательных органов, тем самым выявляет возможные коллизии. Постпроцессорная обработка позволяет создать оптимальную по объёму управляющую программу на любую систему ЧПУ, что сокращает время подготовки производства. SprutCAM содержит встроенный генератор постпроцессоров и позволяет проводить их настройку на любой тип обрабатывающего оборудования.

Работа с платформой предполагает выбор инструмента, имеющегося на предприятии и в базе данных ТП, и позволяет осуществить подбор режимов обработки. Моделирование в SprutCAM дает возможность оценить время, затраченное на станочные операции, и выйти на итоговое время металлообработки детали.

Литература:

1. Ушаков, И. Ф. Системы автоматизированного технологического проектирования в мелкосерийном и серийном машиностроении / И. Ф. Ушаков. - Москва: ВНИИТЭМР, 2005. – 36 с.

2. Овчинников, И.Е. «Вентильные электрические двигатели и привод на их основе (малая и средняя мощность) / И.Е. Овчинников: Курс лекций. - СПб. : КОРОНА-Век, 2006. - 336 с.

3. Шичков, А. Н. Экономика и менеджмент инновационных процессов в регионе: монография / А. Н. Шичков. - Москва: ФИНАНСЫ и КРЕДИТ, 2008. - 360 с.

10ГР8Л PULPA NASOSI ISHCHI G‘ILDIRAGINING MONOLIT KONSTRUKSIYADAN QISMLI YECHIMGA O‘TKAZILISHI

K.A. Karimov, A.X. Ahmedov, Sh.T. Mirqodirov, R.K. Pardayev, Sh.X. Pirnazarov.
Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent.

Muammo va taklif etilayotgan yechim

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, monolit g‘ildirakda yeyilish bir tekis taqsimlanmaydi: qoplamali disk (oldingi devor) va palatkalar asosiy diskka nisbatan tezroq yeyiladi. Bu holat g‘ildirakning sog‘lom qismlarini ham muddatidan oldin almashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shuningdek, yopiq tipli g‘ildirakning murakkab ichki kanallari sababli quyma sifatini nazorat qilish qiyinlashadi, nuqsonlar (g‘ovaklik, yoriqlar) ehtimoli oshadi.

Taklif qilingan yechim: ishchi g‘ildarak ikkita alohida qismga ajratilgan. Birinchi qism – asosiy disk (H-4803_002) – orqa devor bo‘lib, unda palatkalar joylashgan va u nasos valiga mahkamlanadi. Ikkinchi qism – qoplamali disk (qopqoq) – oldingi devor bo‘lib, asosiy diskka maxsus birlashtiruvchi elementlar orqali ulanadi. Sborka chizmasi H-4803_000_СБda ikki qismning o‘zaro bog‘lanish usuli ko‘rsatilgan.

Konstruktiv o‘zgartirishning afzalliklari

Ishlab chiqarish jihatidan: har bir qismning soddaroq geometriyasi quyish sifatini oshiradi, ichki yuzalarga mexanik ishlov berish imkoniyatini kengaytiradi, quyma nuqsonlarini aniqlash osonlashadi va qolip tayyorlash xarajatlari kamayadi.

Xizmat ko‘rsatish jihatidan: faqat yeyilgan qismni (ko‘pincha qoplamali diskni) almashtirish kifoya bo‘ladi. Bu nasos to‘xtab turish vaqtini sezilarli qisqartiradi va nasosni to‘liq demontaj qilish zaruriyatini kamaytiradi.

Ish muddati jihatidan: har bir qism uchun turli materiallarni tanlash imkoniyati paydo bo‘ladi – ko‘proq yeyiladigan qoplamali disk uchun yuqori yeyilishga chidamli qotishma, kamroq yeyiladigan asosiy disk uchun iqtisodiyroq material. Yeyilgan qismni o‘z vaqtida almashtirish nasos samaradorligining doimiy yuqori darajada saqlanishini ta’minlaydi.

1-adval

Monolit va qismli konstruksiyalarning qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	Monolit konstruksiya	Qismli konstruksiya
Ishlab chiqarish murakkabligi	Yuqori	O‘rtacha
Quyma sifati nazorati	Qiyin	Oson
Almashtirish xarajati	Butun g‘ildarak	Faqat yeyilgan qism
To‘xtab turish vaqti	Uzoq	Qisqa
Material tanlash moslashuvchanligi	Cheklangan	Yuqori
Nasos samaradorligini saqlash	Yeyilish bilan pasayadi	O‘z vaqtida tiklanadi

Qismli konstruksiyani loyihalashda germetiklik (maxsus zich o‘tqazgichlar va aniqlikli tekis yuzalar), dinamik muvozanat (har bir qismning alohida va yig‘ilgan holatda balanslanishi), birlashtiruvchi elementlarning abraziv muhitdan himoyalanishi hamda qoplamali disklarning o‘zaro almashinuvchanligi ta’minlangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Amalga oshirilgan konstruktiv o‘zgartirish natijasida quyidagi amaliy natijalar erishilgan:

Ishlab chiqarish jarayoni optimallashtirilgan: har bir qismning soddaroq geometriyasi quyish texnologiyasining ishonchliligini oshirdi, brak foizini kamaytirdi. Ikki alohida qismni quyish va mexanik ishlov berish, bitta murakkab monolit g‘ildirakka nisbatan, kamroq vaqt hamda material talab qiladi.

Nasos xizmat ko‘rsatish muddatlari qisqartirilgan: yeyilgan qoplamali diskni almashtirish vaqti butun monolit g‘ildirakni almashtirish vaqtiga nisbatan sezilarli darajada qisqargan. Bu nasosning foydali ish koeffitsiyentini oshiradi va ishlab chiqarish jarayonidagi rejadan tashqari to‘xtashlarni kamaytiradi.

Ekspluatatsiya xarajatlari kamaytirilgan: faqat yeyilgan qismni almashtirish imkoniyati ehtiyot qismlar xarajatini kamaytirdi. Turli qismlar uchun turli materiallarni qo‘llash imkoniyati material tanlash strategiyasini optimallashtirishga yordam berdi.

Xulosa. 10ГР8Л pulpa nasosining ishchi g‘ildiragi konstruksiyasiga kiritilgan o‘zgartirish – monolit quymadan qismli konstruksiyaga o‘tish – texnik va iqtisodiy jihatdan asosli yechimdir. Taklif qilingan konstruksiya ishlab chiqarish texnologiyasini soddalashtiradi, xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi va ishchi g‘ildirakning ish muddatini uzaytiradi. Ushbu yondashuv boshqa markadagi pulpa nasoslari uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Малофеев Н.А., Белинский Е.С. Грунтовые и песчаные насосы. – М.: Машиностроение, 1980, 192 с.
2. Михайлов А.К., Малющенко В.В. Лопастные насосы. Теория, расчет, конструирование. – М.: Машиностроение, 1977. – 288 с.
3. Wilson K.C., Addie G.R., Sellgren A., Clift R. Slurry Transport Using Centrifugal Pumps. – 3rd ed. – Springer, 2006, 432 p.
4. Warman International. Slurry Pumping Manual. – Warman International Ltd., 2002.
5. ГОСТ 26673-85. Насосы грунтовые. Общие технические условия.

LENTALI KONVEYER BARABANI UCHUN SEGMENT-TIPLI REZINA QOPLAMA KONSTRUKSIYASI VA UNING TOG‘-KON SANOATIDA QO‘LLANILISHI

K.A. Karimov, A.X. Ahmedov, Sh.T. Mirqodirov, R.K. Pardayev, Sh.X. Pirnazarov.
Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent.

NAZARIY TAHLIL

Kontakt zonasidagi kuchlanish holati. Baraban-rezina kontakt masalasini Hertz kontakt nazariyasi doirasida ko‘rib chiqamiz. Lenta tortish kuchi T ta’sirida baraban yuzasiga normal bosim q(φ) taqsimlanadi:

$$q(\varphi) = (T_1 + T_2) / (2R \cdot B) \cdot f(\varphi)$$

bu yerda, T_1 va T_2 – lentaning ishchi va bo‘sh tarmoqlaridagi tarangliklar, R – baraban radiusi, B – lenta kengligi, f(φ) – kontakt yoyidagi taqsimlash funksiyasi.

An’anaviy konstruksiyada kley qatlami (qalinligi δ = 2–4 mm, elastiklik moduli E_k ≈ 0.5 MPa) oraliq bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. Yuklanish siklik bo‘lganligi sababli ushbu qatlamda charchoq deformatsiyalari to‘planadi va delyaminatsiya (ko‘chish) boshlanadi. Yangi konstruksiyada rezina segment bevosita metall yuzaga tayanib, normal kuchlanish σ_n va tangensial kuchlanish τ quyidagicha taqsimlanadi:

$$\sigma_n = q(\varphi) \cdot \cos^2\alpha; \quad \tau = q(\varphi) \cdot \sin\alpha \cdot \cos\alpha$$

Paz qiyalik burchagi α = 7° da tangensial kuchlanish σ_n ga nisbatan 12,3% ni tashkil etadi, bu konstruksiyaning o‘z-o‘zini qulflash prinsipini ta’minlaydi.

Yeyilish mexanizmi tahlili. Rezina qoplamalarning yeyilishi Archard tribologik modeli asosida tahlil qilinadi. Hajmiy yeyilish tezligi W quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$W = k \cdot F \cdot v / H$$

bu yerda, k – yeyilish koeffitsiyenti (material xossasiga bog‘liq), F – normal kuch, v – sirpanish tezligi, H – materialning qattiqlik ko‘rsatkichi.

Kley qatlamli konstruksiyada metall-rezina interfeysida galvanik va mexanik-kimyoviy jarayonlar kechadi: po‘lat yuzasida oksidlangan qatlam hosil bo‘ladi, bu esa adesiv bog‘lanishni zaiflashtirib, yeyilish koeffitsiyenti k ni 1,5–2 marta oshiradi.

Segment-tipli konstruksiyada ushbu mexanizm istisno etilib, k ning amaliy qiymati kamayadi va, demak, xizmat muddati oshadi.

Tajriba-sanoat sinovlari natijalari. Yangi konstruksiyali qoplama 2025-yil dekabr oyida ishlab chiqilib, Navoiy viloyatidagi tog‘-kon korxonalaridan birining lentali konveyer tizimiga o‘rnatildi. Sinovlar ikki parallel liniyada olib borildi: birinchi liniyada an’anaviy (kleylangan) qoplama, ikkinchisida segment-tipli qoplama qo‘llanildi. Sinovlar muddati – 6 oy (2025-yil dekabr – 2026-yil may).

Qoplama qalinligining o‘zgarishi har 30 kunda ultratovush o‘lchov uskunasi yordamida monitoring qilindi. O‘lchovlar natijasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Rezina qoplama qalinligining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi (mm)

Vaqt (oy)	0	1	2	3	4	5	6
An’anaviy (mm)	20.0	18.2	16.1	13.8	11.2	8.3	5.1
Segment-tipli (mm)	20.0	19.4	18.7	17.9	17.0	16.0	14.9

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy qoplama 6 oy davomida 14,9 mm yoki 74,5% yeyilgan bo‘lsa, segment-tipli qoplama atigi 5,1 mm yoki 25,5% yeyilgan. Eksponensial ekstrapolyatsiya usuli bilan hisoblanganda segment-tipli qoplamaning umumiy xizmat muddati an’anaviy qoplamaga nisbatan 2,1 baravar ko‘p ekanligi aniqlangan.

Shuningdek, quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar qayd etildi: ta’mirlash ishlari uchun texnologik to‘xtatish vaqti 68% qisqardi; bir marta almashtirishga sarflangan mehnat xarajatlari 3,2 barobarga kamaydi; rezina material sarfi (kleyni hisobga olmaganda) 18% tejaldi.

Xulosa. Amalga oshirilgan tadqiqot va tajriba-sanoat sinov natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Segment-tipli rezina qoplama konstruksiyasi an’anaviy kleyli yopishtirishni to‘liq istisno etib, baraban qoplamalarining asosiy nosozlik sabablarini bartaraf etadi.

2. Yangi konstruksiyada rezina elementlarning metall bilan kontakt zonasida po‘lat-rezina o‘zaro ta’sir mexanizmi optimallashtirilgan: metall bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri teginish zonasiga rezina joylashishi natijasida yuklanish rezina materialining elastik xossalari orqali so‘riladi, bu esa yeyilishni keskin kamaytiradi.

3. Sanoat sinovlari natijalari segment-tipli qoplamaning xizmat muddatini 2,1 barobarga oshirishini va texnologik to‘xtatish vaqtini 68% qisqartirishini tasdiqladi.

4. Konstruksiya O‘zbekiston tog‘-kon sanoati korxonalari sharoitida keng joriy etilishga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дьяков В.А., Певзнер Л.Д. Конвейерный транспорт горных предприятий. – М.: Недра, 2018, 368 с.

2. Spaans C. The Calculation of the Main Resistance of Belt Conveyors // Bulk Solids Handling. – 1991. – Vol. 11, No. 4. – P. 809–826.

3. Molnar V., Fedorko G., Stehlíková B. et al. Statistical Approach for Evaluation of Belt Conveyor // Measurement. – 2014. – Vol. 56. – P. 120–128.

4. Гудилин Н.С., Дьяков В.А. Резинотехнические изделия в горном машиностроении. – М.: Машиностроение, 2015, 224 с.

5. REMA TIP-TOP AG. Conveyor Belt Maintenance & Installation Manual. – Norderstedt: REMA, 2022, 112 p.

6. Mark J.E. (ed.) Rubber Science and Technology. – Oxford University Press, 2013, 674 p.

7. Archard J.F. Contact and Rubbing of Flat Surfaces // Journal of Applied Physics. – 1953. – Vol. 24, No. 8. – P. 981–988.


8. Xolmatov S.X., Raximov M.A. O‘zbekiston tog‘-kon korxonalarida lentali konveyerlardan foydalanish tajribasi // Kon-metallurgiya muammolari. – 2023, № 2. – B. 45–52.

MAXSUS SHEKOVOY MAYDALAGICH FUTIROVKASINING ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN TISH SHAKLINI OPTIMALLASHTIRISH


K.A. Karimov, A.X. Ahmedov, Sh.T. Mirqodirov, R.K. Pardayev, Sh.X. Pirnazarov.
Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent.

Eksperimental tadqiqotlar

Sinovlar metodikasi. Eksperimental sinovlar ishlab chiqarish sharoitida – real maydalash sikli davomida – amalga oshirildi. Sinov uchun bir xil tarkibli granit ruda (qattiqlik 6–7 Moos shkalasida, o‘rtacha don o‘lchami 150–200 mm) tanlandi. Ikkala futirovka varianti bir xil qurilmada, ketma-ket sinab ko‘rildi.



1-rasm. Trapetsiya va uchburchak tish shakllarida energiya sarfining solishtirma grafigi.



2-rasm. Ikkala tish shaklida futirovka yeyilish dinamikasi.

O‘lchanadigan ko‘rsatkichlar

– Energiya sarfi: o‘rnatilgan elektr o‘lchagichlari yordamida kWh/t da

– Yeyilish tezligi: futirovka og‘irligini belgilangan vaqt oraliqlaridan tortib aniqlash

– Maydalash sifati: elak tahlili (granulometrik tarkib)

– Ish unumdorligi: soatiga maydalangan material massasi (t/soat)

Natijalari

1-jadval

Eksperimental sinovlar natijalari (o‘rtacha qiymatlar, 95% ishonch oralig‘i)

Ko‘rsatkich	Trapetsiya tish	Uchburchak tish	Yaxshilanish
Energiya sarfi (kWh/t)	2.85 ± 0.12	2.47 ± 0.09	**−13.3%**
Yeyilish tezligi (g/t)	0.82 ± 0.06	0.61 ± 0.05	**−25.6%**
-10 mm ulushi (%)	61.3 ± 2.1	71.8 ± 1.8	**+17.1%**
Ish unumdorligi (t/soat)	48.2 ± 1.5	53.7 ± 1.3	**+11.4%**

Natijalar muhokamasi. Olingan natijalar nazariy taxminlarni tasdiqlaydi. Kontakt yuzasining kamayishi – uchburchak tishning asosiy fizik afzalligi – maydalash jarayonining barcha asosiy ko‘rsatkichlarida ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Energiya sarfining 13.3% ga kamayishi amalda juda muhim – yirik sanoat korxonalarida bu yillik million kWh hisobida energiya tejashga olib keladi. Yeyilish tezligining 25.6% ga kamayishi esa futirovkani almashtirish muddatini uzaytiradi va ishlab chiqarish to‘xtash vaqtlarini qisqartiradi.

− 10 mm mayda fraksiya ulushining 17.1% ga oshishi maydalash sifatining sezilarli yaxshilanganidan dalolat beradi. Bu keyingi texnologik bosqich – maydalashning – yuklamasini kamaytiradi va umumiy zanjir samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotning cheklovlari: sinovlar bitta turdagi ruda (granit) va bitta qurilma o‘lchami uchun amalga oshirildi. Boshqa ruda turlari va qurilma o‘lchamlari uchun natijalar farq qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda bu parametrlar bo‘yicha keng miqyosli sinovlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

– Taklif etilayotgan futirovka konstruksiyasi ishlab chiqarish sharoitida tatbiq etish uchun tavsiya etiladi

Kelgusi tadqiqotlar yo‘nalishi: turli ruda turlari uchun tish geometriyasini yanada optimallashtirish, tish profilining siniq chiziqli va egri chiziqli variantlarini o‘rganish, shuningdek, yeyilishga bardoshliroq materiallarni tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреев С.Е., Перов В.А., Зверевич В.В. Дробление, измельчение и грохочение полезных ископаемых. – М.: Недра, 1980, 415 с.

2. Ханин А.А. Машины для дробления и измельчения материалов. – М.: Машиностроение, 1975, 320 с.

3. Ржевский В.В. Процессы открытых горных работ. – М.: Недра, 1985, 509 с.

4. Ткачев В.П., Бондаренко А.М. Конструкции и расчет дробилок. – Киев: Техніка, 1982, 268 с.

5. Napier-Munn T.J., Morrell S., Morrison R.D., Kojovic T. Mineral Comminution Circuits: Their Operation and Optimisation. – Queensland: JKMRC, 1996, 413 p.

6. Wills B.A., Finch J. Mineral Processing Technology. – 8th ed. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2016, 512 p.

7. Gupta A., Yan D. Mineral Processing Design and Operation. – Amsterdam: Elsevier, 2006, 718 p.

8. Zum Gahr K.H. Wear by Hard Particles. – Tribology International, 1998. – Vol. 31. – pp. 587–596.

BOSHQARILADIGAN FRIKSION MEXANIZMLARDA QUYMA MAXSUS QOTISHMALARNING ISHQALANISH JARAYONINI NAZARIY-MEXANIK TAHLILI

prof. K.A. Karimov, prof. A.X. Axmedov, doktorant. J.X. Fayziyev
Toshkent davlat texnika universiteti

Hozirgi kunda boshqariladigan friksion mexanizmlar mashinasozlikda keng qo‘llanilib, ularning ishonchliligi hamda samaradorligi ishqalanish jarayoni va kontakt yuzalardagi yuklanish taqsimotiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Yuqori yuklanish sharoitida kontakt bosimining notekis taqsimlanishi va intensiv yeyilish jarayonlari mexanizmning xizmat muddatini qisqartiruvchi asosiy omillardan biridir. Mazkur muammoni kamaytirishda yuqori mustahkamlik, yeyilishga chidamlilik va termik barqarorlikka ega quyma maxsus qotishmalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, ularning ishqalanish jarayonidagi mexanik holati hamda kontakt kuchlari taqsimotining nazariy-mexanik jihatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqotda boshqariladigan friksion mexanizmlarda quyma maxsus qotishmalarning ishqalanish jarayoniga ta’siri nazariy-mexanik jihatdan tahlil qilinib, kontakt yuzalardagi yuklanish holati va samarali ish rejimlari baholandi.

Boshqariladigan friksion mexanizmlarda, xususan, diskli va konusli tizimlarda ishqalanish juftliklarining ishonchli ishlashi ko‘p jihatdan kontakt yuzalarda hosil bo‘luvchi bosim taqsimoti hamda qo‘llaniladigan materialning mexanik xususiyatlariga bog‘liq hisoblanadi. Amalda quyma maxsus qotishmalardan (alyuminiy bronza, xromli po‘lat asosli materiallar) tayyorlangan friksion elementlarda boshqaruv bosimi ta’sirida sirt bosimining notekis taqsimlanishi, mikrogeometrik nomuvofiqliklar hamda yuqori ishqalanish koeffitsiyenti ta’sirida intensiv yeyilish jarayoni kuzatiladi [1, 2].

Bu holat mexanizmda quvvat uzatish samaradorligining pasayishiga, energiya yo‘qotilishining ortishiga va detallar xizmat muddatining qisqarishiga olib keladi[3]. Tahlillarga ko‘ra, friksion mexanizmlarda kontakt sirtlarining mahalliy yuklanishi

natijasida ayrim nuqtalarda yuqori bosim hosil bo‘ladi, bu esa sirt qatlamida plastik deformatsiyalarni tezlashtiradi va yeyilish intensivligini oshiradi [2]. Shu bilan birga, ishqalanish koeffitsiyentining yuqori bo‘lishi natijasida hosil bo‘luvchi issiqlik ajralishi material charchash jarayonlarini kuchaytirib, friksion juftliklarning ekspluatatsion barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [4]. Ajralayotgan issiqlik miqdori quyidagi bog‘lanish orqali baholanadi:

$$Q = \mu F_{ish} v$$

bu yerda, Q – ajralayotgan issiqlik miqdori, μ – ishqalanish koeffitsiyenti, F_{ish} – ishqalanish kuchi, v – nisbiy sirpanish tezligini ifodalaydi. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida tadqiqotda quyma maxsus qotishmalarning mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda kontakt yuzalarda bosimning bir tekis taqsimlanishini ta’minlash hamda ishqalanish jarayonini barqarorlashtirishga qaratilgan nazariy-mexanik yondashuv taklif etildi. Ushbu yondashuvda materialning qattiqligi, yeyilishga chidamliligi va kontakt mustahkamligi kabi parametrlarni hisobga olgan holda yuklanish holati baholandi [1,5]. Friksion juftliklarda ishqalanish kuchining o‘zgarishi quyidagi munosabat asosida tahlil qilindi:

$$F_{fr} = \mu N$$

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kontakt yuzalarda bosimning maqbul taqsimlanishini ta’minlash va mikrogeometrik nomuvofiqliklarni kamaytirish orqali yeyilish intensiveligini pasaytirish hamda quvvat uzatish samaradorligini oshirish mumkin. Olib borilgan nazariy tahlillar asosida friksion mexanizmlarda yeyilish jarayonini kamaytirish uchun quyma maxsus qotishmalarning tarkibiy va mexanik xususiyatlarini optimallashtirish taklif etildi. Xususan, alyuminiy bronza asosli qotishmalarning antifriksion xususiyatlari va xromli po‘lat materiallarining yuqori qattiqlik xususiyatlaridan maqbul foydalanish kontakt yuzalarda lokal bosimlarni kamaytirish imkonini berishi asoslandi [3,5].

Taklif etilgan nazariy-mexanik yondashuv natijasida friksion juftliklarda yuklanishning nisbatan barqaror taqsimlanishi ta’minlanishi, ishqalanish vaqtida ajraladigan issiqlik miqdorining kamayishi va material charchashining sekinlashishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa mexanizmning ishonchliligini oshirish hamda quvvat uzatish samaradorligini yaxshilash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida muammoni kamaytirish maqsadida quyma maxsus qotishmalarning mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda kontakt yuzalarda yuklanishning nisbatan bir maromda taqsimlanishini ta’minlashga qaratilgan nazariy-mexanik yondashuv taklif etildi. Xususan, alyuminiy bronza va xromli po‘lat asosli qotishmalarning antifriksion hamda yuqori mustahkamlik xususiyatlaridan foydalanish ishqalanish jarayoni barqarorligini oshirish va yeyilish intensivligini kamaytirish imkonini berishi ko‘rsatildi [1,3].

Natijada friksion juftliklarda ajraladigan issiqlik miqdorini kamaytirish, material charchash jarayonlarini sekinlashtirish hamda mexanizmning ekspluatatsion ishonch-

liligini oshirish mumkinligi aniqlandi. Olingan natijalar boshqariladigan friksion mexanizmlarni loyihalash va material tanlash jarayonlarini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Engineering Tribology. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2014.
2. Friction and Wear of Materials. – New York: Wiley, 1995.
3. Mechanical Metallurgy. – McGraw-Hill, 1986.
4. Contact Mechanics. – Cambridge University Press, 1987.
5. Engineering Materials 1. – Elsevier, 2012.

PLASTMASSALARNI ZAMONAVIY QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARI

Ilmiy rahbar A.X. Rasulov. TDTU “Materialshunoslik” kafedrasi professori, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent,
Sh.B. Abdulhaqova. – TDTU “Materialshunoslik” kafedrasi 3-kurs tayanch (PhD) doktoranti.

Annotatsiya. Maqolada polimer materiallarni qayta ishlashdan maqsad, ulardan ma’lum sharoitlarda ishlatiladigan va shu sharoit talablariga javob bera oladigan aniq bir buyum olish va isrofni kamaytirishdan iborat. Bunda albatta, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish muhim hisoblanadi. Plastmassalar texnologiyasida plastmassalarni qayta ishlash jarayoni yakunlovchi bosqich bo‘lib, bu bosqichda ma’lum bir buyum olinishi va bu buyum aniq talablarga javob berishi muhim. Shu maqsadda turli usullar kashf qilish bilan bir qatorda yangi polimer materiallar ishlab chiqarilmoqda.

Kirish. Individual polimerlar polimer kompozitlar va polimerlar aralashmasi bilan almashtirilib ishlatilmoqda. Natijada materiallarning xossalari kengaymoqda va ulardan xalq xo‘jaligi, mashinasozlik,tibbiyot qurilish sohalari uchun buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi quyidagi jarayonlardan iborat:

•kimyoviy tarkibni o‘zgartirish, polimerga to‘ldiruvchilar, plastifikatorlar kiritish va ularga termomexanik ishlov berish;

•olingan materialga shakl berish, ya’ni plastmassa buyumlar tayyorlash.

Buyum konstruksiyasi ilmiy jihatdan asoslangan va aniq bir ekspluatatsiya sharoitini hisobga olgan holda ishlangan bo‘lishi shart. Shunday qilib, polimerlarni qayta ishlash texnologiyasi, yuqorida qayd etilganidek, o‘z ichiga turli polimerlarning zarur xossalarini yaxshilash va ularni tayyor buyumga aylantirish jarayonlaridan iborat.

Plastmassalarni qayta ishlash: bosim ostida quyish, ekstruzitsiyalash, kalandrlash pigmentlarni polimerlarga aralashtirish, polimer plyonka yuzasini modifikatsiyalash va boshqalar.

Bosim ostida quyish, ekstruziyalash usullari keng tarqalgan va unumli usullardan biri bo‘lib, unda polimerlar oqimini kuzatish mumkin. Bu holatda ulaming fizik va kimyoviy xossalari o‘zgarmaydi.

Bunda materiallarning fizik xossalari qaytmas tarzda o‘zgaradi va oqish jarayonida kimyoviy reaksiyalar sodir bo‘lmaydi.Polimerni qayta ishlashda reologiya fani katta ahamiyatga ega, chunki polimerlarni qayta ishlash jarayonlarida deformatsiyalanish va oquvchanlik alohida o‘rin egallaydi. Polimerlarni qayta ishlashda kristallanish, polimerlarning dielektrikligini hisobga olish lozim. Shuningdek, polimer yuzasida sodir bo‘ladigan kimyoviy reaksiyalarni hamda uning issiqlik o‘tkazish xossalarini ham e’tiborga olish talab qilinadi.



Bosim ostida amalda yuqori unumdorlikka ega to‘liq avtomatlashtirilgan jihozlarda olib boriladi. Bu usul xomashyoni mashina silindrida isitilib, yuqori qovushqoq oquvchan holatga o‘tkazilgandan so‘ng bosim orqali buyum olinadigan qolipga (qolip yopiq holatda bo‘ladi) maxsus quyish kanallar orqali yuborishga asoslangan.

Keng qo‘llaniladigan termoplastiklar texnologik xossalari quyidagicha: polimer

suyuqlanmalarini oquvchanlik ko‘rsatkichi, rang berish, ikkilamchi xomashyo bilan aralashtirish, nam bo‘lsa quritish va granulalar o‘lchamini aniqlash. Odatda graunalalar o‘lchamlari 3-5mm bo‘ladi.

Granula holatiga o‘tkazilgan polimerlar import analog granulaga 10%dan qo‘shiladi.Qayta ishlangan polimer miqdori oshib ketishi buyum yoki detalni salbiy oqibatlarga olib keladi, masalan, mustahkamlikning kamayishi, qattiqlikning ortishi, detalning dizayni (yuza qismida noteksliklar) kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Modern Plastics Encyclopedia, Vol. 52 (10A), 1975–1976, r. 482.

2. А.Х. Расулов, С.Д. Нурмуродов, А.А. Алланазаров. Технология производства твердосплавных формообразующих инструментов методом порошковой металлургии. Монография – Ташкент, НУУз им. М. Улугбека, 2015г. 168с.

3. Нурмуродов С.Д., Расулов А.Х., Джалалова С.Т. Композиционные материалы. Методическое пособие. ТашГТУ. Ташкент, 2014 г. 38 с.

4. Abdurashidov, To‘xtamurod. “Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi: texnika oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Musiqa, 2010, 120 b.

VIBRATSION MEXANIZMLARNING OPTIMAL ISH REJIMLARINI ANIQLASH

prof. K.A. Karimov, prof. A.X. Axmedov, doktorant Sh.J. Komilov
Toshkent davlat texnika universiteti

Zamonaviy sanoatda vibratsion mexanizmlar keng qo‘llaniladi: tebranuvchi tozalash elaklar, vibratsion transport qurilmalari, ultratovushli ishlov berish moslamalari va seysmik himoya tizimlari shular jumlasidandir. Bu qurilmalarning ish samaradorligi ko‘p jihatdan optimal ish rejimining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq.

Vibratsion tizimlarning optimal ish rejimini tanlash masalasi bir necha sabablarga ko‘ra murakkab hisoblanadi: birinchidan, tizim parametrlarining nolinearligi; ikkinchidan, ko‘p o‘lchamli optimallashtirish fazosining mavjudligi; uchinchidan, amaliy sharoitlarda yuzaga keladigan cheklovlar. Shu bilan birga, noto‘g‘ri tanlab olingan rejim qurilmaning tez eskirishiga, haddan ortiq energiya sarfiga va ishlab chiqarish sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin [1].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, vibratsion mexanizmlar uchun optimal rejimlarni aniqlashda asosan ikkita yondashuv qo‘llaniladi: analitik usullar (Krylov–Bogolyubov usuli, ko‘p masshtabli tahlil) va raqamli optimallashtirish metodlari. Biroq ko‘pgina tadqiqotlarda energiya samaradorligi va dinamik yuklamalar o‘rtasidagi kompromiss yetarlicha hisobga olinmaydi.

Ushbu ishning maqsadi vibratsion mexanizmning matematik modelini tuzish va ko‘p mezonli optimallashtirish asosida optimal ish rejimlarini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Vibratsion mexanizmni bir erkinlik darajali nolinear ossillyator sifatida modellashtirish mumkin. Umumiy holda harakat tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega [2,3]:

$$m\ddot{x} + c\dot{x} + kx + k_3x^3 = F_0\cos(\omega t) + F_s(t) \quad (1)$$

bu yerda, m – siqiladigan massa (kg); c – sönimlik koeffitsiyenti (N·s/m); k chiziqli qattiqlik koeffitsiyenti (N/m); k_3 – Duffing turi nolinearlik koeffitsiyenti (N/m³); F_0 – qo‘zg‘atuvchi kuch amplitudasi (N); ω – qo‘zg‘atuvchi kuch chastotasi (rad/s); F_s(t) – tashqi ta’sir funksiyasi.

Statsionar jarayonlarni o‘rganishda harakat tenglamasini beadad ko‘rinishga o‘tkazish qulay. $\tau = \omega_0 t$ ($\omega_0 = \sqrt{(k/m)}$) almashtirish orqali:

$$x'' + 2\zeta x' + x + \varepsilon x^3 = f\cdot\cos(\Omega\tau) \quad (2)$$

bu yerda, $\zeta = c/(2m\omega_0)$ – sönimlik nisbati; $\varepsilon = k_3/(m\omega_0^2)$ – nolinearlik parametri; $f = F_0/(m\omega_0^2)$ – beadad kuch; $\Omega = \omega/\omega_0$ – chastota nisbati.

Optimal ish rejimi quyidagi ko‘p mezonli optimallashtirish masalasi sifatida shakllantiriladi:

$$\min J(u) = w_1\cdot J_1(u) + w_2\cdot J_2(u) + w_3\cdot J_3(u) \quad (3)$$

bu yerda, boshqaruv vektori $u = (\Omega, F_0, \zeta)^T$, vaznli mezonlar:

$J_1(u)$ = P_input – sarflanadigan quvvat (energiya samaradorligi mezoni)

$J_2(u)$ = A_max – A – amplituda defitsiti (samaradorlik mezoni)

$J_3(u)$ = σ_max – konstruksiyaga ta’sir etuvchi maksimal kuchlanish

Cheklovlar tizimi:

$$\Omega_min \le \Omega \le \Omega_max;\ 0 \le F_0 \le F_max;\ \zeta_min \le \zeta \le \zeta_max$$
$$A(u) \ge A_min;\ T(u) \ge T_min;\ \sigma(u) \le [\sigma] \quad (4)$$

bu yerda, [σ] – ruxsat etilgan kuchlanish qiymati; T – tizimning xizmat qilish resursi.

Kichik nolinearliklarda statsionar tebranishlar amplitudasini aniqlash uchun Krylov–Bogolyubov variatsion usulidan foydalanamiz. Yechimni quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$x(\tau) = A(\tau)\cdot\cos(\Omega\tau + \varphi(\tau)) \quad (5)$$

Amplituda–chastota xarakteristikasini (AChX) olish uchun yechimni statsionar holga keltiradi va A’ = 0, φ’ = 0 shartlarini qo‘llaymiz. Natijada AChX tenglamasi:

$$A^2 = f^2 / [(1 - \Omega^2 + (3\varepsilon A^2)/4)^2 + (2\zeta\Omega)^2] \quad (6)$$

Bu tenglama A amplitudasiga nisbatan algebraik tenglama bo‘lib, uchta yechimga ega bo‘lishi mumkin – bu holatda tebranish amplitudasining chastotaga nisbatan gisterezis hodisasi kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, vibratsion mexanizmlarning samarali ishlashi tebranish parametrlarini optimal tanlashga bevosita bog‘liq. Tebranish chastotasining tizim tabiiy chastotasiga yaqinlashishi rezonans hodisasini yuzaga keltiradi va bu holatda energiya samaradorligi ortadi. Biroq rezonans zonasida amplitudaning ortib ketishi mexanizm elementlarining tez eskirishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli

optimal ish rejimini tanlashda rezonans holatining xavfsiz chegaralarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.V Vibratsin, Tebranishlar nazariyasi. Moskva: Mashinasozlik, 2018. 480-b.
2. R.I. Karimov, K.A. Karimov, N.N. Begimov. “Mexanizm va mashinalar nazariyasi”. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2019 – 248 b.
3. K.A. Karimov, A.N. Shoxiyon, R.E. Shaxabutdinov, Kh. Akhmedov. Mexanizmlar va mashinalar nazariysi. Darslik: – T.: “Dimal” nashriyoti, 2025, 348 b.

YUQORI QATTIQLIKDAGI CHO‘YANNING G‘OVAKLIGINI KAMAYTIRISH USULLARINI TADQIQ QILISH

[1]H.A. Ibrohimova, [2]SH.N. To‘raxo`jayeva.
[1]Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent
[2]Turin politexnika universiteti Toshkent filliali, Toshkent

Cho‘yan qotishmalaridagi g‘ovaklilik asosan gazlarning ajralib chiqishi, metallning notekis kristallanishi va quyma hajmida oziqlanish jarayonining yetarli bo‘lmasligi bilan bog‘liq. Amaliy laboratoriya kuzatuvlariga ko‘ra, sanoat korxonalarida sifatsiz mahsulotlarning qariyb 30–40% qismi aynan ichki g‘ovaklilik tufayli yuzaga keladi. Ayniqsa, yuqori xromli oq cho‘yanlarda karbid fazalarning ortiqcha miqdori metall oqimining harakatchanligini pasaytirib, mikrog‘ovaklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Metall eritmasining kimyoviy tarkibi g‘ovaklilikka bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uglerod miqdori 2,8–3,2% oralig‘ida saqlanganda va kremniy miqdori 0,9–1,3% dan oshirilmaganda kristallanish jarayoni barqarorroq kechadi. Uglerod miqdorining ortishi grafit ajralishini tezlashtiradi, bu esa ayrim zonalarda bo‘shliqlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, zamonaviy metallurgiyada tarkibni mikrolegirlash usuli orqali strukturani nazorat qilish keng qo‘llanmoqda.

G‘ovaklilikni kamaytirishda modifikatsiyalovchi qo‘shimchalarning roli alohida ahamiyatga ega. Ferrosilisiy, magniy va nodir yer elementlari qo‘shilganda kristallanish markazlari soni ortadi va metall strukturasining zichligi yaxshilanadi. Tajriba natijalariga ko‘ra, 0,04–0,06% magniy qo‘shilgan cho‘yanlarda mikrog‘ovaklilik darajasi oddiy eritmaga nisbatan 15–20% ga kamaygan. Modifikatsiyalash jarayoni ayniqsa markaziy zonalarda uchraydigan shrinkaj bo‘shliqlarini qisqartirishda samarali hisoblanadi.

Quyish haroratining nazorat qilinishi ham texnologik jihatdan muhim omil sanaladi. Eritma haroratining me’yoridan yuqori bo‘lishi gazlarning eruvchanligini oshiradi va sovish vaqtida ularning ajralib chiqishiga sabab bo‘ladi. Sanoat kuzatuvlari asosida aniqlanishicha, yuqori xromli cho‘yanlar uchun optimal quyish harorati 1380–1420 °C

oralig‘ida bo‘lganda g‘ovaklilik eng kam ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Harorat 1450 °C dan oshganda esa ichki nuqsonlar soni o‘rtacha 12–17% ga ortadi.

Qolip materialining fizik xususiyatlari ham quyma sifatiga ta’sir etadi. Yuqori gaz ajratuvchi nam qum qoliplarda gazli g‘ovaklilik ko‘proq kuzatiladi. Shu sababli, zamonaviy quyuv sexlarida sintetik bog‘lovchili sovuq qotuvchi aralashmalar keng joriy qilinmoqda. Bunday texnologiya yordamida qolip gaz o‘tkazuvchanligi yaxshilanadi hamda metall yuzasidagi nuqsonlar kamayadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, sovuq qotuvchi qoliplardan foydalanilganda sifatsiz mahsulot hajmi 22% dan 9% gacha qisqargan.

Sovitish tezligini boshqarish orqali cho‘yan strukturasining zichligini oshirish mumkin. Tez sovitish natijasida mayda dispers karbid fazalar hosil bo‘ladi va metallning umumiy qattiqligi ortadi. Shu bilan birga, sovitishning haddan tashqari tezlashuvi ichki termik kuchlanishlarni paydo qiladi. Amaliy tadqiqotlarda bosqichli sovitish usuli qo‘llanganda mikroyoriqlar va g‘ovaklilik darajasi sezilarli kamaygani aniqlangan. Ayniqsa, qalin devorli quymalarda differensial sovitish texnologiyasi samarali natija beradi.

Vakuum ostida quyish usuli yuqori sifatli cho‘yan olishda istiqbolli texnologiyalardan biri hisoblanadi. Past bosimli muhitda eritmadagi erigan gazlar miqdori kamayadi va metallning ichki zichligi ortadi. Ilmiy tajribalarda vakuumli quyish orqali tayyorlangan namunalarda zichlik ko‘rsatkichi 3–5% yuqori bo‘lgani qayd etilgan. Bundan tashqari, abraziv yeyilishga chidamlilik ko‘rsatkichi ham oddiy quyma bilan solishtirganda yaxshiroq natija bergan.

Metallografik tekshiruvlar shuni ko‘rsatadiki, g‘ovaklilik darajasining kamayishi mikrostrukturadagi karbid fazalarning bir tekis taqsimlanishiga olib keladi. Bu holat qattiqlik va zarbiy mustahkamlik orasidagi muvozanatni yaxshilaydi. Tadqiqot namunalarida g‘ovaklilik 4,8% dan 1,9% gacha kamaytirilganda yeyilish tezligi qariyb 27% pasaygan. Natijada detallarning ekspluatatsion xizmat muddati o‘rtacha 1,4 barobar ortgan.

Iqtisodiy jihatdan baholanganda, g‘ovaklilikni kamaytirishga qaratilgan texnologik choralar ishlab chiqarish tannarxini dastlab 6–8 % ga oshiradi. Biroq sifatsiz mahsulotlarning kamayishi va detallar xizmat muddatining uzayishi hisobiga umumiy iqtisodiy samaradorlik 15–18% gacha yetadi. Shu sababli, sifatni boshqarishga asoslangan quyish texnologiyalari sanoat korxonalari uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Yuqori qattiqlikka ega cho‘yan qotishmalarida g‘ovaklilikning hosil bo‘lishi metallning kimyoviy tarkibi, quyish harorati, modifikatsiyalash usuli va sovitish rejimiga bevosita bog‘liq. G‘ovaklilikni kamaytirish uchun eritmani optimal tarkibda tayyorlash, gazsizlantirish, vakuumli quyish hamda zamonaviy qoliplash texnologiyalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Kompleks texnologik yondashuv asosida quyma sifatini oshirish, ekspluatatsion mustahkamlikni kuchaytirish va ishlab chiqarishdagi iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A. Axmedov. “Quyma metallarning kristallanish nazariyasi”. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Sh.R. Rahimov. “Cho‘yan qotishmalarining fizik-mexanik xossalari”. – Samarqand, 2020.
3. Campbell J. *Complete Casting Handbook*. Elsevier, 2015.
4. D.M. Stefanescu *Science and Engineering of Casting Solidification*. Springer, 2018.
5. ASM Handbook, Volume 15: *Casting*. ASM International, 2016.

“MIS - VOLFRAM ASOSIDA KUKUN METALLURGIYA USULIDA ELEKTR KONTAKT MATERIALLAR OLISH DIZAYNI”

Aliqulov Adham Xoltoji o‘g‘li
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Materialshunoslik” kafedrasi dotsenti,
Yusupova Yulduz Sobirjon qizi
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Materialshunoslik” kafedrasi 1-kurs, doktoranti,
Umirzakova Fotima Baxtiyorovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Materialshunoslik” kafedrasi 1-kurs, doktoranti

Kirish: Hozirgi kunda elektrotexnika, energetikasi va mashinasozlik sanoatining jadal rivojlanishi yuqori sifatli elektr kontakt materiallariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

Elektr kontakt materiallari avtomatik uzguchlar, relelar, yuqori kuchlanishli uskunalar, elektr payvandlash qurilmalari hamda turli komutatsion apparatlarda keng qo‘llaniladi. Bunday sharoitlarda ishlaydigan materiallar yuqori harorat, elektr yoyi, mexanik bosim va yeyilish ta’siriga duch keladi.

Shu sababli, kontakt materiallar yuqori elektr va issiqlik o‘tkazuvchanligi, mexanik mustahkamlik hamda yeyilishga chidamlilik kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Mis (Cu) yuqori elektr va issiqlik o‘tkazuvchanligi bilan ajralib turadi, volfram (W) esa yuqori qattiqlik, yuqori erish harorati va elektr yoyiga bardoshliligi bilan muhim material hisoblanadi.

Ushbu ikki metall asosida olinadigan Cu-W kompozit materiallari elektr kontakt materiallari sifatida yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi.

Bunday kompozitlar yuqori tok va haroratda ham barqaror ishlay oladi.

Mis-Volfram materiallarini ishlab chiqarishda kukun metallurgiya usuli eng samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Bu usul orqali material tarkibini aniq boshqarish, yuqori zichlikka erishish va kompozit struktura hosil qilish imkoni mavjud.

Shu munosabat bilan mis-volfram asosida kukun metallurgiya usuli orqali yuqori sifatli elektr kontakt materiallarini olish texnologiyasini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot elektr kontakt materiallarining xizmat muddatini oshirish, yeyilishini kamaytirish va mahalliy sanoat uchun import o‘rnini bosuvchi mahsulot yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy-tadqiqotni va metodikasi predmeti:

Metodikasi – Ushbu tadqiqot ishida mis-volfram (Cu-W) asosidagi elektr kontakt materiallarini kukun metallurgiya usuli orqali olish texnologiyasi o‘rganildi.

Tadqiqot jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshirildi.

Dastlab tadqiqot uchun yuqori tozalikka ega mis va volfram kukunlari tanlab olindi. Kukunlarning granulometrik tarkibi, fizik va kimyoviy xususiyatlari tahlil qilindi.

Keyingi bosqichda belgilangan tarkibiy nisbatlarda Cu va W kukunlari mexanik aralashtirish usulida bir jinsli holatga keltirildi.

Tayyorlangan kukun aralashmalari maxsus press qoliplarida ma’lum bosim ostida zichlandi. Presslangan namunalar yuqori haroratli pechlarda sinterlash jarayonidan o‘tkazildi.

Sinterlash harorati va vaqti material strukturasi ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida tadqiq qilindi.

Predmeti – Tadqiqot predmeti sifatida mis-volfram asosidagi kompozit elektr kontakt materiallarini kukun metallurgiya usuli orqali olish jarayoni, ularning strukturasi hamda fizik-mexanik va elektr ekspluatatsion xususiyatlari qabul qilindi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot ishida mis-volfram (Cu-W) asosidagi elektr kontakt materiallarini kukun metallurgiya usuli orqali olish texnologiyasi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Cu-W kompozit materiallari yuqori elektr o‘tkazuvchanlik, issiqlikka bardoshlilik va yeyilishga chidamlilik xususiyatlariga ega bo‘lib, elektr kontakt materiallari sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin. Kukun metallurgiya usuli orqali material strukturasini boshqarish va yuqori zichlikka erishish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek, presslanish bosimi va sinterlash harorati materialning mexanik va elektr xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi asoslab berildi.

Optimal texnologik rejimlarni tanlash orqali yuqori sifatli va uzoq xizmat qiladigan elektr kontakt materiallarini olish mumkunligi isbotlandi.

Olingan natijalar elektrotexnika, energetika va mashinasozlik sanoati uchun import o‘rnini bosuvchi ahalliy elektr kontakt materiallarini ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda kompozit materiallarning tarkibini takomillashtirish va himoya qoplamalarini qo‘llash orqali ularning ekspluatatsion xususiyatlarini yanada oshirish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdullayev F.A., Araximov Sh.R. Kukun metallurgiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2021, 220 b.

2. Yusupov A.A. Kompozitsion materiallar texnologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020, 185 b.

3. German R.M. Powder Metallurgy and Particulate Materials Processing. – Princeton: Metal Powder Industries Federation, 2014, 520 p.

4. Немилов Е.И. Порошковая металлургия. – Москва: Машиностроениеб 2002, 320 с.

5. Zhang L., Wang E. Microstructure and properties of Cu-W electrical contact materials prepared by infiltration method // Materials Science and Engineering A. – 2018. – Vol. 712. – P. 10-18.

OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI SHAROITIDA CHO‘YAN MAHSULOTLARI STRUKTURASINING MEXANIK XOSSALARGA TA’SIRINI TADQIQ ETISH

[1]H.A. Ibrohimova, [2]Sh.N. To`raxo`jayeva
[1]Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent
[2]Turin politexnika universiteti Toshkent filliali, Toshkent

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan cho‘yan mahsulotlarining ayrim turlarida mexanik mustahkamlik va yeyilishga chidamlilik ko‘rsatkichlarini oshirish zarurati mavjud. Bu esa cho‘yan strukturasining mexanik xossalarga ta’sirini chuqur ilmiy tadqiq qilishni talab etadi.

Cho‘yan mahsulotlarining xizmat muddati va ishonchliligi ularning mikrostruk-turaviy holatiga bog‘liq bo‘lib, noto‘g‘ri shakllangan struktura yorilish, deformatsiya va tez yeyilishga olib keladi. Ishlab chiqarishda energiya va xomashyo sarfini kamaytirish hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yuqori sifatli cho‘yan olish texnologiyalarini takomillashtirish muhimdir.

Shu jihatdan, cho‘yandagi grafit zarrachalari shakli, ferrit-perlit nisbatlari va issiqlik ishlovining mexanik xossalarga ta’sirini tadqiq qilish ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – OKMK sharoitida ishlab chiqarilgan cho‘yan mahsulotlari mikrostrukturasining mexanik xossalarga ta’sirini aniqlash va optimal strukturaviy parametrlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida zamonaviy metallografik va mexanik sinov usullaridan foydalanildi. Cho‘yan namunalarining mikrostrukturasi optik mikroskop yordamida o‘rganildi. Namunalarning qattiqligi Brinell usulida aniqlanib, mexanik mustahkamligi siqilish va cho‘zilish sinovlari asosida baholandi.

Bundan tashqari, namunalar tarkibidagi grafit shakli va perlit miqdori raqamli tasvirlarni tahlil qilish usullari yordamida hisoblandi. Olingan eksperimental natijalar statistik usulda qayta ishlanib, strukturaviy omillar va mexanik xossalar orasidagi bog‘liqlik aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, cho‘yan tarkibidagi perlit miqdorining ortishi materialning qattiqligi va mustahkamligini sezilarli ravishda oshirishi aniqlandi. Ferrit fazasining ko‘payishi esa plastik deformatsiyaga chidamlilikni yaxshilashi kuzatildi.

Grafit zarrachalarining sferik shaklga yaqinlashishi cho‘yanning yorilishga bardoshliligini oshirib, ekspluatatsion ishonchliligini yaxshilashi isbotlandi. Shuningdek, optimal issiqlik ishlovi natijasida mikrostrukturada mayda dispers perlit hosil bo‘lib, mahsulotning yeyilishga chidamliligi ortishi kuzatildi.

O‘tkazilgan tajribalar asosida quyidagi natijalar qayd etildi:

- perlit miqdori ortishi bilan qattiqlik 15–20% ga oshdi;
- sferik grafitli cho‘yanda yorilish xavfi kamaydi;
- issiqlik ishlovi natijasida mexanik mustahkamlik yaxshilandi.

Mazkur tadqiqot natijalari cho‘yan mahsulotlari sifatini oshirishda mikrostrukturani boshqarish muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ilmiy xulosalar metallurgiya korxonalarida optimal texnologik rejimlarni tanlashda foydalanilishi mumkin.

Amaliy jihatdan esa ishlab chiqilgan tavsiyalar:

- mahsulotning xizmat muddatini oshirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- yeyilishga chidamli detallar olish.

Cho‘yan mahsulotlari mikrostrukturasi ularning mexanik xossalariga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi. Perlit miqdori va grafit shaklining optimallashuvi qattiqlik, mustahkamlik hamda yeyilishga chidamlilikni oshirishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari metallurgiya sanoatida sifatli cho‘yan mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov Q.X. Metallshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Po‘latov A.A. Cho‘yan va po‘lat materiallari texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. GOST 3443–87. Cho‘yan mikrostrukturasini aniqlash usullari.
4. GOST 1412–85. Kulrang cho‘yan texnik talablari.
5. Mirzayev S., Rasulov B. Metall qotishmalarining fizik-mexanik xossalari // Metallurgiya jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–52.

110G13L MARKALI PO'LATLARNI ELEKTR PECHLARIDA SUYUQLANTIRISHDA ENERGIYA TEJAMKORLIGINI TA'MINLASH

B.S.Nurmurodov, t.f.d.dos. X.Z.Abduraxmonov
O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi

Ushbu tadqiqotda 110G13L markali yuqori marganesli po'latni elektr yoyli pechlarda suyuqlantirish jarayonida energiya sarfini kamaytirish va texnologik samaradorlikni oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – eritish jarayonida issiqlik yo'qotishlarini minimallashtirish, elektr energiya iste'molini optimallashtirish hamda metall sifat ko'rsatkichlarini barqaror saqlashga yo'naltirilgan energiya tejamkor texnologik yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Metallurgiya sanoatida energiya resurslaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuqori marganesli 110G13L markali po'latlarni eritish jarayoni katta miqdorda elektr energiyasi talab qiladi. Ushbu po'lat turi maydalagich jag'lari, ekskavator tishlari, temir yo'l strelkalari va yuqori sharoitida ishlovchi detallar tayyorlashda keng qo'llaniladi. 110G13L po'latining kimyoviy tarkibida marganes miqdori yuqori bo'lgani sababli, eritish jarayonida qo'shimcha issiqlik energiyasi talab qilinadi. Shu sababli, elektr yoy pechlarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash iqtisodiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Tadqiqot davomida elektr yoy pechlarida 110G13L po'latini eritish jarayoni tahlil qilindi. Jarayonda quyidagi energiya tejovchi usullar qo'llanildi:

- oldindan qizdirilgan shixtadan foydalanish;
- kislorod purkash texnologiyasi;
- pech qoplamasining issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash;
- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali harorat nazorati.

110G13L po'latini eritishda energiya sarfiga ta'sir etuvchi omillar:

№	Jarayon bosqichi	Energiya sarfi, %	Tejamkorlik usuli
1	Shixtani eritish	45–50	Oldindan qizdirish
2	Metallni qizdirish	20–25	Harorat nazorati
3	Kimyoviy tarkibni sozlash	15–20	Kislorod purkash
4	Issiqlik yo'qotishlari	10–15	Izolyatsion materiallar

Tadqiqot davomida shixtani oldindan 400–500°C gacha qizdirish orqali elektr energiyasi sarfi sezilarli darajada kamayishi kuzatildi. Bunda eritish vaqti qisqarib, pech unumdorligi oshdi. Kislorod purkash texnologiyasi yordamida metallning tezroq erishi

ta’minlandi va oksidlanish jarayonlari jadallashdi. Pech qoplamasida zamonaviy o‘tga chidamli materiallardan foydalanish issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirdi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yordamida pech ichidagi harorat optimal darajada ushlab turildi.

Energiya tejamkor texnologiyalar samaradorligi:

Texnologiya turi	Energiya tejalishi
Shixtani oldindan qizdirish	8–10%
Kislorod purkash	3–5%
Issiqlik izolyatsiyasi	2–4%
Avtomatik boshqaruv tizimi	1–3%

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida shixtani oldindan qizdirish elektr energiyasi sarfini 8–10 % gacha kamaytirishi aniqlandi. Bundan tashqari, kislorod purkash texnologiyasi metallning tezroq erishini ta’minlab, eritish vaqtini qisqartirdi. Pech devorlarida zamonaviy o‘tga chidamli materiallardan foydalanish issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirib, umumiy energiya samaradorligini oshirdi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi yordamida haroratning optimal rejimda ushlab turilishi esa metall sifatining yaxshilanishiga olib keldi. Natijada elektr pechlarida 110G13L markali po‘latni eritishda umumiy energiya sarfi o‘rtacha 10–15 % ga kamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov A.A. *Metallurgik pechlar va energiya tejamkor texnologiyalar*. – Toshkent: Fan, 2021.

2. Rasulov Sh.R. *Yuqori marganesli po‘latlarning xossalari va qo‘llanilishi*. – Toshkent, 2020.

3. Islomov B.X. *Elektr yoy pechlarida po‘lat eritish texnologiyasi*. – Toshkent DTU, 2022.

4. Karimov N.T. Metallurgiya sanoatida energiya samaradorligi // “Texnika fanlari axboroti” jurnali. – 2023.

КОРРОЗИЯБАРДОШ ҚОПЛАМАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ТАСНИФИ

Ш.А. Каримов профессор, катта ўқитувчи Л.О. Даминов,
катта ўқитувчи М.Х. Абдурахмонова
Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети

Коррозияга қарши ҳимоя қопламалари конструкция материалларини ташқи муҳит таъсиридан изоляция қилади, кимёвий реакциялар ва электрокимёвий жараёнларни чеклайди, шунингдек, механик зарарланишлардан муҳофаза қилади. Қопламалар қуйидаги турларга ажратилади:

– органик полимер асосли қопламалар (эпоксид, полиуретан, фенол, поливинил);

– металл қопламалар (цинк, никель, хром, мис, алюминий);

– керамик ва оксидли қопламалар (Al_2O_3, ZrO_2, TiO_2);

– комбинациялаштирилган қопламалар (металл-керамик, полимер-композицион).

Ҳар бир турнинг афзалликлари ва чекланишлари мавжуд. Масалан, эпоксид полимерлар юқори кимёвий барқарорликка эга бўлса, металлаштирилган қопламалар юқори механик мустаҳкамлик билан ажралиб туради. Наноқопламалар эса кам қалинликда ҳам юқори барқарорлик бериши билан алоҳида аҳамиятга эга.

Электрокимёвий қоплаш

Электрокимёвий қоплаш – металл буюмлар юзасига электр токи ёрдамида ҳимоя ёки декоратив қоплама ҳосил қилиш жараёнидир. Бу усул саноатда коррозиядан ҳимоя қилиш, ейилишга чидамлиликни ошириш, ташқи кўринишни яхшилаш ҳамда электр ўтказувчанликни кучайтириш мақсадида кенг қўлланилади. Жараён махсус электролит эритмаси ичида амалга оширилади. Қопланадиган металл буюм катод вазифасини бажаради, қопловчи металл эса анод сифатида уланади. Электр токи берилганда электролитдаги металл ионлари катод юзасига чўкиб, юпқа ва мустаҳкам қоплама ҳосил қилади.

Электрокимёвий қоплашда никеллаш, хромлаш, мислаш, рухлаш каби усуллар кенг тарқалган. Масалан, хром қопламалар қаттиқлик ва ейилишга чидамлиликни оширса, никель қопламалар коррозияга қарши юқори ҳимоя хусусиятига эга. Рух қопламалар эса пўлат деталларни атмосфера таъсиридан сақлайди.

Жараённинг сифати ток зичлиги, электролит таркиби, ҳарорат ва вақтга боғлиқ бўлади. Электрокимёвий қоплаш усули машинасозлик, авиация, нефть-газ саноати, электроника ва тиббиёт соҳаларида кенг қўлланилади. Ушбу технология металл деталларнинг хизмат муддатини узайтиради ва иқтисодий самарадорликни таъминлайди.

Кимёвий чўктириш (CVD) ва физик чўктириш (PVD). Кимёвий чўктириш (CVD – Chemical Vapor Deposition) ва физик чўктириш (PVD – Physical Vapor Deposition) замонавий юпқа қопламалар ҳосил қилиш технологиялари ҳисобланади. Бу усуллар металл ва қотишмалар юзасида юқори қаттиқликка, коррозияга чидамлиликка ҳамда ейилишга бардошли қопламалар ҳосил қилишда кенг қўлланилади.

CVD усулида қоплама газсимон кимёвий моддаларнинг юқори ҳарорат таъсирида парчаланиши ёки реакцияга киришиши натижасида ҳосил бўлади. Жараён вакуум ёки махсус газ муҳитида амалга оширилади. Қопланадиган деталь қиздирилганда реактив газлар унинг юзасида қаттиқ модда қатламини ҳосил қилади. Бу усул орқали титан нитриди (TiN), кремний карбиди (SiC) ва бошқа мустаҳкам қопламалар олинади. CVD қопламалар юқори адгезия ва бир текис структураси билан ажралиб туради.

PVD усулида эса қопловчи материал физик усулда – буғлантириш ёки ионли сочиш орқали буғ ҳолатига келтирилади ва вакуум муҳитида деталь юзасига чўктирилади. Бу технологияда ҳарорат нисбатан паст бўлади, шу сабабли, иссиқликка сезгир материалларга ҳам қўллаш мумкин. PVD қопламалар юқори қаттиқлик, паст ишқаланиш коэффициенти ва декоратив ялтироқликка эга бўлади.

CVD ва PVD технологиялари кесувчи асбоблар, тиббий жиҳозлар, авиация деталлари, электроника ва машинасозлик соҳаларида кенг ишлатилади. Улар деталларнинг хизмат муддатини узайтириш ва эксплуатацион хусусиятларини яхшилашда муҳим аҳамиятга эга.

Металл юзаларини турли ташқи таъсирлардан ҳимоя қилиш ва уларнинг эксплуатацион хусусиятларини яхшилашда қоплама технологиялари муҳим аҳамиятга эга. Электрокимёвий қоплаш усули металл деталларни коррозиядан сақлаш, ейилишга чидамлилигини ошириш ва ташқи кўринишини яхшилаш имконини беради. Бу усул нисбатан иқтисодий ва саноатда кенг қўлланилиши билан аҳамиятли ҳисобланади.

Кимёвий чўктириш (CVD) технологияси юқори ҳароратда амалга оширилиб, мустаҳкам ва юқори адгезияга эга қопламалар ҳосил қилади. У айниқса қаттиқ ва иссиқликка чидамли қопламалар олишда самарали ҳисобланади. Физик чўктириш (PVD) усули эса пастроқ ҳароратда амалга оширилиши, юқори қаттиқлик ва декоратив хусусиятларга эга қопламалар ҳосил қилиши билан ажралиб туради.

Замонавий қоплама усулларидан фойдаланиш материалларнинг ишончлилиги ва иқтисодий самарадорлигини оширишда муҳим омил ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Материалшунослик ва материаллар технологияси – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги нашриёти, 2020.

2. Surface Engineering for Corrosion and Wear Resistance – J.R. Davis. ASM International, USA, 2001.

3. Handbook of Chemical Vapor Deposition – Hugh O. Pierson. William Andrew Publishing, 1999.

ELEKTROKONTAKT PISHIRISH USULIDA OLINADIGAN QOPLAMA TARKIBI VA XOSSALARI

Prof. Sh.A. Karimov, PhD katta o‘qituvchi N.A. Xusanov,
katta o‘qituvchi L.O. Daminov, katta o‘qituvchi M.X. Abduraxmonova.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Detallarning yuzalarga qoplama qoplash ko‘p holatlarda yeyilgan detallarni o‘lchamlari va shaklini tiklash uchun qo‘llaniladi, bu esa katta miqdordagi metallni iqtisod qilish va ta’mirlash ishlari narxini kamaytirish imkonini beradi. Ishchi detallar

yuzalarini qayta tiklashda asosan metall kukunlaridan tarkib topgan aralashmalardan foydalaniladi.

Metall kukunlari metall-keramika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun boshlang‘ich material bo‘lib xizmat qiladi. Kukunlar metallarni mexanik maydalash, oksidni qaytarish, suyuq metallni atomizatsiya qilish, elektrolitik cho‘ktirish, shuningdek, karbonillarni qizdirish va parchalash orqali ishlab chiqariladi. Metallarni mexanik maydalash sharsimon tegirmonlarda, dizentegrator tegirmonlarida va boshqa turdagi tegirmonlarda amalga oshiriladi.

Metall kukunlari kimyoviy tarkibi, shakli, o‘lchami va massa zichligi bo‘yicha tasniflanadi. Katta nisbiy (o‘ziga xos) sirt maydoniga ega bo‘lgan metall kukunlari namlik va atmosfera kislorodini faol ravishda o‘zlashtiradi. Bu ularning sifatining yomonlashishiga olib keladi. Kukunlarni atmosferaga ta’sir qilishdan himoya qilish uchun ular yopiq idishlarda tashilishi, quruq va shamollatiladigan joyda saqlanishi kerak. Uzoq muddatli saqlashdan so‘ng, metall kukunlarini past haroratlarda (zarrachalarning siqilishini oldini olish uchun) tiklash - bo‘shatish tavsiya etiladi.

Temir kukuni (GOST 9849-61 ga muvofiq). Kukun payvandlash elektrodlari, ishqoriy batareyalar, lenta prokati, magnit nuqsonlarni aniqlash, urug‘larni tozalash, rangli metallarni sementlash, bosmaxona sanoatida foydalanish uchun, kimyo sanoatida organik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qaytaruvchi vosita sifatida va boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra, temir kukuni besh guruhga bo‘linadi, ularga an’anaviy ravishda ПЖ-1, ПЖ-2, ПЖ-3, ПЖ-4 va ПЖ -5 nomlari beriladi. Granulometrik tarkibiga ko‘ra, u to‘rt guruhga bo‘linadi: yirik (K), o‘rta (C), mayda (M) va juda mayda (OM). M guruhi kukuni uchta kichik guruhga ega: 1, 2 va 3, ular hajmiy zichligi jihatidan farq qiladi. Narx belgilashda M harfidan keyingi raqamlar kichik guruhni hajmiy zichligi bo‘yicha, g/sm^3 ga ko‘rsatadi (1-jadval):

1-jadval

Temir kukunlarining granulometrik tarkibiga ko‘ra turlari

ПЖ1М1	ПЖ2М1	ПЖ3М1	ПЖ4М1	1,8-2,1
ПЖ1М2	ПЖ2М2	ПЖ3М2	ПЖ4М2	2,2-2,5
ПЖ1М3	ПЖ2М3	ПЖ3М3	ПЖ4М3	2.6-3,0

Temir kukunining kimyoviy tarkibi berilgan standartlarga, granulometrik tarkibi esa maxsus standartlarga mos kelishi kerak. Kukun tarkibida begona aralashmalar va bo‘laklar bo‘lmasligi kerak, uning namligi 0,2% dan oshmasligi kerak.

Zanglamaydigan xrom-nikel po‘latlari va nikeldan purkab olingan kukunlar (GOST 14086-68 ga muvofiq). Kukunlar ОХ18НЮ, Х18Н9 markali xrom-nikel po‘latdan HI, H2 va H3 markali nikeldan havo yoki inert gaz bilan purkash orqali tayyorlanadi va filtr elementlari hamda kukun metallurgiyasidan foydalangan holda turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan. Kukunlar uchta markada ishlab chiqariladi: ПРОХ18НЮ, ПРХ18Н9 va ПРН. Marka belgisida harflar quyidagilarni

anglatadi: П – kukun, Р – purkalgan, Х – xrom, Н – nikel. Harflardan keyingi raqamlar qotishma elementining butun birliklardagi taxminiy miqdorini ko‘rsatadi. Granulometrik tarkibga qarab, kukunlar yetti fraksiyada ishlab chiqariladi. Har bir kukun fraksiyasining massa zichligi ikki guruhga bo‘linadi: A va B. Kukunning fraksiya o‘lchamlari, elak tarkibi va massa zichligi standartlarga mos kelishi kerak. Yetkazib berilgan kukundagi asosiy fraksiyaning o‘lchamiga mos kelmaydigan zarrachalarning umumiy miqdori 15% dan oshmasligi kerak. Tomonlarning kelishuviga ko‘ra, bu zarrachalarning umumiy miqdori 25% gacha oshirilishi mumkin. Kukunlar tarkibida begona aralashmalar bo‘lmasligi kerak. Kukunlarning nisbiy namligi 0,2% dan oshmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, detallarning yuzalariga qoplama qoplash texnologiyasi yeyilgan qismlarning o‘lchami va shaklini samarali tiklash imkonini berib, metall sarfini kamaytirish hamda ta’mirlash xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi. Bu jarayonda asosiy qismini metall kukunlari asosidagi aralashmalar bajaradi, chunki ular metall-keramika mahsulotlarini ishlab chiqarishda muhim boshlang‘ich material hisoblanadi. Metall kukunlari turli usullar bilan olinib, ularning kimyoviy tarkibi, zarracha o‘lchami, shakli va zichligi bo‘yicha tasniflanadi hamda sifat ko‘rsatkichlari qat’iy standartlar asosida nazorat qilinadi.

Shuningdek, temir kukunlari, xrom-nikel po‘latlari va yuqori legirlangan qotishmalar kukunlari o‘zining fizik-kimyoviy xossalari va qo‘llanish sohalariga ko‘ra keng turdagi sanoat tarmoqlarida ishlatiladi. Ularni to‘g‘ri saqlash va qayta ishlash texnologiyalariga rioya qilish kukunlarning sifatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, metall kukunlari asosidagi qoplama texnologiyalari zamonaviy sanoatda resurs tejamkor, iqtisodiy samarali va yuqori sifatli tiklash usuli sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дресвянников А.Ф. Получение порошков металлов и их оксидов в жидких средах методом окисления-восстановления: монография / А. Ф. Дресвянников, Ж.В. Межевич. – Москва; Волгда: Инфра-Инженерия, 2023, 148 с.

2. Порошковой металлургия в Беларуси; вызовы времени: сб. науч. ст. / НАП Беларуси, ГНПО порошковой металлургии: редкол.: А.Ф. Ильющенко (гл. ред.) [и др.]. – Минск: Беларуская наука, 2017, 532 с.

3. Процессы порошковой металлургии: лаб. практикум / В.Ю. Лопатин [и др.]. – Москва: Изд. Дом НИТУ «МИСиС», 2021, 110 с.

ALYUMINIY QOTISHMALARI QIRINDILARINI QAYTA ISHLASH ASOSIDA SIFATLI QUYMALAR OLISHNING INNOVATSION USULLARI

Ibroxim Sodiq Nosirxo‘jayev Alauddin o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada alyuminiy qotishmalari qirindilarini qayta ishlash asosida sifatli quymalar olishning innovatsion texnologik usullari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida qirindilarni qayta eritish jarayonining asosiy texnologik parametrlari, jumladan eritish harorati, flyuslardan foydalanish hamda qirindilarni oldindan zichlashning metall chiqishiga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, qayta eritilgan alyuminiy qotishmalarining strukturaviy holati va mexanik xossalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida optimal eritish rejimlari aniqlanib, metall yo‘qotilishini kamaytirish hamda quyma sifatini oshirish imkoniyatlari asoslab berildi. Taklif etilgan texnologik yondashuv resurs tejamkorligi, energiya samaradorligi va ekologik afzalliklari bilan tavsiflanadi.

Kirish. Metallurgiya sanoatida resurslardan samarali foydalanish va texnologik chiqindilarni qayta ishlash bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alyuminiy va uning qotishmalari mashinasozlik, avtomobilsozlik, aviatsiya hamda elektrotexnika sanoatida keng qo‘llanilishi natijasida ushbu metallga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish korxonalarida katta hajmdagi alyuminiy qirindilari va texnologik chiqindilar hosil bo‘lmoqda.

Birlamchi alyuminiy ishlab chiqarish katta miqdorda elektr energiyasi talab qiladigan texnologik jarayon hisoblanadi. Shu sababli, ikkilamchi alyuminiy resurslarini qayta ishlash orqali energiya sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va ekologik muammolarni qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi.

Biroq alyuminiy qirindilarini qayta eritish jarayonida metallning oksidlanishi, kuyishi va gaz bilan to‘yinishi kabi salbiy holatlar kuzatiladi. Bu esa metall chiqishining kamayishiga va quyma sifatining yomonlashishiga olib keladi. Ayniqsa, mayda dispersli qirindilar katta solishtirma sirt maydoniga ega bo‘lgani sababli atmosfera bilan tez reaksiyaga kirishadi.

So‘nggi yillarda alyuminiy qotishmalari qirindilarini qayta ishlashning samarali usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, qirindilarni oldindan briketlash, flyuslardan foydalanish, inert muhitda eritish hamda optimal harorat rejimlarini tanlash asosiy ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi alyuminiy qotishmalari qirindilarini qayta ishlash asosida sifatli quymalar olishning innovatsion texnologik usullarini ishlab chiqish va texnologik parametrlarning quyma sifatiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot ishida mexanik ishlov berish sexlarida hosil bo‘lgan alyuminiy qotishmasi qirindilaridan foydalanildi. Tajribalar oldidan qirindilar tarkibidagi moy va mexanik aralashmalar maxsus tozalash usullari orqali bartaraf etildi.

Qayta eritish jarayoni elektr qarshilik pechida amalga oshirildi. Eritish harorati 680–760°C oralig‘ida o‘zgartirildi. Metallning oksidlanishini kamaytirish maqsadida xlorid-ftorid asosidagi flyuslar qo‘llanildi. Qirindilarni oldindan zichlashning texnologik samaradorlikka ta’siri ham o‘rganildi

Tajriba davomida quyidagi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi:

1.metall chiqishi;

2.metall yo‘qotilishi;


3.quyma sifati;

4.g‘ovaklik darajasi;

5.strukturaviy bir jinslilik;

6.mexanik mustahkamlik.

Texnologik jarayon sxemasi




1-rasm. Alyuminiy qotishmalari qirindilarini qayta ishlashning texnologik jarayon sxemasi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalari alyuminiy qotishmalari qirindilarini qayta eritishda eritish harorati va flyuslardan foydalanish quyma sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tajriba natijalariga ko‘ra, 700–720 °C oralig‘idagi eritish harorati optimal texnologik rejim sifatida baholandi.

Ushbu harorat oralig‘ida metallning oksidlanishi kamayib, metall chiqishi yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Haroratning 750 °C dan yuqori qiymatlarida esa metall kuyishi kuchaygani kuzatildi.

Qirindilarni oldindan zichlash usuli metall chiqishini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Zichlangan qirindilar atmosfera bilan kamroq kontaktga kirishgani sababli oksidlanish darajasi kamaydi va qayta eritish samaradorligi ortdi. Flyuslardan foydalanish eritma yuzasida himoya qatlami hosil qilib, metallning kuyishini kamaytirdi. Metallografik tahlillar flyus qo‘llanilgan namunalarda strukturaviy bir jinslilik yaxshilanganini ko‘rsatdi.



2-rasm. Qayta eritilgan alyuminiy qotishmalarining mikrostrukturasi.

Metallografik kuzatuvlar natijasida optimal texnologik parametrlar asosida olingan namunalarda strukturaviy bir jinslilik yaxshilangani hamda g‘ovaklik darajasi kamaygani aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida alyuminiy qotishmalari qirindilarini qayta ishlashda optimal eritish rejimlarini tanlash sifatli quymalar olishning asosiy omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Qirindilarni oldindan zichlash metall chiqishini oshirib, oksidlanish darajasini kamaytirishi tajribalar asosida tasdiqlandi. Flyuslardan foydalanish esa metallning kuyishini kamaytirib, quyma strukturasining bir jinsli shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Taklif etilgan texnologik yondashuv:

– metall yo‘qotilishini kamaytiradi;

– energiya sarfini qisqartiradi;

– resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi;

– ekologik xavfsizlikni oshiradi.

Mazkur texnologiya metallurgiya korxonalarida alyuminiy qotishmalari chiqindilarini samarali qayta ishlash va yuqori sifatli quymalar ishlab chiqarishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Axmedov A.A. Metallurgik jarayonlar nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021, 286 b.

2.Abdullayev Sh.R., Karimov B.T. Ikkilamchi alyuminiy qotishmalarini qayta ishlash texnologiyasi // Respublika ilmiy-texnik jurnali. – 2022. – №4. – B. 41–46.

3.Callister W.D. Materials Science and Engineering: An Introduction. – New York: Wiley, 2020, 960 p.

4. 21. – 300 c.

ALYUMINIY QOTISHMALARINI SUYUQLANTIRISHDA HOSIL BO‘LADIGAN SHLAKLARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH ASOSIDA RESURS TEJAMKORLIKNI TA’MINLASH

N.T. Nazarova, Sh.T. Toshmatova.
O‘zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi

Alyuminiy va uning qotishmalari mashinasozlik, aviatsiya va qurilish sanoatida keng qo‘llaniladi. Ularni suyuqlantirish jarayonida ma’lum miqdorda shlak hosil bo‘ladi. Ushbu shlak tarkibida sezilarli miqdorda metall qolib ketadi, bu esa iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi. Shu sababli, shlaklarni qayta ishlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Alyuminiy shlaklari asosan oksidlar, metall qoldiqlari va turli qo‘shimchalardan tashkil topadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shlak tarkibida 10–30% gacha alyuminiy bo‘lishi mumkin. Bu esa uni qayta ishlash orqali qayta foydalanish imkonini beradi.

Shlaklarni qayta ishlashning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- mexanik ajratish (maydalash va saralash);
- termik qayta ishlash (qayta eritish);
- kimyoviy usullar (reaksion ajratish).

Eng samarali usullardan biri bu shlakni maxsus pechlarda qayta eritish orqali metallni ajratib olishdir. Ushbu jarayonda fluxlar qo‘llanilib, metallning ajralib chiqish darajasi oshiriladi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarda inert gazlar yordamida degazatsiya qilish va modifikatsiyalash jarayonlari ham qo‘llanilib, metall yo‘qotilishini kamaytirish mumkin.

Taklif etilayotgan texnologiya quyidagi natijalarni beradi:

- alyuminiy yo‘qotilishini 15–20% ga kamaytirish;
- ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish;
- chiqindilar hajmini qisqartirish;
- ekologik xavfsizlikni oshirish.

Bundan tashqari, shlakni qayta ishlash orqali ikkilamchi xomashyo bazasi kengayadi va tabiiy resurslardan foydalanish kamayadi.

Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda hosil bo‘ladigan shlaklarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish resurs tejamkorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan texnologiyalarni joriy etish sanoat samaradorligini oshirish bilan birga ekologik muammolarni ham kamaytiradi.

11. Бельский В. В., Кудрявцев А. А. Металлургия железа и стали. – М.: Металлургия, 2010.

12. Левин В. И. Технология переработки отходов металлургического производства. – М.: Академия, 2015.

PRODUCTION OF 300X32N2PL ALLOY FROM FX650 FERROCHROME USING ELECTRIC ARC FURNACE TECHNOLOGY

Sheroz Burkhonov, Nodir Turaxodjayev Doctor of Technical Sciences, Professor
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Tashkent, Uzbekistan

The demand for high-performance materials resistant to heat, corrosion, and mechanical stress is increasing across various industries, particularly in energy, chemical, and metallurgy sectors. The 300X32N2PL alloy, made from FX650 ferrochrome, is known for its excellent mechanical, heat, and corrosion resistance properties. This thesis focuses on the production of the 300X32N2PL alloy using Electric Arc Furnace (EAF) technology. EAF offers high energy efficiency and precise control, making it an ideal method for large-scale alloy production.

1.Properties of FX650 Ferrochrome and 300X32N2PL Alloy

FX650 Ferrochrome: FX650 ferrochrome is an alloy composed primarily of iron (Fe) and chromium (Cr), with additional elements such as nickel (Ni) and molybdenum (Mo) to enhance its properties. The high chromium content gives it excellent heat and corrosion resistance.

300X32N2PL Alloy: This alloy is designed to withstand high temperatures, resist corrosion, and endure mechanical stress. It is ideal for use in aggressive chemical environments and high-pressure conditions in industries such as energy and heavy machinery.

2. Electric Arc Furnace (EAF) Technology

EAF is a powerful method for producing alloys, utilizing high-energy electric arcs between electrodes to melt metals. The key advantages of using EAF technology include: High efficiency: Fast melting and precise control over the process. Energy savings: EAFs consume less energy compared to other furnace types, reducing costs. Process control: The ability to control temperature and chemical composition accurately ensures the production of high-quality alloys.

3. Production Process Using Electric Arc Furnace

3.1 Raw Material Selection: The primary raw material is FX650 ferrochrome, which consists of iron and chromium. Additional elements such as nickel, molybdenum, and vanadium are added to adjust the alloy’s properties for specific applications.

3.2 Melting Process: The EAF generates high temperatures using electric arcs. The electrodes pass electric current through the furnace, rapidly melting the raw materials into molten metal. This process is fast and energy-efficient, making it ideal for large-scale production.

3.3 Composition Adjustment: During the melting process, elements like chromium and nickel are added to adjust the chemical composition of the alloy. The high


temperature of the EAF ensures that the elements are evenly distributed throughout the molten metal.

3.4 Cooling and Solidification: Once the alloy is produced, it is removed from the furnace and cooled. The cooling process is controlled to maintain the desired crystalline structure, improving the alloy's mechanical properties.

3.5 Mechanical Processing: After solidification, the alloy is subjected to mechanical processes like rolling or cutting to achieve the required size and shape. This step is crucial for ensuring the material is suitable for its intended applications.

3.6 Quality Control: The final product undergoes testing to ensure it meets the required standards. Tests include: Mechanical testing: Tensile and compression tests to measure strength and durability. Corrosion resistance: Exposing the alloy to various chemicals and environments to check its durability.

Heat resistance: Testing how the alloy performs at elevated temperatures.



4. Technological Improvements and Innovations

Several technological innovations can further enhance the EAF process: Automation: Advanced control systems allow for real-time monitoring and adjustments, improving consistency and reducing errors. Energy-efficient electrodes: New types of electrodes increase the efficiency of the furnace while reducing energy consumption. Recycling: Incorporating scrap materials into the process helps reduce waste and improve sustainability.

5. Conclusion

The use of Electric Arc Furnace technology for producing 300X32N2PL alloy from FX650 ferrochrome offers several advantages, including high efficiency, energy savings, and precise control over the final product's composition. This method is ideal for large-scale alloy production and ensures that the alloy meets the necessary mechanical, heat, and corrosion resistance properties for demanding industrial applications.

RAQAMLI ISHLAB CHIQISHNI RIVOJLANTIRISHDA CNC TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Sheroz Burhonov, Nodir To‘raxodjayev Texnika fanlari doktori, professor
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Raqamli ishlab chiqarish (Digital Manufacturing) – bu yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarish va nazorat qilishning raqamli asoslangan jarayonidir. Bugungi kunda raqamli ishlab chiqarish sohasida CNC (Computer Numerical Control) texnologiyalari keng tarqalgan bo‘lib, ular ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, tezlashtirish va yuqori sifatni ta’minlashga yordam beradi. Ushbu tezisda, CNC texnologiyalarining raqamli ishlab chiqarish sohasida rivojlanishi va ularning sanoatdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

CNC Texnologiyalarining Asosiy Prinsiplari

CNC texnologiyalari – bu kompyuter yordamida boshqariladigan dastgohlar orqali materiallarni yuqori aniqlikda qayta ishlash jarayonidir. CNC texnologiyasining asosiy prinsipi quyidagicha:

Kompyuter dasturlari: Dastgohlar kompyuter yordamida avtomatik ravishda boshqariladi. Texnologiya ishlab chiqarish jarayonini raqamli formatda rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi.

Dastgohlar: CNC dastgohlar, CNC frezalash, CNC tokarlik, 3D metall parashokli CNC ishlab chiqarishni yuqori aniqlik va takrorlanish bilan amalga oshiradi.

Yuqori aniqlik: CNC texnologiyalari orqali ishlab chiqarish jarayonida material-larning yuqori aniqlikda ishlov berilishi, qismlar va mahsulotlarning mukammal sifatini ta’minlaydi.

Mavjud muammolar:

Hozirgi ishlab chiqarish tizimlarida quyidagi asosiy muammolar mavjud:

❌ Past aniqlik va sifat muammosi
– qo‘lda ishlov berish natijasida sifatsiz mahsulotlar ko‘p
❌ Ishlab chiqarish samaradorligining pastligi
– jarayonlar sekin va optimal emas
❌ Inson omiliga yuqori bog‘liqlik
– xatolar va nosozliklar ko‘p uchraydi
❌ Uskunalar eskirgan va nazorat tizimi sust
– nosozliklar oldindan aniqlanmaydi
❌ Resurslardan samarasiz foydalanish
– ortiqcha material va energiya sarfi
❌ Global bozorda raqobatbardoshlik pastligi
– sifat va standartlar talabiga to‘liq javob bermaydi

Asosiy kutilayotgan natijalar:

1. Ishlab chiqarish samaradorligi oshadi
- Unumdorlik 20–40% gacha ortadi
- Bir xil vaqt ichida ko‘proq mahsulot ishlab chiqariladi
- Ishlab chiqarish vaqti qisqaradi

2. Mahsulot sifati yaxshilanadi
- CNC va raqamli nazorat orqali yuqori aniqlik ta’minlanadi
- Brak mahsulotlar 30–50% gacha kamayadi

3. Xarajatlar kamayadi
- Xomashyo va energiya sarfi optimallashtiriladi (10–20% tejash)
- Nosozliklar va to‘xtab qolishlar kamayadi

4. Raqamli boshqaruv tizimi shakllanadi
- Real vaqt monitoring yo‘lga qo‘yiladi
- Barcha jarayonlar yagona tizimda boshqariladi (MES/ERP)
- Inson omiliga bog‘liqlik kamayadi
- Jarayonlar barqaror va nazorat ostida bo‘ladi

5. Korxona raqobatbardoshligi oshadi
- Mahsulot xalqaro standartlarga moslashadi
- Eksport imkoniyatlari kengayadi

6. Kadrlar salohiyati rivojlanadi
- Zamonaviy texnologiyalarni biladigan mutaxassislar yetishib chiqadi
- Xodimlarning malakasi oshadi.

Xulosa. CNC texnologiyalarining raqamli ishlab chiqarishda o‘rni har qachongidan ham muhimroq bo‘lib, ular mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirish uchun samarali vositadir. CNC texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlari yanada optimallashtirilmoqda, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning aniqligi va sifat darajasi oshmoqda. Kelajakda, sun’iy intellekt, avtomatizatsiya va boshqa innovatsion texnologiyalar yordamida CNC texnologiyalarining samaradorligi yanada oshadi.

METALLARGA BOSIM BILAN ISHLOV BERISHDA DEFORMATSIYA TURLARI

T.f.d. prof. Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich,
t.f.f.d. (PhD) Hasanov Kamoliddin Akmal o‘g‘li,
assistent Komilov Islomjon Raimqul o‘g‘li,
tayanch doktorant Abdullayev Rufat Fatxullayevich,
magistr Jalolov Jafar Jamol o‘g‘li.
Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Metallarga bosim bilan ishlov berish jarayonida mustahkamlanish va yumshash jarayonlari ma’lum tezliklarda vaqt davomida kechadi. Bu tezliklar deformatsiya sharoitlari (harorat, deformatsiya tezligi va deformatsiya darajasi) hamda deformatsi-yalanayotgan metallning tabiati bilan belgilanadi.

Qaysi jarayon ustunlik qilishiga qarab, deformatsiya natijalari turlicha bo‘ladi. S.I. Gubkin tasnifiga ko‘ra deformatsiya quyidagi turlarga bo‘linadi: issiq deformatsiya, to‘liqmas issiq deformatsiya, to‘liqmas sovuq deformatsiya va sovuq deformatsiya.

To‘liq yumshash bilan kechadigan deformatsiya issiq deformatsiya deb ataladi. Bunda rekristallanish jarayoni to‘liq sodir bo‘lishga ulguradi. Natijada metall hech qanday mustahkamlanish izlarisiz, to‘liq rekristallangan va teng o‘qli mikrostrukturaga ega bo‘ladi.


To‘liqmas issiq deformatsiya (to‘liq bo‘lmagan yumshash bilan) jarayonida rekristallanish to‘liq yakunlanmaydi. Bu holatda deformatsiya vaqtida ham, deformatsiya tugagandan keyin ham metall tarkibida ikki xil mikrostruktura bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘ladi:

- rekristallangan (teng o‘qli donachali);
- rekristallanmagan (cho‘zilgan donachali).

Rekristallanmagan donato‘liqmasining mavjudligi deformatsiyaning notekisligini oshiradi. Bu esa metallning plastikligini kamaytirib, yemirilish ehtimolini kuchaytiradi. To‘liqmas issiq deformatsiyaga uchragan metall katta qoldiq kuchlanishlarga ega bo‘ladi va yetarli plastiklik bo‘lmaganda buzilish yuz berishi mumkin.

To‘liqmas issiq deformatsiya deformatsiya harorati rekristallanish boshlanish haroratidan biroz yuqori bo‘lganda kuzatiladi. Deformatsiya tezligi ortishi bilan bu holat yuzaga kelish ehtimoli ham oshadi (1-rasm).

Ayniqsa quyma metallarga ishlov berishda to‘liqmas issiq deformatsiyadan qochish lozim, chunki u pokovka sifatining pasayishiga olib keladi. Bu turdagi deformatsiya rekristallanish tezligi kichik bo‘lgan qotishmalarda (masalan, ayrim alyuminiy va magniy qotishmalarida) oson yuzaga keladi. Shu sababli, bunday qotishmalar kichik deformatsiya tezliklarida ishlanadi.



1-rasm. Deformatsiya harorati va deformatsiya tezligining metallning deformatsiyaga qarshiligiga ta'siri.

To‘liqmas sovuq deformatsiya (to‘liq bo‘lmagan mustahkamlanish bilan) deb rekristallanish sodir bo‘lmaydigan, biroq qaytish jarayoni yuz berishga ulguradigan deformatsiyaga aytiladi. Natijada metall rekristallanish izlarisiz tasmasimon mikrostrukturaga ega bo‘ladi, katta deformatsiyalarda esa deformatsion tekstura hosil bo‘ladi. Bunday metallning plastik xossalari qaytishsiz deformatsiyalangan metallga nisbatan yuqoriroq, mustahkamlik xossalari esa biroz pastroq bo‘ladi.

To‘liqmas sovuq deformatsiya harorati qaytish boshlanish haroratidan yuqori bo‘lganda kuzatiladi. Bunda deformatsiya tezligi qaytish jarayoni to‘liq sodir bo‘lishiga imkon beradigan darajada bo‘lishi kerak.

Sovuq deformatsiya (to‘liq mustahkamlanish bilan) jarayonida rekristallanish ham, qaytish ham sodir bo‘lmaydi va deformatsiyalangan metall mustahkamlanishning barcha belgilariga ega bo‘ladi. Sovuq deformatsiya qaytish boshlanish haroratidan past haroratlarda amalga oshadi.

Metallarga bosim bilan ishlov berishda deformatsiya turi metallning mikrostrukturasi va mexanik xossalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Deformatsiya jarayonida harorat va deformatsiya tezligi asosiy omillar hisoblanib, ular rekristallanish hamda mustahkamlanish jarayonlarining borishiga ta’sir qiladi.

Issiq deformatsiyada metall to‘liq rekristallanib, yuqori plastiklikka ega bo‘ladi. To‘liqmas issiq deformatsiyada esa rekristallanishning to‘liq kechmasligi natijasida qoldiq kuchlanishlar va strukturaviy notekisliklar yuzaga keladi. Sovuq deformatsiyada metallning mustahkamligi ortadi, biroq plastikligi kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колмогоров В. Л. Напряжения. Деформации. Разрушение / В. Л. Колмогоров. – М.: Металлургия, 1970, 229 с.

2. Машиностроение. Энциклопедия: В 40 т. Т. IV-4. Машины и оборудование кузнечно-штамповочного и литейного производства / Под ред. Ю.А. Бочарова, И.В. Матвеенко. – М.: Машиностроение, 2005, 926 с.

3. Кобелев А.Г., Троицкий В.П., Мохов А.И. Оборудование кузнечно-штамповочных цехов В 2 ч. Ч. 2. Молоты. Машины специального назначения: Учеб. для вузов. – Волгоград: Изд-во ВолгГТУ, 2001, 288 с.


DEFORMATSIYA HARORATINING METALL DEFORMATSIYAGA QARSHILIGI VA PLASTIKLIK XOSSALARIGA TA’SIRI

T.f.d., professor Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich,
t.f.f.d. (PhD) Hasanov Kamoliddin Akmal o‘g‘li,
assistent Komilov Islomjon Raimqul o‘g‘li,
magistr Diyorov Salohiddin Farhod o‘g‘li,
talaba Ismatov Sardorxon Po‘lat o‘g‘li.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Metall haroratining ortishi uning mexanik tavsiflariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Harorat oshishi bilan mustahkamlik va plastiklik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish jarayonini 1-rasmda keltirilgan grafiklar orqali kuzatish mumkin. Grafiklardan ko‘rinadiki, uglerodli po‘latni taxminan 100°C gacha qizdirish metallning plastikligini biroz oshirib, deformatsiyaga qarshiligini kamaytiradi.

Haroratning keyinchalik taxminan 300°C gacha ortishi esa plastiklikning sezilarli kamayishiga va mustahkamlikning ortishiga olib keladi. Ushbu holat “ko‘k mo‘rtlik” zonasi deb ataladi. Bu hodisa, ehtimol, eskirish jarayoniga o‘xshash ravishda sirpanish tekisliklari bo‘ylab juda mayda karbid zarrachalarining ajralib chiqishi bilan izohlanadi.

Haroratning yanada oshishi metall mustahkamligining asta-sekin, biroq sezilarli ravishda kamayishiga olib keladi. Taxminan 1000°C haroratda metallning mustahkamlik chegarasi 10 martadan ortiq kamayadi.



1-rasm. Metallning deformatsiyaga qarshiligi (σ_v) va plastikligi (ε) ning haroratga bog‘liqligi.

Plastiklik ko‘rsatkichlari uchun rekristallanish to‘liq amalga oshmaydigan, ya’ni to‘liqmas issiq deformatsiya sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan haroratlar sohasida hamda fazaviy o‘zgarishlar haroratlari oralig‘ida ma’lum darajada kamayish kuzatiladi. Ko‘pincha ushbu ikkala hodisa deyarli bir xil haroratlarda yuz beradi.

Fazaviy o‘zgarishlar haroratlari oralig‘ida plastiklikning kamayishi deformatsiyalanayotgan metall tarkibida xossalari turlicha bo‘lgan ikki fazaning bir vaqtda mavjud bo‘lishi bilan izohlanadi. Bu esa kuchlanganlik holatining notekisligini oshiradi.

Erish haroratidan biroz past haroratlarda plastiklikning keskin kamayishi kuzatiladi. Bu hodisa donachalarning yiriklashishi va keyinchalik metallning kuyishi (donacha chegaralarining oksidlanishi) natijasida yuzaga keladi. Boshqa metall va qotishmalar uchun ham mustahkamlik va plastiklik ko‘rsatkichlarining haroratga bog‘liqlik grafiklari shunga o‘xshash xarakterga ega bo‘ladi.

Barcha metall va qotishmalar uchun umumiy qonuniyat shundan iboratki, ular eng yuqori plastiklikka rekristallanish haroratlarida, ya’ni issiq deformatsiya sharoitlarida ega bo‘ladi. Shu bilan birga, bu sharoitlarda mustahkamlik ko‘rsatkichlari va deformatsiyaga qarshilik qiymatlari minimal bo‘ladi.

Metallni issiq deformatsiya haroratigacha qizdirishda plastiklikning ortishi atomlar harakatchanligining oshishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, plastiklikning ortishiga boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, issiq deformatsiya sharoitida odatda, qo‘shimchalar miqdori yuqori bo‘lgan kristallararo qatlamlarning plastikligi sezilarli darajada ortadi. Bu holat, tarkibida qo‘shimchalar ko‘p bo‘lgan chegara qatlamlarining termodinamik barqarorligi pastroq va ularning erish harorati asosiy metall donachalarining erish haroratidan kichikroq bo‘lishi bilan tushuntiriladi.

Issiq deformatsiya haroratigacha qizdirilganda donachalararo qatlamlarning mustahkamligi donachalarning mustahkamligiga nisbatan tezroq kamayadi va umumiy deformatsiyada kristallararo deformatsiyaning ulushi ortadi. Shu bilan birga, bu qatlamlarning mo‘rtligi kamayadi va ularda mikro yoriqlar hosil bo‘lish ehtimoli pasayadi.

Mikro yoriqlar hosil bo‘lish xavfining kamayishi deformatsiya jarayonida ularning “tiklanishi” mumkinligi bilan ham izohlanadi. Ikki fazali qotishmalarda deformatsiya vaqtida mikro yoriqlarning tiklanishini tushuntirishda A.A. Bochvar tomonidan aniqlangan bir faza kristallitlari atomlarining boshqa faza kristallitlariga sakrashsimon ko‘chishi hodisasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu hodisa A.A. Bochvar tomonidan plastik deformatsiyaning eritma-cho‘kma turi deb nomlangan.

Fazalararo atomlar almashinuvi jarayonida mikroskopik yoriqlar “tiklanadi”, chunki metallning cho‘kishi mikrobo‘shliqlarda osonroq sodir bo‘ladi.

Harorat oshishi bilan atomlarning harakatchanligi ortganligi sababli, mikro yoriqlarning “tiklanishi” ham issiq deformatsiya haroratlarida osonroq amalga oshadi.

Shunday qilib, issiq deformatsiya sharoitida metallarga bosim bilan ishlov berish minimal deformatsiyalash kuchlarini talab qiladi va zagotovkaning maksimal shakl o‘zgarishini ta’minlaydi.

Biroq kichik o‘lchamli zagotovkalar uchun deformatsiyaning belgilangan harorat rejimini saqlash qiyin hisoblanadi. Chunki sovuq asbob bilan kontakt paytida sovish va tashqi muhitga issiqlik yo‘qotilishi kuzatiladi. Bu yo‘qotishlar zagotovka yuzasi maydonining hajmiga nisbati ortishi bilan kuchayadi. Shu sababli, issiq bosim bilan ishlov berish odatda yirik va o‘rta o‘lchamli zagotovkalar uchun qo‘llaniladi (qalinligi taxminan 10 mm dan ortiq listli zagotovkalar va massasi 0,1 kg dan katta sortli metall zagotovkalar).

Kichik o‘lchamli va yupqa listli zagotovkalarga odatda sovuq yoki to‘liqmas sovuq deformatsiya sharoitida ishlov beriladi.

Ko‘pgina metallarda issiq deformatsiya haroratlari sirt qatlamlarining intensiv oksidlanish haroratlariga to‘g‘ri keladi, uglerodli po‘latlarda esa bu haroratlarda sirt qatlamlarining uglerodsizlanishi kuzatiladi. Bu holat issiq ishlov berilgan zagotovkalar sirt sifatining yomonlashishiga olib keladi va keyingi mexanik ishlov uchun katta belgilashni talab qiladi.

Deformatsiyalash kuchlarini sovuq deformatsiyaga nisbatan kamaytirish bilan birga, sirt sifatini yaxshilash hamda issiq shtamplashga nisbatan yuqori aniqlikdagi shtamplangan zagotovkalar olishga bo‘lgan intilish natijasida ayrim hollarda yarim issiq shtamplash usuli qo‘llanila boshlandi. Ushbu usul to‘liqmas issiq deformatsiya sharoitlariga yaqin rejimlarda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Scholtes, R. Boulais-Sinou, A. Settefrati, D. Pino Mu˜noz, I. Poitrault, A. Montouchet, N. Bozzolo, and M. Bernacki, “3D level set modeling of static recrystallization considering stored energy fields,” Computational Materials Science, 122, (2016): 57–71.

2. Ковка и штамповка: Справочник: В 4 т. Т. 2. Горячая объемная штамповка / Под ред. Е.И. Семенова. – М.: Машиностроение, 2010, 720 с.

3. Малинин Н.Н. Ползучесть в обработке металлов: учебное пособие для вузов. – М.: Юрайт, 2022, 221 с.

4. Яковлев С.П., Чудин В.Н. и др. Изотермическое деформирование высокопрочных анизотропных материалов. – М.: Машиностроение, 2003, 427 с.

DEFORMATION PROPERTIES OF METALS IN PRESSURE PROCESSING

Xasanov Kamoliddin Akmal ugli[1], PhD; Liang Zhenglong[2], associate Professor, PhD; Quralov Shoxrux Norbobo ugli[1]; Abdugafforov Mehmonali Bekzod ugli[1]; Artiqov Ixtiyor Sevdiyor ugli[1]

[1]Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Uzbekistan

[2]Lanzhou University of Technology, People's Republic of China

Metal forming (processing metals under pressure) is one of the most widely used and efficient technological processes in industry. Using this method, it is possible not only to give metal products the required shape, but also to improve their mechanical properties. During processing under pressure, the metal deforms under the influence of external forces, and this process has a significant effect on the metal's internal structure.

In terms of its physical nature, the processing of metals under pressure is a process of plastic deformation. The plastic deformation of a single crystal occurs through slip (glide) and through twinning.

The mechanism of plastic deformation in polycrystals is considerably more complex. This is explained by the fact that, in polycrystalline materials, grains differ from one another in shape and size, possess non-uniform physical and mechanical properties, and have various orientations of slip planes and directions relative to the applied deforming load.

Two types of deformation in polycrystalline materials are distinguished:


- intragranular (within the grains, inside the crystals);
- intergranular (along the grain boundaries, between the crystals).

The first occurs through slip and twinning, similar to deformation in an individual single crystal, while the second proceeds by the rotation and relative displacement of grains with respect to one another. Both types of deformation take place simultaneously in polycrystalline materials.

Because the grains in a polycrystal have different orientations of slip planes, plastic deformation under external forces does not begin simultaneously in all grains. First, the most favorably oriented grains deform-namely, those whose shear (slip) planes are inclined at an angle of about 45° to the direction of the applied force (Fig. 1a). As deformation proceeds, the orientation of the slip planes changes toward smaller angles, and a greater load is required to continue slip along the same planes.

The remaining grains rotate due to the moments of forces arising on shear planes inclined at 45° to the loading axis. After this rotation, they also undergo deformation (Fig. 1b). As a result of plastic deformation, the shape of the grains changes. The grains become elongated in the direction of deformation and form a fibrous structure, in which the crystal lattices acquire a common orientation (Fig. 1c).

Plastic deformation of metals occurs both during cold and hot pressure processing.



a) **b)** **c)**

Figure 1. Schematic diagram of the development of plastic deformation in polycrystals

During cold pressure processing of metals, the metal becomes significantly strengthened and loses its ductility. If it is necessary to continue pressure processing, the workpiece is heated. Products obtained through cold deformation are characterized by high strength properties, precise dimensions, and a smooth surface. However, only highly ductile materials can be processed in this way.

During hot pressure processing of metals, deformation is carried out at temperatures above the recrystallization temperature. In this case, strain hardening is completely eliminated, the metal acquires an equiaxed grain structure, while the fibrous structure is retained. The more the metal is heated, the higher its ductility and the lower its resistance to deformation (for carbon steel, by 10–15 times). At the same time, overheating near the solidus line must be avoided, as it leads to burning (oxidation along grain boundaries).

Proper use of deformation laws during metal pressure processing makes it possible to utilize materials in the most efficient way. By correctly selecting hot and cold processsing regimes, it is possible not only to obtain the required shape, but also to improve the mechanical properties of the part and reduce its production cost several times.

References:

1. Abdullaev F.S., Maxkamov Q.X. Metallarga bosim bilan ishlov berish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDTU, 2000. - 400 b.

2. Larin S.N., Chudin V.N., Pasynkov A.A. Upsetting of edge thickening on housings under non-stationary viscoplastic deformation // Non-ferrous metals. 2020, v.7, pp. 88–78.

3. Лосов М.Г. Теория пластической деформация металлов. Учебное пособие. – Самара.: Изд-во СГАЕУ, 2010. - 175 с.


PROKATLAB PROFILLASHDA HOSIL BO‘LADIGAN NUQSONLAR

T.f.f.d. (PhD) Hasanov Kamoliddin Akmal o‘g‘li[1],
tayanch doktorant Rayimqulov Sanjar Xayrulla o‘g‘li[1],
Suleymonova Xurriyat Kuchkarovna[2],
talaba Shovxiddinova Zarina Baxriddinovna[1],
talaba Jo‘raqulova Sabrina O‘ktam qizi[1],
[1]Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston,
[2]Olmaliq shahar 1-son texnikumi, Toshkent viloyati, O‘zbekiston.

Масаланинг қўйилиши: Координаталар системаси биринчи марказга жойлаштирилади. Иккинчи марказ z-ўқи бўйлаб dмасофада жойлашган деб қаралади. Марказларнинг гравитацион параметрлари:

$$\mu_1, \mu_2$$

деб белгиланади.Ҳаракат цилиндрик координаталарда: (r, φ, z) кўринишида ифодаланади.Тизим гамильтониани реактив тяга ва гравитацион таъсирларни ҳисобга олган ҳолда тузилади.Масала учун мавжуд биринчи интеграллардан фойдаланиб, Леви–Чевита методи қўлланилди. Натижада:

$$v_1 = 0, v_2 = 0$$

шартлар олинди.Бу эса ҳаракат траекториялари айланалардан иборат эканлигини кўрсатади. Космик аппарат марказлар чизиғига перпендикуляр текисликларда бир текис ҳаракат қилади.
Траектория тезлиги қуйидаги формула орқали аниқланди:

$$v_2^2 = Ar^2 + \frac{D - A}{3B}\left(kA - \frac{\mu_2}{r_2^3}\right)$$

Бу ерда A, B, Dфункциялари гравитацион параметрлар ва геометрик катталикларга боғлиқ.
Реактив куч йўналиши: Тяга вектори йўналиши учун:

$$\tan\,\alpha = \frac{3rBd}{A - D}$$

ифода ҳосил қилинди.Бу натижа ҳар бир траектория учун тяга йўналиши доимий бурчак остида сақланишини кўрсатади.

Массанинг ўзгариш қонуни: Космик аппарат массаси вақт бўйича экспоненциал қонун асосида ўзгаради:

$$M = M_0 \exp\left(\frac{N}{c\lambda_1}t\right)$$

Бу ерда Nреактив куч интенсивлигини характерлайди.
Хулоса Ишда икки қўзғалмас марказли гравитация майдонида ҳаракатланувчи космик аппарат учун янги хусусий аналитик ечимлар синфи олинди. Олинган натижалар:

- оптимал айлана траекторияларни аниқлаш;
- реактив куч йўналишини ҳисоблаш;
- ёқилғи сарфини баҳолаш

имконини беради.
Тадқиқот натижалари космик аппаратларнинг оптимал бошқаруви ва траекторияларини лойиҳалашда қўлланилиши мумкин.

Адабиётлар

1. Лоуден Д.Ф. Оптимальные траектории для космической навигации. — М.: Мир, 1966.
2. Азизов А.Г. Вариационные задачи механики космического полета. — Ташкент: ТашГУ, 1990.
3. Азизов А.Г. Применение метода Леви–Чевита при анализе оптимальных траекторий // Космические исследования, 1979.
4. Коршунова Н.А. Аналитические решения для участков промежуточной тяги в поле двух неподвижных центров // Вестник НУУз, 2006.

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕПЛОЗАЩИТНЫХ СВОЙСТВ ПОДКЛАДОЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ УТЕПЛЁННОЙ ОБУВИ МЕТАЛЛУРГОВ

АБДУРАХИМОВ ЗОХИД НОРМАТОВИЧ*, доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент Университет военной безопасности и обороны Республики Узбекистан Начальник цикла кафедры материального обеспечения,*

Специалистам металлургии часто приходится работать в открытом местности и в зимнее время участились случаи обморожения пальцев ног.

Теплозащитные свойства материалов и обуви зависят от потока тепла через пакеты материалов. Тепловое сопротивление складывается из сопротивления переходу тепла от слоёв материала и слоем воздуха, из воздушной прослойки к следующему слою материала и от стопы к обуви, а также отдачи тепла от наружной поверхности обуви во внешнюю среду.

Полное суммарное сопротивление обуви может быть выражено уравнением:

$$P_{полн.} = P_{сум.} + P_{в}\ [м^2 \cdot ч \cdot град/ккал]$$

где $P_{полн.}$ – полное суммарное тепловое сопротивление обуви;

$P_{сум.}$– сопротивление передаче тепла через систему материалов обуви (суммарное тепловое сопротивление обуви);

$P_{в}$ - сопротивление передаче тепла от наружной поверхности во внешнюю среду (внешнее поверхностное тепловое сопротивление) [1].

Под теплозащитными свойствами понимают способность обуви поддерживать теплообмен стопы на нужном для организма уровне. В зимних условиях носки обуви эти свойства характеризуются способностью предохранять, изолировать стопу человека от излишних тепловых потерь. Для обеспечения защитных свойств зимней обуви используется широкий ассортимент подкладочных и теплоизоляционных материалов [2]

Исследовано влияние структуры прокладочных мембранных материалов разных иностранных фирмы на теплопроводные свойства. Средние статистические данные представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Результаты испытаний материалов на теплопроводность

№	Наименование материала	Состав	Толщина, мм	Наименование сторон материала		Теплопроводность, %	
				Лицевая - А	Подкладочная - В	Сторона А	Сторона В
1	SANYHYGIENI-CAL	Полиамид с пропиткой	1,4	Плёнка полиэстер	трикотаж	44,4	49,8
2	AERPLUSSZH33 NERO	Полиамид	1,4	Плёнка полиэстер	трикотаж	31,4	37,8
3	DUBLINO AVIO	Полиэстер/ Полиамид	1,4	Плёнка полиэстер	Сетчатый трикотаж	21,22	24,09
4	SPIGATINO	Полиамид	6,3	Плёнка полиэстер	трикотаж	48,72	52,52
5	CLOROFILLA	Полиамид	4,2	трикотаж	трикотаж	24,29	47,9

Результаты проведённых исследований по определению теплопроводных свойств подкладочных материалов для обуви зимнего сезона носки позволяют сделать следующие заключения:

- толщина прокладочных материалов существенно влияет на показатели теплопроводности – чем толще материал, тем выше показатели защитных свойств материалов. Толщины искусственных и натуральных мехов колеблется от 2,29 *мм* до 2,88 *мм,* высота ворса от 9,5 *мм* до 15,2 *мм;*

- теплозащитные свойства у натуральных и искусственных мехов колеблется в небольших пределах – от 51,27% до 68,39%, несмотря на значительные колебания по толщине – 1,4-6,3 *мм.*

- высокие показатели теплозащитных свойств войлока объясняется значительной толщиной 6,3-6,5 *мм* и особенностью структуры полотна;

- для производственных испытаний проектируемой зимней утепленной спецобуви, используемой в горных районах при пониженных температурах для II холодного периода носки, рекомендованы сапоги мужские литьевого метода крепления; материал верха–хромовая кожа с водоотталкивающей пропиткой; голенища – синтетическая кожа; подкладка под внутренние детали: для модели «*а*» – искусственный мех на трикотажной основе (состав – шерсть 80% + полиэстер 20%) , для модели «*б*» – грубошерстный войлок С вложением в смесь 85% тонкой овечьей шерсти + акрила 15%;

- низкие теплозащитные свойства подкладочных мембранных материалов объясняется малой толщиной и содержанием в составе химических и искусственных волокон, снижающих теплозащитные свойства материалов.

Анализ инновационных технологий в производстве прокладочных композиционных обувных материалов, позволил сделать заключение об использовании комплектов подкладочных материалов в зависимости от теплопроводных свойств комплектующих.

Использованная литература

1. **Maksudova U.M., Mirzaev N.B., Pazilova D.Z., Sheraliev Sh.Sh.,** Analysis of innovative technologies in the manufacture of composite lining materials/ International Jornal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology/ vol. 5, Issue 10, October 2018. P. 7013-7015.
2. **Свищёв Г.А., Буянов А.А., Филатов И.П.,** Охрана труда на обувных и кожгалантерейных предприятиях, Москва, 1986.
3. **В.Р. Лысак, А.Г.Нанкин, И.Р.Татарчук,** «К вопросу совершенствования теплозащитных свойств обуви зимнего сезона носки, «Кожевенно обувная промышленность», Москва,№ 3, 2011, – С.24-26.

ПЦ-4,3М МОБИЛ ЁҚИЛҒИ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ АСОСИДА ЖАНГОВАР БРИГАДАЛАРДА ЛОГИСТИК ЖАРАЁНЛАРНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ

Xasanov Farrux Davronovich *podpolkovnik, Qurolli kuchlar bosh shtabi fakulteti, moddiy ta'minot kafedrasi yoqilg'i-moylash materiallari ta'minoti sikli boshlig'i*

Аннотация. Ушбу тезисда ПЦ-4,3М мобил ёқилғи таъминоти тизими асосида жанговар бригадаларда ёқилғи таъминотини ташкил этиш ва оптималлаштириш масалалари таҳлил қилинган. Экспериментал ва тадқиқотлар асосида тизим самарадорлиги баҳоланган.

Жанговар ҳаракатларда тезкорлик ва манёвр қилиш қобиляти кўп жиҳатдан ёқилғи таъминоти тизимининг самарадорлигига боғлиқ. Шу сабабли, мобил ёқилғи таъминоти воситалари муҳим аҳамият касб этади.

ПЦ-4,3М тизимининг техник тавсифи:

ПЦ-4,3М (ПЗП-10 насоси билан):

— ҳажми: 4,3 м^3

— насос унумдорлиги:

1000 л/дақ;

— автоном ишлаш режими мавжуд;

— тез жойлашиш имконияти;

Логистик жараён модели:

Ёқилғи таъминоти жараёни қуйидаги босқичлардан иборат:

$$L = \{Q, T, R, S\} \qquad (4)$$

бу ерда:

S – таъминот тизими структураси.

Самарадорликни ҳисоблаш:

$$E = \frac{Q}{T \cdot R} \qquad (5)$$

$$E_{opt} = \max\left(\frac{Q}{T \cdot R}\right) \qquad (6)$$

Бу ерда оптималлаштиришнинг мақсади — вақт ва ресурсларни минималлаштириш.

Эксперимент ва тадқиқот натижалари

№	Кўрсаткич	Аввал	Кейин	Ўсиш (%)
1	Тезлик	600 л/мин	1000 л/мин	+66%
2	Самарадорлик	0.65	0.87	+34%
	Вақт сарфи	1.0	0.7	-30%

График таҳлил:

Самарадорликнинг вақтга боғлиқлиги таҳлили шуни кўрсатадики: вақт камайиши билан самарадорлик экспоненциал равишда ошади оптимал нуқта мавжуд

Амалий самарадорлик

№	Кўрсаткич	Натижа
1	Ёқилғи етказиб бериш тезлиги	ошди
2	Йўқотишлар	камайди
3	Автономлик	ошди
4	Манёвр	яхшиланди

Илмий янгилик:

— мобил тизим учун оптималлаштириш модели;
— ресурс тежамкор алгоритм;
— амалиётга йўналтирилган ечим;

Ишончлилик:

— экспериментал синовлар;
— статистик таҳлил;
— таққослама усуллар;

Хулоса. ПЦ-4,3М мобил ёқилғи таъминоти тизими жанговар бригадаларда логистика самарадорлигини оширишнинг самарали воситаси ҳисобланади. Таклиф этилган моделлар таъминот жараёнларини оптималлаштириш ва ресурслардан оқилона фойдаланиш имконини беради.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kress M. Operational Logistics
2. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management
3. Simchi-Levi D. Designing and Managing the Supply Chain
4. Ballou R. Business Logistics Management
5. Taylor G. Military Logistics Systems

HARBIY LOGISTIKANING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI

Ashurov Suxrob Abdushukurovich *Qurolli Kuchlar Bosh shtabi fakulteti Moddiy ta’minot kafedrasi, Kiyim-kechak ta’minoti sikli o‘qituvchisi*

Harbiy logistika qurolli kuchlarning jangovar salohiyatini shakllantirish va saqlab turishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks tizim hisoblanadi. U nafaqat moddiy ta’minot jarayonlarini, balki strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish, transport tizimlari va axborot oqimlarini ham qamrab oladi. Zamonaviy

sharoitlarda harbiy operatsiyalarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan logistikaning tezkorligi, moslashuvchanligi va ishonchliligiga bog‘liqdir. Harbiy logistikaning rivojlanish jarayoni insoniyat tarixining barcha bosqichlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u oddiy ta’minot tizimlaridan boshlab yuqori texnologiyalarga asoslangan integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarigacha evolyusiya qilgan.

Harbiy logistikaning tarixiy evolyusiyasi

Qadimgi davrlar. Qadimgi sivilizatsiyalarda harbiy logistika asosan qo‘shinlarni oziq-ovqat, qurol-aslaha va kiyim-kechak bilan ta’minlashga qaratilgan edi. Misr, Rim va Xitoy imperiyalarida harbiy yurishlar oldidan maxsus ta’minot tizimlari tashkil etilgan bo‘lib, bu qo‘shinlarning uzoq muddatli harakatlanishini ta’minlagan. Rim imperiyasi logistikani tizimli shaklga keltirgan ilk davlatlardan biri bo‘lib, yo‘l infratuzilmasi va ombor tizimlari orqali qo‘shinlarni tezkor ta’minlash imkonini yaratgan.

O‘rta asrlar. O‘rta asrlarda logistika ko‘proq feodal tizimga asoslangan bo‘lib, qo‘shinlar mahalliy resurslar hisobiga ta’minlangan. Bu davrda markazlashgan ta’minot tizimlari yetarlicha rivojlanmaganligi sababli harbiy yurishlar ko‘pincha resurslar cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Sanoat inqilobi davri. Sanoat inqilobi logistika sohasida tub burilish yasadi. Temir yo‘llar, bug‘ dvigatellari va ommaviy ishlab chiqarish tizimlari harbiy ta’minot imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Endi qo‘shinlarni uzoq masofalarga tezkor va katta hajmda ta’minlash imkoniyati paydo bo‘ldi.

XX asr – jahon urushlari davri. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari logistikaning strategik ahamiyatini to‘liq namoyon etdi. Aynan shu davrda harbiy logistika mustaqil ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida shakllandi. Front va orqa hudud o‘rtasidagi ta’minot zanjirlarini boshqarish, yoqilg‘i, o‘q-dori va texnik resurslarni uzluksiz yetkazib berish harbiy muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biriga aylandi.

Zamonaviy harbiy logistika konsepsiyalari

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish. Bugungi kunda harbiy logistika raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamli platformalar orqali ta’minot zanjirlari real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Bu esa qaror qabul qilish tezligini oshiradi va xatoliklarni kamaytiradi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari omborlar, transport va taqsimot jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data). Sun’iy intellekt logistika sohasida prognozlash va optimallashtirish vazifalarini bajaradi. U ehtiyojlarni oldindan aniqlash, resurslarni taqsimlash va xavf tahlilini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Big Data texnologiyalari esa katta hajmdagi axborotni tahlil qilish orqali strategik qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Internet ashyolari (IoT) va blokcheyn. IoT texnologiyalari harbiy yuklar, transport vositalari va omborlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bu ta’minot zanjirining shaffofligi va nazorat darajasini oshiradi. Blokcheyn esa ma’lumotlarning o‘zgarmasligi va xavfsizligini ta’minlab, logistika operatsiyalarida ishonchlilikni kuchaytiradi.

Yashil logistika konsepsiyasi. Zamonaviy harbiy logistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri “yashil logistika” hisoblanadi. Bu konsepsiya resurslardan oqilona

foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan. Harbiy sohada bu yo‘nalish yoqilg‘i samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik zararlarni minimallashtirishni o‘z ichiga oladi.

Asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari

Harbiy logistikada bir qator dolzarb muammolar mavjud:

- Ta’minot zanjirlarining murakkabligi
- Xavfsizlik va kiberxavflar
- Resurslarni optimal taqsimlash
- Tezkor qaror qabul qilish zarurati

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- Raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish
- Sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirish
- Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash
- Kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash

Xulosa. Harbiy logistika evolyusiyasi oddiy ta’minot tizimlaridan tortib zamonaviy raqamli va intellektual boshqaruv tizimlarigacha bo‘lgan murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Bugungi kunda u harbiy operatsiyalarning samaradorligini belgilovchi strategik komponentga aylangan. Zamonaviy texnologiyalar – sun’iy intellekt, IoT, Big Data va blokcheyn – harbiy logistikaning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Ushbu innovatsiyalar qurolli kuchlarning tezkorligi, moslashuvchanligi va barqarorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda harbiy logistika to‘liq avtomatlashtirilgan, intellektual va ekologik jihatdan barqaror tizimga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. – London: Pearson, 2016.
2. Kress M. Operational Logistics: The Art and Science of Sustaining Military Operations. – Springer, 2016.
3. USA Department of Defense. Logistics Strategy 2030. – Washington, 2020.
4. Sheffi Y. The Power of Resilience in Supply Chains. – MIT Press, 2015

РАСЧЕТ И ОПТИМИЗАЦИЯ КОНСТРУКЦИИ МЕТАЛЛОКЕРАМИЧЕСКИХ ФИЛЬТРУЮЩИХ ЭЛЕМЕНТОВ ТОПЛИВНЫХ ФИЛЬТРОВ

Министерство Обороны Республики Узбекистан, Университет Военной Безопасности и Обороны доцент кафедры «Материального обеспечения» кандидат технических наук, доцент ***Мамарахимов Хамза Мамаджанович***

Аннотация. Исследованы гидравлические и фильтрационные характеристики пористых металлокерамических материалов. Разработаны аналитические зависимости для расчёта коэффициента проницаемости и гидравлического сопротивления. Обосновано преимущество лабиринтных и лабиринтно-гофрированных штор.

Ключевые слова: фильтр, металлокерамика, проницаемость, пористость, гидравлическое сопротивление.

Современные топливные фильтры военной, мобильной техники изготавливаются преимущественно из одноразовых бумажных и тканевых фильтрационных материалов, не подлежащих регенерации. Это приводит к увеличению эксплуатационных расходов и снижению экономической эффективности эксплуатации боевых и мобильных техники [1,2].

Перспективным направлением является применение тонкослойных пористых металлокерамических фильтрующих материалов, получаемых методами порошковой металлургии с использованием холодного или горячего прессования с последующим спеканием порошков черных и цветных металлов [3]. Экономическая целесообразность их применения определяется возможностью многократной регенерации и сохранения эксплуатационных характеристик фильтрующих элементов.

1. Структура пористой среды

Пористость:

$$\psi = 1 - \frac{\pi}{6(1-cos\ \alpha)\sqrt{1+2cos\ \alpha}} \qquad (1)$$

Средний диаметр пор:

$$\mathrm{d_п} \approx 0.15 d_{\mathrm{ч}} \qquad (2)$$

2. Коэффициент проницаемости

Закон Дарси:

$$V = \frac{\mathrm{K\Delta P}}{\mu\delta} \qquad (3)$$

Формула Козени–Карман:

$$K = \frac{\psi \mathrm{d_п^2}}{16\mathrm{k}} \qquad (4)$$

3. Гидравлическое сопротивление

$$\Delta P = \Delta \mathrm{P_ф} + \Delta \mathrm{P_{тр}} \qquad (5)$$

$$\Delta \mathrm{P_ф} = \frac{\mathrm{V\nu\rho\delta}}{\mathrm{FK}} \qquad (6)$$

Лабиринтная штора увеличивает площадь фильтрации в 3–4 раза.

Выводы

1. Металлокерамические материалы обеспечивают регенерацию фильтра.
2. Лабиринтная конструкция повышает ресурс фильтра.
3. Разработаны расчётные зависимости для оптимизации параметров.
4. Снижение гидравлического сопротивления достигает 20–30 %.

Список литературы

1. Дытнерский Ю.И. Процессы и аппараты химической технологии. – М.: Химия, 1983.
2. Крагельский И.В. Основы расчета на трение и износ. – М.: Машиностроение, 1977.
3. Немилов С.В. Порошковая металлургия. – М.: Металлургия, 1986.
4. ГОСТ 17216-2001. Чистота промышленная. Классы чистоты жидкостей.

IMITATSION MINALARNI ZAMONAVIY SHAXSIY TARKIB TAYYORGARLIGI TALABLARINI O‘QUV-TAKTIK SSENARIYLARGA INTEGRATSIYA QILISH METODIKASI

Podpolkovnik Mirxonov Ilyos Sanoqulovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Jangovar ta’minot kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda zamonaviy harbiy tayyorgarlik tizimlarida shaxsiy tarkibni o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida imitatsion minalar (virtual va yarim real modellar)ni o‘quv-taktik ssenariylarga integratsiya qilish metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqotda raqamli modellashtirish, simulyatsion texnologiyalar va intellektual boshqaruv tizimlarining o‘quv jarayoniga ta’siri tahlil qilingan. Taklif etilgan yondashuv shaxsiy tarkibning tezkor qaror qabul qilish, xavfli sharoitlarda harakatlanish va muhandislik-razvedka kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: imitatsion mina, simulyatsiya, o‘quv-taktik ssenariy, raqamli modellashtirish, intellektual tizimlar, harbiy tayyorgarlik.

Zamonaviy harbiy operatsiyalar murakkablashuvi sharoitida muhandislik-razvedka va xavfli hududlarda harakatlanish bo‘yicha shaxsiy tarkib tayyorgarligi sifatiga qo‘yiladigan talablar sezilarli darajada oshmoqda. Ayniqsa, minalangan hududlarda xavfsiz harakatlanishni, aniqlash va neytrallash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish real sharoitlarda yuqori xavf va katta moddiy xarajatlar bilan bog‘liq.

Shu sababli o‘quv jarayoniga imitatsion (simulyatsion) texnologiyalarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Imitatsion minalar asosida qurilgan o‘quv tizimlari shaxsiy tarkibga real sharoitga yaqin muhitda xavfsiz mashg‘ulot o‘tkazish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi. Imitatsion minalarni zamonaviy raqamli o‘quv-taktik ssenariylarga integratsiya qilish orqali shaxsiy tarkib tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida quyidagi yondashuvlar qo‘llanildi:

Simulyatsion modellashtirish – minalangan hududlarning raqamli modeli yaratildi;

Ssenariyli o‘qitish (scenario-based training) – harbiy vaziyatlar dinamik ssenariylar asosida qurildi;

Intellektual tizimlar integratsiyasi – real vaqt rejimida qaror qabul qilishni baholovchi algoritmlar qo‘llanildi;

Risk tahlili (risk assessment) – har bir ssenariyda xavf darajasi ehtimollik modellar asosida baholandi;

Adaptiv o‘qitish modeli – o‘quvchi darajasiga moslashuvchi dinamik murakkablik tizimi joriy etildi.

Asosiy natijalar.

- Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy va amaliy natijalarga erishildi:

- Imitatsion mina tizimlari asosida raqamli o‘quv poligon modeli ishlab chiqildi.
- O‘quv-taktik ssenariylarning uch darajali (boshlang‘ich, o‘rta, yuqori) murakkablik tizimi taklif etildi.
- Shaxsiy tarkibning qaror qabul qilish tezligi va aniqligini baholash uchun intellektual indikatorlar tizimi yaratildi.
- Real sharoitga yaqin simulyatsiya orqali o‘quv samaradorligi 25–40% gacha oshishi aniqlangan.
- Xavfli mashg‘ulotlarda real o‘q-dori va portlovchi vositalardan foydalanish zarurati sezilarli darajada kamaygan.

Muhokama

Taklif etilgan metodika an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

- xavfsizlik darajasining yuqoriligi;
- iqtisodiy xarajatlarning kamayishi;
- murakkab taktik vaziyatlarni ko‘p martalab takrorlash imkoniyati;
- individual va guruhiy tayyorgarlikni parallel rivojlantirish;
- real vaqt rejimida tahlil va xatolarni korreksiya qilish imkoniyati.

Shuningdek, imitatsion tizimlar shaxsiy tarkibning psixologik barqarorligini oshirishga ham xizmat qiladi, chunki ular stressli vaziyatlarga moslashuvchanlikni bosqichma-bosqich shakllantiradi.

Xulosa. Imitatsion minalar asosida ishlab chiqilgan o‘quv-taktik ssenariylar zamonaviy harbiy tayyorgarlik tizimining muhim innovatsion yo‘nalishi hisoblanadi. Taklif etilgan metodika shaxsiy tarkibning muhandislik-razvedka kompetensiyalarini rivojlantirish, xavfsizlik darajasini oshirish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli simulyatsiya va intellektual tizimlarga asoslangan o‘qitish modeli kelajakda an’anaviy poligon usullarini sezilarli darajada to‘ldirishi va qisman almashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. NATO STANAG 2223 – Mine Warfare Training Standards, NATO Standardization Office.
2. Smith J., Anderson P. Military Simulation and Training Systems. Springer, 2021.
3. Ross S. Simulation Modeling and Analysis. Academic Press, 2019.
4. Feller W. An Introduction to Probability Theory and Its Applications. Wiley, 2008.
5. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Harbiy muhandislik tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2022.

IMITATSION MINALARNI ZAMONAVIY SHAXSIY TARKIB TAYYORGARLIGI TALABLARINI O‘QUV-TAKTIK SSENARIYLARGA INTEGRATSIYA QILISHNING KIBERFIZIK VA INTELLEKTUAL MODELLARI

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Jangovar ta’minot kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
Podpolkovnik Mirxonov Ilyos Sanoqulovich

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda zamonaviy harbiy tayyorgarlik tizimlarida imitatsion minalar asosida shakllantirilgan o‘quv-taktik ssenariylarni kiberfizik tizimlar (Cyber-Physical Systems, CPS) va intellektual boshqaruv algoritmlari bilan integratsiya qilishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Taklif etilgan yondashuv real vaqt rejimida adaptiv o‘qitish, xavf darajasini dinamik baholash va qaror qabul qilish jarayonini raqamli modellashtirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: kiberfizik tizimlar, imitatsion mina, adaptiv simulyatsiya, o‘quv-taktik ssenariy, risk-modellashtirish, intellektual trening tizimlari. Hozirgi davrda harbiy operatsion muhitning murakkablashuvi, gibrid urush konsepsiyalarining rivojlanishi hamda texnologik transformatsiya sharoitida shaxsiy tarkib tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar sezilarli darajada oshib bormoqda. Ayniqsa, muhandislik-razvedka faoliyatida minalangan hududlarni aniqlash, tahlil qilish va xavfsiz neytrallashtirish kompetensiyalari yuqori darajadagi aniqlik, tezkorlik va adaptiv qaror qabul qilish qobiliyatini talab etadi. An’anaviy o‘quv tizimlarining asosiy cheklovi — yuqori xavf, katta moddiy xarajatlar va real sharoitlarni to‘liq modellashtira olmaslikdir. Shu sababli, imitatsion (simulyatsion) texnologiyalar asosida qurilgan o‘quv tizimlarini kiberfizik arxitektura bilan integratsiya qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy muammosi. O‘quv jarayonida imitatsion minalar orqali yaratilgan virtual xavf muhitini real taktik qaror qabul qilish jarayoniga maksimal yaqinlashtirish, shu bilan birga:

- xavfsizlik darajasini oshirish;
- iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish;
- o‘quv samaradorligini optimallashtirish;
- individual psixofiziologik moslashuvni hisobga olish

masalalari kompleks ilmiy muammo sifatida qaraladi.

Tadqiqot maqsadi. Imitatsion mina tizimlarini kiberfizik o‘quv muhitiga integratsiya qilish asosida shaxsiy tarkibning muhandislik-taktik tayyorgarligini adaptiv-intellektual model yordamida optimallashtirish metodikasini ishlab chiqish.

Metodologik asos.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi:

1. Kiberfizik modellashtirish (CPS approach). Real va virtual muhit o‘rtasida ikki yo‘nalishli ma’lumot almashinuvi asosida dinamik o‘quv modeli shakllantirildi.

2. Agentga asoslangan simulyatsiya (Agent-Based Modeling). Har bir shaxsiy tarkib elementi mustaqil qaror qabul qiluvchi agent sifatida modellashtirildi.

3. Stoxastik risk-modellashtirish. Minalangan hududlarda xavf ehtimoli quyidagi ko‘rinishda baholandi:

$$R(x,t) = P(detection) \cdot C(consequence)$$

bu yerda R — risk darajasi, P — aniqlash ehtimoli, C — oqibat funksiyasi.

4. Adaptiv o‘qitish algoritmlari. Reinforcement Learning (RL) asosida o‘quvchining xatti-harakati real vaqt rejimida baholanadi va ssenariy murakkabligi avtomatik sozlanadi.

Taklif etilgan integratsion model

Imitatsion mina tizimi quyidagi uch qatlamli arxitektura asosida tashkil etildi:

1. Fizik qatlam. Sensorlar, GPS modullar va detektorlar orqali real muhit parametrlarini yig‘ish.

2. Raqamli egizak (Digital Twin). Minalangan hududning virtual modeli real vaqt rejimida yangilanib boradi.

3. Intellektual qaror qabul qilish qatlami. Bayes tarmoqlari va Markov jarayonlari asosida optimal harakat yo‘nalishlari shakllantiriladi.

Natijalar va tahlil. Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

- imitatsion mina tizimlarining kiberfizik integratsion modeli ishlab chiqildi;
- real vaqt simulyatsiyasida xatoliklarni aniqlash aniqligi 18–27% ga oshirildi;
- o‘quv jarayonida xavfli amaliyotlar soni 60% gacha qisqartirildi;
- adaptiv ssenariylar asosida qaror qabul qilish tezligi sezilarli yaxshilandi;
- resurs sarfi (o‘q-dori, texnika ekspluatatsiyasi) optimallashtirildi.

Muhokama. Taklif etilgan metodologiya an’anaviy statik o‘qitish yondashuvlaridan farqli ravishda:

- dinamik muhitga moslashuvchanlik;
- ko‘p agentli simulyatsiya imkoniyati;
- real vaqt risk baholash;
- kognitiv yuklamani optimallashtirishkabi afzalliklarga ega.

Shuningdek, ushbu tizim harbiy tayyorgarlikning “Learning-by-doing” paradigmasidan “Learning-in-simulation” paradigmasiga o‘tishini ta’minlaydi.

Xulosa. Imitatsion mina tizimlarini kiberfizik va intellektual modellar asosida o‘quv-taktik ssenariylarga integratsiya qilish zamonaviy harbiy tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Taklif etilgan metodika shaxsiy tarkibning qaror qabul qilish tezligi, xavfsizlik madaniyati va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli simulyatsiya va adaptiv algoritmlarga asoslangan tizimlar kelajakda an’anaviy poligon mashg‘ulotlarini qisman raqamli muhit bilan almashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. NATO STO-TR-HFM – Human Factors in Simulation Training Systems, NATO Science & Technology Organization, 2022.
2. Peters J., Schaal S. Reinforcement Learning in Robotics, MIT Press, 2020.
3. Zeigler B.P. Theory of Modeling and Simulation, Academic Press, 2018.
4. Ross S. Stochastic Processes, Wiley, 2019.

Cyber-Physical Systems: Foundations and Applications, Springer, 2021.

HARBIY QISM YOQILG‘I-MOYLASH MATERIALLARI OMBORIGA YOQILG‘I VA TEXNIK VOSITALARNI QABUL QILISH, SAQLASH VA ULARNI TARQATISHNI TASHKILLASHTIRISH

Muxtarov Baxrom Abduraimovich O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Qurolli Kuchlar bosh shtabi fakulteti, Moddiy ta’minot kafedrasi katta o‘qituvchisi, polkovnik

Annotatsiya. Mazkur tezisda harbiy qism yoqilg‘i-moylash materiallari (YMM) omborlarida yoqilg‘ilar va texnik vositalarni qabul qilish, saqlash hamda tarqatishni tashkillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, YMM miqdorini aniqlash, sifatini nazorat qilish hamda texnik vositalar bilan ishlashning asosiy talab va tartiblari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yoqilg‘i-moylash materiallari, harbiy logistika, ombor xo‘jaligi, sifat nazorati, texnik vositalar, ta’minot tizimi.

Kirish. Harbiy qismlarning jangovar tayyorgarligi va uzluksiz faoliyati ko‘p jihatdan moddiy-texnik ta’minot tizimining samaradorligiga bog‘liq. Ayniqsa, yoqilg‘i-moylash materiallari (YMM) bilan ta’minlash tizimi harbiy logistikaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. YMMni to‘g‘ri qabul qilish, sifatli saqlash va o‘z vaqtida tarqatish qo‘shinlarning harakatlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu sababli ushbu jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

1. Yoqilg‘i-moylash materiallarini qabul qilish, saqlash va ularni tarqatish.

Yoqilg‘i-moylash materiallarini qabul qilish jarayoni qat’iy tartib va me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Qabul qilishda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi:

— yetkazib berilgan mahsulotning hujjatlar bilan mosligi;
— tashqi holati va muhrlarning buzilmaganligi;
— transport vositalarining texnik holati.

Saqlash jarayonida YMMning fizik-kimyoviy xususiyatlarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Omborlar maxsus jihozlangan bo‘lishi, harorat va namlik rejimi nazorat ostida bo‘lishi lozim. Yoqilg‘ilar alohida rezervuarlarda, moylash materiallari esa maxsus idishlarda saqlanadi.

Tarqatish jarayoni esa reja asosida, ehtiyojga qarab amalga oshiriladi. Bu jarayonda hisob-kitobning aniqligi va xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi muhim hisoblanadi.

2. Yoqilg‘ilarni qabul qilish, saqlash va tarqatishda miqdorini aniqlash va sifatini nazorat qilish

YMM miqdorini aniqlash maxsus o‘lchov vositalari yordamida amalga oshiriladi. Jumladan:

— rezervuar o‘lchov liniyalari;
— avtomatlashtirilgan hisob tizimlari;
— laboratoriya usullari.

Yoqilg‘ilarni sifat nazorati esa laboratoriya tahlillari orqali amalga oshiriladi. Yoqilg‘ining asosiy sifat ko‘rsatkichlari quyidagilar:

— yoqilg‘ining zichligi;
— yoqilg‘ining qovushqoqligi;
— yoqilg‘ining yonuvchanlik darajasi;
— yoqilg‘ining tarkibidagi mexanik aralashmalar mavjudligi.

Sifat nazorati doimiy ravishda olib borilishi kerak, chunki sifatsiz yoqilg‘i texnik vositalarning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ekologik va yong‘in xavfsizligi talablari ham qat’iy nazorat qilinadi.

3. Texnik vositalarni qabul qilish, saqlash va ularni tarqatish

Texnik vositalar (nasoslar, rezervuarlar, tarqatish qurilmalari) YMM bilan ishlash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularni qabul qilishda:

— texnik vositalarni texnik holati;
— texnik vositalarni komplektatsiyasi;
— texnik vositalarni ishlashga yaroqliligi tekshiriladi.

Saqlash jarayonida texnik vositalar korroziyadan himoyalanishi, muntazam texnik xizmat ko‘rsatish orqali ishchi holatda saqlanishi lozim.

Tarqatish jarayonida texnik vositalardan samarali foydalanish muhimdir. Zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar qo‘llanilishi inson omili xatolarini kamaytiradi va jarayonni tezlashtiradi.

Xulosa. Harbiy qism YMM omborlarida yoqilg‘i va texnik vositalarni qabul qilish, saqlash va tarqatishni to‘g‘ri tashkil etish qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonlarda aniqlik, nazorat va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, sifat nazorati va xavfsizlik choralariga qat’iy rioya etish texnik nosozliklar va favqulodda holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Moddiy-texnik ta’minot nizomi. – Toshkent, 2020.
2. Abdurahmonov Q. Harbiy logistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari. – Toshkent, 2017.
4. GOST 1510-84. Neft mahsulotlarini saqlash va tashish qoidalari.
5. NATO Logistics Handbook. – Brussels, 2012.
6. FM 10-67-1. Petroleum Supply Operations. – Department of the Army, USA, 2015.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ, МЕТОДЫ ОЧИСТКИ ЛИВНЕВЫХ ВОД

Ниёзов Содик Рахимович, доцент
Университет военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, Ташкент

В статье приведено и предложена технология очистки дождевых вод, включающая следующие основные сооружения: усреднитель, решетка, песколовка, отстойник, нефтеуловитель, зернистый фильтр. Указанная технология обеспечивает степень очистки дождевых вод от взвешенных веществ до 85-92 %, от нефтепродуктов до 77-85 %.

Ключевые слова: отведение, дождевые воды, технология очистки, сооружения, взвешенные вещества, нефтепродукты, эффективность очистки.

Строительства новых и модернизация существующих сетей дождевой канализации подтверждают актуальность вопроса и постоянные упоминания «тонущих» районов в СМИ. В периоды весеннего таяния снегов и залповых ливневых дождей действующие системы не решает проблему наводнений в полной мере. Многие жители крупных городов и мегаполисов постоянно ругают власти, когда после дождя по городским улицам можно не проходить, а буквальным смысле плыть.

Должны переходить на экологически чистые виды работ при эксплуатации и обслуживании территории города, и чтобы остаток воды от дождей шел по ливневым системам: скапливался, собирался, очищался, и мы могли бы повторно использовать. Чтобы решить вышеуказанную проблему, нужно срочно реконструировать и в перспективе необходимо разработать проектно-сметную документацию на строительство закрытой ливневой канализации со возведением очистных сооружений для дождевых вод.

Только грамотно организованная и технически правильно решенная система отведения и очистки дождевых вод позволит:

1) обеспечить защиту фундаментов зданий и сооружений, дорог, проездов и тротуаров от разрушений;

2) обеспечить незатопление улиц и подвалов зданий, находящихся в пониженных местах рельефа;

3) исключить образование луж на скверах, площадях, дорогах и тротуарах при выпадении обильных осадков;

4) обеспечить ухоженный и эстетичный вид с территорий, где есть дождевая канализация;

5) предотвратить загрязнение водоемов дождевыми водами и обеспечить экологическую безопасность окружающей среды.

При организации отведения и выборе технологии очистки дождевого стока [1,2], а также типа и конструкции очистных сооружений следует руководствоваться их пропускной способностью, необходимой степенью очистки по характерным для дождевых вод показателям загрязнения,

геологическими и гидрогеологическими условиями площадки строительства.

Для эффективной работы дождевой системы очень важен правильный выбор схемы водоотведения [2], то есть сбор поверхностных стоков в общий поток и сброс их в главный коллектор. Для этого, в первую очередь, следует объединить внутриквартальные лотки и уличные трубопроводы, расположенные с общим уклоном в единую схему дождевой сети. Следует дополнительно включить в эту схему: грязеотстойники и песколовки, собирающие грязь и песок; сифоны, удерживающие запах и заглушки, которые не допускают обратного тока воды. Чтобы грамотно рассчитать схему дождевой канализации необходимо учесть имеющиеся особенности рельефа местности, конструктивные и архитектурно-строительные особенности здания, подземную инфраструктуру и уточнить показатель интенсивности осадков по сезонам года.

Как известно, основными загрязнениями ливневых и талых стоков являются мелкие частицы песка, взвешенные вещества и нефтепродукты. Кроме того, характерным показателем дождевого стока является резкая неравномерность распределения объемов и концентраций загрязнений в стоке по ходу дождя.

Согласно [2-3], независимо от интенсивности дождя максимальные значения концентрации загрязнений приходятся на первые 10-15 минут дождя и уменьшаются до 2-2,5 раз через 20 минут от начало расчетного дождя. При часто повторяющихся дождях, интенсивность которых до 10 раз меньше расчетных, начальная концентрация загрязнений в 2-3 раза меньше расчетного дождя, пиковые значения загрязнений приходятся на 53-55 минуту дождя, и в дальнейшем их значение не сильно изменяется.

Учитывая резкую неравномерность распределения объемов и концентраций загрязнений в дождевом стоке, предлагается следующую технологическую схему очистки дождевых вод (см. рис.).




Рис. Технология очистки дождевых вод
1 - усреднители, 2 - решетки, 3 - песколовки, 4 - тонкослойные отстойники, 5 - флотаторы, 6 - фильтры.

Выводы: 1. Вышеуказанная технология обеспечивает степень очистки дождевых (талых, поливомоечных) вод от взвешенных веществ до 85-92 %, от нефтепродуктов до 77-85 %.

2. Дождевые воды после очистки по выше предложенной технологии можно сбрасывать в водоемы или использовать для полива зеленных насаждений, газонов, скверов и на др. нужды.

3. Практическое значение работы заключается в проектировании энерго-эффективной и ресурсосберегающей технологии, отвечающая требованиям очистки ливневого стока и обеспечивающей надежность работы очистных сооружений и возможность их механизации и автоматизации.

Литература:

1. Воронов, Ю. В., Яковлев С. В. Водоотведение и очистка сточных вод. - М.: АСВ, 2007. - 704 с.

2. Алепеев, М. Ч., Курганов А. М. Организация отведения поверхностного стока с урбанизированных территорий. - Москва - Санкт-Петербург, Изд: АСВ, СПбГАСУ. - 2000.

3. Молоков, М. В., Шифрин В. Н. Очистка поверхностного стока с территорий городов и промышленных площадок. - М.: Стройиздат, 1977.

4. Касабекова, Г. Т., Тойбаев К. Д. Выбор эффективных типов отстойников для осаждения дисперсных примесей. - Алматы: Вестник КазНТУ им. К. Сатпаева, 2015.

PANDEMIYA SHAROITIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY TAJRIBA

Ortiqov Xayrulla Toshnazarovich *O’zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti moddiy ta’minot kafedrasi katta o’qituvchisi, dotsent*

Koronavirus pandemiyasi tugallanmagan, ya’ni bugungi kunda ham davom etayotgan bo‘lsada, asosiy karantin tadbirlarning bekor qilishini epidemik vaziyatning yumshaganligidan darak bermoqda. Mikroorganizmlar, shu jumladan viruslarning tabiatda tez o‘zgaruvchanligi, ya’ni mutatsiyaga uchrashi haqida deyarli hamma tushunchaga ega bo‘ldi. Shunday ekan keyinchalik insoniyatni yana qanday mikroorganzmlar kutib turishini taxmin qilish qiyin.

Kornavirus pandemiyasi boshlanishi va karantin tadbirlarining boshlanishining asosiy sanalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2020-yil 11-mart kunida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti koronavirus bo‘yicha Pandemiya tartibini e’lon qildi. [4]

O‘zbekistonda 15-mart kuni koronavirus yuqishi bilan bog‘liq birinchi holat aniqlanishi bilan Hukumat zudlik bilan mamlakatda KOVID-19 ning tarqalishini oldini olish uchun qat’iy chora-tadbirlar ko‘rishga kirishdi. [4]

2020-yil 16-mart kunidan karantin tadbirlari yo‘lga qo‘yildi, jumladan:

O‘zbekistondagi barcha bog‘chalar, maktablar va oliy ta’lim muassasalari koronavirus tarqalishiga qarshi profilaktika maqsadida karantinga yopildi.
Jahonning barcha mamlakatlari bilan avia va avtomobil qatnovlari to‘xtatildi. Shu bilan birgalikda, temir yo‘l orqali yo‘lovchi tashishga uch kun davomida ruxsat berildi. Bu qaror ayni vaqtda Rossiya va boshqa davlatlarda bo‘lib turgan O‘zbekiston poezdlarining qaytib kelishi bilan bog‘liq.
Xorijdan olib kelinadigan harbiy xizmatchilar harbiy sanatoriylarda tashkil etilgan karantin hududlariga joylashtirildi.
Barcha ommaviy tadbirlar, shu jumladan, Navro‘z bayrami doirasidagi umumxalq sayllari bekor qilindi. Futbol bo‘yicha O‘zbekiston chempionati to‘xtatildi.
2020-yil 23-martdan ommaviy tadbirlar, shu jumladan to‘ylarni o‘tkazish taqiqlandi. Umumiy ovqatlanish joylari ham yopildi.
Niqob taqish majburiy, xodimlar masofadan ishlashga o‘tadi.
«O‘zbekiston temir yo‘llari» respublika bo‘ylab yo‘lovchi tashish faoliyatini to‘xtatdi.
Toshkent shahridagi barcha buyum bozorlari va savdo komplekslari faoliyati to‘xtatiladi.
O‘zbekistonda dehqon bozorlaridan boshqa barcha bozorlar yopildi.
Qat’iy karantin tadbirlarining e’lon qilinishiga nimalar sabab bo‘ldi, avvalambor ushbu kasallik insoniyat uchun kasallik bo‘lib, uning kechish tezligi, qanday kechishi, oqibatlari va davolash usullari haqida ma’lumotlar mavjud emas edi. Agarda ushbu karantin choralari qo‘llanmaydigan bo‘lsa, tibbiyot muassasalariga bosimning ko‘chayib ketishi, kasallik tarqalishi tezlashib, bemorlar bilan birga qurbonlar soning bir necha bor oshishiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Bundan tashqari pandemiyanig birinchi to‘lqini rivojlangan davlatlar tibbiyotini kollaps holatiga olib kelganligi sir emas.
Tarixda 1918-yilda Ispanka, 2009-yilda X1H1 pandemiyalari davrida pandemiyani jilovlash uchun harbiylarning o‘rni beqiyosligi isbotlangan. Qurolli Kuchlarning intizomi, obro‘si va boshqaruv tizimi krizis vaziyatlarda fuqarolik boshqaruv tizimida yordam berish uchun qo‘l keladi. Shu sababli ham KOVID-19 pandemiyasidan jabrlangan barcha mamlakatlar rahbarlari Qurolli Kuchlardan foydalashga majbur bo‘ldi.
Pandemiya davrida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanildi: [3,4]

Logistika va tashish:

Fuqarolarni (turistlar va boshqalar) o‘z vataniga qaytarish (repatriatsiya);
halqaro va insonparvarlik yordami;
bemorlar, tibbiyot xodimlarini va tibbiy mol mulklarni tashish.

Tibbiy ko‘mak:

Jamoat joylari dezinfeksiyasi;
Dala gospitallari va saralash markazlarini yoyish;
Muloqotda bo‘lganlarni nazorati va test o‘tkazilishi;
Harbiy tibbiy mutaxassislar yordami;

Davlat boshqaruvi organlariga yordam berish va ichki xavfsizlik: [1]

Muloqotdagilarni nazorat qilish uchun ko‘mak berish;
Chegara nazorati;
Migratsiyani boshqarish – huquqiy tartibni saqlash;
Karantinga amal qilinishini ta’minlash;
Shifoxona, karantin hududlari, davlat korxonalari va infrastuktura ob’ektlarini qo‘riqlash.
Karantin muassasalaridan tashqari uy karantiniga olingan sonining ham oshib borishi karantinga olinganlarni belgilangan karantin qoidalariga amal qilishlarini nazorat qilish uchun xodimlar sonining yetishmasligiga olib kela boshladi. Shu sababli yordamchi sifatida 8 142 ta karatinga olingan oilalarda 7 245 nafar fuqaro karantinga olingan oilalarga biriktirilgan posbon sifatida jalb qilindi.
Bundan tashqari karantin davrida Respublika bo‘yicha 1 324 ta blok postlar tashkil etildi va ularda Ichki ishlar, Milliy gvardiya, Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari bilan 4 714 nafar fuqaro posbon sifatida jalb qilindi.
Bundan tashqari 126 ta xayriya markazlari tashkil etilib, ularga 884 nafar jamoat ishchilari jalb etildi. Ushbu xayriya markazlarida ham karantin qoidalariga amal qilinishini nazorat qilish Ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlariga yuklatildi.
2020-yil 3-arel kuniga qadar belgilangan karantin qoidalarini buzayotganlar soni 20 000 mingdan, 20-aprel kuniga kelib 80 000 mingdan oshdi.
2020-yil 10-may kuniga kelib karantinda bo‘lganlar soni 42 000 mingdan ortiqni tashkil etdi.
Yuqoridaglardan kelib chiqqan holda favqulodda vaziyatlarda davlat organlari muvofiqlashtiruvchi maxsus davlat organi (mudofaa yoki kuch ishlatar tuzilmaga ega boshqa vazirlikning boshchiligida emas) tomonidan boshqarilishi, qurolli kuchlarning fuqarolik organiga yordam berishi orqali yuzaga kelgan favquloda vaziyat (holat)ning tezda bartaraf etilishiga hissa qo‘shadi. Shu sababli favqulodda vaziyatlarda harakat qila oladigan mobil platforma tuzilish, har qanday favqulodda holatda insonlar hayoti va sog‘ligiga xavf yuzaga kelishini hisobga olib tibbiyot xizmati platformaning bir qismi bo‘lishi kerak.
Chuqur mulohazali va to‘g‘ri tashkil etilgan boshqaruv tizimi, qurolli kuchlardan foydalanishning maxsus ishlab chiqilgan tartibi yoki qoidalari, mahalliy hokimiyat organlari va aholi hamkorlikda samarali faoliyat ko‘satishining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.
Favqulodda vaziyat va tabiiy ofatlarda harakatlar sifati va samarasi hududiy va mahalliy darajada favqulodda holatlarda jalb qilinuvchi muntazam vazirlik va idoralar hamkorlikdagi tayyorgarlik mashg‘ulotlari o‘tkazilib turilishi harakatlar samaradorligini oshiradi.
Pandemiya davrida jalb qilingan harbiy xizmatchilar kasallik tarqalish ehtimolini minimal darajaga tushirish uchun o‘qitilgan va ta’minlangan bo‘lishi shart. Shuningdek harbiy xizmatchilar biologik xavf to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishi va zaruriy darajada himoyalangan bo‘lishi lozim.
Tibbiy–sanitar me’yorlar talablariga muvofiq bo‘lmagan milliy xavfsizlikka yoki chegarlarni qo‘riqlashga aloqador bo‘lmagan barcha harbiy faoliyat to‘xtatilishi yoki qisqartirilishi zarur.

Adabiyotlar

1. Retsenzirovannaya statya Pandemii i voorujennыe silы: kakie roli yavlyayutsya podxodyaщimi. Djon L.Klark, Connections QJ 19, № 2 (2020); 85-99 https:// doi. Org/ 10.11610/ Connections rus 19/2/06.
2. Statya “Razvertыvanie voorujennыx sil vovremya korona virusnogo krizisa: soblyudenie Kodeksa povedeniya OBSE”, Aleksandr Lambert, Filip Eydus, Tomas Shmidt
3. O‘zbekiston Respubikasi Prezidentining Farmoni 2020 yil 20 iyul kunidagi №UP-6029 “O dopolnitenыx merax podderjki naseleniya, sub’ektov predprinimatelstva, sferы obщestvennogo pitaniya, torgovli i uslug dlya snijeniya negativnogo vozdeystviya koronavirusnoy pandemii”.
4. KUN. UZ. 23.51/15.03.2020//225036 O‘zbekiston Respublikasida karantin choralari: Asosiy ma’lumotlar.

MUDOFAA VAZIRLIGI QO‘SHINLARIDA ISHLATILGAN NEFT MAHSULOTLARINI YIG‘ISH, SAQLASH VA TOPSHIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Raximov Sidabbos Mirsharapovich *O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Qurolli Kuchlar bosh shtabi fakulteti, Moddiy ta’minot kafedrasi boshlig‘i, polkovnik*

Annotatsiya. Mazkur tezisda Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ishlatilgan neft mahsulotlarini (INM) yig‘ish, saqlash, topshirish va ulardan oqilona foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, INM sifatini nazorat qilish va hisobga olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ishlatilgan neft mahsulotlari, logistika, yoqilg‘i-moylash materiallari, qayta ishlash, ekologik xavfsizlik, harbiy ta’minot

Kirish. Harbiy logistika tizimida yoqilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlash muhim o‘rin egallaydi. Texnik vositalardan foydalanish jarayonida hosil bo‘ladigan ishlatilgan neft mahsulotlarini boshqarish esa nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda INMni samarali boshqarish tizimini joriy etish resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va harbiy infratuzilmaning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Ishlatilgan neft mahsulotlarini yig‘ish va saqlash tizimi. INMni yig‘ish jarayoni harbiy qismlarda qat’iy reglament asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda asosiy e’tibor mahsulotlarni turiga qarab ajratish, ularni aralashtirmaslik va maxsus idishlarda yig‘ishga qaratiladi.

Saqlash jarayonida esa quyidagi talablar muhim hisoblanadi:

— germetik yopiq idishlardan foydalanish;
— yong‘in xavfsizligi me’yorlariga rioya qilish;
— ekologik xavfsizlikni ta’minlash;

— markirovka va identifikatsiya tizimini joriy etish.

Mazkur choralar INMni keyingi qayta ishlash uchun yaroqli holatda saqlash imkonini beradi.

INMni topshirish va ulardan oqilona foydalanish. Ishlatilgan neft mahsulotlarini topshirish maxsus tashkilotlar orqali amalga oshiriladi va bu jarayon hujjatlashtirilishi shart.

INMdan oqilona foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

— regeneratsiya qilish orqali qayta ishlatish;
— texnik ehtiyojlar uchun qo‘llash;
— energetik resurs sifatida foydalanish;
— sanoat korxonalariga topshirish orqali qayta ishlash.

Bu esa moddiy resurslarni tejash va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Sifat nazorati va hisobga olish tizimi. INM sifatini nazorat qilish laboratoriya tahlillari orqali amalga oshiriladi. Asosiy ko‘rsatkichlar sifatida yopishqoqlik, ifloslanish darajasi va kimyoviy tarkib baholanadi.

Hisobga olish tizimi esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

— kirim-chiqim hujjatlari;
— maxsus jurnallar yoki elektron bazalar;
— inventarizatsiya jarayonlari.

Samarali hisob tizimi yo‘qotishlarning oldini olish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlatilgan neft mahsulotlarini boshqarish tizimini takomillashtirish quyidagi natijalarga olib keladi:

— ekologik xavfsizlik darajasi oshadi;
— moddiy resurslar tejab qolinadi;
— logistika tizimi samaradorligi ortadi.

Shu munosabat bilan INMni yig‘ish, saqlash va topshirish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi me’yoriy hujjatlari.
2. GOST 21046-86 – Ishlatilgan neft mahsulotlarini yig‘ish va utilizatsiya qilish talablari.
3. “Neft mahsulotlarini saqlash va tashish texnologiyasi”. Toshkent, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Karimov A.A. “Yonilg‘i va moylash materiallari asoslari”. Toshkent, 2020.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida Markaziy Osiyo davlatlarida suv tanqisligi muammolari va ularning yechimi

Ikromov Dilshod Baxtiyorovich *O’zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti Moddiy ta’minot kafedrasi*

katta o‘qituvchisi

Hozirgi davrda butun dunyoda suvning qadri va qiymati, obi hayotga ehtiyoj yil sayin ortmoqda. Buni mutaxassiclar iqlim o‘zgarishi, asriy muzliklarningg kamayishi, sanoatning o‘sishi, aholi sonining ko‘payishi natajasida oziq-ovqatga bo‘lgan talabning ortishi kabi omillar bilan izohlaydi.

Markaziy Osiyo suv xavfsizligi energiya, oziq-ovqat va atrof-muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dunyodagi kam sonli mintaqalardan biridir. Bu yerda suv resurslari strategik ahamiyat kasb etadi.

Suv tanqisligi – Markaziy Osiyo davlatlari oldida turgan global muammolardan biri sanaladi, jumladan BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, 2050 yilgacha bo‘lgan davrda suvga bo‘lgan global talab 55 foizga o‘sishi prognoz qilinmoqda. Bu juda katta ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, Markaziy Osiyoda suv manbalarining kamayib borish tendensiyasi ro‘y berish ehtimoli mavjud.

Xususan, muzliklar mintaqadagi suv resurslarining asosiy manbayi hisoblanadi va ularning eng katta qismi Tojikiston hududiga to‘g‘ri keladi. Bu yerdagi muzliklar Markaziy Osiyo suv resurslarining 60 foizigacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining joriy yil aprel oyidagi Qozoqiston sammitida Tojikiston rahbarining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunga kelib Tojikistonda minglab kichik va o‘rta muzliklar butunlay erib ketgan.

Jahon banki ma’lumotiga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi kuchli ichki migratsiyaga sabab bo‘lib, 2050 yilgacha dunyoning oltita mintaqasida yashayotgan 216 million nafar inson o‘zlari yashayotgan makonni tark etib, boshqa hududlarga ko‘chishga majbur bo‘ladi. Bu mintaqalar orasida Markaziy Osiyo hamda unda yashayotgan 5 milliondan ortiq aholining borligi ushbu muammoning mintaqa davlatlari uchun juda dolzarb ekanligini isbotlaydi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040 yilga borib suv resurslariga bo‘lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning11 foiziga yetishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, hozirning o‘zidayoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga **2 milliard** dollargacha mablag‘ yo‘qotmoqda.

Suv tanqisligini oldini olish borasida O‘zbekiston muntazam suv sohasida yangi islohotlar va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish masalasida ildam qadamlarni tashlagan holda turli tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Jumladan, o‘tgan 2025 yil 14-16 noyabr kunlari o‘tkazilgan Toshkent sammitida (Markaziy

Osiyo davlatlari rahbarlarining VII Maslahat uchrashuvida) davlatimiz rahbari o‘z nutqida 7 ta asosiy fikr va tashabbuslarni ilgari surib, shulardan biri “Iqlim va suv” masalasi bo‘lib, “...ekologiya, iqlim va suv resurslari taqchilligi masalalari e’tiborimiz markazida bo‘lishi lozim. Mintaqada suv taqchilligi tobora o‘sib borayotgani va uning barqaror rivojlanishdagi salbiy oqibatlarini hisobga olib, 2026-2036 yillarni *“Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi”* deb e’lon qilishni taklif etgandi.

Joriy yilning 21-24 aprel kunlari Ostona shahrida o‘tkazilgan Mintaqaviy ekologik sammitda (RES 2026) Prezidentimiz nutq so‘zlab, mintaqadagi iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatni tanqidiy tahlil qildi va yana bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, davlat rahbari Markaziy Osiyoda havo haroratining ko‘tarilishi global ko‘rsatkichlardan ikki baravar tezroq kechayotganini, mintaqa muzliklarining qariyb uchdan bir qismi erib ketganini va 80 million gektar yer degradatsiyaga uchraganini alohida qayd etdi hamda "Markaziy Osiyo ekologik birdamligi" deklaratsiyasini qabul qilishni va BMT tuzilmalari bilan hamkorlikda 2030 yilgacha mo‘ljallangan Harakatlar dasturini amalga oshirishni, hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi doirasida suv resurslarini kelishilgan holda boshqarish va Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik oqibatlarni yumshatish masalalariga e’tibor qaratdi. Shu bilan birga qo‘shni Afg‘onistonni Amudaryo havzasi suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha mintaqaviy muloqotga faol jalb etishni muhim, deb hisoblashini bildirgan edi.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda barcha jabhada bo‘lgani kabi, suv xo‘jaligi sohasiga ham raqamli texnologiyalarni joriy qilishga jiddiy va katta e’tibor qaratilgan. Shu maqsadda 5479 ta “Aqlli suv”, nasos stansiyalariga 1446 ta onlayn nazorat qurilmalari, shuningdek, meliorativ kuzatuv quduqlariga minerallashganlik darajasini onlayn nazorat qiluvchi 5055 ta “Dayver” qurilmalari o‘rnatildi, 45 ta yirik suv xo‘jaligi ob’ektlarining boshqaruv jarayoni avtomatlashtirildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ***3 mlrd***. kub metr suv iqtisod qilinib, qo‘shimcha 400 ming gektar maydonda suv ta’minoti yaxshilandi. Suvni boshqarish jarayonini avtomatlashtirish orqali yo‘qotishlar ***10 foizgacha*** kamaytirildi.

Yana bir muhim e’tirof — O‘zbekiston suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha Markaziy Osiyoda ***birinchi,*** MDH davlatlari orasida ***ikkinchi,*** Osiyoda ***to‘rtinchi*** va dunyoda ***13***-o‘rinda ekani, shak-shubhasiz, quvonarli. Buni tizim faoliyatini yanada isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali ijrosi natijasi, deyish mumkin.

Zero, suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat suv sarfini kamaytirish imkonini beradi, balki yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhim elementiga aylanadi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ob-havo o‘zgarishi bilan Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish va xavfsizligini ta’minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etib boraveradi.

Muxtasar aytganda, suv tanqisligi — global muammo. Bunday sharoitda dunyoning ko‘plab mamlakatlari qatori O‘zbekistonda ham suv resurslaridan oqilona foydalanishga oid muhim chora-tadbirlar amalga oshirilib borilishi hozirgi sharoitda muhim masalasi bo‘lib qolaveradi.

O‘zbekistonda yaqin kelajakda suv tanqisligi 7 mlrd. kub metr, 2050 yillarga borib, 12-13 mlrd. kub metr bo‘lishi kutilayotganini inobatga olsak, bu holatda suvni tejashning ahamiyati yanada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Prezidenti Matbuot xizmati (president.uz): Prezident Shavkat Mirziyoevning sammitdagi nutqi, imzolangan hujjatlar va ikki tomonlama uchrashuvlar to‘g‘risidagi rasmiy bayonotlar. Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan Mintaqaviy ekologik sammit (RES 2026) 2026 yil aprel.

2. Dunyo" axborot agentligi (dunyo.info): Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi agentlikning sammit doirasidagi diplomatik kelishuvlar va ekspertlar sharhlari bo‘yicha materiallari, 2026 yil.

3. UN-Water (unwater.org): BMTning suv masalalari bo‘yicha global portali.

4. World Resources Institute - Aqueduct Atlas (wri.org/aqueduct): Dunyo va mintaqa bo‘yicha suv stressining interaktiv xaritalari va 2040–2050 yillar uchun prognozlari.

5. World Bank Central Asia (worldbank.org/central-asia): Suv xavfsizligi va iqtisodiy prognozlar bo‘yicha eng yirik tadqiqotlar bazasi.

ПРИМЕНЕНИЕ РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПЕРЕРАБОТКИ АЛЮМИНИЕВОЙ СТРУЖКИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Носирхужаев Иброхим Содик Алауддинович,
Ташкентский государственный технический университет имени
И.А.Каримова, докторант кафедры “Технология металлов”

Аннотация. В данной статье исследованы современные ресурсосберегающие технологии переработки алюминиевой стружки в условиях промышленных предприятий. Рассмотрены основные технологические параметры процесса переплавки вторичного алюминиевого сырья, включая температурный режим, применение защитных флюсов и предварительное брикетирование стружки. Проанализировано влияние технологических факторов на качество литых заготовок, величину потерь металла и энергетическую эффективность процесса. Установлено, что использование оптимальных режимов переплавки способствует снижению процессов окисления алюминия, уменьшению угара металла и повышению

выхода годного продукта. Предложенные технологические решения могут быть использованы на металлургических и машиностроительных предприятиях при производстве алюминиевых литых изделий.

Введение. В современных условиях развития металлургической промышленности особое значение приобретают вопросы рационального использования сырьевых ресурсов и внедрения ресурсосберегающих технологий. Увеличение объемов производства алюминиевых изделий сопровождается образованием значительного количества технологических отходов, в том числе алюминиевой стружки, образующейся в процессе механической обработки металлов.

Алюминий и его сплавы широко применяются в машиностроении, авиационной промышленности, автомобилестроении, электротехнической промышленности и строительстве благодаря их высокой коррозионной стойкости, малой плотности и хорошим литейным свойствам. Однако производство первичного алюминия требует значительных энергетических затрат. В связи с этим переработка вторичного алюминиевого сырья становится одним из приоритетных направлений современной металлургии.

Переплавка алюминиевой стружки сопровождается рядом технологических проблем, связанных с интенсивным окислением металла, образованием шлаков и повышенными потерями алюминия. Особенно активно процессы окисления протекают при переплавке мелкодисперсной стружки, обладающей большой площадью контакта с кислородом воздуха.

В последние годы в металлургической промышленности активно внедряются технологии предварительного брикетирования алюминиевой стружки, применения защитных флюсов и оптимизации температурных режимов плавления. Использование указанных методов позволяет снизить потери металла, повысить качество литых изделий и уменьшить энергозатраты.

Целью настоящего исследования является анализ ресурсосберегающих технологий переработки алюминиевой стружки и определение эффективных технологических параметров процесса переплавки в условиях промышленных предприятий.

Материалы и методы исследования. В качестве исследуемого материала использовалась алюминиевая стружка, полученная в процессе механической обработки алюминиевых сплавов на машиностроительных предприятиях.

Перед проведением экспериментов стружка подвергалась очистке от технологических масел, влаги и механических примесей. Часть образцов подвергалась предварительному брикетированию с целью уменьшения площади контакта материала с атмосферным воздухом.

Переплавка алюминиевой стружки осуществлялась в электрической печи сопротивления при температуре 680–760°C. Для снижения интенсивности окислительных процессов применялись защитные флюсы на основе хлоридно-фторидных соединений.

В ходе исследования анализировались:

выход годного металла;

величина потерь алюминия;
пористость литых заготовок;
микроструктура сплава;
механические свойства образцов;
энергетическая эффективность процесса.

Металлографические исследования выполнялись с использованием оптического микроскопа. Полученные результаты оценивались методом сравнительного анализа.

Технологическая схема переработки алюминиевой стружки

Алюминиевая стружка
Очистка от масел и примесей
Предварительное брикетирование
Загрузка в плавильную печь
Переплавка с применением защитного флюса
Удаление шлаковых включений
Разливка расплава в формы
Получение литых заготовок

рисунок 1. Технологическая схема переработки алюминиевой стружки в условиях промышленных предприятий.

Результаты исследования и их обсуждение. Результаты проведенных исследований показали, что технологические параметры процесса переплавки оказывают существенное влияние на качество литых заготовок и величину потерь металла.

Установлено, что наиболее эффективным температурным режимом является диапазон 700–720°C. При данной температуре обеспечивается оптимальное соотношение между степенью расплавления материала и интенсивностью процессов окисления. Повышение температуры выше 750°C приводит к увеличению угара металла и росту количества оксидных включений. Предварительное брикетирование алюминиевой стружки позволило повысить выход годного металла и уменьшить потери алюминия. Это объясняется уменьшением площади контакта материала с кислородом воздуха и снижением интенсивности окислительных процессов.

Использование защитных флюсов положительно влияет на качество литых заготовок. В процессе переплавки флюс образует защитный слой на поверхности расплава, уменьшая взаимодействие алюминия с атмосферой. Это способствует снижению пористости и улучшению структуры сплава.

Металлографические исследования показали, что образцы, полученные при оптимальных технологических режимах, обладают более однородной структурой и меньшим количеством дефектов.

Схема влияния брикетирования на снижение потерь металла

Без брикетирования:

Мелкая рыхлая стружка

↓

Большая площадь контакта

↓

Интенсивное окисление

↓

Повышенные потери металла

С брикетированием:

Плотный алюминиевый брикет

↓

Снижение контакта с воздухом

↓

Уменьшение окисления

↓

Повышение выхода металла

рисунок 2. Влияние брикетирования на снижение потерь алюминия.

Экономическая эффективность технологии. Внедрение ресурсосберегающих технологий переработки алюминиевой стружки на промышленных предприятиях позволяет:

1)сократить расход первичного алюминия;
2)уменьшить энергетические затраты;
3)снизить себестоимость литых изделий;
4)повысить выход годного металла;
5)сократить объем производственных отходов;
6)повысить экологическую безопасность производства.

Расчеты показали, что применение технологии предварительного брикетирования и защитных флюсов позволяет повысить экономическую эффективность переработки алюминиевой стружки в среднем на 12–18 %.

Заключение. Проведенные исследования показали, что применение ресурсосберегающих технологий переработки алюминиевой стружки является эффективным направлением повышения производственной эффективности металлургических предприятий.

Установлено, что:

оптимальная температура переплавки составляет 700–720°C;

предварительное брикетирование снижает потери металла;

использование защитных флюсов уменьшает интенсивность окисления алюминия;

применение вторичного алюминиевого сырья способствует снижению энергетических затрат и себестоимости продукции.

Предложенные технологические решения могут быть рекомендованы для внедрения на металлургических и машиностроительных предприятиях, специализирующихся на производстве алюминиевых литых изделий.

Список литературы

1. Давыдов Н.Н. Вторичная металлургия алюминия. – Москва: Металлургия, 2020. – 318 с.
2.Полухин П.И., Гребенников А.В. Технология переработки алюминиевых отходов // Металлургия машиностроения. – 2022. – №4. – С. 45–51.
3.Мирбобоев У.М. Ресурсосберегающие технологии в металлургии. – Ташкент: Фан ва технология, 2021. – 286 с.

Применение аргонной продувки для улучшения качества хромомолибденовых сплавов: обоснование и расчет технологии плавки в ДСП.

Бобоев А.Т.
АФ НИТУ «МИСиС», г. Алмалык
Научный руководитель: ст. преподаватель **Хамроев В.Б.**

1. Актуальность.

Хромомолибденовые стали **(марок 30ХМ, 35ХМЛ, 38ХМ)** широко применяются в горнодобывающей и металлургической промышленности благодаря выдающемуся сочетанию прочности, износостойкости и жаропрочности. Детали из этих сталей работают в условиях высоких нагрузок, интенсивного износа и резких перепадов температур, что обусловливает стабильный и растущий спрос на них.

Однако действующая технология выплавки в электродуговых печах (ДСП-5), опирающаяся на естественное кипение ванны и флюсовую обработку, исчерпала свои возможности. Ключевые проблемы существующего процесса:

- Ограниченная дегазация: водород и азот удаляются лишь в период активного кипения, после чего металл остаётся открытым для вторичного газонасыщения из атмосферы печи.
- Низкая степень очистки от неметаллических включений: мелкие оксидные и силикатные частицы (Al2O3, SiO2) не успевают перейти в шлак под действием силы тяжести и остаются в теле отливки, снижая пластичность и прочность.
- Температурная неоднородность: электрические дуги нагревают металл только сверху, на подине печи образуются холодные застойные зоны, что ведёт к локальному переокислению хрома.
- Высокие потери хрома в шлак: вблизи кислородной фурмы возникает дефицит углерода, и хром окисляется вместо углерода, образуя Cr2O3 с температурой плавления 2400 °C, что засоряет подину печи.

Применение донной продувки аргоном устраняет все перечисленные недостатки и является практически реализуемым решением без кардинальной модернизации существующего оборудования. Актуальность

темы определяется насущной производственной потребностью и высокой экономической эффективностью предлагаемого метода.

2. Цель и задачи работы

Цель работы — разработка научно обоснованной технологии производства хромомолибденового сплава марки 35ХМЛ в электродуговой печи ДСП-5 путём внедрения системы донной продувки инертным газом (Ar) для повышения качества стали, снижения энергозатрат и улучшения металлургических показателей производства.

Для достижения цели были поставлены и решены следующие задачи:

- Изучить характеристики хромомолибденовых сталей и особенности их легирования хромом и молибденом.
- Провести анализ действующей технологии выплавки и выявить её критические недостатки.
- Обосновать выбор донной продувки аргоном как наиболее эффективного и экономичного решения.
- Выполнить расчёт шихты для стали марки 35ХМЛ в печи ДСП-5 (садка 5 т).
- Определить режим аргонной продувки и оценить ожидаемые металлургические эффекты.
- Провести технико-экономическое сравнение предложенного метода с альтернативными технологиями.

3. Основная часть

3.1. Характеристика стали 35ХМЛ

Сталь 35ХМЛ относится к конструкционным среднелегированным сталям. Химический состав по ГОСТ:

Элемент	C	Si	Mn	Cr	Mo
Содержание, %	0,35–0,42	0,17–0,37	0,40–0,70	0,80–1,30	0,15–0,25
Роль	Прочность, твёрдость	Раскисление	Раскисление	Прокаливаемость, износ	Жаропрочность

3.2. Технология плавки и порядок легирования

Плавка проводится в три периода, причём порядок ввода легирующих элементов определяется их сродством к кислороду:

- Период расплавления: загрузка шихты (лом, чугун), нагрев электрическими дугами, формирование жидкой ванны, первичное окисление C, Si, Mn.
- Окислительный период: продувка расплава кислородом, интенсивное окисление примесей, удаление фосфора, скачивание окислительного шлака. Молибден вводится вместе с шихтой (ввиду малого сродства к кислороду).

- Восстановительный период: наведение восстановительного шлака, раскисление (Al, Si), ввод феррохрома — после слива окислительного шлака. В конце периода — донная продувка аргоном.

3.3. Обоснование донной продувки аргоном

Донная продувка аргоном через пористые пробки (Radex DPP или аналоги) создаёт мощные восходящие потоки через весь объём расплава. Металлургические эффекты:

- Дегазация: пузырьки Ar являются «ловушками» для H2 и N2 — газы диффундируют в пузырьки и удаляются из расплава непрерывно, не только в период кипения.
- Флотация включений: восходящие потоки захватывают мелкие оксидные и силикатные частицы и переносят их на поверхность в шлак, что принципиально невозможно при пассивном всплывании.
- Термическая гомогенизация: выравнивание температуры по всему объёму ванны устраняет холодные застойные зоны на подине, снижает удельный расход электроэнергии на 5–15 кВтч/т.
- Снижение потерь хрома: гомогенное распределение углерода по объёму ванны исключает локальный дефицит C у кислородной фурмы — окисление хрома снижается, его выход в шлак уменьшается на 1,1–1,5 кг/т.
- Улучшение десульфурации: интенсивное перемешивание улучшает контакт металла со шлаком, ускоряя переход серы в шлаковую фазу.

Режим продувки: подача аргона в конце восстановительного периода, расход 10–30 л/мин через 1–3 донных пробки (в зависимости от конфигурации печи). При расходе свыше 30 л/мин следует контролировать образование «открытого глаза» во избежание вторичного окисления.

3.4. Сравнение альтернативных технологий

Для обоснования выбора донной продувки в ДСП проведено сравнение с альтернативными методами:

Показатель	Донная продувка ДСП	Флюсовая обработка	Ковш-печь (LF)	Ковшевая продувка
Капзатраты	~13 000 USD	Минимальные	от 100 000 USD	20 000–40 000 USD
Расход энергии	Экономия 5–15 кВтч/т	Без изменений	+30–60 кВтч/т	Потери тепла
Дегазация	Высокая	Ограниченная	Высокая	Средняя
Удаление включений	Высокое	Низкое	Высокое	Среднее
Окупаемость	2–3 кампании	Н/Д	Долгая	Средняя

Донная продувка в ДСП обеспечивает наилучшее сочетание эффективности и стоимости, не требует отдельного агрегата и минимально изменяет существующий технологический цикл.

4. Результаты и выводы

По итогам выполненной работы получены следующие результаты:

- Разработана и рассчитана технология выплавки стали 35ХМЛ в ДСП-5 с донной продувкой аргоном.
- Расчётный химический состав металла (Cr 1,2 %, Mo 0,36 %, C 0,35 %, S ≤ 0,033 %, P ≤ 0,037 %) соответствует требованиям ГОСТ.
- Подтверждена экономическая целесообразность: ожидаемое снижение удельного расхода электроэнергии на 5–15 кВтч/т, рост металлического выхода на 0,5–0,7 %, сокращение плавочного цикла на 2–4 мин.
- Снижение потерь хрома в шлак не менее чем на 1,1 кг/т обеспечивает прямую экономию дорогостоящего феррохрома.
- Расход раскислителей (Al, SiCa) сокращается примерно вдвое по сравнению с флюсовой обработкой — с 65 кг до 20 кг силикокальция на плавку.
- Капитальные затраты на внедрение (~13 000 USD) минимальны; окупаемость системы — в течение 2–3 кампаний.
- Предложенная технология не требует приобретения отдельного агрегата и реализуема в условиях действующего производства на ЦРМЗ.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Воскобойников В.Г., Кудрин В.А., Якушев А.М. Общая металлургия. М.: Металлургия, 1998. 768 с.
2. Поволоцкий Д.Я. Основы технологии производства стали. Челябинск: ЮУрГУ, 2004. 189 с.
3. Журавлёв А.А., Мысик В.Ф., Жданов А.В. Расчёты материальных и энергетических балансов при выплавке стали в ДСП.
4. Юсупходжаев А.А., Балгабаева Г.Т. Электрометаллургия стали и ферросплавов. Т.: ТГТУ, 2005.
5. Kirschen M., Ehrengruber R., Zettl K.-M. Benefits from Improved Bath Agitation with the Radex DPP Gas Purging System During EAF High-Alloyed and Stainless Steel Production // RHI Bulletin. 2016. No. 1. pp. 8–13.

ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ДВОЙНИКИ

Махмудова Наргиза Абдунабиевна доц. Ганиева Н. ст-а
ТашГТУ Узбекистан

Деформация, возникающая за счёт механического двойникования, протекает значительно легче, чем деформация, связанная с мартенситными превращениями, поскольку в этом случае не происходит изменения кристаллической структуры. Меняется лишь ориентация кристаллической решётки.

Форма деформации при двойниковании представляет собой простой сдвиг, как показано на (рис. 1) для наглядности предполагается, что двойник проходит через весь кристалл.

Важно чётко различать двойникование и скольжение, поскольку в обоих случаях имеет место смещение решётки. При скольжении деформация локализуется на отдельных кристаллографических плоскостях, (рис.1). В пределах одной плоскости скольжения величина смещения может в несколько раз превышать межатомное расстояние и зависит от количества вышедших дислокаций.




Рис. 1. Деформационные двойники в образце поликристаллического циркония.

В отличие от этого, при деформационном двойниковании сдвиг не сосредоточен на ограниченном числе плоскостей, а распределён равномерно по объёму. Атомы смещаются относительно друг друга лишь на малую долю межатомного расстояния, поэтому суммарная величина сдвиговой деформации при двойниковании невелика. По этой причине скольжение обычно является основным механизмом пластической деформации.

Тем не менее роль механических двойников становится всё более очевидной при объяснении ряда сложных механических свойств металлов. Например, при двойниковании ориентация решётки внутри двойника часто оказывается более благоприятной по отношению к действующему напряжению, чем ориентация исходного зерна. В некоторых условиях металл с выраженным двойникованием может деформироваться легче, чем металл без двойников. С другой стороны, если переориентация решётки ограничена небольшим числом двойников, это может привести к разрушению, поскольку внутри узких границ двойников могут накапливаться очень большие локальные деформации.

Двойники также играют важную роль в процессах рекристаллизации: пересечения двойников являются предпочтительными местами зарождения новых зёрен при отжиге.

Понимание механики двойникования удобно начинать с упрощённых схем, показанных на рис. 2. Приведённое изображение носит исключительно схематический характер и не соответствует конкретной реальной кристаллической структуре. Верхняя схема изображает кристалл до деформации, а нижняя – тот же кристалл после сдвига, приводящего к образованию двойника.




Рис 2. Схематическое изображение того, как соединение может быть создано простым способом путем движения атомов.

Двойник формируется в результате поворота атомов в деформированной области вокруг оси, проходящей через центр и перпендикулярной плоскости рисунка. Положение трёх атомов до и после сдвига показано точками, a b и c. Следует отметить, что отдельные атомы смещаются относительно своих соседей крайне незначительно – это характерная особенность реального двойникования.

Двухчастная схема на рис. 3. иллюстрирует ещё одно важное свойство двойников: решётка двойника является зеркальным отображением исходной (материнской) решётки. Эти две решётки симметричны относительно плоскости, называемой плоскостью двойникования.

ЛИТЕРАТУРА

1. Maksimova O. P., Metallshunoslik va issiqlik bilan ishlov berish, 41, 1999, 322-339-betlar.
2. Лахтин Б.М., Леонтьева В.А. Металловедение – М;Машиностроение, 1990-528 с.
3. Kristian J. U. va Mahajan S., materiallar taraqqiyoti Ilm-fan, 39, 1995, 1-157.

ISSIQ HOLATDA PROKATLOVCHI STANLAR VALLARINI YEYILISHGA BARDOSHLILIGINI OSHIRISH USULLARI

Ibodullaev T.N., katta o‘qituvchi. Abdurahmonov L.I., Hatamov F.A.,
Kengashov X.U., Nazurillayev D.K. talaba.
ToshDTU, O‘zbekiston


Issiq holatda prokatlash jarayoni amalga oshirilayotganda valkalarni yuqori haroratlar ta’siridan himoya qilish va ularni sovutish tizimini to‘g‘ri tanlash valkalarning edirilishga chidamliligini oshiradi. Masalan suv bilan sovutish jarayoni amalga oshirilganda, garchi suv bilan sovutish samaradorligi yuqori bo‘lsada, havo bilan sovitishdan ko‘ra valkalar ancha tez ediriladi.[1]

Valkalarning edirilishga chidamliligi sexlardagi havo changligini kamaytirish (abraziv edirilish kamayadi) hamda yozda va qishda doimiy haroratni saqlab turish orqali oshirish mumkin.

Valkalar ishlash sharoitini yaxshilash bo‘yicha chora tadbirlar jumlasiga o‘z vaqtida va to‘g‘ri texnik xizmat ko‘rsatish, ixtisoslashish darajasini yuksaltirish, uskunalar yuklamasini oqilona rejalashtirish ham kiradi.

Valkalarning edirilishga chidamliligi sirtdagi qatlamlarning kimyoviy tarkibiga, tuzilmasiga, fizik-mexanik xossalariga bog‘liqdir. Tajriba yo‘li bilan tanlanadigan valkalarning optimal g‘adir-budurligiga erishgan holda edirilishga qarshilikni orttirish mumkin. Yuqori chastotali tok (500 kGs gacha) bilan sirtlarni toblagan holda edirilishga qarshilikni ancha oshirish mumkin. Yuqori chastotali tok (TVCH) bilan toblash orqali qattiq edirilishga chidamli qobiqqa va nisbatan yopishqoq hamda yumshoq negizga ega bo‘lgan valkalarni yasash mumkin. Yuqori chastotali tok bilan toblash uchun turli konstruksiyadagi induktorlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.[2]

Prokatlash valkalarini mustahkamlash va qayta tiklashning eng samarali usullari jumlasiga sirtga turli xil legirlovchi elementlardan qoplama qoplash kiradi. Ushbu jarayonda legirlovchi elementni elektr yoy pechida, alangali pechlarda yoki pechlarning boshqa turlaridan foydalangan holda eritiladi va valka yuzasiga ma’lum bir o‘lchamda qoplanadi. Bu usul orqali valkaning karroziyabardoshliligi, eyilishbardoshliligi, yuqori bosimga va yuqori haroratga chidamliligini oshirish mumkin. Bunda flyus qatlami ostidagi elektrod ko‘rinishidagi yopishtiriladigan metaldan foydalanishning elektr yoy bilan sirtga qoplash usuli eng samarali usul bo‘lib hisoblanadi. Mexanizatsiyalashgan ko‘rinishda flyus ostidagi valka sirtiga qrplama qoplash quyidagicha amalga oshiriladi, elektrodli sim uzluksiz tarzda sirtga qoplash joyiga yuborib turiladi, tok etkazib berish konsentrik qotirilgan vtulka orqali amalga oshiriladi, yuzaga kelgan yoy elektrod va valka metallining erishini keltirib chiqaradi. Erigan metall payvandlash vannasini to‘ldiradi. Kristallashuvdan so‘ng shlak qobiq va erimagan flyus bilan qoplangan, sirti qoplangan valik paydo bo‘ladi. Ortiqcha flyus ko‘chib tushadi, qobiq esa ko‘chirib tashlanadi. Bu ishda sirtga qoplama qoplash sifatini oshirish uchun valkalarni oldin qizdirib olib amalga oshirish kerak.



1-rasm. Prokat stani valkalarining sirt qismiga qoplama qoplash jarayoni

Bundan tashqari valkalar sirtiga qoplama qoplashni plazmali avtomatik vibro yoyli toblangan materiallardan tayyorlangan elektrodlar bilan ham amalga oshirish mumkin.

Hozirgi vaqtda valkalarning sirtiga qoplama qoplashning eng samarali usullaridan biri plazmali sochiluvchan materiallardan tayyorlangan elektrodlar bilan sirtga qoplama qoplash usuli hisoblanadi.

Ko‘p valkali stanlarning valkalarini chidamliligini oshirish uchun, qizdirish, deformatsiyalash va sovutish jarayonlarini birlashtirish bilan amalga oshiruvchi yuqori haroratda termomexanik ishlov berishni qo‘llash kerak. Sovuq holda prokatlash valkalariga nisbatan yuqori haroratli termomexanik sirtli ishlov berishni qo‘llash quyidagicha amalga oshiriladi muayyan chuqurlikdagi sirt qatlamini austenit holatgacha qizdiriladi, austenlanish haroratida sirtqi qatlamlarni plastik deformatsiyalash va rekrestallizatsiya jarayoni sodir bo‘lmaydigan qilib keskin darxol sovutish amalga oshiriladi.[3]

Bunda ishlov berishni plastik ezishdan keyin rekristallizatsiya jarayonlari yuz berishga ulgurmaydigan qilib amalga oshirish lozim. Valka negizi metalini tegishli xossalari esa oldindan termik ishlov berish natijasida shakllantirib olish kerak bo‘ladi va buning natijasida valkalarning eyilishbardoshliligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Оборудование прокатных сехов (експлуататсия, надежност): Учеб пособие для студентов сред. спетс. учеб. заведений / И.Н. Гулидов. - М.: Интермет Инжиниринг, 2004. - 320 с. 30-34.

2. Saydumarov B.M. Prokatlash mashinalari va jihozlari. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: TDTU. 2020. - 180 b.

3. Повышение долговечности сталных валков прокатных станов ОАО «ММК им. Илича» / В. Н. Матвиенко, К. К. Степнов, С. В. Гулаков и др. // Металлургические протсессы и оборудование. - 2005. - № 2. - С. 39-42.

ISSIQ HOLATDA SHTAMPLASH ORQALI TISHLI G‘ILDIRAK TISHLARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI TADQIQ QILISH

Ibodullaev T.N., katta o‘qituvchi. Omonqulov M.M., Samadov SH.O.,
Xolmo‘minov S.I. Abdumutalova Z.A. talaba
ToshDTU, O‘zbekiston


Tishli g‘ildirak (shesternya)larni issiq holatda shtamplash usuli bilan tishlarini shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Ushbu usul yordamida to‘g‘ri, qiya va spiral tishli konussimon va silindrsimon tishli g‘ildiraklar hamda tishli o‘qlarni olish mumkin.

Silindrsimon tishli g‘ildiraklarni tishlarini shakllantirgan holda shtamplash, shtamp shaklini to‘ldirish sharoitlari yomonroqligi sababli, konussimonlarga nisbatan qiyinroq hisoblanadi. Ularni ishlab chiqarish sharoitlari modulning ortishi va tish uzunligining qisqarishi bilan biroz yaxshilanadi.

Konussimon tishli g‘ildiraklarni shtamplash ularning shakli murakkabligi va tishlari chuqurligiga qarab quyidagi variantlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. Bosish (osadka), tishlarni shakllantirmasdan oldindan shtamplash, tishlarni shakllantirgan holda yakuniy shtamplash, bunda tishlar yuqori rucheyli qo‘shimchada shakllantiriladi.

2. Bosish (osadka), tishlarni shakllantirgan holda oldindan shtamplash. Ushbu variant bo‘yicha tishlarni oldindan shakllantirish yuqori yarmi rucheyli qo‘shimchada amalga oshiriladi, uchinchi o‘tishda esa pokovkani tishlari pastga qarab burib, yakuniy shakllantirishni pastki rucheyli qo‘shimchada bajariladi.



1-rasm. Shtamplab olingan tishli g‘ildirak

Birinchi variant bo‘yicha shtamplashda ikkinchi o‘tish uchun shtamplash asbobini ishlab chiqarish soddalashadi va uning chidamliligi oshadi, ammo shu bilan birga yakuniy rucheyning pastki qo‘shimchasiga yuklama ortadi.

Tishli g‘ildiraklarni shtamplash uchun navli prokatdan tayyorlangan, massa bo‘yicha aniqligi ±(1,0 – 1,5)% bo‘lgan zagotovkadan foydalaniladi.

Tish yuzalarini yakuniy ishlov berish uchun kesish bilan ishlashni qo‘llash tishlarning o‘lchamlari aniqligi va yuzasi tozaligiga qo‘yiladigan talablarga bog‘liqdir. Masalan, sekin ishlaydigan uzatmalarda ishlaydigan 8–9-darajali aniqlikdagi konussimon tishli g‘ildiraklar tishlarning ish yuzalarini yakuniy shakllantirgan holda shtamplanadi.

Aniqlikni 6–7-darajagacha oshirish, qoida tariqasida, tish bo‘yicha toza mexanik ishlov berishni joriy etishga majbur qiladi va shu sababli pokovkalarni ushbu yuzalar bo‘yicha qo‘shimcha qoldiq (pripusk) bilan shtamplash lozim bo‘ladi.

Tishlari shtamplangan tishli g‘ildiraklarni ishlab chiqarish, odatda, nafaqat metall sarfini qisqartirish va mehnat sig‘imini pasaytirishga, balki kesish bilan ishlashga nisbatan umumiy xarajatlarni ham kamaytirishga imkon beradi.

Tishlari shakllantirilgan holda shtamplangan tishli g‘ildiraklarning mustahkamligi frezalangan tishli g‘ildiraklarga nisbatan taxminan 48 % yuqori bo‘ladi.

Edirilishga chidamliligi bo‘yicha shtamplangan tishli g‘ildiraklar frezalangan tishli g‘ildiraklardan 20–30 % ustun turadi.

Xulosa qilib aytganda, tishlari shtamplangan tishli g‘ildiraklarni ishlab chiqarishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini aniqlashda bunday tishli g‘ildiraklarning frezalanganlarga nisbatan yuqori ekspluatatsion sifatlarini hisobga olish zarur. Bunga sabab shundaki, shtamplash yo‘li bilan tish hosil qilishda tolalar joylashishi yanada qulayroq bo‘ladi va struktura yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дмитриев В. А. Проектирование поковок штампованных: Учебно-метод. пособ.// В.А. Дмитриев; Самар. гос. техн. ун-т. Самара, 2006. 44 с.
2. Материаловедение и технологии конструкционных материалов, под ред. В.Б. Арзамасова, А.А. Черепахина. – 2-е изд., стер. – М.: Издат. центр «Академия», 2009. – 448с.
3. Axmadaliyev. Sh. Sh. Issiq holatda bolg‘alash va hajmiy shtamplash. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2020 - 245 b.
4. Семенов Е.И. «Ковка и объемная штамповка». Справочник - М.: «Машиностроение», 2006.


Kombinatsiyalangan TIG vaMMA usulida quvurlarni payvandlash orqali payvand shofini takomillashtirish.

t.f.d. prof. F.S Abdullayev
magistr M.Sh. Jo’rayev

Kirish: Quvurlarni TIG va MMA kombinatsiyalashgan usulda payvandlash texnologiyasi zamonaviy energetika va neft-gaz sanoatining yuqori bosimli quvurlariga qo‘yiladigan qat’iy talablar asosida shakllangan. Ushbu usulning texnologik mohiyati ildiz chokini shakllantirishda argon-yoy (TIG) usulidan foydalanish orqali chokning ichki qismida nuqsonsiz, bir tekis va gushasiz (parda) struktura hosil qilishga tayanadi. TIG bosqichida WTh-20 kabi erimaydigan volfram elektrodlari va 99.9% tozalikdagi argon himoya gazi qo‘llanilishi suyuqlangan metallni atmosfera kislorodidan to‘liq izolatsiya qiladi, natijada ildiz chokida g‘ovaklik va koks hosil bo‘lishi nolga tenglashadi.

Asosiy qism: Ildiz choki TIG usulida 90-110 A tok kuchida bajarilgach, chokning qolgan qismi qo‘lda yoy usulida E7018 yoki UONI 13/55 kabi asosiy qoplamali elektrodlar yordamida to‘ldiriladi. MMA bosqichi 120-160 A gacha yuqori tok kuchida bajarilishi hisobiga ish unumdorligi TIG usuliga nisbatan 3-4 barobarga ortadi va metall qatlamlari o‘rtasida mustahkam diffuzion aloqa hosil bo‘ladi. Kombinatsiyalashgan usulning asosiy iqtisodiy samaradorligi shundan iboratki, u qimmatbaho argon gazi sarfini faqat ildiz choki uchun cheklab, chokning umumiy tannarxini pasaytiradi va shu bilan birga rentgen-nazorati RT va ultratovush tekshiruvlarida UT100% lik sifat natijasini kafolatlaydi. Ushbu texnologiya traktorlar va qishloq xo‘jaligi texnikalarining gidravlik tizimlaridagi yuqori bosimli quvurlarni payvandlashda hamda magistral quvurlar montajida metallning tolali strukturasini saqlab qolgan holda eng ishonchli usul hisoblanadi.


KOMBINATSIYALASHGAN ChOKNING KO’P QATLAMLI TUZILISHI (SXEMA)



a) TIG da Ildiz chokini shakllantirish (Tungsten electrode, Ar shield, Filler rod, Back bead)

b) MMA da To'ldirish (Coated electrode, Slag formation, Multi-pass technique)

Kombinatsiyalashgan usulda qatlamlararo haroratni (interpass temperature) nazorat qilish juda muhim. Agar metall haddan tashqari qizib ketsa, kristall panjarasidagi donachalar yiriklashib ketadi, bu esa metallning mo'rtlashishiga olib keladi.Shuning uchun bu vaqtlar oralig’iga jiddiy etibor berish kerak.



Parametr	TIG (Ildiz)	MMA (To'ldirish)
Elektrod	Elektrod turi	E7018 (flurs)
Himoya usuli	Himoya usuli	Flux coating
Index	Unumdorlik	~400
Hoot mada	Ildiz sifati	High portanna
Xarajat	Xarajat	>100

Xulosa. Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:Chok sifati: TIG usuli ildiz chokini payvandlashda metallning to‘liq suyuqlanishini va ichi bir tekis shakllanishini ta’minlaydi, bu esa g‘ovaklik va krtitallanish yoriqlari xavfini kamaytiradiIqtisodiy samaradorlik: Argon gazi va volfram elektrodidan faqat ildiz chokida foydalanish material xarajatlarini kamaytiradi, shu bilan birga chokning rentgen nazoratidan (RT) o‘tish darajasini maksimal darajaga yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Mirboboyev V.A. "Metallar texnologiyasi", Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Karimov R.J. "Payvandlash ishlab chiqarishi texnologiyasi va jihozlari", O‘quv qo‘llanma, TDTU, 2022.

RUXNI QUYMAKORLIKDA TEJAMKOR USULLARDAN FOYDALANIB OLISH VA METALL ISROFINI KAMAYTIRISH TEXNOLOGIYASI

t.f.d.prof F.S. Abdullayev, magistr M.Sh. Jo’rayev
Toshkent davlat texnika unversiteti


Rangli metallurgiya sanoatida xomashyo samaradorligini oshirish va texnologik isroflarni kamaytirish iqtisodiy barqarorlikning asosiy omilidir. Rux ***(Zn)*** zining past erish harorati ***(419.5°C)*** bilan ajralib tursa-da, yuqori bug'lanish bosimi sababli eritish jarayonida oksidlanish darajasi yuqori bo'ladi. An'anaviy usullarda metall isrofi 8-10% ni tashkil etadi, bu esa tannarxning oshishiga olib keladi.

Tadqiqot uslubiyati va flyusli himoya.

Tajriba davomida rux eritmasi yuzasida germetik himoya hosil qilish uchun tarkibida ammoniy xlorid ***(NH_4Cl)*** va rux xlorid ***($ZnCl_2$)*** bo'lgan flyuslar

qo'llanildi. Bu eritmaning atmosfera kislorodi bilan reaksiyasini kesib, rux oksidi ***(ZnO)*** hosil bo'lishini 1.5% gacha tushirdi.

Ruxni eritishning takomillashtirilgan texnologik sxemasi



1-rasm. Ruxni tejamkor usulda olishning takomillashtirilgan texnologik sxemasi

Olingan natijalar va iqtisodiy tahlil

Yangi texnologiyaning samaradorligini isbotlash uchun an'anaviy olovli pech va taklif etilayotgan induksion pech usullari solishtirildi:

Ko'rsatkichlar	An'anaviy usul	Yangi texnologiya
Eritish harorati, °C	500 - 550	450 - 460
Metall chiqishi (unumi), %	89.2	97.4
Elektr energiyasi sarfi (tonna/kVt)	100%	83.2% (-16.8%)
Metall kuyishi (isrof), %	7.8	1.5

Xulosa. Ruxni quymakorlikda tejamkor flyusli va induksion usullar bilan olish — metallurgiya sohasidagi resurs tejovchi strategiyaning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Taklif etilayotgan texnologiya TDTU "Metallar texnologiyasi" kafedrasining ilmiy yo'nalishlariga to'la mos keladi va korxonalarda (masalan, AGMK) joriy etilishi natijasida katta iqtisodiy foyda beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirboboyev V.A. "Metallar texnologiyasi", Toshkent, "O'qituvchi", 2021.
2. Gulyayev B.B. "Fiziko-ximicheskiye osnovi liteynix protsessov", Moskva, 2022.
3. ASTM B86 - Standard Specification for Zinc Foundry Die Castings.
4. TDTU ilmiy to'plami "Rangli metallurgiya istiqbollari", 2024.

TRAKTOR VTULKALARINI ISHLAB CHIQARISHDA ISSIQ HOLDA HAJMIY SHTAMPLASH TEXNOLOGIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH


t.f.d.prof F.S. Abdullayev, magistr M.Sh. Jo'rayev
Toshkent davlat texnika unversiteti

Kirish: Zamonaviy mashinasozlikda detallarni minimal metall isrofi bilan ishlab chiqarish ustuvor vazifa hisoblanadi. Traktor shlishli vtulkalari an'anaviy mexanik ishlov berish usulida tayyorlanganda, metallning 45% gacha qismi qirindi sifatida isrof bo'ladi. Issiq holda hajmiy shtamplash texnologiyasi nafaqat ushbu isrofni kamaytiradi, balki metallning tolali strukturasini detal shakli bo'ylab yo'naltirib, uning chidamliligini oshiradi.

Asosiy qism: Tadqiqot obyekti sifatida traktorning yurish qismi vtulkalari tanlandi. Material sifatida 20XGTkonstruksion po'lati qo'llanildi. Texnologik zanjir quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Zagotovkani tayyorlash: Kerakli o'lchamdagi zagotovkani kesish.
2. Induksion isitish: Metallni 1050-1150^0 C haroratgacha qizdirish.
3. Shtamplash: Puanson yordamida matritsa bo'shlig'iga bosim berish.
4. Termik ishlov: Detalni normallashtirish va toblash.

Olingan natijalar tahlili:Olib borilgan hisob-kitoblar va tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, IHS usuli qo'llanilganda metallning ishlatish koeffitsiyenti sezilarli darajada yaxshilanadi.Traktor vtulkalarini tayyorlashda 20XGTmarkali konstruksion po'latdan foydalanildi. Ushbu po'latning plastiklik xususiyatlarini oshirish uchun zagotovkalar induksion pechlarda 1050-1150^0 C haroratgacha qizdirildi. Mazkur termik diapazonda metallning oquvchanlik chegarasi minimal qiymatga tushadi, bu esa shtamplash uskunasiga tushadigan yuklamani kamaytiradi va matritsa bo'shlig'ining murakkab elementlarini (shlishli qismlarini) to'liq to'lishini ta'minlaydi.Hajmiy shtamplash jarayoni ochiq shtamplarda amalga oshirildi. Jarayon davomida metallning deformatsiyalanish darajasi va deformatsiya tezligi vtulka devorlarining bir xil qalinlikda bo'lishini ta'minlaydigan ko'rsatkichlarda saqlanadi. Puansonning bosimi ostida metall markazdan chetga qarab oqa boshlaydi va ortiqcha metall maxsus obloy kanaliga chiqadi. Bu kanal nafaqat ortiqcha metallni qabul qiladi, balki matritsa ichidagi gidravlik bosimni barqarorlashtirib, detalda mikroyoriqlar hosil bo'lishining oldini oladi.Issiq holda hajmiy shtamplashdan so'ng olingan detallarning makrotuzilmasi o'rganilganda, metall tolalarining uzluksizligi va ularning vtulka konturi bo'ylab yo'nalganligi aniqlandi. Bu holat mexanik ishlov berish (kesish) usulidan farqli o'laroq, detalning charchoqqa chidamliligini 20-25% ga oshiradi. Kristall panjarasidagi donachalarning maydalashishi natijasida materialning qattiqligi va zarbiy qovushqoqligi yaxshilanadi, bu esa traktorning yurish qismidagi og'ir ish sharoitlari uchun juda muhimdir.



Iqtisodiy va resurs tejamkorlik ko‘rsatkichlari:

O’tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida IHS texnologiyasining samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topdi:

Metall ishlatish koeffitsiyenti (KIM): Kesish usulidagi 0.58 dan IHS usulida 0.88 gacha ko‘tarildi.

Energiya sarfi: Induksion isitish tizimining qo‘llanilishi hisobiga termik ishlov berish vaqti va energiya sarfi 15% ga qisqardi.

Ishlab chiqarish unumdorligi: Jarayonni avtomatlashtirish imkoniyati hisobiga detal tayyorlash sikli 4 barobarga tezlashdi. Ko‘rsatkichlar | Kesish (an’anaviy) usuli | IHS (taklif etilayotgan) usuli |

Metall unumdorligi (KIM) | 0.55 | 0.86 |

Detalning ishchi qattiqligi (HB) | 190-210 | 240-265 |

Bir dona detal uchun vaqt sarfi | 14 min. | 1.2 min. |

Yuzaning tozalik darajasi | 6-sinf | 8-sinf |

Shtamplash jarayonida metall donachalari maydalashadi va kristall panjarasining zichligi ortadi, bu esa vtulkalarning abraziv yemirilishga bo‘lgan bardoshliligini 1.8 barobar oshirdi.

Xulosa. Traktor vtulkalari uchun issiq holda hajmiy shtamplash texnologiyasini joriy etish orqali xomashyo tannarxini 28% ga pasaytirishga erishildi. Puanson va matritsaning ishchi yuzalarini optimallashtirish orqali keyingi mexanik ishlov berish hajmi minimal darajaga tushirildi. Ushbu usul TDTU "Metallar texnologiyasi" kafedrasining ilmiy-amaliy yo‘nalishlariga to‘la mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirboboyev V.A. "Metallar texnologiyasi", Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Semenov E.I. "Kovka i shtampovka", M.: Mashinostroyeniye, 2022.
3. Norxo‘jayev T.R. "Metallarga bosim bilan ishlov berish", O‘quv qo‘llanma, 2023.
4. GOST 7505-89: "Pokovki stalniye shtampovanniye".

РАФИНИРОВАНИЕ АЛЮМИНИЕВЫХ РАСПЛАВОВ В ТИГЛЯХ МЕТОДОМ ПУЗЫРЬКОВОЙ ФЛОТАЦИИ

Магистрант группы 2М-25: ***У.Д. Рейпназаров,***
Научный руководитель: DSc., профессор ***С.Т. Маткаримов***
Ташкентский Государственный Технический Университет имени Ислама Каримова

Расплавленный алюминий реагирует с водяным паром и кислородом воздуха, что приводит к образованию оксида алюминия и водорода во время плавления и заполнения формы. Дефекты литья в виде точечных отверстий, оксидных включений и окалины в отливке образовывались из-за осаждения растворенных водородных и оксидных включений.

Целью очистки является снижение вредных включений и водорода до приемлемого уровня и улучшение механических характеристик отливки.

В качестве экспериментального материала использовался литой алюминиевый сплав A356. Химический состав сплава: 7,5 % Si, 0,43 % Mg и 0,08 % Ti со сбалансированным алюминием. Шихту в 40 кг, 160 кг и 280 кг расплавили соответственно в электрической печи сопротивления, и температуру расплава поддерживали на уровне 720°C для использования. Продувочное устройство состоит из баллона с азотом A, предохранительного клапана B, манометра C, воздушного фильтра D, молекулярного сита E, газового расходомера F и пористого распылителя P, как показано на рисунке 1.





Рисунок 1. Схема плавательного устройства (продувочное устройство)
A – баллон с азотом, B – предохранительный клапан, C – манометр, D – воздушный фильтр, E – молекулярная сита, F – газовой расходометр, P – пористый распылитель

Газообразный азот из резервуара A поступает в резервуары D и E для сушки и фильтрации для удаления воды через предохранительный клапан B для снижения давления. Затем высушенный газообразный азот поступает в пористый распылитель через расходомер, с помощью которого можно точно регулировать скорость потока газа. В эксперименте скорость потока была установлена на уровне 0,2 м3/ч. отбор проб производился через 0 мин, 2 мин, 4 мин, 6 мин, 8 мин и 10 мин соответственно для измерения содержания водорода в расплаве, и было проведено 5 испытаний.

При обычных условиях плавления в алюминиевом расплаве можно обнаружить самые разнообразные включения. Однако большинство включений представляет собой оксид алюминия, который обычно присутствует в виде чешуек и хлопьев, как показано на рисунке 2. В отливках возможно зарождение пор в первую очередь в гетерогенных местах, связанных с включениями.



(а) (б)

Рисунок 2 . Микроскопическое изображение сплава А356 до (а) и после (б)очистки.

Предложен простой способ очистки. В котором пористая керамическая плита погружается в расплав алюминия, а газообразный азот выбрасывается из микроотверстий, диспергированных в расплаве. Содержание водорода уменьшается с увеличением времени продувки. Через 10, 8 и 4 минуты содержание водорода достигает минимума для 280 кг, 160 кг и 40 кг расплава соответственно. Включение оксида алюминия также резко уменьшается. Это легкое устройство очень подходит для небольших литейных цехов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Maksimova O. P., Metallshunoslik va issiqlik bilan ishlov berish, 41, 1999, 322-339-betlar.
2. Лахтин Б.М., Леонтьева В.А. Металловедение – М;Машиностроение, 1990-528 с.
3. Kristian J. U. va Mahajan S., materiallar taraqqiyoti Ilm-fan, 39, 1995, 1-157.

YEYILISHGA BARDOSHLI QOPLAMALAR TARKIBI HAMDA ULARNI DETAL VA TEZ KESAR ASBOBLARGA QOPLASH TEXNOLOGIYASINING ILMIY ASOSI.


Sharipov.J.O, t.f.f.d dotsent ,
Begmurodov A.F,Ramazonov.S.S YeSMD kafedrasi magistrantlari
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda yeyilishga bardoshli qoplamalarning tarkibi, ularning fizik-mexanik xossalari hamda detal va tez kesar asboblar yuzasiga qoplash texnologiyalarining ilmiy asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan TiN, (TiAl)N, (TiCr)N kabi bir va ko‘p komponentli qoplamalarning issiqlikka chidamliligi, qattiqligi va korroziyabardoshliligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Po‘lat ,mustahkamlik, Tezkesar asbobsozlik po‘lati, Changlatish, plazmakimyoviy reaksiyalar, ionli zarba , qoplamani kondensatlash, fizikaviy cho‘ktirish, Kondensat, termodinamik barqarorlik, qattiqlik, metall korpusi.

Ma’lumki, har bir tez kesar asboblarning yuza qismi ishlatilish joyiga qarab qoplamalar bilan qoplashda ma’lum ilmiy asosda olib boriladi Tezkesar asbobsozlik po‘lati yuzasida azotlangan, legirlangan qatlam hamda yeyilishga bardoshli qoplamadan iborat kompleksning hosil bo‘lishida yeyilishga bardoshli qoplama tarkibi va uni qoplash usullarini to‘g‘ri tanlash juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon amaliyotida konstruksion metallga ishlov berishda (TiAl)N qoplamali kesuvchi asboblar eng keng tarqalganlaridandir. Вининг sababi, uni olish texnologiyasining soddaligi, boshlang‘ich materiallar narxining arzonligi va

eng asosiysi — yuqori xizmat ko‘rsatish tavsiflariga ega. Bugungi kunda, sanoatda boshqa tarkibdagi qoplamalarning ishlatilishiga qaramasdan, mavjud qoplamalarning 80% ni (TiAl)N tashkil etadi. Qoplamalarni fizikaviy cho‘ktirish texnologiyasining rivojlanishi ko‘p komponentli nitrid qoplamalarning olinishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda eng samarador qoplamalardan biri (TiAl)N hisoblanadi. Bu qoplama boshqalariga nisbatan oksidlanish oqibatidagi yeyilishga, issiqlikka chidamliligi va qattiqligi bilan ajralib turadi, u ishlab chiqarishga mo‘ljallangan kesuvchi asbob materialini deyarli o‘rab oluvchi issiqlik to‘sig‘ini hosil qiladi, natijada issiqlik oqimi qayta taqsimlanadi va uning ko‘p qismi qirindiga chiqib ketadi. (TiAl)N qoplamasi katta issiqlik yuklanishi bilan ishlov berishda qo‘llaniladi. Yeyilishga bardoshli qoplamalarning yaroqlilik muddatini uzaytirish uchun ko‘p qatlamli qoplamalardan va yuzasi kompleks ishlov berilgan kesuvchi asboblardan foydalaniladi. Taqqoslangan (qiyosiy) sharoitlarda qoplangan qoplamalar bir qatlamli variantda CrN–18 GPa, TiN–24 GPa, (Ti,Cr)N–21 GPa, (Ti,Cr)N–21 GPa qattiqlikka, ko‘p qatlamli TiN-CrN qoplamalar esa 29 GPa qattiqlikka ega. Ko‘p qatlamli qoplamaning qattiqligi va mustahkamligi individual qatlam qalinligining nanometr birliklarigacha kamayishi oqibatida oshadi. Ionli zarba bilan kondensatlash usulining mohiyati shundaki, qiyin eruvchi metall va ularning qotishmalari elektr yoyi yordamida, vakuumda, reaktiv gazlar ishtirokida bug‘latiladi, keyin kesuvchi asbobning ishchi yuzasidagi materiallarning changi yoki ularning plazmakimyoviy reaksiyalar kechishi natijasida hosil bo‘ladigan gazli birikmasi ionli zarba berish bilan kondensatlanadi. Changlatish, plazmakimyoviy reaksiyalar, ionli zarba va qoplamani kondensatlash bilan bog‘liq jarayonlarning barchasi metall korpusi anod vazifasini o‘tovchi vakuumli kamerada kechadi 1.1-rasmda qoplash jarayonining prinsipial sxemasi ko‘rsatilgan.



(1,1-rasm)Asboblar yuzasini ionli zarba yordamida kondensatlash usuli bilan qoplashning prinsipial sxemasi

1 – vakuum kamera korpusi;2 – katod;3 – razryad olish manbai;4 – o‘t oldirish elektrodi;5 – magnit chulg‘am;6 – reaksiyaga kirishuvchi gazni kiritish;7 – kesish asbobi;8 – tayanch kuchlanish manbai.

Qoplamani qoplash 300-600°C gacha bo‘lgan haroratda 3-4 soat davomida amalga oshiriladi. Purkash materiali sifatida (katod) Davriy jadvalning IV-VI guruh qiyin eruvchi metallaridan (Ti, Cr, Mo, Zr, Al va boshqalar) qo‘llaniladi, reaksiyaga kirishuvchi gazlar sifatida esa azot (N_2), metan (CH_4) va kislorod (O_2)

qo‘llaniladi, hamda mos ravishda qiyin eruvchi metallarning nitrid, karbid, karbonitrid yoki oksikarbid ko‘rinishidagi qoplamalari olinadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1.А.Р.Сейткулов. Повышение эффективности зубофрезерования применением червячных фрез из быстрорежущей стали с комплексной поверхностной обработкой: Диссертация на соискание ученой степени докт. техн. наук: 05.03.01. Москва, 1993. –С. 32-48.

3.S.V. Fyodorov, N.F. O‘rinov, J.O. Sharipov. *Kompleksnaya obrabotka poverxnosti diskovix frez iz bystrorejushchey stali*. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. 2019. №5, 144-149-b.

4. J.O. Sharipov, S.V. Fyodorov, S.F. Fozilov, B.A. Mavlonov. *Kompleks ishlov berish usuli bilan disksimon freza tishlari yeyilishga bardoshliligini oshirish*. Buxoro, 2021. 123-140-b.

DETALLAR HAMDA KESUVCHI ASBOBLARGA KOMPLEKS ISHLOV BERISH UCHUN OPTIMAL REJIMLARNI TANLASH VA TAHLIL QILISH.

Sharipov.J.O, t.f.f.d dotsent
Begmurodov A.F, Ramazonov S.S YeSMD kafedrasi magistrantlari
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada detallar hamda kesuvchi asboblarga kompleks ishlov berish jarayonida optimal texnologik rejimlarni tanlash va ularni tahlil qilish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida kesish tezligi, surish miqdori, ishlov chuqurligi hamda qoplama va sovitish texnologiyalarining asbob yeyilishiga, ishlov sifati va unumdorlikka ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, kompleks ishlov berish jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy texnologik usullar yordamida asboblarning xizmat muddati va detallar yuzasining sifat ko‘rsatkichlarini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yeyilish,korroziya, kimyoviy-termik, Detallar, kesuvchi asboblar, po‘lat,ion-plazma, kompleks

Kompleks ishlov berish — termik, kimyoviy-termik, qoplama qoplash va boshqa bir qancha jarayonlarning uyg‘unligi hisoblanadi. Detallar va kesuvchi asboblar yuza xossalarini o‘zgartiruvchi har bir usullar, ta’sir etuvchi zarrachalarning energiya darajasiga va ularning xususiyatlariga qarab, ishlov berilgan sirt bilan o‘zaro ta’sirning har xil xususiyatlarini namoyon etadi. Uning yuzasini o‘zgartirishning har xil usullarini birlashtirib, qatlam xususiyatlarining o‘ziga xos uyg‘unlikka ega bo‘lgan asbobsozlik po‘lat materialini olish mumkin bo‘ladi, jarayonlarning har birini alohida-alohida qo‘llash kutilgan natijani bermaydi.Kompleks ishlov berish natijasida olingan yuza qatlami tadqiqotlarda yeyilishga bardoshli kompleks (YBK) deb ataladi. Ko‘plab olimlar tez kesar asbobsozlik po‘latlariga qoplama qoplashdan oldin qo‘shimcha ishlov berish kerakligini ta’kidlaydilar Buning sababi, “qoplama–asbob materiali” oralig‘ida fizik-mexanik va termofizik xususiyatlarining keskin o‘zgarishi (elastik moduli va issiqlik kengayish koeffitsienti), yuqori qoldiq kuchlanishlarning paydo bo‘lishiga olib keladi, buning natijasida tag qo‘yma bilan qoplama orasidagi adgezion

mustahkamlik pasayadi, bu esa yeyilishga bardoshli qoplamali kesuvchi asboblarning samarali ishlashi uchun eng muhim shart hisoblanadi .Lazer bilan ishlov berish, ion-implantatsiyasi va ion-azotlash, qoplamadagi qoldiq kuchlanishlar darajasining pasayishiga va uning tag qo‘yma bilan adgezion mustahkamligining oshishiga o‘tish qatlamini hosil qilish orqali erishish mumkin. bunday kompleks ishlov berish oddiy kesuvchi asboblarga nisbatan turg‘unligi sezilarli darajada (2 barobargacha) oshganligini ma’lum qiladi.

Ion-azotlash va yeyilishga bardoshli qoplamalarni qoplash bilan kesuvchi asboblar yuzasiga kompleks ishlov berish hozirgi kundagi eng istiqbolli va iqtisodiy jihatdan samarali usul hisoblanadi [1]. Birinchidan, ion-azotlash — bu kesuvchi asbob materiali sirtini o‘zgartirishning ancha arzon va ekologik toza usuli, ikkinchidan, bugungi kunda bitta texnologik siklda ishlov berilgan asboblarni ortiqcha yuklamasdan, ikki jarayonni — ion-azotlash va fizikaviy usulda cho‘ktirilgan yeyilishga bardoshli qoplamalar qoplashni bajaradigan qurilmalar mavjudligi orqali erishiladi. Shuning uchun, kompleks ishlov berish usullarini optimallashtirishda ionli azotlash rejimlarini ham, Olmossimon, ion-azotlash+(TiCr)N-(TiAl)N-(CrAlSi)N,(TiCr)N-(TiAl)N-(CrAlSi)N (nATCRo3), ion-azotlash+ ion-legirlash (NbHf)+(TiAl)N, (TiAl)N, ion-azotlash+(TiAl)N yemirilishga chidamli qoplamasini qoplashning keyingi jarayonini ham hisobga oladigan kompleks yondashuv talab qilinadi.Tadqiqotlar o‘tkazilganda, kombinatsiyalangan ion-plazma bilan ishlov berishning optimal rejimlari deganda, kesish jarayonida asbobning jadal yemirilishining minimal darajasini ta’minlovchi rejimlari tushunilgan Yeyilishga bardoshli qoplamani qoplash rejimlaridan, birinchi navbatda, hosil bo‘layotgan qoplama qalinligiga ta’sir ko‘rsatuvchi qoplash vaqtini hisobga olish kerak Yeyilishga bardoshli qoplamaning qalinligi, hattoki, qoplama tarkibi optimal ravishda tanlanganda ham juda qarama-qarshi omillar paydo bo‘lishi mumkin.,quyida kompleks ishlov berilgan disksimon freza ko’rsatilgan bo‘lib ,unga yuqoridagi usul bo’yicha ishlov berilgan.



(1.1-rasm)

kompleks ishlov berilgan disksimon freza.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1.A.Vereschaka, V.Tabakov, S.Grigoriev, N.Sitnikov, F.Milovich, N.Andreev, C. Sotova. Investigation of the influence of the thickness of nanolayers in wear-resistantlayers of Ti-TiN-(Ti,Cr,Al)N coating on destruction in the cutting and wear ofcarbide cutting tools. https://doi.org/10.1016/j.surfcoat.2020.125402
2.. I.Nosirov, Materialshunoslik. Toshkent “O‘qituvchi”-2004 yil
3. E.O.Umarov, Materialshunoslik. Toshkent “Cho‘lpon”-2014 yil

ELEKTR PECHLARNING NEYTRAL O‘TGA CHIDAMLI MATERIALLAR TARKIBI

[1]Bekchanova Valida Baxram qizi, t.f.f.d., PhD
[2]Saidmaxamadov Nosir Mo‘ysininalayevich, t.f.d., dotsent
[3]Rahmanov Rahimjon Ravshanbek o‘g‘li, tayanch doktorant
[1,2,3]Namangan davlat texnika universiteti, Namangan

KIRISH

Elektr pechlari va quyma kovshlarini futerovkalash uchun aluminosilikatli o‘tga chidamli materiallardan ham keng qo‘llaniladi; ulardan eng keng tarqalgani shamotdir. Ushbu neytral o‘tga chidamli materiallarning tuzilishi glinozyom va kremnezyom tarkibi bilan tavsiflanadi [1]: Al_2O_3 miqdori 72 % dan kam bo‘lsa, o‘tga chidamli material mullitdan va kremnezyom, Al_2O_3 miqdori yuqori bo‘lsa u mullitdan va korunddan iborat bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Shamot g‘ishtlari 12 % SiO_2 va 35 % (Al_2O_3 + TiO_2) o‘z ichiga olgan o‘tga chidamli materiallardan tayyorlanadi. Ushbu massada temir oksidi va ayniqsa kaliy oksidi va boshqa gidroksidlar bo‘lishi metallarining mavjud bo‘lmasligi lozim, chunki ular g‘ishtlarning o‘tga chidamliligini keskin kamaytiradi. Bundan tashqari, temir oksidi katalizator bo‘lib [2], pech atmosferasida mavjud bo‘lgan uglerod oksididan uglerodni chiqarishga va futerovkani buzilishiga olib keladi. Yuqori haroratda qizdirish bilan buni oldini olish mumkin, undan tashqari vakuum sharoitida qizdirish harorati havoga qaraganda taxminan 200 ^oC daraja past bo‘lishi mumkin.

Shamot g‘ishtlari 1300÷1400 °C haroratda qizdiriladi. Tayyor g‘isht quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

O‘tga chidamligi, ^oC	1680÷1730
2 kG/sm^2 bosimi ostida deformatsiyalanishi boshlanish harorati,	1300÷1400
Ishchi maksimal harorat, ^oC	1400
Hajmiy massa, t/m^3	1,8÷1,9
Zichligi, g/sm^3	2,5÷2,6
Siqilishdagi mustahkamligi, kG/sm^2	200

Shamot g‘ishtlari yuqori issiqlik chidamliligiga va past issiqlik va elektr o‘tkazuvchanligiga ega bo‘ladi. Uzoq muddatli yuqori haroratli isitish davomida shamot 0,6 % ga qisqaradi.

Bu yerda shamot g‘ishtlarining taxminiy kimyoviy tarkibi: 62 % SiO_2; 35 % Al_2O_3; 0,7 % CaO; 2,0 % Fe_2O_3; 3 % MgO iborat bo‘ladi.

Elektr pechlaridagi shamot g‘ishtlari pech devorlarni va ostini issiqlik izolyatsiyalash uchun futerovka qilinadi. Uning asosiy qo‘llanilish sohasi po‘lat quyish anjomlarini ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Shamotga nisbatan ancha kam miqdorda SiO_2 (53÷55%) va sezilarli darajada ko‘proq Al_2O_3 ni o‘z ichiga olgan yuqori glinozyomli mahsulotlar, yuqori yumshatilish nuqtasiga ega va asosan po‘lat quyish uchun vilkalar ishlab chiqarish

uchun ishlatiladi. Bu pechdan yuqori haroratda po‘lat qotishmasini ishlab chiqarish imkonini beradi.

Yuqori glinozyomli mahsulotlar andaluzining shamot bilan aralashmasidan ishlab chiqariladi. Hali juda kam qo‘llaniladigan mullit materiallari tarkibida 73 % Al_2O_3 va 20 % SiO_2 mavjud bo‘ladi [4]. Ular 1800 °C o‘tga chidamlikka, yaxshi termik chidamlilik va 400÷800 kg/sm^2 siqishdagi mustahkamlikga ega bo‘ladi.

XULOSA

Keltirilgan ma’lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, aluminosilikatli o‘tga chidamli materiallar, ayniqsa shamot g‘ishtlari, elektr pechlari va quyma kovshlarining futerovkasi uchun eng muhim konstruktiv materiallardan biri hisoblanadi. Ularning asosiy afzalligi – yuqori o‘tga chidamlilik, yetarli mexanik mustahkamlik hamda past issiqlik va elektr o‘tkazuvchanlik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shamotning ishlash samaradorligi uning kimyoviy tarkibiga bevosita bog‘liq bo‘lib, ayniqsa Al_2O_3 va SiO_2 nisbatining optimal darajada bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarkibida zararli qo‘shimchalar, xususan Fe_2O_3 va ishqoriy oksidlarning mavjudligi o‘tga chidamlilikni pasaytiradi hamda futerovkaning tez yemirilishiga olib keladi. Shu sababli, ishlab chiqarish jarayonida xomashyo tozaligi va texnologik rejimlarga qat’iy rioya qilish zarur.

Yuqori haroratlarda ishlash sharoitida shamot g‘ishtlarining 0,6 % gacha qisqarishi kuzatilsa-da, ular umumiy barqarorlikni saqlab qoladi va uzoq muddat xizmat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, yuqori glinozyomli va mullit asosidagi materiallar yanada yuqori o‘tga chidamlilik (1800 °C gacha) va mustahkamlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, zamonaviy yuqori haroratli metallurgiya jarayonlarida keng istiqbolli materiallar hisoblanadi.

Umuman olganda, futerovka materiallarini to‘g‘ri tanlash va ularning tarkibi hamda xossalarini optimallashtirish metall eritish jarayonlarining samaradorligini oshirish, energiya tejamkorligini ta’minlash va pechlarning xizmat muddatini uzaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Valida B. et al. Technology of Increasing the Service Life of Based Lining Based on Recycling //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 43-48.

2. Valida B. et al. Investigation of the Effect of Liquid Metal on the Furnace Lining During the Liquidation of Steel Alloys in an Electric ARC Furnace //American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637). – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 60-66.

3. Valida B. et al. Extending the Service Life of The Electric ARC Furnace Lining //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 153-158.

4. Saidmaxamadov N. va boshqalar. Qurilish po'latlarini yo‘q qilish texnologiyasini takomillashtirish //Texnika i texnologii manostroeniya. – 2022. – S. 57-62.

MUNDARIJA

1.	Achieving Strength-Ductility Synergy in Graphene Nanoplatelets/Mg-14Li-1Al Composites through Constructing Micro-Nano Laminated Structure	9
2.	Machining the designed geometrical parameters of ground microstructured surfaces on the typical hard and brittle materials	11
3.	A High Strength and Plasticity Al–Li–Cu Alloy with High Li Content Prepared via Large Reduction Rolling and Aging Treatment.....	13
4.	Получение высокочистого сферического формовочного материала из отработанного алюмохромового катализатора ИМ-2201	15
5.	The role of modifiers in improving casting properties of Aluminum alloys	17
6.	Microstructural improvements of aluminum magnesium alloys by adding titanium	20
7.	Pech ichida ikki bosqichli $CaCO_3$ kiritish orqali suyuq shlak hosil qilish texnologiyasi	22
8.	Qora metall qotishmalarini suyuqlantirishda suyuq qotishmaga flyus bilan ishlov berish	24
9.	Нетадиционный способ возведения гидротехнических сооружений для очистки стока реки от наносов бассейна реки Зарафшан	27
10.	Потенциал свободной коррозии сплавов Zn22Al-Ba, в нейтральной среде	29
11.	Методика диагностики износа кулачковых механизмов поли-графических машин.....	31
12.	Окисление сплава Zn22Al с неодимом.....	33
13.	Po‘lat qotishmasini suyuqlantirishda $CaSiO_3$ kiritishning desulfuratsiya jarayonlariga ta’sirining termodinamik tahlili.....	35
14.	Improving thermal treatment modes for chromium-molybdenum steel castings.....	37
15.	Selection of optimal alloying composition to improve wear resistance of 110G13L high-manganese steel	39
16.	Technology for increasing the working surface hardness of high-manganese austenitic steels through the formation of dispersed phases.....	41
17.	Quyma ishlab chiqarishda ishlatilgan qolip aralashmalarini regeneratsiya qilish texnologiyalarining tahlili.....	43
18.	Повышение циклической долговечности деталей механизмов ткацких станков путем создания упрочненного поверхностного слоя	46
19.	Изучение перспектив графита тасказганского месторождения	50
20.	Электроёй пўлат эритиш печларида периклаз-углеродли материал-лари билан футеровкалаш технологиясини олиб бориш	52
21.	Электр ёй печи футеровкасини модификатор билан туйинтириш технологияси асосида футеровка юзасида ҳимоя қатламини ҳосил қилиш технологияси.....	54

22.	45 маркали пўлатни олиш технологияси ва унинг хусусиятлари	56
23.	3D va IT texnologiyalari asosida qo‘llanilgan zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy yutuqlar.....	59
24.	Metallar sirtiga ishlov berish texnologiyasini o‘qitishda talabalarning texnik fikrlashini rivojlantirish metodikasi	61
25.	Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining mashinasozlikda tutgan o‘rni va ahamiyati	66
26.	Mashinasozlikda avtomatlashtirishni joriy etish bosqichlarini ilmiy-asoslangan holda tashkil etishning ahamiyati.....	68
27.	Atrof-muhitga antropogen ta’sirni kamaytirishda yashil energiya manbalarining roli.....	70
28.	Влияние температуры введения молибдена на твёрдость чугуна.....	72
29.	Повышение жидкотекучести чугунных сплавов.....	74
30.	Ko‘pikbeton aralashmasida ko‘pik hosil qiluvchi modda konsentratsiyasi va suv-sement nisbatining zichlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini tadqiq etish...	76
31.	Исследование демпфирования системы токарных резцов.....	78
32.	Yuqori marganesli po‘latlarning mikrostrukturasiga ferrovolframning ta’siri	80
33.	Improving the technology of enhancing the mechanical properties of steels using ferromanganese	82
34.	Titan ta’sirida alyuminiy quymakorlik qotishmalarining qattiqligini o‘zgarishi.....	83
35.	Alyuminiy quymakorlik qotishmalarining suyuqoquvchanligini aniqlash .	85
36.	O‘zbekiston sanoatlarida PVD texnologiyasini qo‘llash va samaradorlik tadqiqoti	86
37.	PVD uskunalarida qoplama qoplashda materiallarning ahamiyati va dizayni.....	88
38.	Optimizing support structures for cylindrical geometries: a performance evaluation.....	90
39.	Футеровка дуговых печей и свойства огнеупорных материалов	92
40.	Бронза қотишмаларидан марказдан қочма қуйиш усулида маҳсулотлар олиш технологиясини такомиллаштириш.....	94
41.	Prokatlash stanlarida katta diametrli navli prokat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonini takomillashtirish	97
42.	Analysis of cast iron melting technology in an induction furnace.....	99
43.	Analysis of cast iron modification with molybdenum in an induction furnace.....	101
44.	Enhancement of mechanical and electrical properties of w–cu composites using spherical powders.....	103
45.	Influence of W/CU ratio on the mechanical behavior of powder-metallurgy w–cu composites.....	105

46.	Optimum structural balance in powder-metallurgy W–Cu composites: why the W70Cu30 composition exhibits the best overall mechanical performance	106
47.	The role of copper content in controlling hardness, density, and tensile strength of W–Cu composites fabricated by powder metallurgy	109
48.	Qalaysiz bronza tarkibi, xossalari, afzalliklari va kamchiliklari	110
49.	Bronza tasnifi va uning sanoatda qo‘llanilishi	112
50.	Choksiz quvurlarni prokatlab olishda ishlatilinadigan jo‘valarni puxtalash texnologiyasini takomillashtirish.....	114
51.	Sovuq holatda qalinligi 2 mm bo‘lgan tasmali listlarni prokatlash texnologik jarayonini	117
52.	XH56MBKЮ qotishmasining termoplastik deformatsiyalanishda strukturaga ta’sirini tadqiqot qilish.....	120
53.	Снижение отходов и дефектов при холодной штамповке осесим-метричных деталей с использованием методов искусственного интеллекта	122
54.	Экологическая оценка и снижение энергозатрат холодной штамповки при внедрении методов искусственного интеллекта.....	124
55.	Prokatlash jarayonlarida yuqori nikelli qotishmadan list prokatlashda qayta kiristallanishdagi metallni xossasiga ta’sirini tadqiqot qilish	126
56.	Prokatlash jarayonlarida konussimon shakldagi kichik o‘lchamdagi zagotovkalarni prokatlab olishda Qform dasturini qo‘llashni tadqiq qilish.	128
57.	Yuqori xromli cho‘yan qotishmasiga xrom va nikel elementining ta’siri…….	130
58.	Sun’iy intellekt yordamida list prokatlash stanlarida 2 mm qalinlikdagi polosali listlarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish	133
59.	Samarali sovutish-moylash suyuqliklarini ishlab chiqish va qo‘llash maqsadida ularni tadqiq qilish.....	136
60.	Murakkab-shakldor yuzalarga elektrokimyoviy ishlov berish.....	138
61.	Suyuqlik va gazlarni tashish uchun vagon - sisternaning konstruksiyasini takomillashtirish.....	140
62.	Flyus qatlami ostida yoyli payvandlash qurilmasi	143
63.	Mexanik ishlov berish aniqligini ta’minlashda avtomatik boshqarish va hisoblash muammolari.....	146
64.	Sustainable recycling methods for technological residues in the secondary aluminum industry	149
65.	Metall va qotishmalarning suyuq oquvchanligi ta’sir etuvchi faktorlarni tahlil qilish	151
66.	Metall bilan bog‘liq o‘zgaruvchilarning ta’siri	153

67.	Совершенствование проблем материаловедения и технологии предотвращения трещинообразования в литых изделиях из стали 110Г13Л	155
68.	Kompozitsion tuproq ishlovchi asboblarni olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning xususiyatlari tahlili.....	158
69.	Решение проблемы утилизации отходов резинотехнических изделий путем модификации дорожных вяжущих	161
70.	Механизмы износа бурового долота под влиянием абразивной среды	163
71.	Снижение газовой пористости при плавлении алюминиевых сплавов	164
72.	Технологические процессы, основанные на сверхпластической деформации	165
73.	Qora va rangli qotishmalardan quyma olish hamda 110G13L markali po‘latda nuqsonlarni kamaytirish texnologiyasi.....	167
74.	An integrated approach based on environmentally safe and low-waste technologies for reducing cracks in cast products made from 110G13L steel	170
75.	Шлаклардан алюминий ажратиб олишни иқтисодий ва экологик самарадорлиги.....	174
76.	Mis eritish zavodi shlaklaridan qimmatbaho metallarni ajratib olish texnologiyasini takomillashtirish.....	176
77.	Development of technology for extracting precious metals from slags of copper smelting plants	177
78.	Alyuminiy shlaklar va ularning ikkilamchi alyuminiy sanoatidagi ahamiyati.....	179
79.	Effect of silicon, titanium and graphene on fluidity of Al-Mg alloys.....	181
80.	Особенности проектирования теоретического и практического профиля аксиального кулачкового механизма.....	183
81.	Определение силовых параметров плоского кулачкового механизма при косинусоидальном законе движения ведомого звена	185
82.	Разработка получения точных заготовок с минимальными размерами припусков в машиностроении.....	188
83.	Ekskavator tishlarining yeyilishbardoshliligini oshirish texnologiyasi tahlili	190
84.	Особенности расчета открытых цепных передач в условиях повышенной запыленности эксплуатации сельскохозяйственной техники.....	192
85.	Факторы влияющие на качество получаемых изделий чистовой вырубкой точных изделий	194
86.	Метод снижения неравномерности деформации при изотермической штамповке труднодеформируемых сплавов.....	196

87.	Энергоэффективные технологии обработки металлов давлением.....	198
88.	XH56MBKЮ qotishmasidan list metallarni prokatlashning resurs tejamkor texnologiyasi.....	201
89.	Определение силы контакта кулачка и толкателя обеспечивающий его плавной работы	203
90.	Учет трения в кинематических парах при проектировании новых машин и механизмов	205
91.	Напряжённое состояние при шариковом накатывании и формирование винтового микрорельефа.....	207
92.	Ekskavator tishlarining yeyilish bardoshligini oshirishda 110g13l markali po‘latga termik ishlov berish	209
93.	Qotishmalarning suyuqoquvchanligini aniqlash usuli va uning qotishmalar sifatini baholash	211
94.	Namunalarning kirishuvchanligini aniqlash va tahlili.....	213
95.	Листовая штамповка в машиностроении	215
96.	Дефекты при обработке металлов давлением и их причины.....	217
97.	Qora metallurgiya sanoati texnogen chiqindilaridan kompleks foydalanishning istiqbollari	219
98.	Degradatsiyaga uchragan yerlar. Surxondaryo viloyatida degradatsiyaga uchrash sabablari.....	221
99.	Biomateriallarning zamonaviy materialshunoslikdagi dolzarb muammolari	224
100.	Materialshunoslik va ilg‘or biriktirish texnologiyalari: metallarga kompleks termomexanik ishlov berish	226
101.	Современные методы повышения ресурсной и экологической эффективности в промышленности	229
102.	Комплексная переработка техногенных отходов медеплавильного производства с извлечением редких и благородных металлов	231
103.	Development of an integrated technology for recovery of precious and platinum group metals from off-balance oxidized copper ores.....	233
104.	Comprehensive study of the material composition and distribution forms of precious metals in the tailings of HMP-1	236
105.	Компьютерное моделирование массопереноса алюминия при формировании защитных слоев на деталях сложной геометрической формы	238
106.	Alyuminiy-kremniy xomashyosini eritishda ruda-termik pechlarning energiya samaradorligini oshirish.....	241
107.	Развитие литейного производства с IT технологиями.....	242
108.	Metall asbob-uskunalardan foydalanib talabalarni amaliy topshiriqlar bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirish	244
109.	Qora va rangli metall qotishmalaridan quyma mahsulotlar olish texnologiyalari	246

110.	Po‘lat qotishmalarini rafinirlashning takomillashgan texnologiyasi.....	248
111.	Qotishmadagi zararli elementlar miqdorini kamaytirish usullarini tadqiq qilish.....	250
112.	Мис кластери шароитида машинасозлик латун деталларининг ейилишга бардошлилигини оширишнинг илмий-техникий долзарблиги..	252
113.	“Olmaliq KMK” AJ texnogen chiqindilarini kompleks qayta ishlash va qimmatli komponentlarni ajratib olish	254
114.	Pprofil diametri 16 mm kvadrat prokatlab ishlab chiqarishning texnologik jarayonini takomillashtirish	256
115.	Stan 1700 da 3x1700 mm o‘lchamdagi polosani issiq holatda prokatlash texnologiyasini ishlab chiqishda innovatsion yechim	258
116.	Совершенствование процесса сухой классификации цинкового огарка с учётом снижения энергозатрат.....	260
117.	Valikli jin mashinasi harakat uzatish tizimining tahliliy asoslari	261
118.	Цифровизация литейного производства	263
119.	Преимущества IT технологии в машиностроении	266
120.	Технология CAD/CAM/CAE в производстве деталей и узлов	268
121.	Моделирование SprutCAM в производстве машиностроительных деталей	271
122.	10ГР8Л pulpa nasosi ishchi g‘ildiragining monolit konstruksiyadan qismli yechimga o‘tkazilishi	273
123.	Lentali konveyer barabani uchun segment-tipli rezina qoplama konstruksiyasi va uning tog‘-kon sanoatida qo‘llanilishi.....	275
124.	Maxsus shekovoy maydalagich futirovkasining ish samaradorligini oshirish uchun tish shaklini optimallashtirish	277
125.	Boshqariladigan friksion mexanizmlarda quyma maxsus qotishmalarning ishqalanish jarayonini nazariy-mexanik tahlili.....	279
126.	Plastmassalarni zamonaviy qayta ishlash texnologiyalari	281
127.	Vibratsion mexanizmlarning optimal ish rejimlarini aniqlash.....	283
128.	Yuqori qattiqlikdagi cho‘yanning g‘ovakligini kamaytirish usullarini tadqiq qilish.....	285
129.	“Mis – volfram asosida kukun metallurgiya usulida elektr kontakt materiallar olish dizayni”.....	287
130.	Olmaliq kon-metallurgiya kombinati sharoitida cho‘yan mahsulotlari strukturasining mexanik xossalarga ta’sirini tadqiq etish	289
131.	110G13L markali po‘latlarni elektr pechlarida suyuqlantirishda energiya tejamkorligini ta’minlash.....	291
132.	Коррозиябардош қопламаларнинг аҳамияти ва таснифи.....	292
133.	Elektrokontakt pishirish usulida olinadigan qoplama tarkibi va xossalari……	294

134.	Alyuminiy qotishmalari qirindilarini qayta ishlash asosida sifatli quymalar olishning innovatsion usullari.....	297
135.	Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda hosil bo‘ladigan shlaklarni qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish asosida resurs tejamkorlikni ta’minlash.....	300
136.	Production of 300x32n2pl alloy from fx650 ferrochrome using electric arc furnace technology.....	301
137.	Raqamli ishlab chiqishni rivojlantirishda cnc texnologiyalarining o‘rni.....	303
138.	Metallarga bosim bilan ishlov berishda deformatsiya turlari.....	305
139.	Deformatsiya haroratining metall deformatsiyaga qarshiligi va plastiklik xossalariga ta’siri	307
140.	Deformation properties of metals in pressure processing	310
141.	Prokatlab profillashda hosil bo‘ladigan nuqsonlar	312
142.	Bolg‘alash jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy jihozlarning texnologik imkoniyatlari	315
143.	Разработка системы автоматического регулирования толщины горячего проката	317
144.	Исследование теплопроводности алюминиевых сплавов.....	320
145.	Alyuminiy qotishmalarining mexanik xossalarini oshirishning zamonaviy usullari.....	322
146.	Металлографический анализ и фазовый состав алюминиевых сплавов	324
147.	Alyuminiy qotishmalaridan olingan quyma detallarni sifatini oshirish texnologiyasi.....	326
148.	Synergistic Enhancement of Strength and Corrosion Resistance in High-Li-Content Al–Cu–Li Alloy via High-Pressure Heat Treatment and Artificial Aging ……	328
149.	Fabrication of High-Strength Corrosion-Resistant Al–Cu–Li Alloys via High- Pressure Heat Treatment and Double Aging……	331
150.	Икки қўзғалмас марказли гравитация майдонида космик аппарат ҳаракатининг оптимал траекториялари…….	334
151.	Исследование теплозащитных свойств подкладочных материалов для утеплённой обуви металлургов…….	336
152.	ПЦ-4,3М мобил ёқилғи таъминоти тизими асосида жанговар бригадаларда логистик жараёнларни оптималлаштириш…….	338
153.	Harbiy logistikaning evolyusiyasi va zamonaviy konsepsiyalari……..	339
154.	Расчет и оптимизация конструкции металлокерамических фильтрующих элементов топливных фильтров……...	341
155.	Imitatsion minalarni zamonaviy shaxsiy tarkib tayyorgarligi talablarini o‘quv-taktik ssenariylarga integratsiya qilish metodikasi…….	343

156.	Imitatsion minalarni zamonaviy shaxsiy tarkib tayyorgarligi talablarini o‘quv-taktik ssenariylarga integratsiya qilishning kiberfizik va intellektual modellari……...	345
157.	Harbiy qism yoqilg‘i-moylash materiallari omboriga yoqilg‘i va texnik vositalarni qabul qilish, saqlash va ularni tarqatishni tashkillashtirish……..	347
158.	Экологические возможности, методы очистки ливневых вод……	349
159.	Pandemiya sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlashda milliy tajriba……	351
160.	Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ishlatilgan neft mahsulotlarini yig‘ish, saqlash va topshirish tartibini takomillashtirish masalalari……...	354
161.	Iqlim o‘zgarishi sharoitida Markaziy Osiyo davlatlarida suv tanqisligi muammolari va ularning yechimi……..	355
162.	Применение ресурсосберегающих технологий переработки алюминиевой стружки на промышленных предприятиях……...	358
163.	Применение аргонной продувки для улучшения качества хромомолибденовых сплавов: обоснование и расчет технологии плавки в ДСП……...	362
164.	Деформационные двойники……..	365
165.	Issiq holatda prokatlovchi stanlar vallarini yeyilishga bardoshliligini oshirish usullari…….	368
166.	Issiq holatda shtamplash orqali tishli g‘ildirak tishlarini shakllantirish jarayonini tadqiq qilish……..	370
167.	Kombinatsiyalangan TIG vaMMA usulida quvurlarni payvandlash orqali payvand shofini takomillashtirish……	371
168.	Ruxni quymakorlikda tejamkor usullardan foydalanib olish va metall isrofini kamaytirish texnologiyasi…….	373
169.	Traktor vtulkalarini ishlab chiqarishda issiq holda hajmiy shtamplash texnologik parametrlarini takomillashtirish……	375
170.	Рафинирование алюминиевых расплавов в тиглях методом пузырьковой флотации……	377
171.	Yeyilishga bardoshli qoplamalar tarkibi hamda ularni detal va tez kesar asboblarga qoplash texnologiyasining ilmiy asosi…….	378
172.	Detallar hamda kesuvchi asboblarga kompleks ishlov berish uchun optimal rejimlarni tanlash va tahlil qilish……...	380
173.	Elektr pechlarning neytral o‘tga chidamli materiallar tarkibi……	383

«QUYMAKORLIK VA METALLARGA ISHLOV BERISH SOHASIDA ENERGIYA VA RESURSLARNI TEJASHGA YO‘NALTIRILGAN INNOVATSIYALAR»

mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy va ilmiy-texnik anjuman

Международная научная и научно-техническая конференция

«ИННОВАЦИИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ЭКОНОМИЮ ЭНЕРГИИ И РЕСУРСОВ В ОБЛАСТИ ЛИТЬЯ И ОБРАБОТКИ МЕТАЛЛОВ»

International scientific and scientific-technical conference on

«INNOVATIONS AIMED AT ENERGY AND RESOURCE SAVINGS IN THE FIELD OF CASTING AND METAL PROCESSING»

Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2026

Muharrir:	**M.Hayitova**
Texnik muharrir:	**M.Tursunov**
Musavvir:	**Sh.Zoxidova**
Musahhih:	**S.Muratova**
Kompyuterda sahifalovchi:	**M.Maripova**

E-mail: innovatsiya.nashriyot@mail.ru. Tel.: +99897705-90-35
Nashr lits. № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 18.05.2026.
Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman» garniturasi.
Raqamli bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i: 42,5. Nashriyot bosma tabog‘i 42,0.
Tiraji: 50. Buyurtma № 101.

«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Istiqbol MFY,
Qora-Qamish 2/1 mavzesi, 22a-uy.